

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

Axmetova Almira Sadriddinxodjaevna,
Ismatullaeva Mavlyuda Zikrullaevna

XALQ XUNARMANCHILIGI

(o`quv qo`llanma)

Bilim soxasi:	100000-Ta`lim
Ta`lim sohasi:	140000-O`qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani.
Bakalavriyat yo`nalishi:	5140900-Kasb ta`limi (5142000-Mehnat ta`limi)

Toshkent 2014

Annotatsiya.

Mazkur o`quv qo`llanma “Xalq xunarmanchiligi” fanini o`qitish dasturiga asosan tuzilgan. Unda zardo`zlik, kashtado`zlik, milliy do`ppichilik zargarlik, gilamchilik va quroqchilik san`ati to`g`risida ma`lumotlar bilan bir qatorda ba`zi buyumlarni tayyorlash texnologiyasi yaratilgan. Ushbu o`quv qo`llanma “Xalq xunarmanchiligi” fanini o`rganayotgan Kasb ta`limi: 5140900 (Mehnat ta`limi: 5142000) bakalavr yo`nalishi talabalariga mo`ljallangan.

Аннотация.

Настоящее учебное пособие написано на основе плана предмета «Народное творчество». В этом учебном пособии изложены технологии золотошвейного производства, народной вышивки, национальных тюбетеек, ювелирного искусства; история ковроделия и техника «пэчворк».

Данное пособие предназначено для бакалавров «профессиональное образование: 5140900» (трудовое образование: 5142000)

THE SUMMARY

The present manual is written on the basis of the plan of a subject « National creativity ». In this manual technologies of gold-embroidery manufactures, a national embroidery, national skull-caps, jeweler arts are stated; history of carpet weaving and techniques «patchwork».

The given manual is intended for bachelors « vocational training: 5140900 » (labor education: 5142000)

Taqrizchi: Toshkent Davlat Aviatsiya instituti “Kasbiy pedagogika” kafedrasining professori pedagogika fanlari doktori P.T.Magzumov.

Nizomiy nomidagi TDPU dotsent vazifazini bajaruvchi pedagogika fanlari nomzodi K.M.Abdullaeva.

MUNDARIJA:

Kirish

I. chast`. Zardo`zlik.

- 1.1. Zardo`zlik tarixi
- 1.2. Zardo`zlik buyumlarini bichish texnologiyalari
- 1.3. Ramziy naqshlar va ularning tuzilishi
- 1.4. Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning yakuniy bosqichi .
- 1.5. Zardo`zi uy-ro`zg`or buyumlarini ishlab chiqishning xususiy texnologiyalari.
- 1.6. Zardo`zi kiyimlarni xususiy texnologiyalari.
- 1.7. Zardo`zlik mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini loyخالashtirish texnologiyasi
- 1.8. Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqish jarayonini tashkil etish texnologiyasi. Zardo`zning ish o`rni.
- 1.9. Zardo`zlik mahsulotini ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari.
- 1.10. Naqsh kompozitsiyalarini tuzish qonun qoidalari.
- 1.11. Zardo`zlikda naqsh kompozitsiyalarini joylashtirish usullari.
- 1.12. Zardo`zlik mahsulotlari uchun zardo`zi usullarini tanlash va ularni tikish texnologiyasi.
- 1.13. Zardo`zlik bezaklari

II. chast`. Kashtachilik.

- 2.1. Kashtachilik tarixi.
- 2.2. Kashtadagi naqsh.
- 2.3. Rang xakida.
- 2.4. Kashta tikish asboblari va moslamalari.
- 2.5. Gazlama va ip tanlash.
- 2.6. Kashta tikishga tayyorgarlik.
- 2.7. Bezakni gazlamaga kuchirish.
- 2.8. Kashtaduzning ish o`rni.
- 2.9. Kashta tikilgan buyumlarga ishlov berish.

- 2.10. Qo`l kashta chok turlari.
- 2.11. Aplikatsiya.
- 2.12. Ko`z-ko`z kashta (rishel`e).
- 2.13. Baxyasimon (o`tkazib tikiladigan) choklar.
- 2.14. O`zbek do`ppilari.

III. chast`. Zargarlik

- 3.1. Zargarlik tarixi.
- 3.2. Zargarlik buyumlari va ularning turlari.
- 3.3. Zargarlikda ishlatiladigan materiallar va aschast`lar.
- 3.4. Zargarlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi.
- 3.5. Zargarlik mahsulotlarining tasniflari va turlari.
- 3.6. Zargarlikda ishlatiladigan qimmatbaho metallar va toshlar.
- 3.7. Zargarlik toshlarining xossalari va turkumlanishi.
- 3.8. Zargarlik maqsulotlarini ishlab chiqarish turlari.
- 3.9. Zargarlik mahsulotlarining ba`zi detallarini tayyorlash texnologiyasi.
- 3.10. Qo`zg`aluvchan birikmalarni va ularning qulflarini tayyorlash.

IV. chast`. Gilamchilik.

- 4.1. Gilam tarixi.
- 4.2. Gilam to`qish san`ati.
- 4.3. O`rta Osiyo gilamlari.
- 4.4. Samarqand gilamlari xaqida qisqacha ma`lumot.
- 4.5. Gilam maxsulotlari turlari.
- 4.6. Bezak kompozitsiyasida, xushxat yozuvlar o`mi.
- 4.7. Naqshlar ramzi.

V. chast`. Quroqchilik.

- 5.1. Quroqchilik san`ati tarixi.
- 5.2. Quroq tikishga tayyorgarlik.
- 5.3. Gazlamalar xususiyatlari va ular bilan ishlash .
- 5.4. Naqsh gullari turlari.
- 5.5. Quroq tikish texnologiyasi.

5.6. Quroqchilik texnikasida tayyorlangan buyumlar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Оглавление:

Введение

I. Часть. Золотое шитье.

- 1.1. История золотого шитья
- 1.2. Технологии раскроя золотого шитья
- 1.3. Построение узоров и композиций
- 1.4. Окончательный этап производства золотошвейных изделий
- 1.5. Частная технология производства золотошвейных изделий, используемых в домашнем хозяйстве.
- 1.6. Частная технология изготовления золотошвейной одежды.
- 1.7. Технология проектирования процесса производства золотошвейных изделий
- 1.8. Технологическая организация процессов производства золотошвейных изделий. Организация рабочего места.
- 1.9. Основные стадии производства золотошвейных изделий.
- 1.10. Закономерности составления композиционных узоров.
- 1.11. Способы расположения узорных композиций в золотошвейном производстве.
- 1.12. Подбор методов изготовления золотошвейных изделий.
- 1.13. Украшения для золотошвейных изделий.

II. Часть. Вышивка

- 2.1. История вышивки.
- 2.2. Узоры вышивки.
- 2.3. О цвете.
- 2.4. Инструменты и приспособления.
- 2.5. Подбор ткани и ниток.
- 2.6. Подготовка к выполнению вышивки.
- 2.7. Перевод узора на ткань.
- 2.8. Рабочее место для выполнения вышивки
- 2.9. Обработка изделий с вышивкой

2.10. Виды ручной вышивки.

2.11. Аппликация

2.12. Ришелье.

2.13. Мережки.

2.14. Узбекские тюбетейки.

III. Часть. Ювелирное производство.

3.1. История ювелирного производства.

3.2. Ювелирные изделия.

3.3. Материалы и приспособления, используемые в ювелирном производстве.

3.4. Технология изготовления ювелирных изделий.

3.5. Виды ювелирных изделий.

3.6. Драгоценные металлы и камни, используемые в ювелирном производстве.

3.7. Свойства ювелирных камней и их классификация.

3.8. Способы производства ювелирных изделий.

3.9. Технология изготовления некоторых деталей ювелирных изделий.

3.10. Технология изготовления застёжек для подвижных соединений.

IV. Часть. Ковроделание.

4.1. История ковроделия.

4.2. Искусство ковроткачества.

4.3. Ковры Средней Азии.

4.4. Самаркандские ковры.

4.5. Виды ковровых изделий.

4.6. Роль прописей в художественной композиции.

4.7. О чём говорят узоры.

V. Часть. Лоскутная техника (пэчворк).

5.1. История лоскутной техники.

5.2. Подготовка к работе пэчворк.

5.3. Свойства тканей и работа с ними.

5.4. Разновидности узоров.

5.5. Технология пошива изделий из лоскутков

5.6. Виды изделий из лоскутков

Используемая Литература

Table of contents:

Introduction

I. A part. Gold sewing.

- 1.1. History of gold sewing.....
- 1.2. Technologies of the gold sewing cutting.....
- 1.3. Construction of patterns and compositions.....
- 1.4. A final production phase of gold-embroidery produce.....
- 1.5. The individual technology of gold-embroidery produce,
used in housekeeping.....
- 1.6. Individual technology of gold-embroidery clothes.....
- 1.7. The technology of projection of the process of manufacture of gold-
embroidery produce.....
- 1.8. The technological organization of the processes of manufacture of gold-
embroidery produce. The organization of a workplace.
- 1.9. The basic stages of the manufacture of gold-embroidery produce.
.....
- 1.10. Laws of drawing up of composite patterns.
- 1.11. Ways of an arrangement of the pattern compositions in gold-
embroidery manufacture.
- 1.12. Selection of the methods of manufacturing gold-embroidery produce.
- 1.13. Embellishments for a gold-embroidery produce.

II. The Part. An embroidery.....

- 2.1. History of an embroidery.
- 2.2. Patterns of an embroidery.
- 2.3. About color.
- 2.4. Tools and accessories.
- 2.5. Selection of a cloth and threads.
- 2.6. Preparation for performance of embroidery.
- 2.7. Transferring of a pattern into a cloth.
- 2.8. A workplace for performance of embroidery.....

- 2.9. Processing of produce with an embroidery.....
- 2.10. Kinds of manual embroidery.
- 2.11. Application.....
- 2.12. “Reshelye”.
- 2.13. “Merejkies”.
- 2.14. Uzbek skull-caps.

III. The Part. Jeweler manufacture.

- 3.1. History of jeweler manufacture.
- 3.2. Jewels.
- 3.3. Materials and the accessories used in jeweler manufacture.
- 3.4. Technology of manufacturing of the jewels.
- 3.5. Kinds of jewels.
- 3.6. Precious metals and the stones used in jeweler manufacture.
- 3.7. Properties of jeweler stones and their classification.
- 3.8. Ways of manufacture of jewels.
- 3.9. Manufacturing technology of some details of jewels.
- 3.10. Manufacturing technology of fasteners for moving connections.

IV. The Part. Carpet weaving.

- 4.1. History of carpet weaving.
- 4.2. Art of carpet weaving.
- 4.3. Carpets of Central Asia.
- 4.4. Samarkand carpets.
- 4.5. Kinds of carpet produce.
- 4.6. A role of writing in an art composition.
- 4.7. About what speak patterns?

V. A part. Scrappy techniques (patchwork).

- 5.1. History of scrappy techniques.
- 5.2. Preparation for work patchwork.
- 5.3. Properties of clothes and working with them.
- 5.4. Versions of patterns.

5.5. Technology of tailoring of products from scraps.

5.6. Kinds of products from scraps.....

Used literature.....

Soʻz boshi

Xalq xunarmandchiligining Oʻzbekiston respublikasi uzluksiz taʼlim tizimida tasviriy sanʼat va kasblarga tayyorgarligini milliy, tarixiy, etnografik va maxalliy asosga qoʻyilishga va qayta qurilishga zamin yaratadi. Bu muxim soxaning axamiyatini, uni takominlashtirish va rivojlantirish toʻgʻrisidagi Prezidentimiz I.A.Karimovning 1997 yil 31martdagi Xalq badiiy xunarmandchiliklari va amaliy sanʼati yanada rivojlantirishni davlat yoʻli bilan qoʻlab – quvvatlash chora tadbirlari toʻgʻrisidagi farmoni muxim axamiyatga molik voqea xisoblanadi. Ushbu farmonda shunday deyiladi: yoshlarni xalq sanʼti utalarining koʻnikmalariga oʻqitib oʻrganish uchun zarur shart – sharoitlarni vujudga keltirishda amaliy yordam koʻrsatish qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashining viloyatlar shaxar va tumanlar xokimliklarning Respublika Vazirlari va idoralarining eng muxim vazifasi deb xisoblanadi. Qarorga muvofiq har yili xalq xunarmandchiligi badiiy – amaliy bezak sanʼati ustalarining ijodini, ish faoliyatlarini yorituvchi koʻrik, koʻrgazmalarni respublikamizning barcha tuman, shaxar, viloyatida tashkil etish ajoyib anʼanaga aylanib qoladi. Bu anʼnaga muvofiq, mamlakatimiz boʻyicha oʻtkazilgan yakuniy koʻrik – koʻrgazmaga muvofiq, gʻolib chiqqan moxir ustozlar respublika Prezidentining qimmatbaxo sovgʻasi bilan taqdirlanadilar, xamda xalqaro koʻrik – tanlovlarda ishtirok etish uchun yoʻllanma oladilar. Bu xol esa milliy madaniyatimiz, merosimiz xisoblangan xalq xunarmandchiligi amaliy sanʼatini bevosita Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan yangidan umumdavlat miqyosida rivojlantirishga jiddiy eʼtibor berilayotganligiga yaqqol dalil boʻla oladi.

Xalq xunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy muxim turlaridan xisoblanadi va tasviriy xamda amaliy sanʼatining koʻpdan-koʻp soxalari bilan u ygʻunlashib ketadi. Ammo, tasviriy va amaliy sanʼat, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayonining xamda xalq xunarmandchiligining oʻziga xosligi, yoʻllarini, xusumatlarinibir biridan farqlanadi. Ajratish muximdir. shuning uchun biz moddiy maʼnaviyatning, madaniyatning ushbu soxalarining mavjud taʼriflarini keltirib, taqqoslab oʻtmoqchimiz.

Tasviriy sanʼat – sanʼat turi boʻlib, rassomlik, grafika, xaykaltaroshlik va foto sanʼati soxalarini oʻz ichiga oladi. Tasviriy sanʼat real borliqni koʻrgazmali obrazlarda, mavjud predmetlarni ularning tabiiy shakli, oʻrni boʻlishini oʻziga oʻxshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi.

Amaliy bezakchilik sanʼati – tasviriy sanʼatning eng qadimgi turlaridan biri, va materialga bezak texnikasiga qarab farqlanadi. Xalq turmush madaniyatini xarakterlaydi. Amaliy bezak sanʼati buyumlarining badiiyligi shu buyumlarining amaliy funktsiyasi bilan bogʻliq.

Xunarmandchilik – xunarmand, har xil oddiy mexnat qurollari yordamida xomashyodan turli maxsulotlar tayyorlanadigan ishlab chiqarish, shunday maxsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi.

Kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, xaykaltaroshlik, oʻymakorlik, toshtaroshlik, koʻnchilik, pichoqchilik, doʻppichilik va boshqalar ajrala borgan.

Demak yuqoridagi taʼriflardan koʻrinib turibdiki, xalq xunarmandchiligining mohiyati, mazmuni, tuzilishi xususiyati, oʻziga xosdir. Oʻzbek xalqining shakllanishi tarixi bilan uygʻunlashib ketgan xalq xunarmandchiligining oʻnlab turlari boʻlishiga qaramasdan, hozirgi zamon taʼlim tarbiya tizimida ulardan deyarli foydalanmasdan kelishi mavjud, mehnat va kasbga yoʻnaltirish taʼlim tizimining milliy, maxalliy, etnik, tarixiy xususiyatlardan ajralib qolishga sabab boʻlmoqda.

Respublikamizdagi xalq xunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termez, Urganch, Namangan, Andijon, Fargʻona, chust, shaxrisabzva boshqa markazlarning taʼlimiy – tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos boʻlib, oʻziga xosligi jihatdan bir – biridan ajralib turadi.

I. BOB ZARDO`ZLIK

K i r i s h

Xalq amaliy bezak san`ati tarixiy jismga badiy ishlov berish faoliyatidan boshlangan. Inson badiy-ijodiy tafakkuri mahsuli bo`lgan bu faoliyat tosh asrida paydo bo`lgan va uning yashasht uchun guzal muxit yaratishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, bu faoliyat inson qalbida komillikka va erkinlikka intilishni kuchaytirgan hamda unga cheksiz imkoniyatlar sohibi ekanligini anglatgan. O`z navbatida inson ongi va tafakkuri rivojlanib, ma`naviy ehtiyojlarini ortib borishi bilan mazkur san`atning mazmuni, turlari hamda badiiy fiida vositalari boyib, rivoj topib borgan.

Xalq amaliy bezak san`ati naqshlar asosida buyumlarga badiiy ishlov berishdan iboratdir. Naqshlar jismga turli yo`llar va vositalar yordamida tushirilgan: chizib, o`yib, zarb bilan, qadab, qo`l choklari yordamida, to`qib, gul bosib. Naqshlarni buyumga tushirish usullarining boyib borishi xalq amaliy bezak san`ati hamda xalq xunarmandchiligi turlarining paydo bo`lshiga olib kelgan: naqqoshlik, yog`och o`ymakorligi, zargarlik, ganchkorlik, kashtachilik, Zardo`zlik, gilamchilik va hokazo.

Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan o`zbek xalq amaliy bezak san`ati bugungi kunda umuminsoniyat madaniyatida muxim o`rin egallaydi. O`zbek xalq amaliy san`ati namunalari jahonga mashhur bo`lib, dunyoning turli shaxarlaridagi san`at va etnografiya muzeylaridan o`rin olgan. Ayniqsa, mustaqillikdan so`ng mazkur san`at asarlari xalqimiz nomini butun dunyoga tantishda katta rol o`ynamokda. shubxasiz, bu jabhada yoshlarimizning o`rni beqiyosdir. Yoshlarimizning badiy san`at va hunarmandchilik turlarini ilmiy asosda va amaliy jihatdan puxta o`zlashtirdagina bu muxim vazifani muvofaqiyatli uddalay oladilar.

Endilikda hunarmandchilik turlarining kasb-hunar kollejlari dars jadvalidan texnologik fan sifatida urin olayotganligi huddi shu maqsadni ko`zlaydi.

Zardo`zlik-xalq Amaliy san`at va xalq xunarmandchiligining juda qadimiy turlaridan bo`lib, zar iplar bilan qo`l choklari yordamida gul tikish kasbidir. «Zardo`zlik» so`zi forscha «zartilla», «do`zi»-tikmok, ya`ni zar iplar bilan gul, kashta tikmok degan ma`noni anglatadi. Zardo`zlik hunar sifatida Zardo`zlik usullari va ularni qo`llash amaliyotlarini o`z ichiga oladi. «texnologiya» so`zi «texnoz»-san`at, mahorat, hunar, «logos»-fan so`zlarining birikmalaridan iborat bo`lib, «hunar fani» degan ma`noni bildiradi.

Shunday qilib, «Zardo`zlik texnologiyasi» fani Zardo`zlik hunari haqidagi fan bo`lib, Zardo`zlik usullari va ularni qo`llash amaliyotlari, bu amaliyotlarni amalga oshirish bosqichlari, ularni amalga oshirish uchun zarur bo`ladigan vositalar hamda shart-sharoitlar to`g`risidagi bilimlarni o`z chiiga oladi. U quyidagi bo`limlardan iborat.

-Zardo`zlik tarixi haqida qisqacha ma`lumot;

-Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi va uning bosqichlari;

-Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning tayyorgarlik bosqichi;-Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy bosqichi;-Zardo`zlik

mahsulotlari ishlab chiqishning yakuniy bosqichi;
Zardo'zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning xususiy texnologiyalar»

1.1 Zardo`zlik tarixi

Zardo`zlikning vatani qadimgi Yunoniston bo`lib, bu erda zodogonlar zar, ipak va jun ip qo`shib to`qilgan kashtali naqshlar tushirilgan kiyimlar kiyishgan. Keyinchalik Rim ipmeriyasi tomonidan bosib olingan qadimgi Misr hamda Bobilda ham zardo`zlik rivojlana boshlaydi. Qadimgi Bobil (Vavilon) o`zining kashtali qimmatbaho matolari bilan dunyoga mashhur bo`lgan.

Keiynroq zardo`zlik qadimgi Bobil bilan yaqin aloqada bo`lgan Eron podSholigi saroyida ham rivojlana boshlaydi. Eron shohlari hamda asilzodalarning kiyimlari ham oltin iplar bilan tikilgan bezaklar va qimmatbaho toshlar bilan naqshlana boshlagan.

Asilzodalar hayotida muhim o`rin egallay boshlagan zardo`zlik Eron orqali asta-sekin Afg`oniston, Hindiston, Xitoy va ularga qo`shni bo`lgan O`rta osiyo mamlakatlariga tarqala boshlaydi. Har bir mamlakatda u o`z xos tarzda shakllandi va taraqqiy etdi.

XIX va XX asr boshlarida kashtachilik san`atining bir turi bo`lgan zardo`zlik Buxoroning o`ziga xos xususiyatini aks ettirgan qimmatbaho matodan tayyorlangan zardo`zi kiyimlar katta ahamiyatni kasb etgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidigilarning ehtiyoji uchun tikilgandir.

Ota-bobosidan meros bo`lgan kashtachilik kasbi bilan shug`ullangan yuzlab qo`li gul ustalar Buxoro amirining hashamatli saroyidagi zardo`zi kiyimlarni tayyorlash bilan band edilar.

Buxoro zardo`zi ashyolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilgan, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi. U paytda zardan tikilgan erkaklar kiyimlarini faqatgina xonga va uning qon-qarindoshlariga tegishli insonlar kiyar edilar. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ushbu qimmatbaho kiyimlarni o`ziga buyurtirishga haqqi yo`q edi. Ular bu kiyimlarni amir sovg`a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo`st kiyimlarni esa faqatgina badavlat xonadon a`zolari kiyishga haqli edilar. XIX va XX asr boshlarida, ya`ni 1785 yildan to 1920 yilgacha Buxoroda xukumronlik qilgan mang`itlarning oxirgi sulolasiga taaluqli bo`lgan zardo`zi kiyimlari hozirgi kunda yodgorlik bo`lib qolgan.

Samarqand, Marg`ilon. Qo`qon, Andijon, Buxoro va Toshkent o`lkaning xunarmandchilik markazlari hisoblangan. shahar xunarmandlari paxta yigirsh uchun charx, qo`lbola to`quv dastgohlari yaratishgan. O`sha davrlarda Buxoro zardo`zligida ishlatilgan Buxoro barquti-baxmali joydor, Qarshi olchasi ana shunday dastgohlarda to`qilgan.

1930 yillarda zardo`zlik markazi bo`lgan Buxoroda barcha mashhur zardo`zlarini yig`ib, tikuvchilik artellari qoshida zardo`zlik tsexlarini tashkil etishdi. Zardo`zlar orasida usto Xalim, N.Majidov, N.Sultonov, U.Xayotov, G`.G`aybullaev, N.Xamidov, M.Xamidov, X.Xayotov S.Sayfullaev va boshqalar bor edi. Keyinchalik erkak zardo`zlar safiga xotin-qizlar jumladan, Z.Rahmatova, Z.YAxyoeva, M.Samadova, M.Komolova, X.Xamidova, M.G`iyosovalar kelib qo`shildi. 1960 yilda zardo`zlik tsexlari birlashtirilib, Buxoro zardo`zlik fabrikasiga aylantirildi. Bu fabrika O`rta Osiyo hududida yagona bo`lib, qadimiy zardo`zligimizni asrab qolish va riojlantirishda muhim rol o`ynaydi.

Mustaqillika erishgan kunimizdan boshlab davlatimizning butun siyosati o`zligimizni qayta tiklash va mustahkamlashga qaratildi. Ayniqsa, mamlakatimiz ertasi bo`lgan yoshlarimizda bunday muqaddas his-tuyg`uni shakllantirishda ona tilimiz, ana`analarimiz va urf-odatlarimiz bilan birga milliy xunarmandchiligimiz ham muhim o`rin tutadi.

1997-yil 31 martda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni e`lon qilindi. Farmonga asosan Respublika «Xunarmand» uyushmasi tashkil etildi va uning viloyatlarda hududiy bo`linmalari ochildi. Bu uyushma va uning hududiy bo`linmalarini tashkil etishdan maqsad, uzoq yillar mobaynida unutilib ketgan xalq amaliy san`ti va xunarmandchiligini tiklash, o`zbek milliy amaliy san`ati va xunarmandchiligini butun dunyoga tanitish edi.

Ushbu farmon xalq xunarmandchiligining yanada kengayishiga va rivojlanishiga olib keldi. Respublika «Xunarmand» uyushmasi ushbu imtiyozdan foydalanib, nafaqat yurtimizda, balki ko`pgina xorijiy mamlakatlarda ham xalq amaliy san`ati bo`yicha konferentsiyalar, badiiy va savdo ko`rgazmalari tashkil etdi. Bunday tadbirlar jahon ommasiga xalqimiz madaniyatini tanitishda katta rol o`ynadi.

1.2 Zardo`zlik buyumlarini bichish texnologiyalari

Zardo`zlik buyumlarini bichish-xammavaqt ma`lum texnologiya asosida buyumning andozasini tayyorlashdan boshlangan. Zardo`zlik buyumlarini bichish texnologiyasi ularning turmushda bajaradigan vazifasiga ko`ra farq qilgan. Uy-ro`zg`or buyumlarini bichish texnologiyasi ularning turmushda bajaradigan vazifasiga ko`ra farq qilgan. Uy-ro`zg`or buyumlarini bichish oddiy va juda soddaligi bilan ajralib turgan. Insonga ust-bosh sifatida xizmat qiladigan zardo`zi buyumlar, ya`ni zardo`zi kostyum ua uning qo`shimchalarini bichish texnologiyalari birmuncha murakkab bo`lib, turlicha uslublarni o`z chiga oladi. Demak, zardo`zlik buyumlarini bichish texnologiyasini ularning turmushda bajaradigan vazifasiga ko`ra ikki turga ajratish mumkin:

1. Uy-ro`zg`or buyumlarini bichish texnologiyasi.
2. Zardo`zi kostyum va uning qo`shimcha qismlarini bichish texnologiyasi.

Ma`lumki, zardo`zlik buyumlari bichimi o`z xususiyatiga ko`ra abra va astdan iborat bo`lgan. Abra buyumning yuza ya`ni ko`rinadigan qismi, astar esa buyumning ichkari ko`rinmaydigan qismidir. Abra va astar buyumda bajaradigan vazifasiga qarab ko`rinishi turlicha bo`lgan. Abra uchun yuqori sifatli, ko`rkam qimmatbaho materiallar tanlansa, astar uchun oddiy, lekin chidamli, rangi chiqarmaydigan materiallar tanlangan. Zardo`zi buyumlar uchun astar juda zarur, chunki abrani zardo`zi bezaklar bilan bezaganimizda uning teskari tomonida tikish izlari, elim izlari ko`zga tashlanadi. Ular zardo`zi buyumlardan foydalanganimizda biz uchun noqulayliklar tug`dirishi mumkin. shuning uchun barcha turdagi zardo`zi buyumlarga astar tikiladi. Abra bilan astarni bichishda ularning tuzilishida farq bo`lmasa-da, o`lchamlarida bir oz farq bo`ladi.

Insonga ust-bosh sifatida xizmat qiladigan zardo`zi buyumlar, ya`ni zardo`zi kostyum va uning qo`shimchalari haqida umumiy ma`lumot

«Kostyum» tushunchasi insoniyat bilan birga tarixan shakllangan tushuncha bo`lib, kostyum va uni tayyorlash texnologiyasi tarixi insoniyat madaniyatining ajralmas qismini tashkil etadi. Kostyum-insonning individual obrazi ijtimoiy mavqeining, u yashagan davr bilan badiiy uslub vositasida moddiylashtirilgan ifodasi, kiynish tarzidir. Muayyan davr uchun mansub bo`lgan kostyumning tuzalishini o`sha davrning badiiy uslubi belgilab beradi. Badiiy uslub jamiyat madaniyatiga xos bo`lgan xarakterli belgilar, obrazli badiiy ijodining tarixan tarkib topgan qonun-qoidalar asosida shakllanib, shu davrning badiiy tili, badiiy tavsifi hisoblanadi. Tikuvchilik dizaynerlari va model`erlari ham o`zlarining yangi modadagi kiyim na`munalarini ana shu uslubga moslab ishlab chiqishadilar.

Muayyan jamiyatga xos yuq`olgan o`sha davrning texnik, ilmiy va madaniy o`zgarishlari katta ta`sir etadi. Kiyimlar modasi o`zgaruvchan mikrouslub bo`lib, ana shu o`zgarishlarni tezlik bilan o`zida aks ettiradi va odamlar orasida xukumdorlik qiladi. Davrning badiiy uslubi hamda modalar tarixini yaxshi bilish uchun o`sha davr kostyumlari tuzilishini tahlil qila olish imkonini beradi.

Kostyum muayyan obrazli badiiy tizim bo`lib, u quyidagi qismlardan iborat:

Kiyim-odamning materialdan iborat qobiq tizimi bo`lib, uni turli tashqi ta`sirlardan asraydi hamda odamning o`ziga xos xususiyatlarini namoyon etishiga xizmat qiladi.

Bosh kiyim-boshni tashqi muhitdan asraydigan, odamga va kostyumga estetik ko`rinish beradigan bosh qobig`i.

Oyoq kiyimi-oyoqni tashqi muhit ta`sirlaridan asrab, yurish uchun qulaylik tug`diradigan estetik ko`rinishga ega bo`lgan oyoq qobig`i.

Qo`shimchalar-kiyimga tugal ko`rinish beradigan elementlar: taqinchoq bezaklar, qo`lqop, sharf, sumka, xamyon, soyabon, paypoq, ko`zoynak va h.k.

Zardo`zi bezaklar bilan bezatilgan kostyum «zardo`zi kostyum» deb ataladi. Zardo`zi kostyum ham ana shunday tarkibiy qismlardan iborat bo`lib, ular o`ziga xos atamalarga ega.

1. Erkaklar, o`g`il bolalar zardo`zi kostyum va uning tarkibiy qismlari:

Zardo`zi kiyimlar-jomai zardo`zi mardona (zardo`zi chopon), kaltachai zardo`zi mardona (zardo`zi kaltacha), paltupi zardo`zi mardona (zardo`zi palto), kurtan zardo`zi mardona (zardo`zi ko`ylak), napjomai zardo`zi (zardo`zi ishton).

Zardo`zi bosh kiyimlari-kulxoi zardo`zi (zardo`zi kulox), kallapo`chi zardo`zi (zardo`zi do`ppi), sallai zardo`zi (zardo`zi salla), telpaki zardo`zi mardona (zardo`zi telpak).

Zardo`zi oyoq kiyimlari-kavish zardo`zi (zardo`zi kalish), taxsi zardo`zi (zardo`zi maxsi), to`zi zardo`zi (zardo`zi etik).

Qo`shimchalar-miyobandi zardo`zi (zardo`zi belbog`), kamarbandi zardo`zi mardona (zardo`zi qaysh), rumolchai zardo`zi (zardo`zi dastro`molcha), poytovai zardo`zi (zardo`zi poytava).

2. Ayollar va qizlar zardo`zi kostyum va uning tarkibiy qismlari.

Zardo`zi kiyimlar-kaltachai zardo`zi (zardo`zi kaltacha), kamzili zardo`zi (zardo`zi kamzil), ichigi zardo`zi (zardo`zi nimcha), kurtai zardo`zi (zardo`zi ko`ylak), paichai zardo`zi (zardo`zi lozim).

Zardo`zi bosh kiyimlari-kultapo`chaki zardo`zi (zardo`zi po`chak),

kallapochai zardo`zi (zardo`zi kallapo`ch), peshonabandi zardo`zi (zardo`zi peshonaband), teplpaki zardo`zi (zardo`zi telpak), ro`moli zardo`zi (zardo`zi ro`mol).

Zardo`zi oyoq kiyimlari-kovushi zardo`zi (zardo`zi kalish), popo`shi zardo`zi (zardo`zi tufli), maxsi zardo`zi (zardo`zi maxsi).

Qo`shimchalar-kamarbandi zardo`zi (zardo`zi tasma), ro`molchai zardo`zi (zardo`zi dastro`molcha).


Kostyum o`z taraqqiyoti jarayonida insoniyat tarixidi juda ko`plab vazifalarni bajardi va unga katta xizmat ko`rsatdi. Bu vazifalarni ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

- insonni atrof-muhitning salbiy ta`sirlaridan asragan;
- uning amaliy faoliyati va dam olish uchun qulay shart-sharoit yaratgan;
- jamiyatdagi tabaqalanish holatini aks ettirib, insonlarning ijtimoiy mavqeini ko`rsatib to`rgan;
- insonlarning diniy hamda turmush marosimlarida o`ziga hos ritual bo`lib xizmat qilgan;
- ularning estetik g`oyalarinin amalga oshirish uchun qulay vosita bo`lib xizmat qilgan;
- tarixdan kelajakka axborot tashishi vazifasini bajargan.

Zardo`zi oyoq kiyimlarini bichish usullari

Zardo`zi oyoq kiyimlarini bichish texnologiyalari ham oyoq kiyimlarini tayyorlash texnologiyalariga asoslangan. Bu texnologiyalar oyoq kiyimlarining vazifalaridan kelib chiqqan holda shakllangan. Ana shu vazifalar ularnin tuzilishini belgilab bergan. Milliy oyoq kiyimlarini tuzilishiga ko`ra uch turga bo`lish mumkin.

1. O`kchalai oyoq kiyimlari.
2. Qo`njli oyoq kiyimlari.
3. Dastaksiz oyoq kiyimlari.




1-rasm. Zardo`zi oyoq kiyimlarini bichish usullari

Zardo`zi bosh kiyimlarini bichish usullari

Zardo`zi bosh kiyimlarini bichish texnologiyalari ham o`zbek milliy bosh kiyimlarini bichishning an`anaviy usullariga asoslanadi. Bu usullar bosh kiyimlarning vazifalari hamda tuzulishi asosida shakllangan. Milliy bosh kiyimlarni tuzilishiga ko`ra to`rt turga bo`lish mumkin:

1. Cho`qqinamo bosh kiyimlari.
2. Tepasi tekis bosh kiyimlari.

3. Buklangan materiallardan tayyorlangan bosh kiyimlari.
To'rtburchakli yoki uchburchakli materiallardan tayyorlangan bosh kiyimlari.
(2-rasm)



2-rasm. Zardo'zi bosh kiyimlarini bichish usullari

Zardo'zi kiyimlarni bichish usullari.

Zardo'zi kiyimlarni bichish texnologiyasi o'ziga xos bichish usuliga ega bo'lib, bu usul o'zbek milliy kiyimlarining asrlar mobaynida shakllanib kelgan an'anaviy bichish texnologiyasiga asoslangan. O'zbek milliy kiyimlarini bichish ham uning ayrim elementlari andozalarini tayyorlashdan boshlangan. Bu elementlarni milliy kiyim taraqqiyotida tutgan o'rni va rolga qarab ikkiga bo'lish mumkin:

1. Milliy kiyim an'anaviy bichimining turg'unligini belgilaydigan yirik va o'zgarmas elementlari-bo'y, eng va yon.

2. Milliy kiyim an'anaviy bichimining turli xil maxalliy nusxalarini hosil qiluvchi mayda va o'zgaruvchan elementlari-yoqa, ko'krakburma, cho'ntak, raf va boshqalar.

Zardo'zi kiyim tarkibidagi kiyimlarning kompozitsion tuzilishi ham na shu ikki xil elementlarning birligidan iborat.


O'zbek milliy kiyimining yirik qismlari va ularning kompozitsion tuzilishiga ko'ra an'anaviy bichish usullarining uchta turi ajratiladi.

1. Bichimni to'g'ri chiziq bo'yicha ikki qismga bo'lish. O'zbek milliy kiyimlarini bichishning bunday ana'anaviy usuli «Sharqiy osiyocha bichish usuli» deyiladi.

2. Bichimni to'g'ri chiziq bo'yicha uch qismga bo'lish-bo'y yon va eng. O'zbek milliy kiyimlarini bichishning bu an'anaviy usuli «g'arbiy osiyocha bichish usuli» deyiladi.

3. Bichimni ko'p qisimli murakkab shaklga bo'lish. Bu usul o'zbek milliy kiyimlarini bichishning oldingi ikkita an'anaviy usullarini evropacha bichish usullari bilan chog'ishtirish natijeasida shakllanadi. shuning uchun o'zbek milliy

kiyimlarini bichishning bu uslui «evropacha tipdagi bichish usuli» deb ataladi. (3-rasm)



3-rasm. Zardo`zi kiyimlarni bichish usullari.

1.3 Ramziy naqshlar va ularning tuzilishi

Ramziy naqshlar-naqshlarda yashiringan ramziylikni ifodalaydi. «ramz» arabCha so`z bo`lib, «ishora qilmoq» degan ma`noni anglatadi. Ramziy naqshlarda tabiat va hayotdagi quvonch va tashvishlar, yaxshilik va yomonliklar, do`st va dushmanlik kabi falsafiy kategoriyalar jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlanadi. Naqshlardagi ramziy belgilar ijodkorga o`z ijodi orqali boshqalarga nimanidir aytish, nimanidir ishora qilish imkonini bergan. shu boisdan ramziy naqshlarni «naqsh tili alifbosi» deb atash mumkin.

O`zbek milliy naqsh tili alifbosi.

1. Islimi naqsh elementlarining ramziy ma`nolari:

Bodom-baxt-iqbol.

Barg-bahoriy uyg`onish.

Novda-boylik va farovonlik.

Jingala (tantalak)-to`kin-sochinlik.

Gul-go`zallik.

Lola-yorqinlik, yorug`li.

Olma-muhabbat.
 Anor-ezgulik, to`qchilik.
 Zirk guli (gulsafsar)-soyishtalik va umrboqiylik.
 Qalampir-yomonlik va yomon ko`zdan asrash.
 2. Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma`nolari.
 Teng tomonli to`rtburchak-tik turgan holati-hayotning boshlanishi, teskari turgan holati-hayotning oxiri.
 Teng yonli uchburchak-Yaxlit bo`lingan bo`lak ayriliq.
 Kvadrat-dunyoning to`rt tomoni, osmon saroyi, quyosh farzandi, abadiylik, yorug`lik. mustahkamlik.
 To`g`ri to`rtburchak-ishonch.
 Romb-ayol, yor ramzi. serfarzandlik.
 Aylana-olam, baxt quyosh, odamlarni yovuzlikdan qaytarish.
 Besh qirrali yulduz-hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo.
 Yarim qirrali yulduz-hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo.
 Yarim aylana-baxt.
 Quyosh-hayot.
 Bulut. olov-g`oliblik.
 3. Qush va hayvonlarning ramziy ma`nolari:
 Sher-mardlik, adolat va kuchlilik.
 Xumo-baxt qushi.
 Oqqush-mehr-muhabbat.
 Tovus-ranglar jilosi, go`zallik.
 Bulbul-sadoqat.
 Oq kabutar-tinchlik.
 O`rdak-to`kin-sochinlik.
 Baliq-mashhurlik.
 Qo`chqor shohi-jasurlik, mardlik, polklik.

1.4 Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning yakuniy bosqichi.

Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning yakuniy bosqichi yarim tayyor mahsulotlarni pardoqlash va tayyor holga keltirish texnologiyalarini o`z ichiga oladi. Bu jarayonlar ham mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasida o`ziga xos o`ringa ega bo`lib, mahsulotning sifat darajalariga katta ta`sir etadi. Aynan an shu mahsulot ishlab chiqarish nihoyasiga etadi.

Yarim tayyor mahsulotlarni pardoqlash texnologiyasi

Ma`lumki, zardo`zlik buyumlari ularni tikishning alohidaligidan kelib chiqqan holda abra va astardan iborat bo`ladi. Bunda buyum uchun mo`ljallangan jamiki bezak naqshlar abraning ustiga tikiladi. Abraning teskari tomonida esa naqshlar tikiladigan choklarni hosil qilgan oddiy iplar joylashadi. Asosiy bosqichdagi ishlar, ya`ni naqshlarni joylashtirish ularni tikish va bezatish tugagach, yarim tayyor mahsulot yuzaga keladi. Demak, yarim tayyor mahsulot-bu buyumning zardo`zi naqshlar bilan tikilgan abra qismidir.

Yarim tayyor zardo`zlik mahsulotlarini pardoqlash jarayonini ikki bosqichga ajratish mumkin:

Abraning yuza qismini pardozlash.

Abraning teskari tomonini pardozlash.

Abraning yuza tomonini pardozlash:

1. Abraning yuza qismida naqshlar tikish ishlari tugagach, butun yuzani koʻzdan kechirish, tikish va bezatish jarayonida yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni tuzatish.

2. Tikish jarayonida abraning yuza qismida hosil boʻlgan chang va boshqalarni toza kiyim choʻtkasida ehtiyotkorlik bilan tozalash.

Abraning teskari tomonini pardozlash:

1. Abraning teskari tomonidagi oddiy iplarni, yaʼni zar iplarni mustahkamlab turgan pechak iplarni koʻzdan kechirish, ulardagi kamchiliklarni tuzatish, uzunligicha qolib ketgan iplarni 2-3 sm. qoldirib kesib tashlash.

2. Zar iplarni mustahkamlab turgan oddiy iplarni elimlash. Zardoʻzlar bunda pochta aloqa boʻlimlarida foydalaniladigan elimdan ishlatiladi va uni «Shires» deb atashadi. Elimlashdan ilgari iplar koʻzdan kechirilib, elim tayyorlanadi va choʻtka bilan surtiladi. Elim surtayotganda ehtiyot boʻlish kerak, elimni haddan tashqari koʻp surkash yuza tomonida elimning paydo boʻlishi va zardoʻzi naqshlar sifatining boʻzilishga olib keladi.

Elim yaxshi qotgach, abra boʻzdan kesish yoʻli bilan ajratib olinadi.

Yarim tayyor zardoʻzlik mahsulotlarini tayyor holga keltirish (shinoni) texnologiyasi

Zardoʻzlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ularni tayyor holga keltirish (Shinoni) texnologiyasi ham muhim oʻrin tutadi. Zardoʻzlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi boʻyumlarni boʻlaklarga, yaʼni andozalarga ajratib amalga oshirilgan ekan, jarayon oxirida, albatta, ularni birlashtirish zarur boʻladi. Ana shu zaruriyat tufayli shinoni, yaʼni zardoʻzlik buyumlarining boʻlaklarini birlashtirish, buyumlarni bir butun qilib qurish texnologiyasi shakllangan. «Shinoni» forscha soʻz boʻlib, «qurish, birlashtirish» degan maʼnolarni anglatadi. Zardoʻzlik buyumlari boʻlaklarni birlashtirish jarayoni birmuncha murakkab boʻlib, ishni hammayam uddalay olmagan. shuning uchun zardoʻzlar oʻzlari tikkan boʻyum boʻlaklarni tayyor holga keltirishni-shinoni ishlarni puxta oʻzlashtirgan hunarmandlarga berishgan. Bunday hunarmandlarni «Shinonchi» deb atashgan. shinonchilar, asosan, zardoʻzi kostyum va uning qoʻshimchalarini tayyor holga keltirishgan. Uy-roʻzgʻor buyumlarining shinoni texnologiyasi birmuncha soddaligi tufayli zardoʻzlarning oʻzlari ularni birlashtirishgan. Shinoni texnologiyasida faqat mashina choklaridan, ayrim hollarda qoʻl choklaridan foydalaniladi. Yarim tayyor zardoʻzi mahsulotining shinoni texnologiyasi ham ikkiga boʻlinadi:

1. Uy-roʻzgʻor buyumlarning shinoni texnologichsi.

2. Zardoʻzi kostyum va qoʻshimchalarining shinoni texnologiyasi.

Zardoʻzi uy-roʻzgʻor buyumlarning shinoni texnologiyasi

Zardoʻzlik buyumlarini birlashtirish texnologiyasi ularning bajaradigan vazifasi va tuzilishiga bogʻliq holda shakllangan. Jumladan, uy-roʻzgʻor buyumlarining shinoni texnologiyasi ham ularning vazifasiga hamda tuzilishiga bogʻliq boʻlib, bu texnologiyani toʻrt qismga ajratish mumkin:

1. Ichiga biror buyum solishga mo'ljallangan, faqat abra va astardan iborat bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlarini birlashtirish texnologichsi. Bunda buyumning uch tomoni tikilib, bir tomoni ochiq qoldiriladi:

2. Narsalarga g'iloq yoki qopqoq bo'lib xizmat qiladigan, tuzilishi abra va ular orasida qo'shimcha qism-karton yoki paxta joylanadigan uy-ro'zg'or buyumlari.

3. Faqat abradan iborat bo'lgan, ichiga paxta yoki pat solinadigan zardo'zi buyumlarning shinoni texnologiyasi. Bu texnologiya asosan abra birlashtirilib, uning ichiga paxta yoki pat solish uchun o'zgina joy qoldiriladi. Ular joylanib bo'lingach, o'sha joy qo'l chokidabilintirmasdan tikiladi.

4. Abra va astardan iborat bo'lgan keng hajmli zardo'zi buyumlarning shinoni texnologiyasi. Bunda abra bilan astar bir-biriga ulanadi, xolos.

Hamma uy-ro'zg'or buyumlarining atrofiga zardo'zi jiyak qilish mumkin.

Zardo'zi kostyum va qo'shimchalarning shinoni texnologiyasi

Zardo'zi kostyum va qo'shimchalarning shinoni texnologiyasi ancha murakkab bo'lib, bu texnologiya ham zardo'zi kostyum va uning qo'shimchalari tuzilishiga bog'liq. Zardo'zi buyumlarning tuzilishini esa avvalo ular bajaradigan vazifalar, shu bilan birga zardo'zi texnologiyasining o'ziga xosligi ham belgilab beradi. Demak, buyum bichimida elementalar qancha ko'p bo'lsa, ularni birlashtirish jarayonida shuncha ko'p amallar bajariladi.

I. Qo'shimchalar shinoni texnologiyasi.

1. Abraga astar ulash.

II. Zardo'zi bosh kiyimlar shinoni texnologiyasi.

1. Abra bo'laklarni birlashtiradi.

2. Astar bo'laklari birlashtiradi.

3. Yoqa ulanadi.

4. Eng quriladi.

5. Abra bilan astar birlashtiriladi.

1.5 Zardo'zi uy-ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqishning xususiy texnologiyalari

Zardo'zi mahsulotlari ishlab chiqishning xususiy texnologiyalarini zardo'zlik buyumlarining turmushda bajaradigan vazifalari tuzilishiga ko'ra ikki qismga ajratish mumkin.

1. Zardo'zi uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarishning xususiy texnologiyalari.

2. Zardo'zi kostyum va uning qo'shimchalari ishlab chiqarishning xususiy texnologiyalari.

Zardo'zi uy-ro'zg'or buyumlarining xususiy texnologiyalar ham ularning inson turmushidagi ahamiyatiga ko'ra shakllangan. Inson turmushida ancha muhim ahamiyatga ega bo'lgan, foydalanilayotganda tezda ko'zga tashlanib turadigan uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlashning xususiy texnologiyalari bir muncha murakkab, aksincha kundalik turmushda tez-tez ishlatib turiladigan buyumlarining xususiy texnologiyalari esa soddaligi bilan ajralib turadi. Muhr, choy, pul solinadigan

zardo`zi xaltalar ana shunday buyumlar sarasiga kiradi. Bunday buyumlarning bichimi to`g`ri chiziqdan iborat bo`lib, ular bir xil rangdagi silliq barqutdan bichilgan. Bunda abra 2 bo`lak, astar 2 bo`lak qilib bichiladi. Abrani bichayotganda gazlamaning tuklari yo`nalishiga e`tibor berish kerak. Buni gazlamani tovlanishiga qarab yoki qo`l bilan siypab bilish mumkin.

Bunday buyumlar kichik shaklli andozalardan iborat bo`lganligi uchun chambarakning xoxlagan bo`sh joyiga joylashtirilib tikilavergan. Ularni joylashtirayotganda mustahkamlanadigan naqshning tuzilishiga e`tibor berish kerak. Naqshlarni teskari joylashtirib tikish ular sifatining buzilishiga olib keladi.

Ular zardo`zi usullarida tikilgan naqshlar bilan bezatilgan. Muhr, pul va boshqa narsalar solinadigan bunday xaltachalar islimi ko`rinishdagi butoqcha, bodomcha nusxa kashtlar bilan bezatilgan. Pul solinadigan xaltachalarning har ikkala tomoniga, qolgan barcha buyumlarning esa faqat bir tomoniga zardo`zi naqshlar tushirilgan. Ularda yakka naqshlar nuqtasimon joylashtirilgan. Ularni joylashtirishda quyidagicha rajja olingan.

Zardo`zi xaltachalar zardo`zi usullarda tikib va bezatib bo`lingcha, teskari tomoni elimlanib, bo`zdan kesib olingan. Ularning shinoni texnologiyasi, ya`ni birlashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Abraning teskaridan uch tomoni birlashtiriladi.
2. Astarining teskarisidan ikki tomoni birlashtiriladi.
3. Abra o`ngiga o`grilib, astar ichiga kiritiladi va ularning tepa qismi birlashtiriladi.
4. Astar ochiq qoldirilgan qismidan tortib olinadi va tikilmagan joyi tikiladi.
5. Astar abra ichiga kiritilib, ularning birlashgan joyi 0,5 sm. masofada mashina chokida laganda qilinadi.
6. Xaltachaning ichiga solinadigan buyum tushib ketmasligi uchun unga kamarcha o`tkaziladi. Kamarcha rangli ipak iplardan tayyorlangan.

Xozirda bunday buyumlar uy-ro`zg`orda ishlatilmasada, esdalik sifatida foydalaniladi.

Bichimi ma`lum shaklga ega bo`lgan kichik xajmli uy-ro`zg`or buyumlarining xususiy texnologiyalari

Bichimlari va birlashtirish texnologiyalari murakkab, lekin naqsh kompozitsiyalari oddiy bo`lgan zardo`zi buyumlarga shona xaltai zardo`zi, g`ilofi zardo`zi, choynakpo`shaki zardo`zi, bodabezgi zardo`zi, tumorchai zardo`zi, bolinchai zardo`zilar kiradi. Bu buyumlarni, ayniqsa birmuncha murakkab bo`lgan bichish hamda birlashtirish usullariga asosan ikki guruhga bo`lib o`rganish mumkin.


1. Narsalarga g`ilof yoki qopqoq bo`lib xizmat qiladigan, tuzilshi abra, astar va ular orasida qo`shimcha qism-karton yoki qavat paxta joylashadigan uy-ro`zg`or buyumlari: shona xaltai zardo`zi, g`ilofi zardo`zi, choynakpo`shaki zardo`zi, bodabezgi zardo`zi.

2. Faqat abradan iborat bo`lgan, ichiga karton, paxta yoki pat solinadigan zardo`zi uy-ro`zg`or buyumlari: tumorchai zardo`zi, so`zanmonaki zardo`zi, takyachai zardo`zi, bolinchai zardo`zi, lo`lai zardo`zi.

Narsalarga g'ilof yoki qopqoq bo'lib xizmat qiladigan, tuzilishi abra, astar va ular orasida qo'shimcha qism-karton yoki qavat paxta joylashadigan yoki qavat paxta joylashadigan zardo'zi uy-ro'zg'or buyumlarinig xususiy texnologiyalari. Bu turga kiradigan buyumlar yashil, ko'k va qizil baxmaldan tikilgan. Ular ikki bo'lak matodan bichilgan. Bichish jarayonida gazlama tukining yo'nalishiga e'tibor berish zarur.

G'ilofi zardo'zi


Zardo'zi g'ilof pichoq, qaychi, qo'zoynak va boshqa buyumlar uchun tikiladi. Ularga g'ilof tikishdan maqsad, ularni asrash uchun yoki bunday buyumlarni sovqa sifatida taqdim etishdir. Zardo'zi g'iloflarning tuzilishi va o'lchamlari g'ilof mo'ljallangan buyumning o'lchamlariga mos bo'lishi kerak (ko'zoynka g'ilofi bichimi). (4-rasm)



4-rasm. Zardo'zi g'ilof (ko'zoynak uchun) bichimi.

Choynakpo'shaki zardo'zi


Zardo'zi choynakqopqoq bugungi kunda ham uy-ro'zg'orda ishlatiladi. Uning tuzilishi har xil bo'lishi mumkin, lekin o'lchamlari o'zi mo'ljallab tikilayotgan choynakning o'lchamlariga mos bo'lishi darkor. choynakqopqoq choynak ustiga yopiladigan va uning tagiga qo'yiladigan qismlardan iborat.



5-rasm. Zardo'zi choynakpo'shak bichimi.

Bodbezagi zardo'zi

Zardo'zi elpig'ich ham uy-ro'zg'orda ishlatiladi yoki undan sovg'a sifatida foydalaniladi. Zardo'zi elpig'ichning tuzilishi va o'lchamlari turlicha bo'lishi mumkin, lekin foydalanishda qulay bo'lishi lozim. Elpig'ich bichimi abra va astardan iborat bo'ladi.



6-rasm. Zardo'zi bodbezak bichimi


Bunday buyumlarning andozalari hajmi kichik bo'lganligi tufayli ularni chambarakning bo'y o'rinlariga joylashtirilib tikish mumkin. Bunda andozaning tuzilishiga va naqshlarining joylashtirilishiga e'tiborni qaratish kerak.

Bunday buyumlarda naqshlarni joylashtirishning ikki xil usuli qo'llaniladi.

Yakka naqshlarni nuqtasimon joylashtirish.

Kompozitsion naqshlarni nuqtasimon joylashtirish.

Yakka naqshlarini nuqtasimon joylashtirish usulidan foydalanganda ularning tuzilishiga mos oba chiziqlari tikiladi. Bunda naqshlar quyidagicha rajja asosida joylashtiriladi.



7-rasm. Bichimi ma`lum shaklga ega bo`lgan kichik xajmli zarduzi uy ro`zg`or buyumlariga naqshlarni joylashtirish uchun rajja olish.

Kompozitsion naqshlarni nuqtasimon joylashtirish usuli ishlatilganda esa bunday chiziqlar bo`lmaydi. Bunday buyumlarning naqshlari guldo`zi hamda zamindo`zi usullarida tikiladi. Qanday tikish va bezatish usullarini tanlash tanlangan naqsh kompozitsiyasining tuzilishiga bog`liq bo`ladi. Ular tikib bo`lingach, teskari tomoni elimlanadi va bo`zdan kesib olinadi.

Bu turga kiradigan buyumlarni birlashtirish texnologiyalari.

Bu tur uy-ro`zg`or buyumlarining andozalarini ma`lum shakolga ega bo`lganligi va andoza bo`lakning ko`pligi tufayli ularni birlashtirish texnologiyalari birmuncha murakkab.

G`ilofi zardo`zi qismlarini birlashtirish texnologiyasi.

1. Abra andozasining qismlari teskarisidan birlashtiriladi, so`ng o`ngiga o`ngariladi.
2. Astar bo`laklari teskarisidan birlashtiriladi, faqat pastki tomoni ochiq qoldiriladi.
3. So`ng abra astar ichiga kiritiladi va tepa qismidan birlashtiriladi.
4. Abra ichiga mos qilib qirqilgan karton joylashtiriladi.
5. Keyin astar ochiq qoldirilgan qismidan tepaga tortib olinadi va ochiq qoldirilgan qism tikiladi.
6. Astar abra ichiga kiritilib, ular ulangan joy karton bilan birga qo`shib 0,5 sm. masofada mashina chokida laganda qilib chiqiladi.

Choynakpo`shaki zardo`zi qismlarini birlashtirish texnologiyasi.

1. Abra bo`laklari teskarisidan uch tomoni birlashtiriladi va o`ngiga o`ngariladi.
2. Astar bo`laklari teskarisidan ikki tomoni birlashtiriladi.

3. So`ng pbra astar ichiga kiritilib birlashtiriladi.
4. Endi ular orasiga qavatlangan paxta joylashtiriladi va astarning ochiq qoldirilgan joym tikiladi.
5. choynakpo`shak o`ngiga o`ngarilib, uning uchlariga po`paklari ulanadi. Ular rangli ipak va simdan tayyorlanadi.
6. choynakning tagiga qo`yiladigan qismi abrasi bilan astari o`ng tomondan ustma-ust joylashtirilib tikiladi, o`aqat bir oz joyi ochiq qoldiriladi.
7. So`ng tikilmasdan qoldirilgan joydan o`ngiga o`giriladi, tikilmagan o`mi qo`l chokida birlashtirilmasdan tikiladi. Ustidan aylantirilib mashina chokida laganda qilinadi.

Bodbezagi zardo`zi qismlarini birlashtirish texnologiyasi.

1. Abra va astar o`ng tomoni bilan ustma-ust qo`yib birlashtiriladi, bir qismi ochiq qoldiriladi.
2. Ochiq qoldirilgan joydan elpig`ich o`ngiga o`ngiriladi va ochiq joy qo`l chokida tikiladi.
3. Elpig`ich atrofiga abra tomonidan jiyak quriladi.
4. Elpig`ichning astar tomoni o`rtasiga dastak joylashtirilib, ikkala bo`lagi ustma-ust qo`yilib, qo`l chokida tikib birlashtiriladi.

Zardo`zi bosh kiyimlari ishlab chiqarish xususiy texnologiyasi.

Zardo`zi bosh kiyimlar ishlab chiqishning xususiy texnologiyalari tuzilish jihatdan ancha murakkab jarayonlardan iborat. Asrlar davomida zardo`zi bosh kiyimlarning tuzilishi shu bilan birga ularni ishlab chiqarishning texnologiyalari ham o`zgarib kelgan. Ular zardo`zi kostyum tarkibidan kiyimlar bilan bir hil rangdagi barqitlarga tikilgan. Ularning bichimi abra bilan astardan iborat.

1. Kuloxi zardo`zi-zardo`zi kulox. Qadimda erkaklar zardo`zi choponlari odatda zardo`zi kulox ustidan o`ralgan zardo`zi salla bilan kiyilgan. Kulox cho`qqinamo bosh kiyimi bo`lib, chopon rangidagi barqutdan tikilgan. kulox 3-4 bo`lak matodan bichilgan.

2. Kultapo`shaki zardo`zi-zardo`zi kultapo`shak. Qadimda ayollar 40-46 yoshidan boshlab kultapo`shak kiyishgan. Boy-badavlat oila vakillari bo`lgan xotin-qizlar esa zardo`zi kultapo`shak kiyishgan. Kultapo`shak boshga yopishib turadigan baland yumshoq gardishdan va dumdan iborat bo`lgan. Dum to`rtburchakli material bo`lagidan tikilgan ikki tomoni ochiq xaltacha ko`rinishida bo`lib, uning ichidan soch o`rami o`tqazilgan.



3. Kallapo`shi zardo`zi-Kallapo`shi zarduzi-zardo`zi kallpo`sh. Qadimda erkaklar kuloh, ayollar esa kultapo`shak kiyishgan bo`lsa, XIX asr oxiri-XX asr boshlarda ular kallapo`sh kiyadigan bo`lishgan. Zardo`zi kallapo`shini yoki kattaroq erkaklar va o`smirlar kiyishgan.

Bu cho`qqinamo bosh kiyimi ayollar bosh kiyimidan tagining ancha baland ko`tarilib turishi bilan farq qilgan. Zardo`zi kallapo`shilarning bir necha turlari mavjud bo`lgan. Qadimgi kallapo`shilar cho`qqinamo bo`lib, uni «do`ppi kavushno» deb atashgan. XIX asrning 90-yillarida paydo bo`lgan, usti yassi va

gardishi baland kallapo`shilar «do`ppi taqsimigiy» deb atalgan.

Do`ppi kavushnokning girdiga shoyi jiyak aylantirib tikilgan bo`lsa, do`ppi taqsimigiylarga esa bunday jiyak tikilmagan. Bo` kallapo`shilar peshonabandlar bilan kiylgan.

Erkaklar kallapo`shilari ham, ayollar kallapo`shilari ham sidirg`a rang barqutga tikilgan. Ular bichimi tepa va gird qismlaridan iborat bo`lgan. Gird uzunligini o`lchash uchun bosh aylanasi oddiy pechak ip bilan o`lchangan. chiqqan uzunlikka 3 sm. qo`shilgan: ip uzunligi-2+1. Gird uzunligidan tepa aylanasi uzunligi aniqlangan. (8-rasm)



Do`ppi tepasi o`lchamlari:

53-54 razmer uchun

Abra=361sm² Astar=441sm²

55-56 razmer uchun


Abra=380,25sm²

Astar=462,25sm²

57-58 razmer uchun

Abra=408sm² Astar=515sm²

Gird o`lchami bosh aylanasi o`lchami-2+1



8-rasm. Zardo`zi do`ppi bichimlari . 1) To`rtburchak do`ppi tepasi. 2) Aylana do`ppi tepasi. 3) Do`ppi girdi bichimi.

To`rtburchakli zardo`zi kallapo`shilarning shinoni texnologiyasi

1. Kallapo`shining abrasi olinadi. Abar guliga moslab karton qiriyiladi. Keyin karton bilan astar qiya chiziq bo`yicha tikilib, laganda qilinadi.

Pilta o`raladi. Bunda xitoy qog`ozi bo`laklarga bo`linib, uzun simga o`raladi va laganda ichiga navbati bilan joylashitiriladi, xitoy qog`ozi laganda ichida qoldirilib, sim tortib olinadi.

2. Kallapo`shining abrasi va astari bir-biriga qiya chiziqlari kesishgan nuqtada ulanadi.

3. Kallapo`shining girdini tayyorlash. Kallapo`shining jiyagi zamindo`zi

usulida tikilganligi yoki jiyagi alohida qurilishiga qarab ularni tayyorlash farq qilgan.

Jiyagi alohida quriladigan kallapo`sh girdini tayyorlash: Qora velyur materialdan 3 sm.li jiyak qirqib olinadi. Bu jiyak abra bilan astar o`rtasiga quriladi. Jiyakning 2 sm.i abra tomonga, 1 sm.i astar tomonga o`tishi kerak. Girdning abra bilan astar o`rtasiga qo`yiladigan kartonning uzunligi jiyak bilan naqsh eni uzunligiga teng bo`lishi kerak. Karton qirqib olingach, abra bilan astar o`rtasiga qo`yiladi va mashina chokida tikiladi.

Jiyagi zamindo`zi usulida tikilgan kallapo`sh girdini qurish:

Bu usulda girdning abrasi bilan astari abraning jiyak tugagan joyidan ulanadi. Ular o`rtasiga karton qo`yib, mashina chokida tikiladi.

4. Kallapo`shning tepa va girdini ulash. Bunda tepa va girdning abrasi o`ngiga ustma-ust qo`yilib, mashina chokida tikiladi. Astarlari esa girdning astari tepa astari ustiga qo`yilib, qo`l chokida tikiladi.

5. Kallapo`sh o`ngiga o`giriladi. Gird va tepa ulangan chiziq ustidan tofta ip tikiladi. Bu qurishdagi kamchiliklarni yo`qotishga xizmat qiladi.

6. Girdning ikki boshi birlashgan chiziqning tepa qismiga po`pak ulanadi. Po`pak ulangan chiziqning kamchiliklarini yashirishga va chiroyiga chiroy qo`shishga xizmat qiladi. Agar atrofiga shabalar (noziklar) ulash kerak bo`lsa, gird va tepa ulanganidan ilgari tepa qismi atrofiga shabalar (noziklar) ipga o`tqazilib, tiikib chiqiladi va ustidan gird ulanadi.

Aylana kallapo`shlarni qurish texnologiyasi

1. Kallapo`shining tepa qismi bo`lib, uning guli obasiga mos karton qirqiladi. Astar esa abrasi bilan mos qirqilgan bo`ladi. Aylana kartondan gulning tikilmay qolgan kesimiga mos bo`lgan bo`lak qirqib tashlanadi.

2. Abra astarning o`rtasiga o`sha karton qo`yilib, uning kesimidan ortiqcha bo`laklari astar tomonga chiqarilib, kesim mashina chokida birlashtiriladi. Qiya chiziqlar kesishgan nuqtadan ham tikib qo`yiladi. Tepa tayyor.

3. Agar kallapo`shining atrofiga hozirgi zamonaviy usulda shabalar (noziklar) o`rnatish mo`ljallangan bo`lsa, ular mustahkam ipga o`tqazilib, tepa guli oba chiziqlari atrofiga belgilangan nuqtalarga tikib chiqiladi.

4. Aylana kallapo`shlarning hammasida jiyak zamindo`zi usulida bo`ladi. shuning uchun abra bilan astar jiyak tugagan chiziqdan ulanadi. (Agar unga jiyak qurish kerak bo`lsa, xuddi to`rtbo`rchak kallapo`shlardek quriladi.) so`ng karton jiyak va naqsh eni uzunligiga olinib, qirqiladi.

Qirqib tayyorlangan karton abra bilan astar o`rtasiga qo`yilib, ikki chiziq ustidan mashina chokida tikiladi.

5. Girdning abrasi bilan tepaning abrasi mashina chokida oba chiziqlari bo`yicha birlashtirib chiqiladi. So`ng girdning ikkala uchi ulanadi. Girdning astari tepaning astari ustiga qo`yilib, qo`l chokida tikiladi.

6. Kallapo`sh o`ngiga o`ngiriladi. Uning tepasi va girdi ulangan chiziq ustidan qalinroq tofta ip tikiladi. Sababi, mashina chokining iplari ko`rinib qolmasligi kerak.

7. Kallapo`shining ichi elimlanib, o`ziga mos qolipga kiydiriladi. Elim sifatida jelatin suvga ivitilib ishlatiladi. Qolipga kiydirilgan kallapo`sh qurilishi


tekis chiqadi. Qoliplar temirdan yasalgan bo`lib, kallapo`shning tuzilishi va o`lchamlariga mos qilib tayyorlangan bo`ladi.

8. Aylana kallapo`shalarda shabalar (noziklar) o`rnatilmagan bo`lsa, igrdning ikki boshi birlashtirilgan chiziq tepasida po`paklar quriladi. Ular oddiy simlardan tayyorlanadi. Ularning uzunligi hammavaqt mijozning didiga bog`liq bo`ladi. Po`paklar ham birlashtirishdagi kamchiliklarni yo`qotishga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan uning chiroyiga ko`rk qo`shadi.

1.6 Zardo`zi kiyimlarni xususiy texnologiyalari.


Zardo`zi kiyimlarni ishlab chiqarishning xususiy texnologiyalari zardo`zi kostyumning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda murakkabligi bilan ajralib turadi. chunki zardo`zi kiyimlarning yuza xajmi keng bo`lib, zardo`zi kostyum fonida tez ko`zga tashlanadi va butun fonni egallab turadi. Zardo`zi kiyimlarni ishlab chiqarishning xususiy texnologiyalarini erkaklar va ayollar zardo`zi kiyimlarini ishlab chiqarishning xususiy texnologiyalariga jratib o`rganish mumkin.

Ichikchaili zardo`zi-zardo`zi nimcha. Ichikchailar kamzullarning bo`y va engini qisqartirish paydo bo`lgan. Ilgari ularga yoqa qurilgan. Ichikchailar asosan qora barqutdan tikilgan va ko`ylak ustidan kiyilgan. Zardo`zi ichikchai ham ikki bichimli bo`lib, hozirda engsiz va yoqasiz bichiladi. Uning uzunligi belgacha, ayrim hollarda undan ham uzunroq olingan. (9-rasm)



9-rasm. Zardo`zi nimcha bichimi.

Zardo`zi ichikchailarda naqshlar to`tri chiziqlar bo`yicha joylashtirilgan. Naqsh kompozitsiyalari hoshiya naqshlar ko`rinishida bo`lib, bir yoki ikkala tomonidan ensiz obi pochalar tikiladi. Bunda quyidagicha rajja olingan. Zardo`zi ishlari guldo`zi, zamin do`zi usullarida bajariladi. (10-rasm)



10-rasm. Zardo`zi nimcha lozimga naqshlarni joylashtirish uchun rajja olish.

Zamindo`zi ichikchailarda ham boshqa kiyimlardagidek, andozalarning ulangan chok chiziqlari ustidan ham naqsh kompozitsiyalari uzilmasdan tikilishi lozim. Ulardagi uzilishlar zardo`zi sifatining buzilishiga olib keladi.

Xuddi shu maqsadda zardo`zlar katta xajmli kiyimlarni, jumladan, zardo`zi ichikchai qismlarni chambarakka joylashtirish usullarini ishlab chiqqanlar. Zardo`zi ichikchai qismlarni chambarakka joylashtirib tikish bosqichlari.

Ichikchai qismlari kichik bo`lgani uchun chambarak ustiga yaxlit o`rnatiladi.

Bunda abra qismlari elka chizig`idan birlashtirilgan holda bo`ladi.

1. 2 ta old qismi va orqa andoza o`rnatiladi.
2. Etak qismdagi kesimlar ulanib, joylashtiriladi va ustidan naqshlar tikiladi. chambarakda bo`sh joylar ko`p qolgan bo`lsa, boshqa bo`yumlar joylashtirib tikiladi.


Naqsh kompozitsiyalari tikib bo`lingach, yarim tayyor mahsulot pardozlanadi va chambarakdan kesib olinadi.

Zardo`zi ichikchai qismlarini birlashtirish:


1. Ichikchai abrasi qismlari elka chizig`idan birlashtiriladi.
2. Astar bo`laklari yuqoridagi usullarda birlashtiriladi.
3. Ichikchai abrasi yon tomonlardan birlashtiriladi.
4. Abraning old qismlariga paravez ulanadi.
5. Abra bilan astar etak tomonidan birlashtiriladi.
6. Abra bilan astar elkalari eng tomonidan birlashtiriladi.
7. Eng tomondan xam abra bilan astar qismlari birlashtiriladi.
8. Abra bilan astar ulangan chok chiziqlari yonidan mashina chokida laganda qilinadi.


Jomai zardo`zi mardona-erkaklar zardo`zi choponi

Erkaklar zardo`zi choponi. Erkaklar zardo`zi choponi zardo`zi kostyum tarkibida muhim urin tutadi. Erkaklar zardo`zi choponlari boshqa zardo`zi kiyimlar ichida butun yuzasini zardo`zi naqshlar qoplab turganligi bilan ajalarib turadi. shuning uchun uning bichimi asosan ikki qismdan iborat bo`lgan.



11-rasm. Erkaklar zardo`zi choponi bichimi.





12-rasm. O`g`il bolalar zardo`zi choponi bichimi.(5 yoshli bolalar uchun)

Zardo`zi choponlar ularda qo`llanilgan naqsh kompozitsiyalari va ularni joylashtirish usullariga ko`ra uch turga bo`linadi:

1. Jomai davqur-davqur choponlari;
2. Jomai butadori-butadori choponlari;
3. Jomaidirham-dirham choponlari.

1. Jomai davqur («davri qur» so`zining buzib aytilishi) choponlari juda eng qo`llanilgan. Bunday choponlarning eng uchlari, barlari va quyi qismlari qur hoshiyasi bilan aylantirib chiqilgan, chopon elkasida turunj naqshi tushirilgan. Ularda naqsh kompozitsiyalari to`g`ri chiziqlar bo`yicha joylashtirilgan. Hoshiya naqshlarining eni 23-25 sm. gacha bo`lib, bir yoki ikki tomonidan oba chiziqlari bilan aylantirib chiqilgan. Faqat bir tomondan oblansa, bunday jiyak «qo`ripesh yala» deb atalgan. Hoshiya naqsh kompozitsiyalari va turunj kompozitsiyalari mos bo`lishi talab qilinsa-da, bunga hammavaqt amal qilinmagan. Katta yoshdagi erkaklar va o`til bolalar choponlarda asosan davqur kompozitsiyalaridan foydalanilgan. Naqshlar quyidagi rajja asosida joylashgan.

2. Jomai butadori-butadori choponlari. Yuza bo`ylab bir tekisda har tomonga yoyilib turgan bir dasta gul aks ettirilgan choponlardagi kompozitsiyalari «buta» deyilib, unda turli ismli naqsh nusxalari ifodalangan.

Butadori choponlari uch turga bo`lingan:

1. Jomai butadori tavqnok. Bu choponlarda ularning butun yuzasi buta naqshi bilan tuldirilib, faqat elkasida tavq (arabcha «halqa») deb atalgan gardish bo`lgan.

2. Jomai butadori chilyo`lak yoki jomai silyo`lak. Ularning butun yuzasi bir tekisda «chilyo`lak» deb atalgan halqachalar bilan to`ldirilgan.

Z.Jomai butadori daraxt. Bunda butalar daraxtlardan o'sib chiqayotgandek tasvirlangan bo'lib, daraxtlar bir xil oraliqlarda tasvirlanadi va butun yuzasini qoplab turadi.

Butadori kompozitsiyalarida naqsh kompozitsiyalari yo'l yo'lsimon yoki to'rsimon joylashtiriladi.

3. **Jomai dirham**-dirham choponlari. Dirham choponlari ham ulardagi naqsh kompozitsiyalarining tuzilishiga qarab ikki tur ga bo'linadi:

a. Dirham (to'kima) turdagi choponlar. Bunday choponlarning old va orqa yuzasining butun qismi gul naqshlari bilan to'ldirilib chiqilgan. Ulardagi naqsh kompozitsiyalari to'rsimon joylashtirilgan bo'lib, ular turli-tuman islimi va geometriknaqsh nushalaridan tuzilgan.

b. Dirhami daraxt turdagi choponlar. Bunday choponlar da daraxt islimi gul uzun bo'lib, unga gul va yaproklar ulangan. Ular yo'l-yo'lsimon joylashtirilgan.

Oddiy kompozitsiyalardan iborat bo'lgan choponlarni 4 kishi bir oyda tikkan bo'lsa, dirham turidagi choponlarni 12 kishi 3 oyda tikishgan. Naqshlar guldo'zi, zamindoz usullarida tikilgan.

1.7 Zardo'zlik maxsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini loyihalashtirish texnologiyasi

Zardo'zlik mahsulotlarini loyihalashtirishning maqsadi

Yangicha bezatilgan yoki yangicha tipdagi zardo'zlik buyumlarini loyihalashtirishdan maqsad, odamlarning ana shunday buyumlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdir. Deyarli har bir odamda o'zini go'zal buyumlar bilan o'rab olish ehtiyoji mavjud bo'ladi va bu ehtiyoj doimo o'zgarib turadi. shuning uchun har bir buyumning qimmati ikki asosni-foyda va go'zallikni qamrab oladi. Masalan, zardo'zlik uy-ro'zg'or buyumlari hamda kiyim-bosh odamlar uchun foydalidir. Binobarin, ularda tikilgan zardo'zi bezaklar bu buyumlarga estetik qimmat ham beradi. Aynan zardo'zlik buyumlari odamlarning ham foydali, ham go'zal buyumlar yaratishga bo'lgan intilishlari natijasida paydo bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Har bir buyumda amaliy va estetik asos mavjud ekan, ular hamisha ham barobar muhim bo'lmaydi, balki tarixan almashib turadi. Misol uchun, zardo'zlik buyumlari inson tomonidan foydalanilganda, ularning amaliy qimmati birinchi o'rinda turadi, ular muzey uchun eksponat sifatida ishlatilganda es ulardagi estetik qimmat asosiy o'ringa chiqadi. Barcha buyumlarda, jumladan zardo'zlik buyumlarida ham ana shu ikki asosni oqilona birlashtirish mumkin bo'lib, bu ularni loyihalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Zardo'zi buyumlar uy-ro'zg'or buyumlari hamda kiyim-bosh sifatida amaliy qimmatga ega ekan, ularda ham estetik qimmat hosil qilish lozim. Ana shu muhim vazifadan kelib chiqqan holda zardo'zlik buyumlarini loyihalashtirish jarayonida rassom-dizayner boshchilik qiladi, ya'ni yangi nusxadagi zardo'zlik buyum loyihalarini yaratadi va bu loyihani amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'radi.

Dizayn-(«dizayn»-inglizcha «rasm chizish»)ning maqsadi go'zal shakllar, narsalar dunyosini yaratishdan iborat. Ma'lumki, iste'mol buyumlari san'at asari vazifasini, san'at asarlari esa aslo iste'mol buyumlari vazifasini bajara olmaydi.

shuning uchun iste'mol buyumlarini chiroyli va qulay qilib yaratish maqsadida XIX asrning oxiri-XX asrning boshlarida dizayn paydo bo'ldi. yaxshi dizaynning maqsadi-mavjud narsani almashtirish emas, balki uni bezatish, bezaklar bilan boyitishdir. Dizayn asosan bozor ehtiyojlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Dizayn loyihalashtirishning asl maqsadi ham yangi buyumning xaridor tomonidan ma'qul deb topilishidir. shuning uchun dizayner yangi loyiha ustida ishlar ekan, yangi model g'oyasi tug'ilgan vaqtdan boshlab bozor talabini oldindan bilish lozim.

Zardo'zlik maxsulotlarini loyixalash tiplari.

Dizayn tarixidan buyumlarini loyixalashtirishning ikki asosiy tipi mavjud:

1. Klassik loyixalash
2. Modern loyixalash.

1. Klassik loyihalashtirish

Klassik loyihalashtirishda buyum jiddiy ravishda o'zgartirilmasdan, uning ko'rinishi qandaydir darajada takomillashtiradi, xolos. Bunday loyixalashtirishga asos qilib, uning prototipi, ya'ni uning oldingi avlodlari olinadi va ana shu prototip (lotincha «proto»-«ajdod») negizida loyixalashtiradi. Bu loyixalash jarayonida zardo'zlik buyumlaridagi gul nusxalari tuzilishi va joylashtirish tartibini o'zgartirishda, albatta, zardo'zlik naqsh kompozitsiyalari tuzish va ularni joylashtirishning klassik usullariga amal qilinadi.

2. Modern loyihalashtirish

Modern (inglizcha-«Yangi, yangicha») loyixalashtirishda buyum butunlay yangicha loyihalanadi. Bunday loyihalashtirishdan maqsad, buyumni zamonaviy qiyofaga kiritishdir. Davrning hamda davr bilan birga odamlar didi va ehtiyojlarining o'zgarib borishi ana shunday loyihalashtirishni talab etadi.


Modern loyihalashtirishda zardo'zi buyumlaridagi naqsh kompozitsiyalaridagina emas, balki ularning bichimlarida, bezaklarning tuzilish va tikilishida ham butunlay yangicha uslub va ko'rinishlar tanlanadi. Bunday loyihalashtirishda fan-texnika yutuqlari yoki boshqa sohalaridagi o'zgarishlar katta ta'sir etadi.

Zardo'zlik buyumlarini loyihalashtirish asoslari

Zardo'zlik buyumlarini loyihalashtirish asoslari kompozitsiya qonuniyatlariga asoslanadi. Kompozitsiya ijodning boshqa sohalariga ham ta'luqli bo'lib, dizayndagi kompozitsiya ham o'z uslubiyati hamda terminologiyasiga ega. U avvalo, loyihalashtirilayotgan asarning zarur sifatlariga yoki dizaynerlik xususiyatlariga tayanadi. Bu sifat va xususiyatlar buyumlarini idrok etish qonuniyatlariga asoslanadi va kompozitsiya kategoriyalari deb ataladi. Biz ulardan eng asosiylarini: shaklning uzviyligi va yachchxlitligi, mutanosiblik va marom, ko'lamlilik, xajmlilik, rang va ranglar uyg'unligini ko'rib o'tamiz. Bu kategoriyalarning har birini aniq maqsad sifatida qarab, bu maqsadga qanday vositalar yordamida erishish mumkinligini bilib olish zarur.

Tashqi shaklning uzviyligi va yaxlitligi

Buyum shaklining uzviyligi va yaxlitligi kompozitsiyaning asosiy umumlashtiruvchi kategoriyasi hisoblanadi. «Uzviylik»ni yaratgan kompozitsiya shu qadar yaxlitki, uni tashkil etuvchi qismlar tabiiy ravishda shu yaxlit shaklga kiradi, degan ma'noda tushunish kerak, ya'ni u barcha qismlari bilan yaxlit va uyg'unidir. Unga hech narsani qo'shish, undan hech narsani olib tashlash mumkin emas. (12-rasm)



12-rasm **Tashqi shaklning uzviyligi va yaxlitligi**


Kompozitsion yaxlitlikni saqlash uchun ba'zan elementlarni guruhlashga, ayrim qismlarni guruhlarga birlashtirishga harakat qilinadi. Bu usul nazariy jihatdan idrok qilish jarayoniga asoslanadi. Odatda, idrok qilish jarayoni ikki asosiy bosqichga bo'linadi: analiz qiladi va sintez. Qadam buyumni avval o'rganadi, analiz qiladi, so'ng umumlashtiradi, sintezlaydi. Qismlarni sintezlash, ularni qandaydir yaxlit bir ko'rinishga joylashtirib chiqish kishiga estetik zavq bag'ishlaydi.

Kompozitsiya qismlarning o'zaro bo'ysunishi simmetriya bilan bog'liqdir. Simmetriya o'qi yoki simmetriya yuzasi hamisha kompozitsion jihatdan qismlarni birlashtirib turadi. shu sababli, bo'laklar guruhi mutla-o simmetrik bo'lsa, u butunga nisbatan mustaqil bo'lib qoladi. O'zaro bo'ysunishni rang, ton va fakturani tatbiq etish yo'li bilan quvvatlash hamda kuchaytirish mumkin.

Mutanosiblik va marom

Mutanosiblik-butunning barcha qismlari va elementlarini muayyaan bir mutanosib qatorga kelitirsh, uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Mutanosiblik simmetriya o'qi bilan bog'liqdir. Simmetriya o'qi (v) yoki simmetriya yuzasi (v) hamisha kompozitsion jihatdan tarkibiy elementlarni birlashtirib turadi. shu sababli, agar qismlar guruhi mutlaqo simmetrik bo'lsa, u butunga nisbatan avtonom bo'lib qoladi. Ayrim simmetrik guruhlardan tashkil topgan buyum sirtidan qaraganda qismlarga bo'linib ketayonganday bo'ladi. Zardo'zi buyumlarda, shuningdek, ichki simmetriklik juda muhimdir. Ana shu xususiyat tufayli naqshlarni ma'lum qonuniyat asosida buyum andozasi yuzasiga garmonik

joylashtirish imkoni paydo bo`ladi va bu o`ziga xos uyg`unlikni, go`zallikni paydo qiladi.



13-rasm. Mutanosiblik va marom


Naqsh kompozitsiyalaridagi uyg`unlikda marom (ritm) ham o`ziga xos o`rin tutadi. Bu kompozitsiyalarda vertikkallar va gorizontallar hukmron bo`lib, ular yo`nalishlarining tegishli maromini hosil qiladi. Aynan shu marom ularga asos qilib olingan bo`ladi. Marom-elementlarining birmuncha qismini ichki qonuniyatiga ega bo`lgan navbatlashtirishdan iboratdir. Zardo`zi buyumlarda marom ko`proq naqsh kompozitsiyalari va ularni joylashtirish usullarida ko`zga tashlanadi.

Nisbatlar

Har bir buyum aniq yoki garmonik nisbatga egadir. Nisbat-buyumning yoki ob`ektning aniqligini tashkil etib, ular ma`lum darajada uning xarakterini ham ifodalaydi. Aniq nisbatlar buyumning o`lchov va real hajmi bilan bog`liq. Zardo`zi kiyimlar ham iste`molchining o`lchamlari asosida tikiladi. Ular mana shu o`lchamlar yordamida ma`lum bir hajmga ega bo`ladi. Biz buyumlarni ko`zdan

kechirayotgan patda ularning eni, balandligi, diametri kabi o`lchovlar va ular bilan bog`liq hajmni idrok etamiz, ana shu parametrlar asosida ularni boshqa buyumlar bilan taqqoslaymiz.


Har bir buyum tashqi nisbatlar bilan birga o`z ichki nisbatlari bilan ham xarakterlanadi. Masalan, zardo`zi buyumlarda tashqi nisbat hisoblangan bichim nisbatlari, ichki nisbatlar, ya`ni naqsh kompozitsiyalari nisbatlarini belgilab beradi. O`z navbatida, u kompozitsiyaning butun nisbati uning qismlari nisbatlarini, ya`ni o`lchamlarini aniqlaydi. Bu nisbatlar mosligi, uyg`unligi bo`yumning garmonik go`zalligini ta`minlaydi.



14-rasm Nisbatlar

Xajmli-fazoviy tuzilish


Xajmi-fazoviy tuzilish xossasiga ega bo`lish har qanday shaklning xususiyatidir. Bu shaklning qanday «Yasalganligi» buyumning qiyofasiga hal qiluvchi ta`sir etishi mumkin. Shu sababli biz ayni yul xil xajmli-fazoviy strukturani saqlar ekanmiz, bu tashqi formani xali yana o`zgartirish, uning variantlarini yaratish uchun ko`p imkoniyatlarga ega bo`lamiz. Masalan, zardo`zi choynakqopqoq o`z bichimi orqali turlicha tashqi ko`rinishlarga ega bo`lishi mumkin, bosh va oyoq kiyimlarining ham turlicha variantlari mavjud. Zardo`zi kiyimlar uchun esa bichimlarning ko`pgina tiplari orasidan to`rtburchaksimon va trapetsiya ko`rinishdagi bichimlar tanlangan. Ularning bunday xajmli-fazoviy ko`rinishi ularni tayyorlash texnologiyasining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan. Buyumlarni tayyorlashda ularning xajmli-fazoviy xossasining buzilishi ularni tayyorlash texnologiyasining barcha jarayonlariga salbiy ta`sir etishi mumkin.



15-rasm Xajmli-fazoviy tuzilish

Ko`lamlilik

Ko`lamlilik buyumning muhim xarakteristikasi hisoblanib, bu tushuncha qarab chiqilayotgan buyumning xajmi va bizning bu xajm haqidagi tasavvurlarimizni qiyoslashga asoslangan. Ma`lum bo`lishicha, amaliy va estetik ma`noga ega bo`lgan buyumni beixtiyor ravishda kattalashtirish yoki kichraytirish mumkin emas. Odamga xos xususiyat shuki, u o`zi yaratadigan hamma narsani muayyan xajm (kattalik) bilan bog`laydi. Bundan chetga chiqish ichki norozilik. shu bilan birga estetik jihatdan qoniqmaslik hissini uyg`otadi. Buning asosi, ko`p tadqiqotchilarning hisoblashicha, odam ongiga xos xajmni ichki «o`lchash» dan iboratdir. Har bir zardo`zi buyumini loyihalashtirishda shunday qilish lozim, chunki har bir zardo`zi buyum o`ziga xos ko`lamga ega.



16-rasm. Ko`lamlilik

Byumlarni loyihalashtirishda optimal, real ko`lamni tanlashda bizga «ko`lam o`lchagichlar» deb ataluvchi o`lchagichlar katta yordam beradi. Bular bizga tanish bo`lgan «qat`iy» hajmli buyumlardir. Zardo`zlik buyumlari uchun ham bunday ko`lam o`lchagichlar ularning foydalanish hamda joylashish o`rniga qarab tanlanadi. Masalan, choynakpo`shak uchun choynak hajmi, so`zana uchun u joylashadigan buyumlar ko`lami, zardo`zi kiyimlar uchun esa u mo`ljallanayotgan odam gavdasining o`lchamlari ko`lam o`lchagich hisoblanadi.

Rang va ranglar uyg'unligi

Ko'p hollarda biz buyumni avval ranglar dog'i, so'ng esa xajm sifatida idrok etamiz. Rangni idrok etish ma'lum darajada sub'ektivdir. Har bir odamning qandaydir bir rangga moyilligi bor, o'zining sevgan ranglar gammasi bo'ladi. Lekin turli kishilarda rangni idrok etish umuman bir-biriga o'xshaydi. Rangning ob'ektiv sifatlari mavjud bo'lib, bu sifatlari bizning xissiyotlarimizga ta'sir etadi. Rangdan bir-biriga uyg'un bo'lgan buyumlar muxitini yaratish uchun uning ob'ektiv sifatlarini bilish zarur.

Ma'lumki, spektrning «sof» (xromatik) ranglarni iliq (qizil, zarg'aldoq, sariq) va sovuq (gunafsha, zangori, havo rang) ranglarga bo'lish mumkin. Ranglarning bunday bo'linishi bizning real fazoni idrok etishimizga ta'sir qiladi: «iliq» spektr ranglari biz qarab turganda bir-biriga yaqinlashadi, shuning uchun zarg'aldoq yoki qizil rangli yuzalar bizga yaqinroq tuyuladi, «sovuq» spektr ranglari esa bizdan bir tekisda uzoqlashayotgandek tuyuladi. To'k ranglar buyumni og'irroq, och ranglar esa engilroq qilib ko'rsatadi. Rang xajmini idrok etishga xam ta'sir qiladi: tuk fondagi och dog' o'ziga teng bo'lgan dog'ga Karaganda ko'proq bo'lib tuyuladi.

Ranglar xususiyatidan kelib chiqqan xolla zardo'zi buyumlarda material turini tanlash muxim ahamiyatga ega. Materialning qanday rangda tanlanishi: fonining «iliq» yoki «sovuq» ranglarda aks etishi odamda ta'sirini ko'rsatar ekan, zardo'zi buyumlarni loyixalashtirishda, albatta shu buyum, mo'ljallangan muddatdagi ranglar fonini hisobga olish zarur. Zardo'zi kiyimlarni loyixalashtirishda esa mijozning didi bilan birga uning jinsi ham hisobga olinadi. chunki zardo'zlikda sovuq ranglar erkaklar uchun, iliq ranglar ayollar uchun tikiladigan zardo'zi kiyimlarda fon sifatida ishlatiladi.

Odatda biz rangni boshqa ranglar bilan birgalikda idrok etishimiz zarur. Buning natijasida odam idrok qiladigan umumiy

manzara vujudga keladi. «Ranglar uyg'unligi» ham bizga tanish ibora bo'lib, bu uyg'unlik bizga estetik zavq beradi. Zardo'zlik texnologiyasida tilla rangli zar iplarni kizil rangli pechak iplar bilan materialga mustahkamlashi yoki zarg'aldoq sijjalarning tagida kizil rangli siddilarning ishlatilishi ana shunday uyg'unlikni vujudga kelishiga xizmat qiladi. Naqshlar ichiga turli rangdagi material bo'laklarning fon sifatida joylashtirilishi xam buyum materiali va zar iplarning umumiy foniga qo'shilib zardo'zi buyum sifatida o'ziga xos ranglar jilosini yaratadi. Bunday kolorit har qanday odamda estetik zavq xissini hosil qiladi.

Zardo'zlik buyumlarini loyixalashtirish bosqichlari

1. Fikrning paydo bo'lishi-rassom dizaynerda buyumni yangicha bezatish yoki butunlay yangicha turdagi buyum yaratish, loyixalashtirish fikri paydo bo'lar ekan, avvalo, u bu buyumni har tomonlama o'rganishi kerak. Buyumning vazifasi, uning asosiy tuzilishi, uni tayyorlashning texnologik imkoniyatlari, boshqa buyumlar muhiti bilan aloqalari o'rganiladi. Bundan tashqari, unga qanday iqtisodiy hamda estetik talablar qo'yilayotganligi ko'rib chiqiladi.

**2. Fikrning eskizlarga ko`chishi.** Loyixalash rassom-dizayner ongidagi g`ira-shira obrazlarning eskiz chizmalariga ko`chishidan boshlanadi. Muallif xali o`zining batamom shakllanib bo`lmagan g`oyalarini chizmalar yordamida yoki xajmli tarzda ifodalay boshlaydi. Fikrni chizmalar tarzida ifodalanganda eskiz yumshoq qalam, ko`mir yoki akvarel bilan chiziladi. Rasm chizganda juda tez vaqt ichida turli variantlarni sinab ko`rish mumkin:bunda rasm hammavaqt fikr ortidan boradi. Biroq rasm uch o`lchovli shaklni shartli ravishdagina tasvirlaydi. Faqat buyumni maketli-xajmli tasvirgina uning tuzilishini aniq aks ettirishi mumkin. shuning uchun fikrni aniq tasvirlashda buyumning maketli-xajmli tasvirdan ham foydalaniladi.

Fikrning g`oyaga aylanishi. Eskiz taklifini boshqa mutaxassislarga ko`rsatish uchun ayrim eskizlarni emas, balki tanlangan variantning badiiy-amaliy loyihasini va buyumning nusxasini tayyorlash kerak. Ikkinchi bosqich eskizlarida faqat taxminiy echim topilgan bo`lib, uni xali aniqlashtirish kerak bo`ladi. chunki unda faqat buyumning xajmiy-fazoviy strukturasi belgilangan, asosiy qismlarning ko`lami va muvofiqligiga asos solingan bo`ladi. Ishni davom ettirish uchun, avvalo, eskiz chizmalari va buyumning modeli bo`lgan maket ancha yirikroq ko`lamda kattalashtiriladi. shunda xali ko`p narsa aniq emasligi va ularga xali tuzatishlar kiritish lozimligi darhol ma`lum bo`ladi. Ana shu tuzatishlar amalga oshirilgach, buyumning maketi bo`yaladi, shunda ularni haqiqiy buyumlardan ajratib bo`lmaydi. Bu maketlardan ko`rgazmalarda bimalol eksponat sifatida foydalanish mumkin.

G`oyaning realikka aylanishi. Badiiy konstruktorlik loyihasi tasdiqlangach, ish chizmalari bajariladi, ana shu chizmalar va maket asosida loyixachilar tarkibi mahsus laboratoriya tsexida uning tajribaviy na`munasini tayyorlashga kirishadi.

Zardo`zlik mahsulotlari tajribaviy na`munasini tayyorlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Rassom-dizayner loyixaga muvofiq gul nusxasining yangi turdagi kompozitsiyasini tayyorlaydi.

2. Gulbur yangi kompozitsiyasni axta yordamida xitoy qog`oziga tushirib, uning nusxalarini ko`paytiradi.

3. Modeler-bichuvchi yangi kompozitsiya uchun zardo`zlik usullarini tanlashadi. Bu bosqich loyixalashtirishning juda ham murakkab bosqichi bo`lib, u quyidagi ketma-ketlikda amalga oishiriladi:

-andozaga yangi naqsh kompozitsiyasini joylashtirish uchun naqshlarni joylashtirish usullarini tanlash;

-gullar usti va tagini tikish uchun zardo`zi tikish usullarini tanlash;

-gullar va ular atrofini bezatish uchun bezatish usullarini tanlash.

Zardo`zi usullarini tanlash qayta-qayta takrorlanadigan tajribalar orqali bajariladi. Bu tajribalar zardo`zlik texnikasi qonun-qoidalariga qat`iy amal qilingan holda olib boriladi.

1.8 Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqish jarayonini tashkil etish texnologiyasi. Zardo`zning ish o`rni.

Shaxsiy gigiena.

Qadimda ham, hozir ham zardo`zlik bilan shug`ullanadigan xunarmandlarni «zardo`z» deb atashgan. Zardo`zlar qadimda podSho saroyidagi ustaxonalarda faoliyat yuritishgan. Ular bu erga ko`rpachalar ustida o`tirib, yog`ochdan tayyorlangan zardo`zlik dastgohi-korcho`pda tikishgan. Tikilayotgan buyumning katta-kichikligiga qarab dastgoh atrofida bir nechtagacha zardo`zlar o`tirgan. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan tsexlarda esa zardo`zlar metallardan tayyorlangan dastgohlar atrofida stullarda o`tirib tikishadi.

Zardo`zlar tsexlarda shaxsiy gigiena qoidalariga rioya etish, avvalo, zardo`zning mehnatga layoqatini asrashga hamda u yaratayotgan mahsulotning sifat darajasini ko`rsatishga imkon beradi. Zardo`zlik tsexlari keng va yorug`xonalarda joylashgan bo`lishi zarur. Ayniqsa, xonaning tabiiy yorug`lik manbaalari bilan yoritilishiga e`tibor beriladi, chunki sun`iy yorug`lik manbaalaridan foydalanish ko`zga zarar etkazishi mumkin. Xona ham tabiiy, ham sun`iy yorug`lik manbaalari bilan ta`minlashi zarur. Yorug`lik manbaalarini to`g`ri joylashtirish muhim ahamiyatga ega.

Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarish mashaqqatli bo`lib, zardo`zdan sabr-bardoshni talab etadi. Binobarin, insonning nafas olish va yurak-qon sistemalariga salbiy ta`sir etishi mumkin. Bu oqibatlarning oldini olish uchun xona tez-tez shamollatib turilishi, shuningdek, havoni tozlovchi hamda salqinlashtiruvchi apparatlar o`rnatish zarur. Xonada turli xil xona gullari bo`lishi, umuman, estetik tomondan chiroyli bezatilgan bo`lishi kerak.

Bu kasb ozodalikni talab qiladi. Zardo`zlik xom ashyolarga har xil omillar chang, turli xil suyuqliklar, quyosh nuri tez ta`sir etib, ular sifatiniing buzilishiga olib kelishi mumkin. shuning uchun qadimda ayollar doimo ro`zg`or ishlari bilan band bo`lishgani uchun «ayollar qo`li tegsa, zar qorayadi», deb ularga tikishga ruxsat etishmagan.

Bundan tashqari, zardo`zlik bilan muntazam shug`ullanish salbiy oqibatlarga olib keladi. Zardo`zlik dastgohining standart tayyorlanganligi umurtqa pog`onasining noto`g`ri o`sishiga yoki qiyshayishiga olib kelishi mumkin.


Ish tugagach, ish o`rnini yaxshilab yig`ishtirsh, chiqitlarni alohida idishga solish zarur. Ustaxonaning tozaligi va saranjom-sarishtaligi zardo`z kayfiyatiga katta ta`sir etadi.

Zardo`zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, texnika xavfsizligi qoidalari

Zardo`zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar unchalik ko`p bo`lmasa-da, ular o`ziga xos tuzilishga ega. Zardo`zlikda ishlatiladigan asosiy asbob korcho`b bo`lib, u ikki qismdan iborat: chambarak va xorak. «Korcho`b» forscha so`z bo`lib, «kor»-ish, «cho`b»-taxta, yog`och ma`nolarini bildiradi.

Chambarak uzunligi 320 sm. gacha bo'lgan ikkita teng yonli yog'och dasta va ularning mahsus qismida harakatlanuvchi silliq taxta, ya'ni shamshirakdan iborat. Yog'och dastalarning ikkala uchlarida perpendikulyar ravishda o'yilgan shamshirak bemaol harakatlana oladigan ovalsimon o'yiqlik bo'lib, bu o'yiqlikning ikki tomonida bir-biriga to'g'ri keluvchi bir hildagi o'yiqliklar mavjud. shamshirak ham bir xil oraliqlarda joylashgan o'yiqliklardan iborat. Ish jarayonida, ya'ni dastgohni ishga tayyor holga kelitirayotganda shamshirak yog'och dastadagi ovalsimon o'yiqlik orasidan o'tkazilib, dasta va shamshirakning to'g'ri kelib qolgan o'yiklari orqali mix yoki shunga o'xshash asbob yordamida mustahkamlanadi. chamberakni kichraytirish kerak bo'lsa, yog'och dastalar ichkariga qarab, kengaytirish kerak bo'lganda esa yog'och dastalar shamshirak bo'ylab tashqariga qarab harakatlantiriladi. shamshirakdagi bo' ovalsimon o'yiqliklar yog'och dastalarga mato tortilganda ularni tarang ushlab turishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, uzunligi shamshirak uzunligiga teng bo'lgan ikkita dumaloq tayoqchalar ham zarur bo'lib, ular chamberakka ta'var tortilayotganda ishlatiladi.

Korcho'kning ikkinchi qismi xoraklardir. Xoraklar yog'och poylar bo'lib, ishlagan vaqtda chamberak ular ustiga qo'yilgan, chunki qadimda zardo'zlar ko'rpacha ustida o'tirib, ish tikishgan. Xoraklarning uzunligi shamshirak uzunligiga, balandligi esa odam tanasining dumg'aza va ko'krak qafasi oralig'idagi masofa uzunligiga teng bo'lishi lozim.



17-rasm Korcho'k qismlari chamberak va xoraklar

Xozirgi zamonaviy tseklarda metallardan (temir va uning qotishmalaridan) tayyorlangan zardo'zlik dastgohlari ishlatiladi. Ular ham ikki qismdan-chambarak va oyoqlardan iborat bo'lib, chamberak qismmi murakkab tuzilishi bilan ajralib turadi. Ular chamberakdagi ta'varni tarang tortib va taranglikni mustahkam

ushalab turishga xizmat qiladigan murvatlardan iborat. Bu tsexdagi zardo`zlik dastgoxlarni ikki turga bo`lish mumkin:

1. Kichik o`lchamli uy-ro`zg`or buyumlari va zardo`zlik kiyim – kechaklarni tikish uchun mo`ljallangan dastgoxlar;

2. Katta o`lchamdagi buyumlarni, masalan, zardo`zi gilam, so`zana, namoyon va xokozolarni tikishga mo`ljallangan dastgoxlar. Ular tuzilishi bilan emas, balki chambarak qismining o`lchamlari bilangina farq qiladi, xolos.


Siddilar tayyorlaydigan apparat uchta bir-biridan mustaqil qismlardan iborat: 1.1-tob apparati. Bu apparat o`qlarida ilgaklari mavjud bo`lgan kichikroq motorlardan iborat. 2.2-tob apparati. Bu apparat xam o`qida ilgagi bo`lgan kattaroq motordan iborat. 3. Bir necha ilgaklari bo`lgan zar ip ilgich. 1-tob apparatida siddilar yoki tofta uchun ajratilgan zar iplar ikkiga bulinib, eshiladi. 2-tob apparatida ular birlashtirilaib, so`ng tob beriladi. Zar ip ilgichlarga tob beriladigan iplar qo`yiladi.

Zardo`zlikda korcho`pdan so`ng turadigan asbobdan biri-patila hisoblanadi. Patila-chorrah (to`rt qirrali va nafis qilib tarashlangan, ichi kavlanib, qo`rg`oshin quyib vazminlashtirilgan, uzunligi 18-20 sm. li oddiy oddiy yog`och tayoqcha). Patila zar iplarni zich va bir tekis qilib o`rashni ta`minlagan, bu bilan tikilayotgan zardo`zning bir tekis chiqishiga erishilgan, zar ipning chatilib isrof bo`lishiga yo`l qo`yilmagan. Patila foydalanish o`rniga qarab ikki turga bo`linadi: engil va og`ir. Vazni engil patilalar oddiy zar iplar, ya`ni 4-8 nax zar iplar bilan tikkanda ishlatiladi. Og`ir vaznli patilalar esa ko`p naxli eshilgan zar iplardan, eshilgan ipak iplardan siddilardan foydalanganda ishlatilgan. Patilalar xozirgi davrda marmartoshlardan ham tayyorlanmoqda. Ular silliqligi hamda vazni og`irligi bilan ajralib turadi. Zar iplarni patilaga o`rashdan ilgari ularga 4-5 nax pechak ip mahkam bog`lanadi, so`ng shu ipga zar pila ulanadi. Bu zar iplarni tejash hamda ularni patilaga mustahkam bog`lashga yordam beradi.

Zardo`zlikda angishvona ham zarur. chunki zardo`zlik naqshlari faqat qo`lda tikiladi. Angishvona forscha so`z bo`lib, «angusht»-barmoq, «vona, bona»-saqlovchi, asrovchi, ya`ni «barmoqni asrovchi» degan ma`noni bildiradi. Angishvona nina qo`lga kirib, ketmasligi uchun ishlatiladigan matall g`ilofdir. Uning ustki va yon tomonlarida igna toyib ketmasligi uchun chuqurchalar o`yilgan. Qadimda ham, hozir ham zardo`zlar temir angishvonalar bilan birga telpakdo`zlikda ishlatiladigan charm angishvonalaridan foydalanishgan. Sababi5 zardo`zi tikishda ikki qo`l barobar ishlatiladi. Zardo`zlarning o`ng qo`lida temir, chap qo`lida esa charm angishvona bo`lgan.

Zardo`zlikda barcha jarayonlar qo`lda bajariladigan choklar orqali amalga oshiriladi, shuning uchun ignalar va ularni tanlay bilish muxim ahamiyatga ega.

Zardo`zlikda asosan ikki xil turdagi ignalar ishlatiladi:



18-rasm. Zardo`zlik uchun kerakli asbob-uskunalar.

a) patila: b) angishvonalar: v) ninalar: g) qaychilar.

1-naqshlarni qirqish uchun o`rdakburun qaychi:

2-naqshlarni qirqish uchun tuyaburun qaychi:

3-pardozlash uchun qaychi: 4-bichish uchun qaychi:

1. Tikish ishlari uchun 2 sonli ignalar ishlatiladi.

2. Bezatish ishlari uchun esa 1 monli ignalar ishlatiladi. Zardo`zlikda uch turdagi qaychilardan foydalaniladi:

1. Andoza bichishda kerak bo`ladigan qaychilar. Bunday qaychilar kattaroq va o`tkirroq bo`lishi zarur.

2. Pardozlashda kerak bo`ladigan qaychilar. Bu qaychilar kichikroq bo`lib, dastgoh ustida ishlashda qulay.

3. Gullarni qirqishda ishlatiladigan qaychi shuturgardon, ya`ni tuyabo`yin qaychi. Bu qaychi faqat gullarni qirqishda kerak bo`ladi.

Zardo`zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar o`tkir uchli asboblardan bo`lib, ular bilan ishlaganda ehtiyot bo`lish va texnika xavfsizligi qoidalariga qat`iy rioya qilish zarur. Avvalo, ularni saklash uchun alohida moslama bo`lishi darkor. Ignalar bilan ishlayotganda, albatta ularni igna qadagichlarga qadab qo`yiladi. Ulardan foydalanganda angishvona kiyib olinadi. Ignaga ip o`tkazganda hech qachon ularni lab orasida ushlab turmaslik lozim. Nafas olayotganda yoki gapirmoqchi bo`lganda ular bexosdan ichga ketib qolishi mumkin. qaychilar ham uchi o`tkir asboblardan biri bo`lib, ulardan noto`g`i foydalanish o`zigagina emas, balki atrofdagilarga xam zarar keltirishi, ish sifatining buzilishiga, ishning to`xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

Korcho`bni tayyorlashdagi texnologik qoidalar

Tikishda tayyorgarlik chambarakni tayyor holga keltirishdan boshlanadi. Tikishdan ilgari chambarakka bo`zdan qilingan kerish (ta`var) tortilgan. U shunchalik tarang tortilishi kerakki, uning ustiga tashlangan angishvona 4-5 marta sakrashi kerak bo`lgan. Buning uchun esa chambarakka material tortish qonun – qoidalarini bilish zarur bo`ladi. Bunda, avvalo chambarak dastasi va dumaloq yog`och tayoq uzunligiga mos keladigan qalin matodan qolip tikiladi. Bo`z, ya`ni kerish o`lchamlari tikilayotgan buyumning o`lchamlaridan kelib chiqib olinadi. Qolip to`rt tomondan kerishga ulanadi. Qolip o`zgarmaydi, lekin kerish o`zgarib turadi. Chunki kerish tikilayotgan zardo`zi buyumning tagida bo`lib, u bilan birga qo`shib tikiladi va o`sha buyum bilan birga qo`shib qirqib olinadi. So`ng qolipning buklangan tomonlari dasta va yog`och tayoqqa kiygiziladi. Chambarak tortilib, tekis holga keltiriladi. Qolipning dasta va tayoqcha tomonlaridan teshib, undan iplar o`tkazilib shamshirakka tortiladi. Kerish tortilgunicha ip tortiladi. Keyin angishvona bilan sinab ko`riladi, agar kerish ustida angishvona 4-5 marta sakrasa, demak, dastgoh tayyor. Zamonaviy tsexlarda esa metallardan tayyorlangan dastgoxlarni tayyor holga keltirish birmuncha osonroq. Chunki ulardagi murvatlar ana shu maqsadda yaratilgan.

Korcho`bni tayyor holga keltirish hamda u bilan ishlashda ma`lum texnologik qoidalarga rioya etish ishning sifatiga katta ta`sir ko`rstadi.

1. Ish tikayotgan paytda korcho`b ustiga yotib olib, og`irlikni tashamaslik kerak, aks holad kerish bo`shab ketib, ishning sifati buzilishi mumkin.

2. Hamma asbob-uskunalarni korcho`b ustiga qadab tashlamaslik kerak, bunda ham korcho`b bo`shab qoladi.

3. Korcho`b tikishga qulay bo`lishi lozim, uning ko`krakdan past yoki yuqori bo`lishi ishning sifatiga ham, sog`liqqa ham zarardir.

4. Zardo`zlar juda tiqilishib o`tirishmasligi kerak, bu erkin ishlashga xalaqit beradi. Mazkur texnologik qoidalarga rioya etish ish sifatiga katta ta`sir qiladi.

1.9 Zardo`zlik mahsulotini ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari

1. Zardo`zlik mahsuloti uchun material tanlash va ularni bichish

Zardo`zlik buyumlarining xususiy texnologiyasi, o`sha bo`yum uchun material tanlash va uni bichishdan boshlanadi. Gazlamalarning xossalari asosan ularda ishlatilgan tolalar tarkibiga kalava iplar turiga, o`rilishlar xiliga va pardozlash usullariga bog`liq bo`ladi.

Zardo`zlik mahsulotlarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning sirtida zardo`zi naqshlarning bo`rtib turishidir. Demak, naqshlar tagiga shunday material tanlash kerak-ki, ular o`z ko`rinishi bilan naqshlar yoq o`rinlaryni ham to`ldirib tursin. Shu boisdan zardo`zlikda tukli material ishlatiladi.

Zardo`zlik mahsulotlarini tikish uchun juda ko`p mehnat sarflanadi. shuning uchun ularda foydalaniladigan materiallar uzoq yillar davomida ko`rinishini va xossalarni yo`qotmasdan kelgan.

Zardo`zlik mahsulotlarinni yuvish, kimyoviy tozalash, dazmollash mumkin emas. Ular uchun tanlangan gazlamalar ham g`ijimlanmaydigan, tez kirlanmaydigan bo`lishi lozim.

Zardo`zlik naqshlari zar iplar bilan tikilganligi tufyli yaltirab turadi. shuning uchun ham ular tagidagi material xam yaltirab turishi zarur.

Zardo`zlik texnologiyasida gazlamalar zardo`zlikning o`ziga xos xususiyatlarga qarab tanlanadi. Gazlamalarni har tomonlama to`g`ri tanlash zardo`zi buyumlarning yuqori sifatini ta`minlaydi.

Gazlamalar assortimenti

Zardo`zlikda ishlatiladigan gazlamalar assortimentidagi gazlamalar ikkiga bo`linadi: asosiy turdagi gazlamalar va yordamchi turdagi gazlamalar. Asosiy turdagi gazlamalarga zardo`zlik buyumlar tikiladigan gazlamalar kiradi. YOrdamchi turdagi gazlamalar esa Zardo`zlik dastgohi uchun zarur bo`lgan, xshamda naqshlar ostiga tarx sifatida ishlatildigan gazlamalar hisoblanadi

Asosiy gazlamalar assortimenti

Duhoba-tukli o`rishlarda to`qilgan gazlama bo`lib, uning asosi paxta ipidan, faqat tuklarigina tabiiy ipakdan bo`ladi. Duxoba, asosan, uy-ro`zg`or buyumlarida ishlatilgan.

Velyur-sidirg`a, zich to`qilgan, ikki tomonli, tukli gazlama. Tuklari tik, jun ipdan to`qilgan. Hozirgi kunda zardo`zlikda sintetik tola aralashtirib to`qilgan, zardo`zlar «taqir velyur» deb atashadigan turi ko`p ishlatilady. Undan barcha turdagi Zardo`zlik buyumlari tikiladi. Bu velyur turi chidamliligi, pishiqligi, qattiqligi, ko`rkamligi va boshqa xossalari bilan zardo`zlikka juda mos tushadi.

Velyur-baxmal-tabiiy ipakdan to`qilgan krepga bir xil rangli tukli naqshlar tushirilgan gazlama. Tuklari sun`iy tolalar dan hosil qilingan bo`lib, ularning bir qismini kislota bilan edirish natijasida naqshlar hosil qilinadi. Bu material ham uy-ro`zg`or buyumlarida ishlatilady.

Movut-polotno, ba`zan sarja o`rishlarida to`qilgan jun gazlama. Pardozlash paytida kigizsimon to`shama hosil qilish uchun uzoq muddat bosiladi. Ularning pardoziga qarab tukli va tuksiz turlarga ajratiladi. Tuksiz movutning o`ng sirtida kigizsimon to`shama, tukli movutning o`ng sirtida esa presslangan uzun tuklari bo`ladi. Tola jihatdan movut toza junli va paxta ipi aralashgan bo`ladi. XX asrgacha bo`lgan Zardo`zlikda movut keng qo`llanilgan. Ularning jaydari hamda Hindistondan keltirilgan «akshmiri» navlari mavjud bo`lib, asoan erkaklar choponi va amaldorlar uchun mundirlar tikilgan.

Vileet (chiyduxoba)-sidirg`a ip gazlamadan zich to`qilgan. «Vilvet» inglizcha “wilvet”-«duxoba» degan ma`noni bildiradi. Uy-ro`zg`or buyumlarida ishlatilady.

Zamsha-sidirg`a, eng zich, sifatli va og`ir gazlama. Ip gazlama hisoblanadi. Sun`iy turlari xam mavjud. Zardo`zlikda kam ishlatilady.

Atlas-arabcha «silliq» demakdir. Atlas taiy ipak tolalardan atlas o`rishlarida

to`kiladi. Cho`zilishga pishiqligi ancha kam, tez to`ziydigan va o`yiluvchan gazlama. XX asr boshlariga qadar atlasdan, ayniqsa, sidirg`a va gullaridan ro`mol va belbog` tikilgan.

Xozir ham atlasdan ayollar ko`ylaklari va boshqa uy-ro`zg`or buyumlari tikiladi.

Shoyi-tabiiy ipakdan polotno o`rishlarida to`qilgan. Ularning zichligi, pishiqligi, ancha yuqori bo`lgan. XX asrgacha bo`lgan zardo`zlikda ayollar ustki kiyimlari va ro`mollari, erkaklar belbog`lari tikilgan.

Adras-bo`zga qattiqlik, yaltiroqlik va kumushsimon pardoz berilib, keng yo`l-yo`l gul bosilgan. Uy-ro`zg`or buyumlari uchun foydalanilgan.

1 Sarja-ipak ipdan sarja o`rishlarida to`qilgan sidirg`a rangli gazlama. Zardo`zlik liboslarida astarlik uchun ishlatiladi.

Chit-ip gazlama bo`lib, polotno o`rishlarda to`kilgan. Zardo`zlik buyumlarida astarlik uchun foydalaniladi. Ularning sidirg`a ranglilari, ayniqsa, sariq va qizil ranglilari naqshlar ostida tagzamin sifatida ishlatiladi.

Satin-sillik, yaltiroq ip gazlama, satin o`rishlarida to`kilgan. Uning sidirg`a ranglilari astarlik va tagzamin sifatida ishlatiladi.

Doka-ip gazlama, ingichka, pishiq tolalardan polotno o`rishlarda to`kilgan. Dokadan zardo`zlikda, asoan zardo`zi sallalar tikilgan. XX asrgacha bo`lgan zardo`zlikda Istanbul orqali Evropadan keltirilgan mustaxkam va mayin to`qilgan «doka miskoni» va «doka xanjari» deb ataluvchi doka turlari ishlatilgan.

Parcha (forscha «bo`lak» ma`nosida)-oltin yoki kumush rangli iplar qo`shilab to`qilgan ipak material. Bu kalin guldor shoyi gazlama XX asr zardo`zlikda turli buyumlarda ishlatilgan.

Yordamchi gazlamlar assortimenti

**Bo`z** (xom surp)-pardozlanmagan ip-gazlama, ancha kalin va og`ir material.

Bo`z karda ipdan polotno o`rishlarda to`qilgan, shuning uchun pishik va cho`zilmaydi. Bo`zning ana shu xususiyati uchun zardo`zlar uni xamma davrda chambarakka (korcho`bning tepa qismi) tortiladigan ta`var sifatida ishlatilgan. Bundan tashqari, zarcho`ba bilan sariq rangga bo`yalgan bo`z naqshlar ostida tarh sifatida ishlatilgan. XIX asr oxirida kartondan qirqilgan naqshlar ustiga xam yopishtirilgan va «qog`ozlatta» deb atalgan.

Surp-oqartirilgan va pardozlangan bo`z. XX asrgacha bo`lgan Zardo`zlikda sur chakmon jul, poyabzallarda naqshlar ostiga tagzamin sifatida ishlatilgan. Hozir ham kumush rangli ip bilan tikiladigan naqshlar ostiga qo`yiladi. Diska-Yaltiroq iplar dan to`qilgan gazlama. Zich to`qilgan va qayishqoq bo` gazlama XX asr zardo`zligida naqshlar ostiga qo`yilgan. Uning tilla va kumush ranglari mavjud.


Neylon-poliamid sintetik tolasidan to`qilgan engil, qayishqoq, uzilishga yuqory gazlama. XX asr zardo`zligida naqshlar ostiga qo`yilgan.

Sidon-sintetik toladan to`qilgan mayin, qashqoq gazlama. XX asr zardo`zligida naqshlar ostiga ishlatilgan

2. Zardo`zlik maxsulotlari uchun gul tarxini tayyorlash va ularni qirqish texnologiyasi

Zardo`zlikda foydalaniladigan naqshlar va ularni tuzilishi

«Naqsh» arabCha so`z bo`lib, «gul», «tasvir» degan ma`nolarni anglatadi. Naqsh-qush, hayvon, o`simlik, novda va boshqa elementlarining ma`lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezaklar. Har qanday naqsh namunasi o`ziga xos naqsh elementlari yig`indisidan iborat bo`ladi. Naqsh elementlari to`g`ridan to`g`ri olinmasdan, qayta ishlash asosida hosil qilinadi. Qayta ishlash o`simlik va hayvonot dunyosidagi tabiiy shakllarni ramziy shakllarga aylantirish demak.



19-rasm Bodomning qayta ishlab hosil qilingan tasvirlari

O`zbek xalq amaliy bezak san`atida ishlatiladigan naqshlar tuzilishiga ko`ra quyidagi 4 guruxga ajratiladi:

Islimi (o`simliksimon) naqshlar, egri chiziqli o`simlik elementlaridan iborat.

Geometrik (girix) naqshlar-to`g`ri chiziqli elementlardan tashkil topgan.

Murakkab (guli girix) naqshlar islimi va girix elementlarining chatishmasidan iborat.

Ramziy naqshlar (hayvonot va odamzot olamidagi shakllarni qayta ishlab hosil qilingan naqshlar)

Islimi naqsh elementlari va ularning tuzilishi


1. Barg-uning elementlarining oddiy va murakkab ko`rinishdagi variantlari mavjud. Oddiy barglar shobarg, qo`shbarg, uchbarg va hakoza variantlarda uchraydi. Bundan tashkari, bodom bargi, arra tishli va to`lqinsimon ko`rinishlarda ham uchraydi.

Murakkab barglar esa ularning bodom arra, to`lqinsimon ko`pbarg, qatlam-qatlam shobarg kabi ko`rinishlardan iborat.




20-rasm Barg

2. Gul-islami naqsh elementa bo`lib, ular kompozitsiyaning markaziy qismida joylashtiriladi. Gullarning xam oddiy hamda murakkab variantlari mavjud.




21-rasm Gul

3. **Novda**-o`simliksimon naqsh elementm bo`lib, gul, barg, meva va boshqa elementlarni o`zaro bog`lab turadi. Novda nozik va ravon yo`nalishlari bilan alohida shakllarni yasaydi. Tabiatda barcha daraxt va o`simliklar pastdan tepaga, ya`ni bir tomonlama rivojlanishda o`sadi, shuning uchun novda elementlari ham kompozitsiyada iloji boricha bir tomonlama harakat ettiriladi. Murakkab kompozitsiyalarda novda elementlari yakka va qo`shband ko`rinishlarida uchraydi. (22-rasm)



22-rasm Novda


4. **Bog`lam va sirtmoqlar**-islimli naqsh elementlaridir. Novda va ramka shakllariga xos oddiy arqon, kurtak va sirtmoq bog`lam turlari mavjud. (23-rasm)



23-rasm Bog`lam va sirtmoqlar


5. **Tanob**-naqshlardagi asosiy shakl yo`llarini yasaydi. Bunday shakl namunalari mehrob, madohil, bodom, qalampir, gardish va boshqa turlarga ajratiladi.

Tanob bofta, shkufta, bog`lam elementlari bilan bog`lanadi.




24-rasm Tanob

6. **Marg`o`la elementi** ayrim novda tanob shakllarini tugallanishini bildiradigan qo`sh chiziqli gajak. Marg`o`la naqsh kompozitsiyalarida kurtak elementlari bilan ketma-ketlikda yoki o`rindosh sifatida ham uchraydi.




25-rasm Marg`o`la

7. Kurtak-asosan, bodom, qalampir, tirnoq, ko`rinishlariga ega. Marg`o`la va kurtak elementlari novda, tanob yasovchi ko`rinishlarni boyitadi.



26-rasm Kurtak

8. **Madohil**-islami naqsh elementi bo`lib, lola, tumor, uchbarg ko`rinishlarda uchraydi. Mehrob, namoyon naqshlarining yuqori qismiga xos elementdir.




27-rasm Madohil

9. **Gajak va jingalak**-islami naqsh elementi bo`lib, tabiatdagi uzum, karnaygul, pechak o`t novdalarini umumlashgan holdagi ko`rinishlaridir. Gajak va jingalak elementlari namoyon, guldasta va turli islami naqsh birikmalarida uchraydi.




28-rasm Gajak va jingalak

10. **Bofta** islimiy va murakkab tuzilishdagi naqsh elementa bo`lib, naqshlardagi patnis, tanob, savat ko`rinishidagi ramkalarni yurak ko`rinishidagi elementlar bilan bog`laydi. Bofta naqshlarda bog`lovchi element hisoblanadi.



29-rasm Bofta

11. **Shkufta yoki shkuft**-islami naqsh elementa bo`lib, asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak-gajak ko`rinishlarida o`zaro bog`laydi.



30-rasm shkufta

Geometrik naqsh elementlari va ularning tuzilishi


Geometrik shakl elementlari girixlar va ularning chatishmalaridan iborat bo`ladi. «Girih» forscha so`z bo`lib, «chigal, tugun» degan ma`nolarni anglatadi. Girihlarning quyidagi turlari mavjud:

1. To`g`ri chiziqli girih-har xil yo`nalishdagi to`g`ri chiziqlardan iborat bo`lib, turli ko`rinishdagi «taqsim» deb ataluvchi elementlarni yasaydi.
2. Egri chiziqli girih-turli ko`rinishdagi egri chiziqlardan iborat bo`lib, yoy,

aylana, egri chiziq va boshqa taqsimlarni yasaydi.

3. Aralash girih-to'g'ri va egri chiziq birikmasidan iborat bo'lib, murakkab kompozitsiyalarda ishlatiladi.

4. Murakkab naqsh elementlari ham islimi, ham geometrik naqsh elementlaridan tuzilgan bo'lib, «guli girih» deb ataladi. Murakkab naqshlar shuning uchun «aralash naqshlar» deb xam nomlanadi.



31-rasm Geometrik grihlar

Zardo'zi naqsh nusxalari va ularning turlari

Zardo'zlik san'tida kelayotgan naqsh nusxalari bu san'tning uzoq davrlik taraqqiyoti jarayonida shakllangan va boyitilgan. Ular uchun zardo'zlar tomonidan o'ziga xos atamalar ishlab chiqilgan. Islimi naqsh nusxalari undagi asosiy element nomi bilan atalgan. Barg turidagi tamalar uchun barg atamasi, gul turidagi atamalar uchun gul atamasi, meva turidagi naqshlar uchun esa meva atamasi nom bo'lib qolgan. Geometrik naqshlar uchun esa zardo'zlar ko'chma ma'nodagi atamalarni o'ylab topishgan.

Zardo'zlik naqsh nusxalarining rang barangligi va atamalarning o'ziga hosligi zardo'zlar tasavvurining juda keng va boyligini ko'rsatadi.

Islimi naqsh nusxalari va ularning turlari Islimi naqsh kompozitsiyalari tabiatdagi o'simliklar dunyosi manzarasini aksi bo'lib ular bu dunyodagi ko'rinishlarni qo'ya ishlash natijasida hosil bo'lgan. Bu manzaralar alohida-alohida qismlardan (ildiz, poya, novda. Barg, gul, meva) bir butunlik hosil qilganidek, islimi naqsh kompozitsiyalari ham alohidanaqsh nusxalaridan tashkil topgan. Bu naqsh nusxalari xuddi tabiatdagidek turli-tuman va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Islimi naqsh nusxalarini tabiatdagidek tabiiy ketma-ketlikka o'rganish ularning tuzilishini hamda kompozitsiyadagi o'rnini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Novda ko'rinishidagi naqsh nusxalari. Zardo'zlar novda ko'rinishidagi yo'g'on zar ip-tola yordamida xuddi tabiatdagidek ko'rinishlar hosil qilishgan. Bunday naqsh nusxalari tahrir iskandarpechon, tangalak, qobuliy, marg'ola, kungiri sedona bo'lib, ular nozikligi bilan ajralib turgan va o'ziga xos chiroy

bergan.


Iskandarpechon (karnaygul) to'liqinsimon novda ko'rinishda bo'lib, bu novdaga turli xil elementlar (bodom, tangacha, gul) ulanib, turli xil xoshiya naqshlari xosil qiladi.

Tangala-xuddi yam-Yashil novdadan iborat bo'lgan uzum zangini eslatadi. Uni qo'chqor shoxiga ham o'xshatishadi.

Qobuliy-buralib-buralib olgan novdalarni eslatadi.

Marg'o'la-gajakdor novda ko'rinishida bo'ladi.


Kunguri sedona-Bir nuqtada navbati bilan buralgan novdalardan iborat bo'ladi.



32-rasm Novda ko'rinishidagi naqsh nusxalari.

Barg turidagi naqsh nusxalari

Barg turidagi naqshlar zardo'zlik naqsh kompozitsiyalarining muxim elementi hisoblanadi. Ular kichikroq buyumlar uchun mustaqil kompozitsiyalar hosil qilishi mumkin. Barg turidagi naqshlar ko'pincha soniga qarab nomlangan: dona-dona yaproqlar-yakkabarg, juft-juft yaproqlar-dubarg, uchtalik yaproqlar-sebarg. Uchtadan ortiq barglar esa gul turiga kiritilgan: guli chorbarg-to'rt yaproqli gul, guli shishbarg-olti yaproqli gul, guli hashtbarg-sakkiz yaproqli gul. yaprog'i skkiztadan ortiq bo'lgang gullar guli sadbarg-«yuz yaproqli barg» deb atalgan. Bundan tashqarii, majnuntol yaprog'i-bargi majnunbed, xurmo yaprog'i-bargi tojigul, zulukbarg-bargi shallukiy yoki shalluk kabi naqsh nusxalari mavjud. Majnunbed va xurmo yaprog'i hammavaqt naqsh kompozitsiyalarining markazida joylashgan, zulukbarg esa mustaqil kompozitsiyalar hosil qilgan.



33-rasm Barg turidagi naqsh nusxalari


Gul turidagi naqsh nusxalari

Gul turidagi naqshlar xilma-xillgi va murakkabligi bilan boshqa naqsh turlaridan ajralib turadi. Naqsh nusxalarining, jumladan, gul turidagi naqsh nusxalarining xam shakllanishida tabiatdan qayta ishlash asosida hosil qilingan naqsh nusxalari bilan birga o`sha davrdagi gazlamalar, chinnni idishlar, nishonlar, devorlardagi va boshqalardagi tayyor naqsh nusxalari o`zlashtirilgan. Zardo`zi naqsh nusxalari xam, albatta, o`z navbatida amaliy san`tning boshqa turlariga ta`sirini o`tkazgani, shubhasiz.

Guli chinni naqsh nusxalari zardo`zlik naqsh kompozitsiyalarining markazida joylashgan naqsh elementi bo`lib, ular kompozitsiyaning chiroyiga chiroy qo`shgan. Guli chini naqsh nusxalari quyidagi turlarga bo`linadi: guli chini, guli qoshg`ariy va guli qal`giy.

Guli chini-nozik-nozik uzun gul yaproqchalardan iborat bo`lib, nafisligi bilan ajralib turadi. Guli qoshg`ariy (qashqargul) guli sadbarg-yuz yaproqli gul deb xam tomlangan. Keng hajmli gullar guli kosagul yoki guli qal`giy deb yuritilgan.


Guli chini naqsh nusxalarining shakllanishida, yuqorida ta`kiddaganimizdek, chetdan keltirilgan gazlamalar va idish tovoklardagi naqshlar xam ta`sir etgan. Masalan, guli chini hamda guli qoshg`ariy naqsh nusxalarining kelib chiqishiga Xitoy chinnilaridagi gullar asos bo`lgan bo`lishi mumkin. Guli qal`giy Orenburgdan keltirilgan rus gazmollaridan olingan va shunday nomlangan.



34-rasm "Guli chinni" nusxalarining turlari.

Lola naqsh nusxalari. Zardo`zlikda lola naqsh nusxalari asosida bir biridan chiroyli kompozitsiyalar yaratilgan. Lola kosagulini turli-tuman ko`rinishlarda tasvirlash yo`li bilan lola naqsh nusxalari hosil qyilingan. Anna shu ko`rinishlarga qarab ularni ikki turga ajratish mumkin: lola va lolai qal`agiy.

Lola turidagi naqsh nusxalari ko`pincha tarixkashlarning tasavvurlari bilan boyitalgan bo`ladi va turlicha ko`rinishlarda tasvirlanadi. Bu tasvirlardagi lola nusxalarini ajratib turadi. Lola qal`agiy ko`rinishdagi nusxalarda esa lola yaproqlari o`z bandiga xuddi tabiatdagidek joylashgan bo`ladi va qal`a tuzilishiga o`xshab ketadi.




35-rasm "Lola" nusxasining turlari

Tojigul naqsh nusxalari tavqi turunji kompozitsiyalarining (choponlarning orqa tomonida joylashadi) tepa qismida joylashgan bo`lib, yuoylam shaklidagi naqsh ko`rinishida bo`ladi. Ularning tuzilishiga kura ikki turiga bo`lib o`rganish mumkin.

Barg ko`rinishidagi. tojigullar majnunbed, sadbarg, panjbarg, se barg va

boshqalar bo`lib, ular boylam ko`rinishida tasvirlangan, tepa qismi esa sochilib turibdi.

Gullar ko`rinishidagi tojigullarda lola va boshqa turli gullar bir boylam bo`lib, tepa qismi sochilib yotibdi. Bunday tojigullar turunjlarning chiroyini hamisha ochib turgan.



36-rasm Tojigul nusxalari

Ka`bi gul (guldon) turunjlarning pastki qismida joylashgan bo`ladi. Ular madohil nusxa naqshlarning uslublashtirilgan ifodalaridan iborat bo`lib, tojigulga teskari tatibda joylashgan bo`ladi. Ular guldonga Aniq o`xshaydigan va unchalik ham o`xshashi qiyinbo`lganko`rinishlar hosil hilgan. Bug albatta, tarhkashlarning tasavvurlaridan kelib chiqqan.


Madhal (arabCha «kirish, darvoza demakdir») naqsh nusxalari tuzilishiga ko`ra to`rt turga bo`linadi: madxal, chor madxal, madxali durun-ba-durun, chor madxali durun-bu-durun.

Madxal naqsh nusxalari uchburchak, lola, tumor ko`rinishlarida bo`lib, lo`pincha naqsh kompozitsiyalarining yuqori qismida joylashgan bo`ladi.

Bir-birining ustiga mindirilgan madxal-madxali durun-ba-burun deb atalgan.

To`rtta madxal bir-biriga ustma-ust qo`ndirilganda kungirador peshtoqni eslatkvchi naqsh nusxasi hosil bo`lgan va chor madxal (to`rt darvoza) deb atalgan.

Ikki chor madxal ustma-ust qo`yilib? «chor madxali durun-ba-durun» nusxasi hosil qilingan. Bunday gullar ko`pincha mayda islimi naqshlar bilan tikilib, eng uchida har ikki tomonga qarab turgan ikki dona yaproq tasviri bo`lgan.



37-rasm "Madxal" nusxalarining turlari

Meva turidagi naqsh nusxalari ham naqsh kompozitsiyalarida muxim o`rin tutadi. Tarxkashlar atrof tabiatdagi mevalarning ko`rinishlarini zardo`zlik naqshlarida tasvirlashga intilganlar. Zardo`zlar esa ularni o`ziga xos usulda tikkanlar. Mevalar tabitda qanday o`rindajoylashgan bo`lsa, naqsh kompozitsiyalarida ham shunday o`rinda joylashadi. Meva turidagi naqsh nusxalarining bir necha turlari mavjud:

Bodom naqsh nusxasi . Islimi naqsh elementi bo`lib, zardo`zlik naqsh san`tida baxt-iqbol ramzi hisoblangan. shuning uchun XX asrgacha bo`lgan zardo`zlikning ajoyib namunalari bodom nusxasida tikilgan. Ayniksa, podsho va amirlar uchun tayyorlangan liboslarda ular ko`proq uchraydi. Bundan tashkari, ular ayol va bolalar kiyimi, do`ppilarida ham uchraydi.


Bodom naqsh nusxalari zardo`zlik naqsh nusxalari orasida eng boy nusxa hisoblanadi. Uning tuzilishiga kura bir necha turlari mavjud: bodom, kush bodom, bodomi xazoinok, bodomi na`lnok, iskandarpechoni bodomnok, bodomi shoxnok.

Oddiy bodom naqsh nusxasi boshqa turlarga Karaganda kam bezak bo`lib, ularga asosan uzunsoq ko`rinishdagi yakkabarg, dubarg va se barg ulanadi.

Qushbodom (bir juft bodom) nusxasida ikkita bodom murakkab usullarda bita nusxaga birlashtirilgan bo`lib, ularni tikish ancha kiyin bo`lgan. shu bilan birga bu nusxa juda go`zalligi bilan ajralib turadi.

Bodomi xazoinok (so`ligan bodom) nusxasida bodom uchlari erga tomon qayrilib turgan bo`ladi.

Bodomi na`lnok-taqa bilan to`ldirilgan bodom shakli. Bodomi shoxnok-bodom bilan shoxcha tasvirini beruvchi nusxa. Iskandarpechoni bodomnok bodom bilan iskandarpechonning uslublashtirilgan turi.



38-rasm "Bodom" nusxalarining turlari

Geometrk naqsh nusxalari`

Turunj naqsh nusxasi. «turunj» arabcha so`z bo`lib, «limon» degan ma`noni anglatadi. Turunji naqsh nusxalarini ko`zdan kechirar ekansiz, uning tuzilishini limonga xam, anjir ham o`xshatish mumkir. Turunj nusxasini tuzilishiga qarab quyidagi turlarga bo`linadi: turunj, turunji xazoinok, turunji na`lnok.


Turunj nusxasi odddiy ko`rinishda ko`proq anjirga o`xshash bo`lib, ularning tepa va yon qismlariga yakbarg, dubarg ulangan bo`ladi.

Turunji xazoinok (so`ligan limon) naqsh nusxasida turunjning tepa va pastki qismiga turli xil elementlar qo`shiladi.

Turunji na`lnok-turunjning taqa tasviri bilan boyitilgan tasvir.

Anor naqsh nusxasi anorning uslublashtirilgan meva shakli bo`lib, zardo`zlar ularni «gul» deb atashgan. Anor nusxalari bir nuktadan o`suvchi shoxlar asosidagi erkin kompozitsiyalarda ishlatilgan.

Angur (uzum) naqsh nusxasi. Bu nusxa juda kam ishlatilgan bo`lsada, tarxi o`ziga xos tarzda tayyorlangan. Bu nusxa tok novdasidan o`sib chiqqan uzum donalari va uzum zangidan iborat.



39- расм “Турунж” ва анор нусхаларининг турлари

Geometrik naqsh nusxalari

Geometrik naqshlar ham zardo`zlikda muxim ahamiyatga ega bo`lib, zardo`zlik san`tini turli naqsh nusxalari va usullari bilan boyitishga xizmat qilgan. Geometrik naqshlar to`g`ri chiziq, siniq chiziq, aylana, yarim aylana, besh yulduz va boshqa ko`rinishdagi nusxalardan tuzilgan. Geometrik naqsh nusxalarini tayyorlash va texnologiyasi va tikish usullariga ko`ra ikki turga ajratish mumkin:

1. Kartondan qirqib tayyorlangan naqsh nusxalari. Bunday geometrik naqsh nusxalari guldo`zi usulida tikiladi.

2. Zar iplar va qo`l choklari yordamida hosil qilinadigan nusxalari.


1. Kartondan qirqib tayyorlanadigan geometrik naqsh nusxalari: chShyolak aylana ko`rinishidagi naqsh nusxasi bo`lib, dirxam turidagi va butadori chilyolak turidagi kompozitsiyalarda ishlatiladi. chilyolak naqsh nusxasi tuzilishiga ko`ra ichi tikish usullari bilan to`ldirilgan chilyolak va ichi qubbi almosiy tarzida to`ldirilgan chilyolak turlariga bo`linadi.

Qo`shimcha nao`sh nusxasi-bosh kiyimlarda, ko`ylak yoqalarida ishlatilgan. Bundan tashqari, chopon elkasiga tikiladigan turunjlarning muhim qismi hisoblanadi.

Koshin naqsh nusxasi-kvadratlaridan tuzilgan shaxmat taxtasi ko`rinishida bo`lib, peshonabandlarda, do`ppilardagso`zanalarda ishlatiladi. Bu naqsh nusxasi zamindo`zi usulida tikiladi.

Sakkiz yulduz naqsh nusxasi-turunjlarda, dirxam turidagi kompozitsiyalarda ishlatiladi. Sakkiz yulduz atrofii guldo`zi, ichi esa zamindo`zi usulida tikiladi.


Besh yulduz naqsh nusxasi turunjlarda, dirxam kompozitsiyalarda foydalaniladi. Besh yulduz naqsh nusxalari asosan zardo`zi choponlarda ishlatiladi.



40-rasm. Kardondan qirqib tayyorlanadigan geometrik naqsh nusxalari

2.Choklar yordamida hosil qilinadigan geometrik naqsh nusxalari.

Bunday naqsh nusxalari to'g'ri chiziq, siniq chiziq, romb, uchburchak, to'rtburchak, beshburchak va hakozi figuralar ko'rinishlaridan iborat bo'lib, asosan, zamindo'zi usulida tikiladi. Bu turdagi naqshlar siddilar va sijilarning choklar yordamidagi kombinatsiyalari asosida hosil bo'ladi.



41-rasm qo'l choklari yordamida hosil qilinadigan geometrik naqsh nusxalari.

Odam va hayvonot tasvirini aks ettirgan naqsh nusxalari

Bu turdagi naqsh nusxalari XX asrgacha bo'lgan zardo'zlikda umuman uchramaydi. Bunga inson va boshqa mavjudodlarning tasvirlarini chizishni taqiqlagan islom dinining kuchli ta'siri sabab bo'lgan. XX asr boshlariga kelib zardo'zlikda ayollar bosh kiyimlarida, xususan, do'ppilarda qushlarning tasvirini aks ettiruvchi naqshlar paydo bo'la boshlagan. Bunday do'ppilarning tepa qismida to'vus, ba'zilarining girdida o'rdaknamo qushlar tasviri tushirilgan. O'sha davrda bunday zado'zi buyumlar buyurtma asosida tikilib, unchalik ommalashmagan. Keyinchalik qushlar tasviri tushirilgan naqsh nusxalari, Ayniqsa, to'vus nusxa naqshlar liboslardan tortib, uy-ro'zg'or buyumlarida ham ishlatiladigan bo'ldi.


XXI asr zardo`zligida esa humo qushining tasvirlari ko`zga tashlana boshladi. Mustaqilligimiz ramzi bo`lgan gerbimizda ham humo tasviri aks ettirilgan.

Tovus natsSh nusxalari-tovus patlaridek go`zal va nafis nusxalardan biridir. Bu naqsh nusxasining ayrim namunalari tovsning o`ziga aynan o`xshab ketsa, ayrimlari esa gulga ham o`xshab ketadi.

Humo kushi natsSh nusxasi-XXI asr zardo`zligida tieilgan gerbimiz tasviri tushurilgan buyumlarda, so`zanalarda, zardo`zi choponlarning turunjlarida uchraydi. Humo qushi qanotlarining tuzilishi ancha murakkab bo`lib, bu zardo`zdan kata mahorat talab etadi.

Bundan tashqari, XX asr zardo`zligida tinchlik qushi-kabutar, o`rdak, laylak va boshqa qushlar ko`rinishidagi naqsh nusxalarini uchratish mumkin.

Odamzot tasvirini aks ettiruvchi natsSh nusxalari-XX asrdan keyingi zardo`zlikda afsonaviy qahramonlar, mashhur kishilar, olimlar, davlat rahbarlarining portretlarini ko`rish mumkin.



42-rasm Xayvonot tasviri aks etgan naqsh nusxalari.

1.10 Naqsh kompozitsiyalarini tuzish qonun qoidalari

Xalq amaliy bezak san`ting qaysi turi bo`lmasin, uning zaminida turli naqsh elementlaridan tuzilgan kompozitsiya yotadi. «Kompozitsiya» lotincha so`zdan olingan bo`lib, «to`kish, tuzish, bir biriga solishtirish, joylashtirish, ayrim qismlarni ma`lum taribga bir butun qilib bog`lash» kabi ma`nolarni bildiradi. Bunda1 tanlangan naqsh kompozitsiyasiga ko`ra uning elementlari qog`oz yuzasiga bir-biriga bog`liq xolla joylashib, yaxlit kompozitsiya hosil qiladi.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzish uchun ularda ishlatiladigan naqsh elementlari bilan birga ularni kompozitsiyada joylashtirish qonun qoidalari hamda bosqichlarini bilish zarur. Kompozitsiya naqsh san`ting uyidagi qonun qoidalariga binoan tuziladi:

- naqshlardagi davriy takrorlanish, ya`ni ritmni aniqlash;
- naqshlardagi muvozanat-simmetriya va markazni topish;
- naqshlarda shakl, o`lcham va ranglar uyg`unligi garmoniyaga erishish.

1. Naqsh kompozitsiyasi tuzishda ikki, uch va undan ortiq qvyta ishlash asosida hosil qilingan elementlar yordamida eng soda naqshlarning xomaki variantlari tuziladi.


2. So`ng ulardagi ritm Aniklanadi. Ritm, maarom-naqsh elementlarining ma`lum tartibda va oraliqda uzluksiz takrorlanib kelishi davriyligini bildiradi.

3. Ritmdan so`ng kompozitsiya markazi Aniqlanib, naqshlar bu markaz atrofida simmetrik joylashtiriladi. Simmetriya-tenglik degan ma`noni anglatadi va naqsh elementlarining bir o`q chiziq atrofida bir xil o`lchamda joylashib, naqsh namunalarining bir butun va tugal ko`rinishda bo`lishini ta`minlaydi. Naqsh elementlarining simmetrik tuzilishi «rapport» naqsh bo`laklari va bo`linish joylari esa «taqsim» deyiladi.

Yo`l ichiga chizilgan hoshiya naqshlari simmetrik naqsh tarzida davriy (Ya`ni ritmik) takrorlanib keladi. yakka naqshlarda simmetrik mavjud, lekin ritm mavjud emas.

4. Naqshlar kompozitsiya markazida faqat simmetrik emas, assimetrik xam joylashishi mumkin. Assimetriya qonuni simmetriyaning aynan teskarisi bo`lib, kompozitsiyaning muvozanat qonuniga amal qilinmay, naqsh elementlaridagi dinamik harakatni ifodalaydi. Bunda naqsh kompozitsiyasidagi assimetriya yo`nalishi aniklanadi va naqsh o`q chizig`i, markaz kabilar shartli holda eoylashtiriladi. Assimetriya ko`proq islimi kompozitsiyalarda uchpaydi.

5. «Gormoniya» grekcha so`z bo`lib, «mutanosiblik, muvofiklik, bog`liq bo`lish» kabi ma`nolarni anglatadi. Kompozitsiya tuzayotganda Mashklar shakli, o`lchami va ranglari o`rtasida o`zaro muvofiklik bo`lishi lozim, shundagina undy go`zallik namoyon bo`ladi.



43-rasm. Naqsh kompozitsiyalari

Naqsh kompozitsiyalarini tuzish bosqichlari

Naqsh kompozitsiyalarini tuzish biror buyum yoki ma'lum bir yuzalarga ishlanadigan naqsh kompozitsiyasining dastlabki xomaki namunalarini ishlashdan boshlanadi. Bu xomaki namunalar «naqsh chizgilari» deb ataladi. Bu chizgilar rangsiz va pardozlarsiz ishlangan qoralama eskizlar ko'rinishida bo'ladi. Naqsh kompozitsiyasini tuzish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak naqsh kompozitsiyasi tuzish uchun naqsh elementlarini tanlash. Bu naqsh elementlari qachonlardir o'zlashtirilib olingan yoki kuzatilgan naqsh bo'laklaridan iborat bo'ladi va xayolan tanlab olinadi. Bunda ijodkorning fikr yuritishi, tasavvurlari, xotirasi va ish tajribasi kata rol o'ynaydi.


2. Chizilayotgan naqsh kompozitsiyasining shakl, o'lcham va taqsimlarini mo'ljalga olish. Tuziladigan naqsh kompozitsiyalari va hakoza bo'laklar (rapportlar) asosida tuzilib, uning nusxasi maxsus usulda kerakli joylarga ko'chirib tuxiriladi. Bu usuldan foydalanish uzoq vaqtlar mobaynida tarhkashtirish mehnatining illashtirib kelgan.

3. Yuqoridagi ko'rsatmalarga muvofiq, shakl yasovchi reja-qolip ramkasi nisbatda chizib olinadi. Tuziladigan kompozitsiyaning mazmunan boy va chiroyli tuzilishi naqshning asosiy shakl chegarasi va ramkasiga bog'liqdir. Tanlab olingan ma'lum shakllardagina naqsh elementlari yo'l, kvadrat, aylana kabi shakllar yordamida turli ko'rinishlardagi naqsh ramkalarini yasaydi.

4. Kompozitsiyaning qo'shbanddan iborat bo'lishligini nazarda tutgan xolla tanob (Yasovchi) joylashtiriladi.

5. Kompozitsiyaga novda, barg, gul va boshqa naqsh elementlari kiritilib, kompozitsiya murakkablashtiriladi.

6. Kompozitsiyaning asosiy shakliga ko'ra uni nomlash. Kompozitsiyaning shakl yasovchi reja-qolip ramkasining nisbatida chizilgan ana shu bo'lak «paxta» sifatida kompozitsiyaning nusxasini tayyorlashda foydalaniladi.



44-rasm naqsh kompozitsiyalari tuzish bosqichlari

Zardo'zlik naqsh kompozitsiyalari va ularning turlari

Zardo`zlikda qo`llaniladigan naqsh kompozitsiyalari va ularning atamlari o`ziga xos tarzda puxta ishlangan bo`lib, zardo`zlik san`atining ayrim bosqichlarini anglatishdan tashqari, bu san`atning uzoq davrlik taraqqiyot jarayonlaridan ham darak berib turadi. Zardo`zlik naqsh kompozitsiyalari ancha murakkab bo`lib, ulardagi elementlar zardo`zlar yashagan muhitdan o`zlashtirilgan. Kompozitsiya atamalari kompozitsiyadagi naqshlar tuzilishi hamda ularning joylashish tartibidan kelib chiqqan. Zardo`zlik buyumlari ham ularda qo`llanilgan kompozitsiyalarga qarab turlarga bo`lingan.

Zardo`zlik naqsh kompozitsiyasining quyidagi turlari mavjud:

**1. Dirxam (to`qima) turidagi kompozitsiyalar.** Dirxam turidagi kompozitsiyalar andozaning butan yuzasini bir sidra gul naqshlari bilan to`r, to`qima singari qoplab turadi va shu jihati bilan boshqa kompozitsiyalardan ajralib turadi. Bunda turli katta-kichiklikdagi romb, kvadrat, to`rtburchak va h.k. yo`l-yo`l shaklda qator tizilib, zich islimi naqshlar bilan to`ldirilib chiqilgan. To`rt yaproqli qubbal-madخال (madxali durun-ba-durun), uch yaproqli qubba –sebag, uch to`rt yaproqchali buta va butachalari-birg yoki bargli shulluki, majnunbed (manuntol yaprog`i), ayrim-ayrim joylashgan olti va sakkiz yaproqli gullar, aksariyat lola ana shu naqshlar sirasiga kiradi. Ko`pincha gul va yaproq naqshlari doira markazidagi gul yoki yulduz atrofida aylana (yoki salib) shaklida joylashib, geometrik shakllar tizimini to`ldirib turgan.

Dirxami daraxt kompozitsiyasi ham dirxam turidagi kompozitsiyaning ko`rinishlaridan biri. Dirxami daraxt kompozitsiya kashtalari ham bir tekis tushgan bo`lib, gul tushiriladigan joy parchalanmay, bachkanalashmay, g`oyat erkin tarzda yirik yagona markazga biriktiriladi. Daraxt islimi guli uzun tanadan iborat bo`lib, unga gul va yaproqlar chatilgan, goho bo`lak-bo`lak shoxlardan tana hosil etilgan, goho har tomonlama osilib turgan katta-katta sallagul (piyongul)lardan tuzilgan, chetlari qirqma keng yaproqlar juda o`ziga o`xshatib ishlangan. Bu kompozitsiya turi ancha boy va dabdabali bo`lib, to`y va tantanalarda kiyiladigan kiyimlarda ishlatilgan.

Davri gardish kompozitsiyasi-bu kompozitsiya ham dirxam turlaridan biri bo`lib, bunda daraxt yoki shox yirik jingalak butoq tarzida beriladi. Butoq uchida anorga o`xshagan, ammo zardo`zlar gul deb ataydigan yirik meva nusxasi ham bo`ladi. Bu kompozitsiyalar asoan yo`lpo`shlarda qo`llanilgan.

Poyabzallarning qo`nji uzun, o`kchasi baland mo`zi xitirchigiy deb atalgan turida va ayollar maxsilarida ham dirxam kompozitsiyalari qo`llanilgan. Bu poyabzallardagi gul naqshlari butun yuzani bir tekisda qoplab olgan. Ular, odatda, yo daraxt turidagi islimi naqshlardan, yoki gullardan, bir tekis sochilgan girx va xalqalardan iborat kompozitsiyalar bo`lgan. gul va girhlarning oralaridagi bo`shliq yaproq nusxalari yoei zar ipda tikilgan bodom, turnj kashtalardan iborat kompozitsiyalar bilan to`ldirilgan. Goho xuddi o`sha kashtalar yordamida guldonlardan «o`sib chiqqan» murakkab islimi kompozitsiyalar ham uchrab turadi.

Dirxam turidagi kompozitsiyalar zardo`zi chopon, poyabzal va yolpo`shlardan boshqa buyumlarda foydalanilmagan. Ular asosan, keng sathli

yuzalarda qo'llanilgan.

2. Butadori turidagi kompozitsiyalar. Yuza bo'ylab bir tekisda har tomonga yoyilib turgan bir dasta gul aks ettirilgan kompozitsiyalar butadori kompozitsiyalari deb atalgan. Gulning o'zi esa buta deyilib, unda gulning poyasi va yaproqlari, majnuntol novdalari, xurmo shoxlari, turli katta-kichiklikdagi g'irhlar, qo'sh bodom va h.k. ifodalangan bo'lishi mumkin.

Butadori tavqnok kompozitsiyasi ham butadori kompozitsiyasining bir turi bo'lib, bunda anzoaning butun yuzasi buta naqshi bilan to'ldirilib, faqat elkasida «tavq» (arabcha «xalqa») deb atalgan chiroyli gardishli turunji bo'ladi.

Butadori chilyoolak yoki jomi chilyolak kompozitsiyasida tikiladigan butun yuza bir tekisda chilyolak deb ataladigan xalqachalar bilan to'ldirilgani uchun shunday nomlangan.

Butadori daraxt kompozitsiyasi ham butadori tipidagi guruhga mansub bo'lib, aslida dirxami daraxtning variantlaridan biri hisoblanadi. Dirxami daraxtdan uning birgina farqi shundaki, bunda ma'lum bir oraliqda tik joylashgan daraxt tanasi to'xtovsiz takrorlanaveradi. Buta tikiladigan yuza bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri qatorlarga aksar holda shaxmat ko'rinishida joylashgan bo'ladi.

Butadori kompozitsiyasi ayollar libosida g'oyat noyob usul hisoblanib, u ko'proq katta yoshdagi erkaklar va bolalar buyumlarida qo'llanilgan. Bu kompozitsiyaning butadori tavqnok, butadori chilyolak va butadori daraxt deb atalgan turlari mavjud. Ular juda kam qo'llanilgan bo'lib, shunda ham katta yoshdagi erkaklar va bolalar liboslarida qo'llanilib, ayollar liboslarida mutlaqo qo'llanilmagan.

3. Davqur (davri qur-xoshiyalangan) kompozitsiyasi to'nlarning eng uchlari, barlari va quyi qismlarida qur xoshiya naqshi, to'n elkasida esa turunj naqshi joylashtiriladi.

4. Tavqi turunji naqsh kompozitsiyalari. Tavqi turunji naqshlarning turli-tumanligi va talqini bilan ajralib turadi, ular ham ko'rinishlari, ham katta-kichikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Ularning o'lchamlari diametrida 36x45 dan 48x56sm. orasida hisoblanadi. Tavq turunjlarini tuzish sistemasi bo'yicha ikki turga bo'lish mumkin.

1. Yopiq xalqa ichida tuzilgan tavqi turunji kompozitsiyalari.

2. xalqa ichiga olinmagan tavqi turunji kompozitsiyalari.

Yopiq xalqa ichiga olingan tavqi turunji kompozitsiyasi yo umumiy markazga ega xalqanamo kashtalar bilan, yoki oralari islimi naqshlarga to'la oltiburchak qatlamlari bilan to'ldirib chiqilgan. Ba'zan bu oraliqlar trapetsiyanamo qator yo'llarga ajratilib, butalar naqshi bilan bezab chiqilgan. Doira ichiga ko'pincha olti yoki sakkiz qirrali yulduz (sakkiz qirrali yulduz ikkita kvadratni bir-biriga mindirib yasalgan) shakli tushurilgan bo'lib, markaziy qismida bo'rtma g'irhli xalqa aks ettirilgan. naqshlarning har bir qismi mayda gul, yaproq, butoq va xurmo barglari shaklida tikilgan. Yulduzli xalqaning pastki qismida kashta bilan

tikilgan yarim oy nusxasi deyarli ikki buyumdan bittasida uchray turadi.

Yopiq xalqa ichiga olingan tavqi turunji kompozitsiyalarining boshqa bir turi kashta gullari baʼzan jimjimador saliblar, sernaqsh yoʻllardan toʻqima usulida yasalgan sakkiz qirrali yulduzlar, galma-galdan almashib keluvchi gulli girh va butoqchalar kompozitsiyasi, guldon shakli ichiga joylashtirilgan, erga qaragan yarim oy xalqasiga kiydirilgan murakkab islami kompozitsiyalaridan iboratdir.

Yopiq xalqa ichiga olingan tavqi turunji kompozitsiyalarining yana bir turida-oʻrtasida doira shakli boʻlib, uning gardishi sirt tomondan kunguralar bilan aylantirib chiqilgan. Kunguralar gardish qirrasini boʻylab, yakkabarg deb ataluvchi bir qator qilib tizilgan yakka-yakka yaproqlardan yoki bitta yaproq va bitta bodomcha shaklidan (gohida naʼlnok, yaʼni taqa shaklidan) tuzilgan. Baʼzan yakka-yakka yoki turkum-turkum holda keluvchi oʻsha yaproqchalar ishtirokida ham turunjlar gardishini kungurador qilib aylantirib chiqilgan. Gulchambar yoki oʻrilgan yaproqlar koʻrinishidagi murakkab islami naqshlardan ham kungura yasalgan.

Juda kamdan-kam hollarda istisno qilmasa, aytarli hamma turunjlarining markaziy tik oʻqi boʻylab qoʻshimcha bezak elementlari albatta uchray turadi. yaproqda xurmo yaprogʻi, odatda gʻoyat joʻn shakldagi 3-5 ta yaproq yoki elpigʻich koʻrinishidagi mayda uzum zanglari joylashgan. Turunji bezab turgan elementlar qanday gul shakli boʻlishidan qatʼiy nazar, toji gul nomi bilan ataladi, unga teskari tartibda joylashgan quyidagi naqshli bezak kaʼbi gul (guldon) deb atalib, madxal turidagi naqshlardan birining uslublashtirilgan ifodasidan iborat boʻladi.

Xalqa ichiga olinmagan tavqi turunji kompozitsiyalarining toji guli jihatidan yirik boʻlib, gohida gul, xurmo naqshi bilan, kaʼbi gul esa baland guldon bilan boyitilgan. Turunjlaridagi bu elementlar tavq uslubiga oid naqshlar islami xarakteridagi naqshlarga asoslanganligini koʻrsatadi. asta-sekin oʻzgara borgan tavq naqshlari koʻpgina hollarda oʻzining dastlabki islami shaklini yoʻqotib, uning oʻrmini geometrik shakl egallaydi. Islami talqinlarining oʻziga xos belgilari boʻlmish guldon va gulchambarlar endilikda yot unsurlargina boʻlib qoldi.

5. Davri se gula kompozitsiyalari. yirik gul qubbasi yoki yirik bodom shakli, goho qoʻsh bodom shakli bilan bezatilgan. Bu naqshlar yolpoʻshalarning markaziy qismida burchaklardan oʻrin olgan. Xuddi davqur kompozitsiyalarida boʻlganidek, gul naqshida ham dastlabki silimi shakllar ozmi, koʻpmi yoʻqolgan, ammo kaʼbi gul (guldon) islami talqining asosiy belgilari saqlanib qolgan. Se gula kompozitsiyalarida kaʼbi gul naqshining joylashuviga gʻoyat qatʼiy gʻavishda amal qilingan: markaziy gul hamisha bor boʻyi bilan pastga qaragan boʻlgan, qolgan ikkitasi esa burchaklarga tomon yoʻnalgan. Se gula kompozitsiyasi faqat yolpoʻshlarda foydalanilgan.

6. chor gul kompozitsiyasi-unda zargarlikka yoki zardoʻzlikka oid qubba-boʻrtma taqinchoq qoʻllanilib, har bir butoq yoki gulga uch donadan qoʻyib tikilgan. Bunday kompozitsiyalar chor guli duvoza (oʻn ikki qubballi toʻrt gul) deb atalgan. Bu kompozitsiyalar erakak va ayollar doʻppisida ishlatilgan.

7. Guldasta kompozitsiyasi-guldonlardan «o`sb chiqqan» murakkab islimi kompozitsiyalar bo`lib, ularning umumiy ko`rinishi buta yoki daraxt ko`rinishida, yaproqlar va gullardan iborat bo`ladi. Gullar turli ko`rinishda bo`lib, ba`zan meva shakllari ham gul o`rnida ishlatiladi. Bunday kompozitsiyalar ko`proq so`zanalarda ishlatilgan bo`lib, ular naqqoshlikda devorga chizilgan guldasta kompozitsiyalaridan olingan.

8. Buta kompozitsiyasi-kultapo`shakllarning dumlarida tikilgan.

Guli bibishak kompozitsiyasi-«guli bibishak» guli bilan almashib turuvchi «turunji na`lnok» kashtali xoshiya kompozitsiyasidir.

**10. Dabbusa (o`nta muchchi)**-atrofi ikki obazar ipida tikib chiqilgan, ularning o`rtasi-dabbusa sim bilan tikib to`ldirilgan, xozir esa oddiy zar iplarda tikiladi. Dabbusa guldo`zi usulida tikilgan, choklar usti tofta iplar bilan bezatib chiqilgan. Bunda tahrir bezatish usulidan foydalanilgan. Bu kompozitsiya «qandahori» tikiladigan joylarda uzun hoshiya (qo`r) sifatida qo`llanilgan. Bundan tashqari, peshonabandlar, do`ppilar va choponlarda shu kompozitsiyasidan foydalanilgan.

11. Qubbi almosi kompozitsiyasi-sariq bo`z ustiga tikiladigan qubba bo`lib, uning gullari 6 va 8 bargli bo`lishi mumkin. Qadimda qubbalarni latun zar ipida tikishgan, xozir esa oddiy zar ipda guldo`zi usulida tikiladi. Barglari tikib bo`lingach, ularning bo`sh qolgan oralari tahrir usulida to`ldirib chiqilgan. Qubbaning o`rtasida tikilmay qoldirilgan joy biror xildagi ipak ipda tikilgan. Bo`z ustiga tikilgan tayyor qubba kesib olingan, «gumbaz» hosil qilish uchun ostiga paxta qo`yib joyiga o`rnatilgan. Atrofi qobuli usulida sherozi zar ipda tikilgan, natijada ajoyib gumbazsimon kompozitsiya hosil bo`lgan.

12. Xazoni du raftor kompozitsiyasi-peshonabandlarda qo`llanilgan ajoyib kompozitsiyalardan biri.

13. Majnunbed kompozitsiyasi- peshonabandlarda tikilgan kompozitsiyalardan biri.

14. Mehrob kompozitsiyasi-peshonabandlarda tikilgan kompozitsiya.

**15. Sambo`sa kompozitsiyasi**-peshonabandlarda qo`llanilgan kompozitsiya.

16. Se kitoba (uch kitob) kompozitsiyasi-XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi bosh kiyimlarini bezashda keng qo`llanilgan. Bular yo cho`zinchok doiraviy to`rt yaproqli girhlar, yoki olti va sakkiz burchakli shakllardan iborat bo`lib, uchtasini bir qatordan qilib, silimi naqsh yoki yozuvlar bilan bezalgan barqut yoki zar tagzaminiga joylashtirilgan. Ba`zan bunday kitoblar ichiga fabrikada ishlangan oltiburchakli metall yulduzchalari taqilgan xalqachalar bilan bo`lingan. Yulduzchalar qimmatbaho toshlarga o`xshab ketadigan rangli shishaar bilan bezatilgan.

17. shulluki kompozitsiyasi-zulukbargning turlicha kfrinishlaridan iborat bo`lib, zeyi kurtalarda peshonabandlarda qo`llaniladi.

18. Xisht kompozitsiyasi-peshonabandlarda tikilgan kompozitsiyalardan biri.

19. Iskandarpechon kompozitsiyasi asosini karnaygulning poyasi tashkil etadi. Bu kompozitsiyaning turli nusxalarida an shu har xil boshqa naqsh nusxalari ulanadi. Bu kompozitsiyadan xoshiyalarda, ko`ylaklarning yoqalarida foydalaniladi.

20. Koshin kompozitsiyasi-koshin naqsh nusxalaridan tuzilgan bo`lib, bu kompozitsiya uchun ajratilgan yuza shaxmat taxtasi ko`rinishida tikiladi.

**21. Qo`shma kompozitsiyasi**-labirint shaklida bo`lib, xoshiyalarda va ko`ylak yoqalarida ishlatilgan.

22. Xazoni yak raftor kompozitsiyasi-ayollarning qaytarma yoqalarida tikilgan kompozitsiya bo`lib, novda, ugllar va barglardan iborat.

23. Moh yarim oy kompozitsiyasi-unda yarim oy ko`rinishidagi gullar bilan besh bargli yoki yulduz ko`rinishidagi gullar birgalikda qo`llaniladi. Bo`sh qolgan o`rinlar tangalak va marg`o`la usullari bilan to`ldirilgan.

24. Chor kitoba-to`rt kitoba kompozitsiyasi-zei kurtalarida tikilgan kompozitsiya.

25. Naft kitoba-etti kitoba kompozitsiyasi-bo` kompozitsiya ham zardo`zi ko`ylaklarning «zei kurta»larida tikilgan.

26. Xasht kitoba-sakkiz kitoba kompozitsiyasi-ko`ylakning yoqalari-zei kurtalarida tikilgan kompozitsiya.

Zardo`zlikda naqsh kompozitsiyalarini ko`chirish va qirqish (gulburi) usullari

Zardo`zlik texnologiyasiga ko`ra islimi naqshlar guldo`zi usulida, geometrik naqshlar esa zamindo`zi usulidahosil qilingan. Murakkab naqsh turlarida esa ikkala tikish usulidan ham foydalanilgan. Guldo`zi tikishusullarida zar ip tarxkashlar tomonidan tayyorlangan eskizga muvofiq kartondan qirqilgan gullar naqshlar ustidan tikilgan. Qadim zamonlarda karton bo`lmagani uchun maxsus ishlov berilgan qo`y terisi (mesh)dan tayyorlangan oq charmdan foydalanilgan. Tilla rang zar ip bilan tikish uchun esa oq charni sariq rangga bo`yashga to`g`ri kelgan. charm yumshoq bo`lgani uchun tekis chiqmagan, shu sabali usti surp yoki doka yopib, ustidan temir bilan urib teksilangan. Bunday usul XX asr o`rtalarigacha, ya`ni Buxoro amirligi Rossiya bilan savdo aloqalari o`rnatganiga qadar davom etgan.

Qog`ozga chizilgan naqshlar teri yoki kartonga axta usulida ko`chirilgan. Axta yordamida naqshlarni ko`chirib tushirish eng qadimiy usul hisoblanadi. bunda yupqa shaffof xitoy qog`ozi naqshlaridan yuzaga qo`yilib, o`lchab olinadi va shu yuzaga mos axta tayyorlanadi, ya`ni naqshning yarim yoki chorak qismi qog`ozga yumshoq qora qalam bilan chiziladi. Shaffof qog`oz simmetrik o`qlar bo`yicha ikki, to`rt va undan ortiq bo`laklarga buklanadi. Buklangan qog`oz yostiqcha ustiga qo`yiladi va naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa aniq va ravshan ko`rinishi uchun teshikchalar oralig`i naqsh nusxasining yirik yoki maydaligiga qarab belgilanadi. Nusxa qanchalik mayda

bo'lsa, teshikchalar oraliqi shuncha yaqin bo'lishi kerak. Shundan so'ng shaffof qog'oz yopib yuboriladi va butun naqsh nusxasi hosil bo'lgani ko'xga tashlanadi. Nusxa naqsh tushiriladigan charm yoki karton yuzasiga yoyilib, uning ustidan xoka bilan urib chiqiladi yoki engil bosib yurgiziladi, natijada naqsh nusxasi kerakli yuzaga o'tadi. Xoka izlari o'chib ketmasligi uchun darhol uning ustidan qalam yoki mo'yqalam bilan yurgiziladi. Xoka tayyorlashda maydalangan pistako'mir, bo'r kukuni yoki belil poroshogi yupqa mato yoki ikki qavat dokaga solinib xalta xolida tugiladi.

Endilikda zardo'zlikda tarxkashlar bu usulni bir oz o'zgartirgan holda qo'llaydilar. Ular milor bo'yog'i (gazeta bo'yog'i) bilan solyarka moyini aralashtirib, yumshoq lattaga shimdirishadi. Axta tushirilgan yupqa shaffof xitoy qog'ozi («kal'ka» ham deyiladi) naqsh tushirilgan karton yuzasi qo'yiladi va ustidan buyum bostirib qo'yiladi. Sababi, axta surilib, naqsh nusxasi sifati buzilmasligi kerak. So'ng moy shimdirilgan latta naqsh nusxasi ustidan sekin-asta yurgizalid. shundan so'ng naqsh nusxasi karton ustida mayda-mayda yog` dog`lari shaklida hosil bo'ladi. Xokadan ko'ra moyli lattaning afzalligi shundaki, uning izlari tezda o'chib ketmaydi.

Naqshlarni qirqish (gulburi) usullari

Qadimgi zardo'zlik buyumlari uchun naqsh qirqishning o'ziga xos usullari shakllangan va bu usullar «gulburi usullari» («gulburi» forscha «buri»-kesmoq, qirqmoq) deb atalgan. Podsho ustaxonalarida bunday xunarni yaxshi o'zlashtirgan xunarmandni «gulbur», ya'ni «gul kesuvchi» deb atashgan. ayrim xunarmandlar tarxkashlik bilan gulburlikni birga olib borishgan. Naqshlarni qirqishda oddiy qaychilardan foydalanish qiyin bo'lgan. shuning uchun ular o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan qaychi-shuturgardonni, ya'ni tuyabo'yin qaychini ixtiro etishgan. Bu qaychining tuzilishi xaqiqatdan tuyaning bo'yniga o'xshab ketadi. Bunday qaychi bilan naqsh qirqayotganda qaychi kartonning tagida turadi. Qirqayotganda asoan qaychini emas, balki naqsh kompozitsiyasi tushirilgan kartonni yurgazish kerak, shundagina qaychi bilan qirqayotgan chiziqlar tekis chiqadi. Naqshlarni qirqish avvalo ularning ichini «kovlab olishdan» boshlanadi. chunki gullarning ichi eng kichik qirqiladigan yuzalar hisoblanadi. bu yuzalar qirqib olingach, so'ng ular atrofidagi nokerak yuzalar qirqib olinadi. Demak, gullarni qirqish naqsh kompozitsiyasining markazidan chekkasiga tomon surilib boradi. Qubbi almosi tikiladigan yuzalarning bir qismi qirqilib, karton bo'lagi o'zida qoldiriladi. Tikilayotgan paytda ular olinib bo'laklarga bo'linadi va yana joyiga o'rnatilib, so'ng ustidan zar ip bilan tikiladi. Gullarni qirqayotganda qirqish chiziqlariga e'tibor berish kerak, aks holda, ularning ko'rinishi buzilishi mumkin, bu esa zardo'zi buyumining sifatiga katta ta'sir etadi.

Zardo'zlar naqsh nusxalari tagiga turli xil rangli mato bo'laklaridan fon qo'yish usulini «dili xonanok» deb atashgan. Bunda qirqilgan naqsh nusxasi teskaridan elimlangan va tanlangan mato bo'lagi ustiga qo'yiladi, uning ustidan esa tekis og'ir buyum qo'yiladi. Elim yaxshi yopishgach, mato bo'lagining naqsh nusxasi atrofidan chiqib turgan ortiqcha qismlari kichkina qaychi yordamida qirqib


tashlanadi. Bu usul naqsh kompozitsiyalarida zardo`zi usullari bilan qo`shilib, o`ziga xos ranglar jilosini hosil qiladi.

1.11 Zardo`zlikda naqsh kompozitsiyalarini joylashtirish usullari

Qadimda gulburlar naqsh nusxalarini qirqib tayyorlashgach, sarkorlar ularni buyum tahiga asosan buyum andozalariga mustahkamlab, joylashtirib chiqishgan. Naqsh nusxasini andozaga mustahkamlashning ham o`ziga xos usuli mavjud bo`lgan. Bunda xalqasimon choklardan foydalanilgan.

Halqasimon choklar buyum qismlari hamda zardo`zi qismlarini pishiq, elastik qilib birlashtirishda ishlatiladi. Bunda igna pastdan yuqoriga sanchilib, so`ng to`g`ri chiziq bo`yicha surilib, yuqoridan pastga sanchiladi. Halqasimon choklarda halqa orasida o`zak qism joylashgan bo`ladi. Naqshlarni andozaga mustahkamlashda naqsh nusxasini ko`rinishini hosil qiluvchi karton bo`laklari chok orasidagi o`zak qism hisoblanadi.

Bunda chok teskarisida igna qadamining uzunligi o`ng tomondagiga nisbatan ikki marta uzun bo`ladi. chok uzunligi naqsh kesimi enining uzunligiga bog`liq. Naqsh kesimi qalinlashdan oldin o`rinlarda zardo`zlar yarim choklardan foydalanishgan. Naqshlarni andozaga mustahkamlashda har 1sm da 2 chok to`g`ri keladi. Bu choklar vertikal yoki gorizontal joylashishi mumkin.



45-rasm Nashlarni andoza ustiga joylashtirish usuli.

Xalqasimon chok

Zardo`z ustalar zardo`zlik naqsh kompozitsiyalarining tuzilishiga qarab zardo`zlik buyumlarini ayrim-ayrim guruxlarga bo`lganlar. Naqsh kompozitsiyalarining asoslarini esa naqshlarni joylashtirish usullari tashkil etgan. Naqshlarni joylashtirish yo`llari zardo`zlik taraqqiyoti jarayonida asta-sekinlik bilan shakllangan va an`anaga aylanib borgan, shu boisdan ham o`ziga xos usul sifatida taraqqiy etgan. Biz zardo`zi buyumlardagi kompozitsiyalarning tuzilishini ko`zdan kechiradigan bo`lsak, har bir turdagi zardo`zi buyumlar uchun naqshlarni joylashtirishning o`ziga xos usullari mavjud bo`lib, ular shu turdagi har bir buyumda qayta takrorlanishini ko`ramiz.

Zardo`zlikda naqshlarni joylashtirish usullarni andozada ifodalash «raja olish» deb ataladi. Raja olish tikuvchilikdagidek bo`r? sovun bo`lakchalari bilan emas, balki oddiy iplar yordamida amalga oshiriladi. Bunda, avvalo, naqshlarni joylashtirishning xoshiya chiziqlari, ya`ni oba chiziklari o`rni o`lchab aniqlanadi va iplar tortiladi. So`ng qolgan naqshlarning o`rni ham loyiha asosida aniqlanadi va naqshlar joylashtiriladi. Raja olishning bunday yo`li qulay bo`lib, naqshlar joylashtirish zarur bo`lgan chiziqlar izi tez yo`qolib ketmaydi yoki matoni ifloslamaydi.

Naqshlarni joylashtirish usullari zardo`zi buyumlarda naqshlarni joylashtirish yo`llariga ko`ra bir necha turga ajratiladi:

I. Naqshlarni nuqtasimon joylashtirish turi. Naqshlarni nuqtasimon


joylashtirish usullari yuzalari kichikroq bo'lgan zardo'zlik buyumlarida qo'llaniladi. Naqshlarni nuqtasimon joylashtirish turi quyidagi usullardan iborat:

- a. yakka naqshlarni nuqtasimon joylashtirish usuli;
- b. Kompozitsion naqshlarni nuqtasimon joylashtirish usuli;


a). yakka naqshlarni nuqtasimon joylashtirish usulida naqshlarning alohida nusxalari kichikroq yuzalarda joylashtiriladi. Bunda naqshni nusxasi andozaning o'rtasida joylashadi. Biz bu xolni quyidagicha shartli ravishda belgilaymiz.

b). Kompozitsion naqshlarni nutasimon joylashtirish usuli.

Bu usulda ikki va undan ortiq naqsh nusxalardan tuzilgan kichikroq naqsh kompozitsiyalari anchayin kichikroq yuzalarda kulaniladi va ular bir butunlik xususiyatga ega bo'ladi. Ular xam xuddi yakka naqshlardek joylatsggiriladi. Naqsh kompozitsiyasi kichik bo'lganligi sababli kichikroq yuzalarga juda mos keladi. shartli belgisi 46-rasm a.b rasmlarda ko'rsatilgan.



a)




b)

46-rasm naqshlarni nuqtasimon joylashtirish turi.


II. Naqshlarni to'g'ri chiziq bo'yicha joylashtirish turi.

Naqshlarni to'g'ri chiziq bo'yicha joylashtirish turida naqshlar faqat hoshiyalar bo'ylab joylashtiriladi. Bunday joylashtirish usuli kichik yuzalarda hamda katta yuzalarda amalga oshiriladi va davqur kompozitsiyalarining asosini tashkil etadi. Naqshlarni to'g'ri chiziq bo'yicha joylashtirish ikki usulni o'z ichiga oladi:

- a. Naqshlarni gorizontal chiziq bo'yicha joylashtirish usuli;
- b. Naqshlarni vertikal to'g'ri chiziklar buyicha joylashtirish usuli.



a)



b)

47-rasm. Naqshlarni to'g'ri chiziq bo'yicha joylashtirish turi.


III. Naqshlarni yo'lyo'lsimon joylashtirish turi.

Bu turda usullar sirti ancha keng bo'lgan yuzalarda amalga oshiriladi. Bunda ritmik xususiyatga ega bo'lgan naqshlar anna shu ritm asosida yo tepaga qarab,

yoki yon tomonga qarab o`sb boradi va butun yuzani qoplaydi. Bunday tur usullari butadori kompozitsiyalarning asosini tashkil etadi. Naqshlarni yo`l yo`lsimon joylashtirish turi naqshlarning ritmik o`shish yo`nalishiga qarab ikki turga ajratiladi:

a. Naqshlarni vertikal yo`l yo`lsimon joylashtirish usuli.

Bu usulda asosan bo`g`inlari bir xil islimi elementlardan iborat bo`lgan vash u bo`tinlar asosida takrorlanuvchi butalar yoki daraxtsimon naqsh kompozitsiyalaridan foydalaniladi. Masalan, butadori choponlarda, yolposhlarda naqshlar shu usulda joylashtirilgan.



47-rasm..Naqshlarni gorizonta yo`l yo`lsimon joylashtirish usuli.

Bu usul asosida turli nusxalardan hosil qilingan kompozitsiyalar shu ritm yordamida o`sb boradi. Bunda simmetriya o`ki mavjud bo`lib, ritmik takrorlanish ana shu simmetriya o`kidan boshlanadi va ikki tomonga qarab o`sb boradi. Masalan, zardo`zi lozimlarda naqshlar shunday joylashtiriladi.

IV. Naqshlarni to`rsimon joylashtirish turi.

Bu tur usullari eng boy va kurkam usullardan bo`lib, ular sirti keng zardo`zi buyumlarda qo`llaniladi. Naqshlarni to`rsimon joylashtirish turining ikki varianti mavjud: birinchi variantda tur chegaralari guldo`zi usulda tikilib, ular ichida o`ziga mos islimi naqsh nusxasi joylashtirilishi mumkin. Ikkinchi variantida esa to`rlar chegarasi ko`zga ko`rinmas chiziqlar bo`lib, ular kesishgan nuqtalarda islimi naqsh nusxalari joylashgan bo`ladi. Buni biz dirxam kompozitsiyalarida ko`rishimiz mumkin.

Naqshlarni tursimon joylashtirish turi naqshlarning tuzilishi va ular hosil qilgan turlarning tuzilishiga qarab quyidagicha bo`ladi:

**1. Naqshlarni islimi to`rsimon joylashtirish usuli.** Bu usul zardo`zlikning eng go`zal dirxam kompozitsiyalarining asoslari bo`lib, bunda o`z-o`zidan o`sb butun buyum yuzasini qoplovchi novda yoki shoxga turli xil islimi elementlar (lola, barg, qubba, chinnigul, bodom va hakoza) ulanadi. Bunday kompozitsiyalar nozikligi va serxashamligi bilan ajralib turadi.

2. Naqshlarni geometrik to`rsimon joylashtirish usuli.


Bu usul Ayniqsa, variantlarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bu usul ham to`rlarning tuzilishiga qarab variantlar hosil qiladi.

3. Naqshlarni rombli to`rsimon joylashtirish usuli.

Bu usul eng ko`p qo`llaniladigan va xiyla murakkab usul bo`lib, bu usulning xam ikki varianti mavjud: Birinchi variantda to`rlar chegarasi darhol ko`zga tashlanmaydi, ular kesishgan nuqtalarda esa naqsh nusxalari joylashtirilgan. Masalan, dirhami chilyolak choponlari kompozitsiyalari shunday joylashtirilgan. Ikkinchi variantdagi dirhami lola kompozitsiyalarida esa to`rlarning chegaralari yaqqol ko`zga tashlanib turadi.

4. Naqshlarni kvadrat to`rsimon joylashtirish usuli


Bu usulda ko`pincha kvadrat tomonlari kesishgan nuqtalarda aylana yoki qubbi almosiy naqsh nusxasi joylashgan bo`lib, to`r chegaralarining atrofii guldo`zi, ichi esa zamindo`zi usulida tikilgan o`ziga xos ko`rinishga ega. Uning o`trasida kvadrat tuzilishiga mos islami naqsh joylashtirilgan.



49-rasm. Naqshlarni to`rsimon joylashtirish usuli.

5. Naqshlarni to`rtburchak to`rsimon joylashtirish usuli.

Bu usulda xam tur chegarasi guldo`zi usulda tikilib, uning ichida o`ziga mos islami kompozitsiyalar joylashgan bo`ladi.



50-rasm. Naqshlarni to`rtburchak to`rsimon joylashtirish usuli.


V. Naqshlarni salibsimon joylashtirish usuli.

Naqshlarni salib ko`rinishida joylashtirish usuli yuzasi juda keng bo`lgan zardo`zi buyumlarda-yolpo`shlarda, joypo`shlarda, so`zanalarda ishlatiladi. Bunda

naqsh kompozitsiyalari simmetriya o'ki atrofidagi ritmik harakat asosida hosil qilinadi va salibsimon joylashtiriladi. Ular bir yoki bir necha xalqalardan iborat bo'lishi mumkin. Halqalarning tuzilishiga ko'ra naqshlarni salibsimon joylashtirish usuli ham ikki variantga ega:

a. Naqshlarni yarim salibsimon joylashtirish usuli. yarim xalqali salibsimon ko'rinishda naqishlar yolpo'shlarda, zimistoni y oyoq kiyimlarida (mo'zi zardo'zi) joylashtirilgan.

b. Naqshlarni to'la halqali salibsimon joylashtirish usuli. Bu usul halqalarning tuzilishiga kura ikki variantga ega: ko'p halqali salib. Halqalarning soni asosan naqshlarning tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Enli naqshlarning kompozitsiyalari ham halqali salib ko'rinishida joylashadi. Ensiz naqsh kompozitsiyalari ko'p halqali saliblarni hosil qiladi




51-rasm. Naqshlarni salibsimon joylashtirish usuli.

Naqshlarni joylashtirish usullarining o'zaro chatishmalari

Zardo'zi buyumlarning naqsh kompozitsiyalari va ularning joylashish tartiblarini o'rganar ekanmiz, naqshlarning joylashtirishning hech bir usuli sof holda uchramasligini ko'ramiz. Demak, naqshlarni joylashtirish usullari ko'p xollarda aralah variantlarda ishlatiladi. Naqshlarni joylashtirish usullarining o'zaro kombinatsiyalari asosida joylashtirish murakkab kompozitsiyalar hosil qilish va ularni rivojlantirish imkonini bergan. Bunday kombinatsiyalar o'zining go'zalligi bilan ajralib turgan. chunki go'zallik negizida hamisha mutanosiblik yotgan. Albatta, to'g'ri kelgan usul o'zaro chatishtirilmasdan ularning asosiy xususiyatlari hisobga olingan. Biz zardo'zlik usullarida hamma usullarning o'zaro chatishmalarini ko'rishimiz mumkin:


1. yakka naqshlarni va kompozitsion naqshlarni nuqtasimon joylashtirish usullarining o'zaro kombinatsiyalari

2. Naqshlarni to'g'ri chiziq bo'yicha joylashtirishda vertikal va gorizontal chiziqdar bo'yicha kombinatsion joylashtirish.




52-rasm. Naqshlarni kompozitsion joylashtirish.

3. Naqshlarni islami va geometrik to`rsimon joylashtirish kombinatsiyalari.
4. Naqshlarni vertikal va gorizontaal yo`l yo`lsimon joylashtirish kombinatsiyalari.
5. Naqshlarni yarim va to`la halqali salibsimon joylashtirish usuli.



53-rasm Naqshlarni kompozitsion joylashtirish.



54-rasm. Naqshlarni yarim va to`la halqali salibsimon joylashtirish usuli.

1.12 Zardo`zlik maxsulotlari uchun zardo`zi usullarini tanlash va ularni

tikish texnologiyasi

Zardo`zlik usullari va ularning tasnifi

Zardo`z faoliyati asosini tashkil etuvchi zardo`zi usullarini texnologik jarayonlarida bajaradigan vazifasi hamda qo`llanishi o`rniga ko`ra 2 turga ajratish mumkin I. Tikish usullari II. Bezash usullari

Bu usullar zardo`zlik buyumlari tayyorlash texnologiyasida o`ziga xos o`ringa, usullar yig`indisiga va bajarish uslubiyatiga egadir.

I. Tikish usuli turlari.

1. Zardo`zi guldo`zi tikish turi:

a). Guldo`zi tikish usuli; b). shakarak tikish usuli; v). Sochmado`zi tikish usuli; g). Likkakdo`zi tikish usuli; d). Vag`ardo`zi tikish usuli;

2. Zardo`zi zamindo`zi tikish turi:

a) mavji yak ro`ya tikish usuli; b) mavji du ro`ya tikish usuli; v) mavji ocha-bachai (mavji cheg`i) yak ro`ya tikish usuli; g) mavji ocha-bachai du ro`ya (mavji pushtamohiy) tikish usuli; d). mavji sor-da-chor (du baxyagi, chor baxyagi) tikish usuli; e). mavji tunuk tikish usuli; yo) mavji shoxchai yak ro`ya tikish usuli; j), mavji shoxchai du ro`ya tikish usuli; z). mavji xanjari tikish usuli; i), mavji sambo`sa tikish usuli;

y). mavji sashmai bulbul (chortai, shishtai, xashtai, du ro`yai, chortai, du ro`yai shishtai) tikish usuli;

k), mavji shash xol (chortai, shishtai, xashtai) tikish usuli; l). Mavji xishti haram tikish usuli; n). mavji bozbandCha tikish usuli; o), mavji kandaxori(chortai, shishtai, xashtai) tikish usuli;

3. Zardo`zi bireshimdo`zi tikish turi: a), bireshimdo`ziguldo`zi tikish usuli; b) bireshimdo`zi zamindo`zi tikish usuli.

Bezatish usuli turlari:

1. Tofta yordamida bezatish turi:

a), tahrir bezatish usuli (tahriri xom, nim toba, yak toba, taxriri sherozi); b), tangalak bezatish usuli(tangalak, tangalaki dumchanok, tangalaki nuktez);

v) qobuli bezatish usuli(qobuli, qobuli dumchanok);

g) marg`o`la bezatish usuli (marg`o`la yak raftora, marg`o`lai du raftora, marg`o`lai dumchanok marg`o`lai nuktez);

d). kunguri sedona bezatish usuli (kungui sedonai yak raftora, du raftora);

e). xorak buzatish usuli (xorak, zorakitunuk);

yo). izmag bezatish usuli.

2. Bezaklar bilan bezatish turi: a). Likkak bilan bezatish usuli; b). Vag`ar bilan bezatish usuli; v). Pulakcha bilan bezatish usuli; g). shaba bilan bezatish usuli.

2. Zardo`zlikda naqshlarni tikish usullari va ularning tasnifi.

Tikish usullari turkumi zardo`zlikning asosiy usullaridan bo`lib, o`zining murakkabligi bilan zardo`zlikning boshqa usullaridan ajralib turadi.

Tikish usullari kartondan qir qilgan naqshlar ustini hamda tagini zar iplar

bilan tikishda qo'llaniladi. Tikish usullari zar iplarni turli choklar yordamida turlicha ko'rinishlarda naqshlar ustiga, siddilar ustiga yoki to'qridan-to'qri mato ustiga mustahkamlash bilan hosil qilinadi. Tikish usullari ulardan foydalanish o'rniga, ularda ishlatiladigan zar iplarning tuzilishi va choklarning ko'rinishiga ko'ra uch turga ajratiladi:

1. Zardo'zi guldo'zi tikish turi. Bu turga kiruvchi usullarning umumiy xususiyati shundaki, charm, karton, qalin qoqozdan qirgilgan naqshlar-gullar usti turlicha holatdagi zar iplar bilan butunlay qoplab tikiladi. «Guldo'zi» so'zi aralash so'z bo'lib, «gul»-gul, «do'zi»-forscha tikmoq, ya'ni «gullarni tikmoq» degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, siddilar yordamida hosil qilingan naqshlar usti likkak, vaqar bilan qoplab tikiladigan usullarni ham shu turga kiritish mumkin. Bu usullar aslida zardo'zligimizga xos bo'lmasa-da, ancha keng tarqalib bormoqda.

2. Zardo'zi zamindo'zi tikish turi. «Zamindo'zi» forscha «zamin»-er osti, tagi, «do'zi»-«tikmoq» degan ma'nolarni anglatadi. So'zning ma'nosidan ko'rinib turibdiki, zardo'zi tikish usullari naqshlar tagini yoppasiga zar iplar bilan to'ldirib tikish va turli naqshlar hosil qilish vazifasini bajaradi.

3. Zardo'zi bireshimdo'zi tikish turi. Bu tur usullari zardo'zlarning o'zlari tikayotgan gullarning aynan tabiatdagiga o'xshashiga intilishlaridan kelib chiqqan. Bunda naqshlar ipak iplar bilan tikilgan.

Zardo'zlikda naqshlarni tikish usullari va ularning tasnifi

Tikish usullari turkumi zardo'zlikning asosiy usullaridan bo'lib, o'zining murakkabligi bilan zardo'zlikning boshqa usullaridan ajralib turadi. Tikish usullari kartondan qirgilgan naqshlar ustini hamda tagini zar iplar bilan tikishda qo'llaniladi. tikish usullari zar iplarni turli choklar yordamida turlicha ko'rinishlarda naqshlar ustiga, siddilar ustiga yoki to'g'ridan-to'g'ri mato ustiga mustahkamlash bilan hosil qilinadi. Tikish usullari ulardan foydalanish o'rniga, ularda ishlatiladigan zar iplarning tuzilishi va choklarning ko'rinishiga ko'ra uch turga ajratiladi:

1. Zardo'zi guldo'zi tikish turi. Bu turga kiruvchi usullarning umumiy xususiyati shundaki, charm, karton. qalin qog'ozdan qirgilgan naqshlar-gullar usti turlicha holatdagi zar iplar bilan butunlay qoplab tikiladi. «Guldo'zi» so'zi aralash so'z bo'lib, «gul»-gul, «do'zi»-forscha tikmoq, ya'ni «gullarni tikmoq» degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, siddilar yordamida hosil qilingan naqshlar usti likkak, vag'ar bilan qoplab tikiladigan usullarni ham shu turga kiritish mumkin. Bu usullar aslida zardo'zligimizga xos bo'lmasa-da, ancha keng tarqalib bormoqda.

2. Zardo'zi zamindo'zi tikish turi. «zamindo'zi» forscha «zamin»-er osti, tagi, «do'zi»-tikmoq degan ma'nolarni anglatadi. So'zning ma'nosidan ko'rinib turibdiki, zardo'zi tikish usullari naqshlar tagini yoppasiga zar iplar bilan to'ldirib tikish va turli naqshlar hosil qilish vazifasini bajaradi.

3. Zardo'zi bireshimdo'zi tikish turi. Bu tur usullari zardo'zlarning o'zlari tikayotgan gullarning aynan tabiatdagiga o'xshashiga intilishlardan kelib chiqqan. bunda naqshlar ipak iplar bilan tikilgan.

a) Tangalaki dumchanoq (dumli tangalak).

b) Tangalaki nuktez (uchli tangalak).

Zardo'zlikda ishlatiladigan iplar va ularning assortimenti:

Yuqoridagilardan ma'lumki, «zardo'z» so'zi forschadan olingan bo'lib, «tilla iplar bilan kashta tikmoq» degan ma'noni bildiradi. Anna shunday tilla va kumush iplarni zardo'zlar yaltioqligiga qarab va tuzilishiga ko'ra «zar ip», «sim», «likkak», «vag'ar» va hakoza deb atashgan. Bunday iplar qimmatbaho metallardan maxsus texnologiya asosida tayyorlangan. Qimmatbaho metall zardo'zi naqshlar tikiladigan matoga oddiy g'altak iplar yordamida mustahkamlangan.

G'altak iplar-Zardo'zlikda Zardo'zlik buyumlarning bulaklarini biriktirish, zar iplarni qo'l choklari yordamida materialga mustahkamlash va naqshlar hosil qilish, turli xil bezaklarni tikib, gul xosil kilish kabi muxim vaziflarni bajaradi. G'altak iplar paxta, ipak, zig'ir tolali va sintetik tolalardan to'kiladi. Paxta iplari taroqli usulda yigirilgan yuqori sifatli xom ipni eshish, pishitish va pardozlash yo'li bilan olinadi. G'altak iplar surtang, Mayin pardozlangan yaltiroq va qattiq qilib pardozlangan yaltiroq xillarga bo'linadi. Ular turli xil ranglarda bo'ladi. Yo'g'onligiga karab 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100, 120 savdo nomerlarida bo'ladi. Zardo'zlikda asosan 40-nomerli sariq va kizil ranglari ishlatiladi.

Ipak ip-xom ipakdan ikki qayta pishitib olinadi. Oldin bir necha xom ipakni birlashtirib buraladi, keyin shu buralgan iplarni uchadan qilib birlashtirib, oldingi buramaga teskari buraladi. Pardozlash jarayonida ipak ip qaynatiladi va turli ranglarga bo'yaladi.

Ipak iplar paxta iplariga Karaganda pishikrok, yuvishga chidamli, quruk holatda kam cho'ziluvchan. Ipak iplar 75, 65, 33, 18, 13 savdo nomerlarida ishlab chiqiladi.

Sintetik iplar-sintetik tolalarni pardozlash orqali olinadi. Ular ishlatiladigan sohalar yildan-yilga oshib bormokda. Sintetik iplar ichida filament, kapron va lavsan iplar eng ko'p ishlatiladi. Sintetik iplar uzilish va ishqalanishga yaxshiroq chidaydi, uncha kirishmaydi, yorug'lik va ob-havo ta'siriga, oksidlanish, kimyoviy reaktivlar, chirish va mog'orlashga chidamli bo'ladi. Ularning umumiy kamchiligi issiqqa chidamligisizdir.

Mulina iplar-Zardo'zlikda ipak ipdan tayerlangan mulina iplar xam ishlatiladi. Qadimda eng a'lo sifatli ipakdan tayerlangan «birishimi tillo chor tor», ya'ni «to'rt yo'lli zar ip» degan mashhur mulina ipi hamda joydori rangdor ipak iplardan foydalanilgan. Bui pak iplarga tabiiy bo'yoq berilgan. Ular naqshlar ichini zamindo'ziy usulda to'ldirib tikishda ishlatiladi.

Metall iplar (zar iplar) va ularning assortimenti:

Metall iplar-zardo'zlikda juda zarur bo'lgan va eng ko'p ishlatiladigan iplardir. Metall iplar kadimda sof oltin yoki kumushdan tayerlangan. Keyinchalik ular miss yoki miss qotishmalaridan qilingan simni asta-sekin cho'zish yoki yassi alyuminiy lenta (folgani qirqish yo'li bilan olingan). Ip sirtida turli yaltiroqlik hosil qilish uchun unga oltin yoki kumush qatлами surkaladi. Ba'zi metall iplargarangli pigmentlar va sintetik ximoya plyonkasi qoplanadi. Metall iplarning quyidagi turlari mavjud:

Dumaloq metall ip (likkak)-pishiq yigirilgan ingichka dumalo q metall

ipdan iborat bo'lib, u prujinaga o'xshab likillab turadi. XX asr boshlariga qadar u faqat kumush toladan pishiq yigirib tayerlangan. Uning tilla va kumush ranglilari mavjud bo'lib, tilla ranglilariga tilla suvi yugurtirilgan. Tilla yoki kumushning qalinligiga qarab, oddiy turi hamda 2(5) lisi mavjud bo'lgan. Hozirda miss va uning qotishmalariga kimyoviy usulda ishlov berish yo'li bilan tayyorlanadi. Likkak zardo'zlikda zardo'zi tikishda va bezatishda bo'laklarga bo'lib ishlatiladi.

1.13 Zardo'zlik bezaklari.

Zardo'zlikda iplar bilan birga bezaklar ham muxim ahamiyatga ega. Ular bir-birini to'ldirib, zardo'zi buyumlar chiroyini yana xam oshiradi. Bezatish usullari, asosan, ana shu bezaklar yordamida tikib hosil qilinadi. Zardo'zlikda bezaklarning bir necha turlari mavjud.

Likkak-qimmatbaho metall toladan pishiq yigirilganligi uchun jingalak-jingalak bo'lib purjinaga o'xshab likillab turadigan bezak. Tilla yoki kumush ranglari mavjud. Bezatishda ham bo'laklarga bo'lib ishlatiladi.

Vagar-beshburchaksimon spiral ko'rinishdagi metall bezak. Tilla va kumush ranglilari mavjud. Bezatishda ham bezaklarga bo'lib ishlatiladi.

Olmos kubballar-turli nav oltindan yasalgan zargarlik taqinchoqlariga o'xshab ketuvchi bo'rtma naqshlar. Ular XX asrgacha bo'lgan zardo'zlikda ishlatilgan. Hozirda bunday naqshlar zar iplar bilan tikiladi.

Zarhal no'galar-qora sim va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan navis naqsh.

Pulakchalar-turli xil ko'rinishdagi yapaloq yassi bezak bo'lib, o'rtasida materilga mustahkamlash uchun qadash o'rni bor. XX asr zardo'zlikda uning faqat doira ko'rinishidagisi ishlatilgan. Xrzir uning barg, yulduzcha, yarim oy, gul ko'rinishdagi turlari mavjud. Pulakchalar plastmass plastinkalardan tayyorlanib, ular ga tilla yoki kumush suvi yugurtirilgan, nikellangan yoki turli ranglarda laklangan bo'ladi.

Shabalar (munchoqlar)-ular plastmassadan yoki shishadan tayyorlanadi. Plastmassadan tayerlangan shabalarga tilla yoki kumush suvi yugurtirilgan, turlicha ranglarda laklangan. Shisha shabalar esa silikat shishasidan tayyorlanadi. Silikat shishilari elektr pechlarida yuqori haroratda eritiladi, eritmaga xrom, kobalt, marganets, temir, olitn, kumush va hokazo birikmalari qo'shiladi va sovuq havoda qotiriladi. Bunday bezaklar pishiq, yorug'lik va o'tga bar do shli bo'ladi.

Tafta ip-Yassi sim yo'g'on ipak bilan yigiriladi yoki bir necha dumaloq metall iplar birgalikda buralib pishitiladi. Faqat ipak iplardan tayerlangan tafta iplar xam mavjud. Ular, asosan, zardo'zi naqshlar atroflarini bezatishda ishlatiladi.

Jiyaklar-zardo'zlikda bezak sifatida ishlatiladi. XX asrgacha bo'lgan zardo'zlikda ipakdan to'qilgan naqshkor fabrika jiyaklari ishlatilgan. XX asr zardo'zligida esa zar iplardan to'qilgan jiyaklar ishlatila boshlandi. Ular o'zining ko'rkamligi va yaltirokligi bilan zarduzning estetik qimmatini oshiradi.

Eslatma: Zardo'zlikda umuman furnitura ishlatShmaydi. (Furnitura tugma, shgak, tgtsa va boshtsalar).


Zardo'zi guldo'zi tikish usuli turlari

Bu tikish turi zardo'zlik san'atining qadimiy va asosiy usullari jamlangan

turi bo'lib, bu usullarning umumiy xususiyati-Charm, kartondan qirqilgan, siddilar yordamida hosil qilingan naqshlar usti zar iplar bilan qoplab tikiladi. Bu tur ga guldo'zi, shakarak, sochmado'zi usullari hamda siddilar ustiga tikiladigan likkakdo'zi vag'ardo'zi usullari kiradi.

Guldo'zi tikish usuli. Guldo'zi tikish usluli zardo'zlikning qadimiy usullaridan biri bo'lib, zardo'zlikda ko'p qo'llaniladi. Bu usulda kartondan qirqilgan naqshlar usti zar iplar bilan bir tekisda qoplab tikiladi. Bu usulda faqatgina gullar usti tikilgani uchun ham «guldo'zi» deb atalgan. Guldo'zi usulida zar ip matoni teshib o'tolmasligi sabali ular matoning teskari tomonidan oddiy iplar bilan mustahkamlangan. Matoning ustiga kartondan qirqilgan gullar ustidan zar iplarni mustahkamlashda iroqsimon choklar qo'llaniladi.


Iroqsimon chok buyum qismlarini va zardo'zi qismlarni pishiq qilib biriktirishda, gazlama bo'laklari chetlarining titilib ketishining oldini olishda qo'llaniladi. Bu chokqatorlar chapdan o'ngga tomon tikiladi. Igna naqsh kesimiga parallel ravishda teskari yo'nalishda sanchiladi. chok uzunligi zar iplar tikiladigan naqshlar eni uzunligiga bo'g'liq bo'ladi. Bunda chokan chiziqning bir tomonida 7 ta, ikkinchi tomonida esa 6 ta chok to'g'ri kelishi kerak. choklarni hosil qilishda sariq va qizil rangli iplardan foydalaniladi.



55-rasm. Zardo'zi guldo'zi usullarini tikishda qo'llaniladigan iroqsimon chok va uning tuzilishi


Qadimda zardo'zlik texnologiyasida guldo'zi va zamindo'zi usullarida foydalaniladigan zar iplarning soni belgilangan. Bu chegara zardo'zlar tomonidan zar iplarning mayin yoki qalinligiga, naqshlar hosil qilgan karton kesimlari va siddilarning tuzilishga qarab belgilangan. Zar iplarning mayin yoki qalinligi zar iplar o'ralgan g'altaklarning (etiketkasi) yorlig'idan bilib olish mumkin. Bu erda zar iplarning qaerda ishlab chiqarilganligi, uning umumiy uzunligi, og'irligi va mayinlik darajasi ko'rsatilgan bo'ladi. Agar yorliqda «№50» belgisi ko'rsatilgan bo'lsa bu zar ipdan 4-5 qavat guldo'zi usulida tikish mumkin. Agar yorliqda «№150» belgisi qo'yilgan bo'lsa undan 5-6 qavat qilib tikish kerak.

Zar iplardan foydalanishdan ilgari ular belgilangan chegarada, ya'ni naxda uzun qilib olinadi va patilaga o'raladi. Zar iplar to'tridan to'g'ri patilaga o'ralmasdan, avval oddiy ip patilaga mahkam qilib bog'lanadi, so'ng shu ipga zar iplar ulanadi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga ulansa, tezda uzilib ketishi mumkin. Zar iplarni o'rayotganda ularning tekis o'ralashiga e'tibor berish zarur.




56-rasm. Zardo'zi guldo'zi tikish turlaridan biri-guldo'zi tikish usuli

2. Shakarak tikish usuli. Bu tikish usulida ham naqsh kesimlari usti xuddi guldo'zi usldagidak 4-5 qavat zar ip iblan qoplab tikiladi. Faqat bunda zar iplar eshilgan, yigiralgan holda ishlatiladi. Bunda zar ip avval ikki qavat qilib eshiladi, so'ng o'rtacha eshilgan zar ip yana ikki qavat qilib eshiladi. Bunday usulda maxsus gullar va barglar tikiladi. Zardo'zi gullar orasida sebarga, panjbarga, lola kabi naqsh nusxalari shu usulida tikilsa, juda chiroyli chiqadi. Bu tikish usuli guldo'zi usuliga juda o'xshasada, undan bir oz farq qiladi. sharsarak usulida tikilgan gullar jimirlab tovlanishi bilan ajralib turadi.



56-rasm. Zardo'zi guldo'zi tikish turi-shakarak tikish usuli

3. Sochmado'zi tikish usuli. Qadimdan zardo'zlar o'zlari tikayotgan gullarning bir oz bo'lsa-dag tabiatdagiga o'xshashini istashgan. shuning uchun ular sochmado'zi usuli o'ylab topishgan. Bunday usulda ular tikish uchun ikki qavat zar ip va bir qavat mayin ipak ip birga qo'shib eshilgan. Asosan, lola sebarga, panjbarga gullar shu usulda tikilgan. Har gal sochmado'zi tikilganda zar ip bilan ipak ip birgalikda, albatta, o'rtacha qilib eshilishi kerak. Bu usul gullarga tiriklik mavjini beradi. Sochmado'zi yirikroq zardo'zi uy-ro'zg'or bubmlarida ishlatiladi.




58-rasm. Zardo'zi guldo'zi tikish turi-sochmado'zi tikish usuli

4. Likkakdo'zi tikish usuli. Bu usul aslida bizning zardo'zligimizda xos bo'lmasdan, chetdan keltirilayotgan zardo'zi buyumlarning ta'sirida paydo bo'lgan. Ayniqsa, Hindiston, Erondan keltirilgan zardo'zlik buyumlari XX asr

zardo`zligida yangidan-yangi usullarning paydo bo`lishiga olib keldi. Mustaqillikdan so`ng XXI asr boshlarida likkado`zi, vag`ardo`zi usullarning juda keng urin olganligining sababi shu davrgacha zardo`zlikdagi taqiqlar sababli asosiy tikish usullarining xalq orasida unutilganligidir. Bu usullar tiklana borishi bilan yana ular zardo`zligimizda o`z o`rnini egallay boshladi.

Likkakdo`zi usulida karton naqshlar o`rniga siddilar ishlatiladi. Likkak bo`laklarga bo`linib, bo`laklar siddilar ustiga tikiladi. Bo`laklar siddilarning yo`g`on yoki mayinligiga bog`liq bo`ladi.

**6. Vagardo`zi tikish usuli.** Vag`ardo`zi usulini xuddi likkakdo`zdek tikiladi. Bunda ham naqshlar karton o`rniga siddilardan hosil qilinadi. Vag`ar bo`laklarga bo`linib siddilar ustidan tikib chiqiladi.




59-rasm. Zardo`zi guldo`zi tikish usuli

Zardo`zi zamindo`zi tikish turlari

Zardo`zi tikish usullaridan yana biri-zamindo`zi tikish usulidir. Zardo`zi guldo`zi usulida tikkanda kartondan tayyorlangan naqshlar usti zar iplar bilan tikilib, ularning tagi tikilmasdan qoladi. Zardo`zi zamindo`zi usulida esa naqshlarning aynan shu tikilmagan zamini yoppasiga zar iplar bilan tikiladi. Zardo`zi zamindo`zi usuli ham qadimiy usullardan bo`lib, ikki yo`l bilan tikilgan: 1) siddilardan hosil qilingan pilta (to`shma) ustiga hamda 2) to`g`ridan-to`g`ri mato ustiga tikish. Ikkala hola ham naqshlar tagiga mato qo`yilgan va bu mato «zarcho`ba» degan qattiq bo`yoq bilan sariq rangga bo`yalgan bo`lishi kerak. Qadimda naqshlar tagiga charm, bo`z, ba`zan karbos deb atalgan mahalliy material, xom, surp, pardalik singari matolar qo`yilgan va zamindo`zi ana shu materiallar ustiga tikilgan. O`sha paytda zar iplar' matolar dan teshib o`tkazilgan. Zar iplarni mayin matolardan teshib o`tkazish oson bo`lsa-da, kalin matodan zar ipning o`tishi qiyin bo`lgan, o`tgan taqdirda ham uzoqqa chidamagan, titilib ketgan. shundan so`ng zar iplar pilta ustiga tikiladigan bo`lgan.

Pilta siddilardan hosil qilingan. Zardo`zlikda siddilar tayyorlashning ham o`ziga xos usuli bo`lgan. Siddilar, asosan, ipak iplardan tayyorlangan, kamdan-kam hollarda paxta ipidan foydalanilgan. Siddi uchun tanlangan ip dastavval yana suda ivitilgan. So`ng 4 yoki 5 qavat qilib eshilgan, keyin yana 2 qavatdan 8 qavatgacha qilib eshilgan, natijada ingichka yoki yo`g`on chilvirga o`xshab qolgan. Ana shu ipni zardo`zlar «siddi» deb yuritishgan. Siddilarning ingichka yoki yo`g`onligi ulardan hosil qilingan to`shama ustiga tikiladigan zamindo`zi usuliga bog`liq bo`lgan.

Zardo`zlar siddilardan keragicha tayyorlab, ularni patilaga o`rashgan va pilta tayyorlashga kirishilgan. To`shama tayyorlash jarayoni «siddiy bo`ston» deb atalgan. Qadimda siddiy bo`ston ikki xil usulda amalga oshirilgan: agar tayyorlangan siddilar ingicha bo`lsa, ular matodan teshib o`tkazilgan; agar siddilar yo`g`on bo`lsa va matoni teshib o`tkazilayotanda matoni yirtib yuborish xavfi bo`lsa, ularni mato ustidan ingicha ip bilan qadab-qadab qo`yishgan.




60-rasm. Siddiy bo`ston jarayoni.

Zardo`zlik to`shamalari zamindo`zi qanday o`lchovlarda lozim bo`lsa, shu o`lchovlarga moslab zardo`zlik dastgohida ko`ndalagiga yonma-yon qilib 8, 20, 24 qatordan tortilgan. Zar iplar bilan tikkanda qo`l choklari asosida hosil qilinadigan naqshlar siddilarning soniga bog`liq bo`lgan. shuning uchun siddilar sanab tikilgan, agar ular bitta kam yoki ko`p bo`lsa ham naqsh nusxalari bo`zilgan.


Siddilardan pilta tayyorlash jarayoni tugagach, sijjalarni tayyorlashga kirishilgan. Pilta yo`llariga ko`ndalang tarzda qator qilib yotqizib siqiladigan zar iplar «sijjilar» deb atalgan.

Tikilayotgan zamindo`zi usuliga qarab sijjilar 4, 6, 8 va undan ortiq zar iplardan eshilmasdan tayyorlanadi va patilaga o`raladi. So`ng sijjilar pilta iplari-siddilarga mustahkamlanib chiqiladi. Qo`l choklar tikilayotgan usulning ko`rinishi, tasviriga ko`ra siddilar va sijjilar kesishgan yuzaga keltiriladi. Chok xosil qilgan ipak yoki paxta ip ip zar ipni qisib turganidan qator chukurchalar hosil qilib, ip bilan tikilmagan o`rinlar xiyol do`ppayib qolavergan, bu keng sath uzra to`lqinsimon chiziqlar hosil qilgani uchun zardo`zlar tilida «mavj» (to`lqin) degan nom olgan.



61-rasm. To`lqinsimon "mavj" turlari.

Haqiqatdan, tinch turgan suv yuzasiga tosh otsangiz xuddi zardo`zlik naqshlaridek ko`rinish hosil qiladi.



62-rasm. Tinch turgan suvga tosh otganda xosil bo`ladigan to`lqinlar.(Mavjlar).

Agar siddilar qanchalik ingicha va ular qatori qanchalik zich qo`yilsa, choklar shunchalik nafis va bejirim chiqqin. Zardo`zlik piltasi ham sariq rangga bo`yalgani uchun zarrin iplar bir-biridan qochganda ham ular oralig`ida paydo bo`luvchi yoriqlar darhol ko`zga tashlanmagan. Siddilarni ilgari zardo`zlarning o`zlari zarcho`ba bilan bo`yaganlar.

Zamindo`zi usullari orasida mavji xanjari va qandahori usullari piltasiz to`g`ridan to`g`ri matoning ustiga tikilgan. Bunda ham bu usullar tikiladigan matoning qismi zarcho`ba bilan sariq rangga bo`yalgan. Zardo`zlar bo` usullarni tikishdan ilgari choklarning izini iplar tikilayotgan joyining tuzilishiga qarab qalam bilan bilintirmasdan chizib chiqqanlar. So`ng choklar shu izlardan tikilib, zar iplar matoga mustahkamlanib chiqilgan va o`ziga xos ko`rinish hosil qilgan. Mavji xanjari asoan uchburchak ko`rinishdagi joylarda, mavji qandahori esa nostandart o`rinlarni to`ldirishda ishlatilgan.

Chatib tikish asosida «mavj»lar hosil qilish zardo`zlarning ijodiy xayollari va kashfiyotchiligi uchun keng imkoniyatlar to`g`dirgan. Mavjning bir necha turi yuzaga kelganing boisi ham chatishning bir necha tur da amalga oshirilganligidandir. Hosil bo`lgan naqshlar faqat geomterik bo`lib, ular to`rtburchak, romb, besh yulduz, oltiburchak va hokazo ko`rinishida bo`lgan. shu tariqa vujudga kelgan chokli kashtalar uchun zardo`zlikda o`ziga xos atamalar ishlab chiqilgan va ular avloddan-avlodga hech `ir o`zgarishsiz o`tib kelgan. Zardo`zlar ularni undagi naqsh yasovchi elementlarning yo`nalishiga va hosil qilish uslubiga qarab nomlaganlar. Ana shu xususiyatga ko`ra ularni quyidagi to`rt xil uslubdagi yo`nalishlarga ajratish mumkin:


1. yak ro`ya (Yak raftora) uslubidagi mavjlar (bir yoqlama yoki ibr tomonlama to`ltsin). Bu uslubdagi mavjlarga quyidagi eng oddiy mavjlar kiradi:

1. Mavji yak ro`ya (bir yoqlama to`lqin);
2. Mavjt ocha-bachai yak ro`ya (bir tomonlama oan-bolato`lqin);
3. Mavji chor-dar-chor (to`rtga to`rt to`lqin);

4. Mavji shoxchai yak ro`ya (bir tomonlama shoxcha to`lqini);

5. Mavji tunuk (mayin to`lqin).

Ko`rinib to`ribdiki, yak ro`ya uslubidagi mavjlarda mavj yasovchi elementlar faqat bir tomonga, bir yoqqa yo`nalgan bo`ladi.




63-rasm. yak ro`ya (Yak raftora) uslubidagi mavjlar.

**II. Du ro`ya (AU raftora) uslubidagi mavjlar** (ikki yoqlama yoki ikki tomonlama to`ltsin). Bu turdagi mavjlarning elementlari murakkabroq bo`lib, fazo va makonda ikki yoqlama yoki ikki tomonlama yo`nalishini egallaydi:

1. Mavji du ro`ya (ikki tomonlama to`lqin);

2. Mavji ocha-bochai do`ro`ya (ikki yoqlama ona-bola to`lqin);


3. Shoxchai du ro`ya (ikki tomonlama shoxcha to`lqini).



64-rasm. Du ro`ya (AU raftora) uslubidagi mavjlar.

**III. Se ro`ya (se raftora) uslubidagi mavjlar** (uch yoqlama yoki uch tomonlama to`ltsin). Bu turdagi mavj elementlari ancha murakkabroq bo`lib, fazoda va makonda uch yo`nalishda davom etadi.

Mavji xanjari (bo`g`iz ko`rinishdagi to`lqin).



65-rasm. Se ro`ya (se raftora) uslubidagi mavjlar.

**IV. Chor ro`ya (chor raftora) usulidagi mavjlar** (to`rt yoqlama yoki to`rt tomonlama to`ltsin). To`rt yoqlama mavjlar asosan ikki yoqlama yoki ikki tomonlama mavj yasovchi elementlarni bir-biriga to`nkarib hosil qilingan:

1. Mavji sambo`sa mavji du ro`ya eelementlari bir yuiriga to`nkarish natijasida hosil qilingan.


3. Mavji chashmi bulbul mavji shoxli ro`ya yasovchi eelementlarni simmetriya chizig`iga bir-biriga yuzlangan holda joylashishi natijasida hosil bo`lgan.

3. Mavji shash xol mavji du ro`ya yasovchi elementlarni bir-biriga to`nkarish natijasida hosil qilingan.

4. Mavji xishti haram mavji du ro`ya yasovchi elementlarni to`nkarish natijasida hosil bo`lgan.

5. Mavji bozbandcha ham mavji du ro`yani yasovchi elemntlarni to`nkarish va burchaklarni qirqish natijasida hosil qilingan.

6. Mavji qandahori to`g`ri chiziqlarning to`g`ri to`rt burchak ichidagi labirint bo`ylab harakati natijasida hosil qilingan.




66-rasm. Chor ro`ya (chor raftora) usulidagi mavjlar.

Zardo`zi guldo`zi naqshlar ustini qoplab turgan zar iplarning tarkibi va

holatiga bog'liq ravishda paydo bo'lsa, zardo'zi zamindo'zi usullari qaviqqatorlar hosil qilgan qo'l choklarining xilma-xilligi tufayli yuzaga kelgan. Zardo'zlar qo'l choklarini «baxya», ular hosil qilgan chok qatorlarini esa «baxyaqatorlar» deb atashgan. Zardo'zlarning mahorati tufayli baxyaqatorlardan tuzilgan baxyalar zamindo'zining har bir turida o'ziga xos naqsh ko'rinishini hosil qilgan.

Zardo'zi zamindo'zi usullarini tikishda tepchima choklar (baxyalar)dan foydalaniladi. Bu choklar buyum qisimlarini va zardo'zi qismlarini biriktirishda qo'llaniladi. Igna o'ngdan chiqarilib, zar iplar-sijjilar ustidan o'tkazilib, chap tomondan sanchiladi, natijada sijji siddilar ustiga mustahkamlanadi. Bu choklar siddilar orasida joylanadi va sanab tikiladi. chok uzunligi sijjilarni tashkil etgan zar iplar soniga bog'liq bo'ladi. Chok hosil qilishda qizil va sariq rangli g'altak iplar ishlatiladi.




67-rasm. Zardo'zi zamindo'zi usullarini tikishda foydalaniladigan tepchima chok va uning tuzilishi.

Zardo'zlikda naqshlari bezatish usullari va ularning tasnifi

Zardo'zlar naqshlar usti va tagini tikish usullarida to'ldirib tikishdan bo'lsada, baribir, zardo'zi buyum naqshlarning ayrim o'rinlari bo'sh qolagn. shunda ular naqshlarni bezatish usullarni kashf etishgan. Bu usullar o'ziga xos ko'rinishlarga ega bo'lib, ular tabiatdagi o'simliksimon eelementlarni qayta ishlash orqali hosil qilingan. XIX asr oxiri XX asrgacha bo'lgan zardo'zlikda naqshlarning bo'sh qolgan o'rinlarini to'ldirish hamda zardo'zi siroyiga chiroy qo'shish maqsadida ana shunday o'siliksimon eelementlar ko'rinishidagi bezatish usullaridan foydalanilgan. XX asr zardo'zligida asta-sekin pulakcha, likkak, vag'ar kabi bezaklar bilan bezatish usullari shakllana borgan. Bu usullarda naqshlarning bo'sh qolgan o'rinlari turli xil bezaklar yordamida hosil qilingan kompozitsiyalar bilan to'ldirib bezatilgan.


Ko'rinib turibdiki, naqshlarni bezatish usullarining vazifasi bir xil, lekin vositalari har xil bo'lgan ikkiat turga ajratish mumkin.

Tofta ip yordamida bezatish turi. Bunda tofta ip tikiladigan bezatish usulining ko'rinishi hosil qiluvchi chiziq ustidan tikib boriladi. Ularni tikishda xalqasimon choklar qo'llaniladi. Xalqasimon chokda o'zak qism mavjud bo'lib, chok ana shu o'zakni kerakli o'ringa mastahkamlab turadi. Bu erga o'zak-tofta ip hisoblanadi. Bunda igna tofta ipning bir tomonidan chiqarilib ikkinchi tomoniga sanchiladi. chok uzunligi o'zak qismning qalinligiga bog'liq bo'ladi.



68-rasm. Tofta iplar yordamida bezatish usullarida qo'llaniladigan xalqasimon choklar.

3. Bezaklar bilan bezatish turlari. Bu bezatish turi zardo'zligimizga XX asr boshlarida kirib kelgan bo'lib, hozirda juda tez rivojlanmoqda. Bezaklar bilan bezatish usullari xam bezaklarning turiga qarab bo'linadi. Bu usullarning ham o'ziga xos o'rni va tikishning o'ziga xos yo'llari mavjud bo'lib, bu zardo'zlar fantaziyasining mahsulidir. Bezaklarni kerakli o'rinlarga joylashtirishda to'g'ri choklardan foydylaniladi. Bunda igna pastdan tepaga sanchilib, bezaklar tiziladi, so'ng tepadan pastga sanchiladi. Bezaklarni joylashtirish shu tarzda davom etadi. chok uzunligi va ular soni xosil qilinadigan bezak naqshning tuzilishiga bog'liq bo'ladi.



69-rasm. Bezaklarnimustaxkamlashda qo'llaniladigan xalqasimoni choklar.

Tofta ip yordamida bezatish turlari


Bu tur uslullari juda qadimiy bo'lib, ular orqali chiroyli bezak gullar hosil qilinadi. Bu usullar tabiatdan olingan islimi naqshlar hosil qilib, ular tofta ip yordamida tikiladi.

Tofta ip yordamida bezatish turiga quyidagi usullar kiradi: Tahrir usuli. Bu ko'rinishi iskandarpechoning to'g'ri o'sgan chirmovini eslatadi. Ma'lumki, zardo'zlikda zar bo'laklari ilintirib tikiladi. Bu iplar ozgina bo'lsada, ko'zga tashlanib turadi. shu boisdan gullarning barchasi tikib bo'lingach, uning chekka qirg'oqlari pishiq yigirilgan zarrin ip yoki ipak ip-tofta yordamida nozik yo'l qilib aylantirib chiqiladi. Demak, tahrir zardo'zi usullarining kamchiliklarini tuzatishga xizmat qiladi va shu sababdan ham «tahrir usuli» deb atalgan. Tahrir usuli asosan guldo'zi atroflarini to'ldirish uchun, ayrim hollarda zamindo'zi atroflarini bezatishda ham ishlatiladi. Tahrir usulini quyidagi turlari mavjud:

- a. Tahriri xom. Tahriri xom-4-5 qavat zar ipdaneshilmasdan tikilgan;
- b. Taxriri nim toba. Bu usul 4-5 qavat yarim eshilgan zaripdan tikilgan;
- v. Taxriri yak toba. Taxriri yak toba 4-8 yo'l ipni eshibtikilagan yoki bir qavat tofta ipdan tikilgan. Tahrirning buusuli keng tarqalgan;

g. Taxriri sherozi. 2-4 yo'l zar ipni ikki tanob qilibeshib tikilgan yoki ikki qavat tofta ipdan eshib tikilgan tahrir«taxriri sherozi» deb atalgan va faqat shohona buyumlarda ishlatilgan.

«Tahriri sherozi» dan tashqari barcha turlari oddiy buyumlarda, ya'ni bozor uchun tayyorlangan buyumlarda tikilgan. Tofta yordamida tahrir usulini hosil qilish uchun tofta oddiy pechak iplar orqali kerakli chiziq ustiga mastahkamlangan. Bunda kumush rangli tofta oq rangli, tilla rang tofta uchun esa qizil yoki sariq rangli iplar tanlangan.




70-rasm. Tahrir usullari. Tahriri xom, Taxriri nim toba, Taxriri yak toba, Taxriri sherozi.

2. Tangalik bezapgish pgurlari. Bu uzum zangi yoki qo'y shoxining ko'rinishini eslatgani uchun ham «tangelak» deb nomlangan. Tangelakni zar gullar orasini to'ldirish uchun ishlatish mumkin. yana bo'sh joy qolsa, unga marg'o'la qo'shib tikilgan. Tangelak turlari:


a. Tangelak. Oddiy tangelak yupqa matoga 4-5 qavat zar iplar dan tayyorlangan tofta bilan, bahmalga esa 8-10 qavatli iplar dan hosil qilingan tofta iblan tikilgan;

b. Tangelaki dumchanoq (dumli tangelak)


v. Tangelak piktez (ichli tangelak)



71-rasm. Texnologik xarita. Tangelak.




72-rasm. Tangelaki dumchanoq (dumli tangelak);



73-rasm. Tangalaki nuktez (uchli tangalak).

3. Qobuli bezatish usuli. Bu usul Afg'onistondan kirib kelgan bo'lib, uning poytaxti nomi bilan atalgan. Afg'on va hind zardo'zilari zar tikishning bu xilinin ko'p ishlaganlar. Qobuli bezatish usuli asosan, bodom, chilyolak kabi zardo'zlik gullari, geomterik kashtalar, qubba atrofi va zamindo'zlarning ichki tomonlarida ishlatilgan. Qator xalqachalardan iborat bo'lgan bu usul ishlatilganda zardo'zi yanada chiroyliroq bo'ladi. Qobuli 8 qavat zar ipdan tayyorlangan sherozi tofta yordamida tikilgan. Qobuli bezatish usulining ikki varianti mavjud:

- a. Qobuli;
- b. Qobuli dumchanots (dumli qobuli);
- v. Qobuli nuktez (uchli qobuli);




74-rasm. Texnologik xarita. Qobuli.

4. Marg'o'la (forscha «zulf, jingalak» degan ma'nolarni anglatadi) bezatish usuli.

Marg'o'la bezatish nomidan ham ko'rinib turibdiki, ayollar zulfidek jingalak-jingalak ko'rinishga ega bo'lib, u ayollar peshonalarida, ro'mollarida, kamkor chopon hoshiyalarida, uy-ro'zg'or buyumlarida ishlatilgan. Marg'o'laning quyidagi turlari mavjud:

- a. Marg'o'lai yakraftora (Yakka holdagi tofta bilan tikilgan marg'o'la);

- b. Marg`o`lai du raftora (bir-biriga o`ralgan ikkita toftadan tikilgan marg`o`la);
- v. Marg`o`lai dumchanok (dumli marg`o`la);
- g. Marg`o`lai nuktez (uchli marg`o`la).



75-rasm. Texnologik xarita. Marg`o`la.

5. Kunguri sedona (uch dona aylana). Haqiqatdan, bu usulning ko`rinishi uch dona aylanadan iborat bo`lib, bu aylanalar birlashib, o`ziga xos ko`rinishini hosil qiladi. Ana shu gul toftayordamida tikiladi.


Kunguri sedonaning quyidagi variantlari mavjud.

a. Kunguri sedonai yak raftora (bir yo`lli kunguri sedona). Bunda 6 qavat zar ipdan hosil qilingan tofta yordamida yupqa, nafis gazlamalarga tikilgan;

6. Kunguri sedonai du raftora (ikki yo`lli kunguri sedona) Bu variant sherozitofta yordamida baxmal ustiga tiikilgan;

v. Kunguri sedonai dumchanok (dumli kunguri sedona);

g. Kunguri sedonai nuktez (uchli kunguri sedona). Kunguri sedona bo`sh qolgan o`rinlarni to`ldirish va naqshlar atrofiga qo`shimcha bezak berishda qo`llaniladi. Bu bezatish usuli qariyb barcha zardo`zlik bo`yumlarida uchraydi.



76-rasm. Texnologik xarita. Kunguri sedona.

b. Xorakdo`zi (xorak forscha «tikoncha» degan ma`noni anglatadi U bezash usuli. Zardo`zi tikishning bu usuli XIX asr oxirida ixtiro qilingan bo`lib, Zardo`zlikning kurkam usullaridan biridir. Xorak guldo`zi hamda simda tikilgan naqshlar atroflarida bezak sifatida taxrir o`rnida ishlatilgan. Geometrik naqshlar atrofi yo taxrir, yo qobuli usulida aylantirib siqilgan bo`lsa, yaproq nusxa gullar atrofi esa xorak usulida, ya`ni cho`zinchoq xalqachalar yordamida gardishlangan. Xorakning ikki turi mavjud.


a. Xorak. 4-5 qavat zar ip bilan tikilgan;

b. Xoraki tunuk. 6 qavat zar ip bilan yupqa va nafismatolarga tikilgan.



77-rasm..Texnologikxarita. Xorak.


7. Izmag bezatish usuli. Juda kam ishlatiladigan usul. Bu tikish xildan xotin-qizlaring ayrim qimmatbaho o`ylaklaridagina foydalanilgan. Bunday ko`ylaklarga zeyi peshi kurta (ko`ylakning old hoshiyasi) o`tqazilgan. Ana shu old kiem atrofiga izmag tikilgan. Izmag uchun zar ko`p sarflangan. Zardo`zlar zarni tejash maqsadida izmani ipak ip bilan, hoshiyanigina zar ip bilan tikishgan. Izmag juda zich va nafis tikilganidan tagidagi mato ko`zga tashlanmagan.



78-rasm. Texnologikxarita. Izmag.

Bezatisht usullarining o'zaro kombinatsiyalari tasnifi va ularning tuzilishi

1. Tahrir va tangalak usullarining kombinatsiyasi.
2. Tahrir va marg'o'la usullarining kombinatsiyalari.
3. Tangalak va marg'o'la usullari o'zaro kombinatsiyalari.
4. Kunguri sedona va qobuli kombinatsiyasi.



79-rasm. Tofta yordamidatikiladigan Oezatish usullari kombinattsiyalari. a-Taxrir va tangalak. b-taxrir va Marg'o'la v-kunguriy sedona va qobuliy g-marg'o'la va tangalak


Bezaklar bilan bezatish turi

Bu bezatish turi zarduzligimizda XX asr boshlarida kirib kelgan bo'lib, endilikda keng qo'llanilmaqda. Bezaklar bilan bezatish usulining foydalaniladigan bezaklarning turiga qarab bir necha variantlari mavjud:

1. Pulakchalar bilan bezatish usuli. Bu usulda pulakchalar yordamida naqshlarning bo'sh qolgan o'rinlari bezatiladi. Bunda pulakchalarni materialga mustahkamlashda munchoklardan yoki likkak bo'laklaridan ishlatiladi.

2. Vagar bilan bezatish usuli. Bu bezatish usulida zardo'zining bo'sh qolgan ayrim urinlari bezatiladi.


3. Likkaklar bilan bezatish usulida ham zardo'zining bo'y qolgan o'rinlari bezatiladi.



80-rasm. Bezaklar bilan bezatish turi.

Bezaklar bilan bezatish usullaring o`zaro chatishmalari




1. Pulakcha va vag`ar.
2. Pulakcha va likkak.
3. Likkak va vag`ar.



81-rasm. Bezaklar bilan bezatish usullari kombinatsiyalari.

Zaro`zlik buyumlari turlari





II. BOB. KASHTACHILIK

2.1. Kashtachilik tarixi

Kashta tikish san`atining ko`p asrlik tarixi bor. Arxeologlarning **IX-XII** asrlarga oid topilmalari o`adimgi Rus` davrida ham kashta bo`lganidan dalolat beradi. Bu topilmalar bezak gullari zar iplardan tikilgan kiyim parchalaridir. qadim zamonlarda uy-ro`zg`or buyumlarini, atoqli kishilarning kiyimlarini zar tikib bezashgan.

Kashta tikish san`ati an`analari muntazam rivojlana boradi, **XIV-XVII** asrlarda kiyimlarni, kundalik buyumlarni bezashda kashta yana keng qo`llaniladigan bo`lib qoldi. Zar va kumush iplarni dur va chaqmoq toshlar bilan qo`shib cherkov liboslariga, podSho va boylarning qimmatbaho shoyi va baxmal kiyimlari kashta tikar edilar. Rangli ipak va zar iplar bilan to`y sochiqlarini, erkaklarning zig`ir tolasidan tikiladigan yupqa bayram ko`ylaklarini, ro`mollarni bezashardi. Kashta tikish asosan taniqli oilalarning ayollari va rohibalar orasida keng tarqalgan.

Kashta tikish san`ati asta-sekin hamma joylarga tarqaladi. **XVIII** asrdan boshlab kashtachilik aholining hamma tabaqalari xayotiga kirib, dexqon qizlarining asosiy ishlaridan biri bo`lib qoladi.

Uy-ro`zg`or buyumlarini-sochiqlar, to`r hoshiya, dasturxonlar, bayram va kundalik kiyimlarlar, peshbandlar, bosh kiyimlar va boshqalarni kashtalar tikib bezalgan. Odatda bu buyumlar oddiy, arzon materiallardan, lekin yuksak badiiy mahorat bilan tikilar edi.

Kashta tikish usullari, gullar, ranglarining mujassamlanishi avloddan-avlodga o`tib takomillashdi. Sekin asta eng yaxshi kashtalar tanlanib qoldi va milliy xususiyatlari bilan xarakterli betakror kashta namunalari yaaratildi.

Xalq ustalari kashta tikib bezagan buyumlar chiroyli gullari bilan, ranglarining bir-biriga mosligi, to`la mutanosibligi bajarish usullarining profesional aniqligi bilan ajralib turadi. Kashta tikilgan har bir buyum amaliy vazifasiga to`g`ri keladi.

Muzeylarda xalq kashtachiligining ko`p namunalari to`plangan, **XIX** asr kashtalarining eng yaxshi saqlanib, shu kunlargacha etib kelgan. Kashtalar dexqoncha (xalq) va shaharcha kashtalariga ajratiladi. shahar kashtalari doimo g`arb modasi ta`sirida bo`lgani uchun, uning mustahkam an`analari bo`lmagan.

Xalq kashtachiligi rus dehqonlarining qadimgi urf odatlari va marosimlari bilan bog`liq bo`lgan. chunonchi 13-15 yoshli dehqon qizlari seplarini o`zlari tayyorlashlari lozim bo`lib, xoshiyalar, kiyim bezaklari bosh kiyimlar sovg`alardan iborat edi.

Dehqon oilasida qo`l xunari bilan ayollar shug`ullanishgan, gazlama to`qishgan, kashta tikishgan. shu ish jarayonida ular o`z mahoratlarini oshirishgan, bir-biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o`rganishgan.

qo`lda to`qilgan ziqir tola va jun gazlamalardan ayollar kiyimlari tikilar edi. Ularni faqat kashta tikib emas, balki to`rlar, jiyaklar va rangli tichdan qo`ymalar tikib bezashar edi. Turli gubernalarning o`ziga xos, ajralib turadigan kiyimlari bo`lar edi. Ular nimaga mo`ljallanganiga (kundalik kiyishga, bayramlarga, to`y marosimlariga) qarab turlicha bo`lar, turli yoshdagilarga (qiz bolalarga, yosh ayollarga, yoshi ulg`aygan ayollarga) moslab tikilar edi.

Kashta gullarining xarakteriga va tikilish usullariga ko`ra juda turli-tumandir. Ayrim oblastlarda, ba`zan esa rayonlarda ham o`ziga xos usullar, naqsh motivlari, rang echimlari bo`lgan. Ular ko`proq mahalliy sharoitga, turmushga, urf-odatlarga, tevarak-atrof muhitga bog`liq bo`lgan.

Kashta o`ziga xos milliy xususiyatga ega bo`lib, boshqa xalqlar kashtasidan ajralib turadi. Bunda geometrik naqsh, o`simlik va hayvonlarning geometriklashgan shakllari: romblar, ayollar gavdasining, qushlar, daraxt yoki gullagan shoxlarning, shuningdek bir oyog`ini ko`tarib turgan qoplonning tasvirlari katta rol` o`ynaydi. Issiqlik xayot simvoli bo`lgan quyosh romb, aylana, topbarggul shaklida tasvirlanar edi, ayol gavdasi va gullab turgan daraxt erning xosildorligini, qush-bahor kelganini ifodalar edi. Kashta gulining joylashishi va tikish usullari to`g`ri gazlama laxtaklaridan tikiladigan kiyim shakliga uzviy bog`liq bo`lgan. choklarni gazlama ipini sanab tikilar, buni sanama chok deyilar edi. Bundan choklar bilan elka oldini, eng uchini, ko`krakdagi qirqmani, fartuk etagini, kiyim etagini osongina bezasa bo`ladi. shuningdek kashta biriktiruvchi choklar bo`ylab ham tikiladi.

Chizilgan kontur bo`yicha tikilgan "ixtiyoriy" kashtalarda o`simlik xarakteridagi gullar ko`proq bo`lgan.

qadimgi choklariga quyidagilar kiradi: chizma yoki chala iroqi, to`plama, iroqi, sanama, tekis chok, iroqisimon, baxyasimon, oq mayda choklar. Keyinroq o`yma, rangli chirmashma, bo`g`ma chok, gipyurlar, popop chok kashta, oq va rangli tekis chok kashta paydo bo`ldi.

Badiiy xunarmandchilik ijodiy kollektivlari xalq kashtachiligi an`analarni, uning maxalliy badiiylik xususiyatlarini avaylab asramokdalar va rivojlantirmoqdalar.

2.2 Kashtadagi naqsh

Kashta tikish uchun kashta gul, rasm bo`lishi zarur. Ko`pincha kashta uchun rasm sifatida usimliklarning, gullarning natural tasviridan, shuningdek, reproduksiya va otkritkalardan ko`chirilgan syujetli suratlardan foydalaniladi. Bunday «kashta gulni» badiiy deb bulmaydi, ular dekorativ-amaliy san`atning xususiyatlariga javob bermaydi. Bundan tashkari kashta gulni tikishda xama detallarini Tula ifodalab, uni «jonli» chikarishga kanchalik urinsak xam, u baribir unday chikmaydi va buyumni bezata olmaydi. Faqat rang-tasvir vositalar yordamida ishlangan nur va soyalar xajmni keltirib chikaradigan, shu bilan birga rassom uylamay-netmay tabiatdan aynan kuchirishga intilmagan rasmgina naturaga yaqinrok bo`lishi mumkin.

Realistik tasvirga erishish kashta tikish vazifasiga kirmaydi. Kashta mustakil axamiyatga ega bulmay, uy-ruzgor buyumlarini bezashgagina xizmat kiladi. Kashta tikilgandan keyin badiiy kimmatga ega bo`ladigan predmet asosiy rol` uynaydi.

Rassom kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozitsiyaga aylantiradi. «Naqsh » suzi lotincha «ornamet» («bezak») deganidir. Naqsh bilan san`at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo`lib, vazifasiga va qanday materialdan yasalishiga butunlay boglik bo`ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (masalan, guli, kush kabi) xarakterli belgilari tanlanadi. Xayvon, kush, usimlik motivlarini aniq ko`rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziklarigina burttirib kontur qilib chiziladi. Bunday motivlarning tekis tasviri naqshning bir qismi bo`lib qoladi, bezatiladigan buyumning yuzasi bilan uzviy boglanib ketadi.


Bezakda o`simlik va jonivor motivlarining talkin kilinishi naqsh xarakteriga, gazlama fakturasiga, bajarish texnikasiga bog`lio` bhladi. Masalan, qulupnay mevasi va barglari turlicha ifodalanishi mumkin va bu qanday chok bilan

tikilishiga bog'lik. 82-rasm, a, b, da shunday motivning ikki xili: tekis chokli va oq mayda baxyasimon chokli, ya'ni turga sanama tikish texnikasi ifodalangan. Birinchisidan bezak elementlarining chetlari tekis chizikli bo'lib kulupnayning mevalari va barglarini eslatadi. Uning mevalarini qizil rangli, barglarini jigarrang va yashil, gullarini oq rangli iplarda tekis kashta chok bilan tikish mumkin.

Ikkinchisida meva va bargi shoxlar turga tikilgani uchun geometrik shaklga kirgan. Bunday kashtaga faqat oq ip kerak bo'ladi.


Biror narsani tikishdan oldin uning umumiy badiiy echimini uylab kurish, bezakning, undagi ayrim bulaklarning buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan xamma narsani aniqlab olish kerak.

Kompozitsiya xarakteri ko'proq ritmga-naqshdagi aloxida elementlar yoki element gruppalarining konuniy almashinishiga bog'lik bo'lib, Bu kompozitsiya ifodali bo'lishiga, aniq idrok etilishiga yordam beradi.




82-rasm .


82-rasmda yo'l ichidagi naqsh bezaklari ifodalangan bo'lib, xar bir yo'lda ma'lum umumlashtirilgan uslubda, bita motiv bir yoki bir necha marta takrorlanib, ritmik qator xosil kiladi. Mutlaqo bir xil elementlarining yoki elementlar gruppasining takrorlanishi rapport deyiladi (82-rasmda gulning rapporti ajratib ko'rsatilgan).




83-rasm.



84-rasm.



85-Rasm



86-Rasm

Buyumning butun yuzasi (masalan, gilamning) yoki biror qismi (salfetkalar cheti yoki yostik jildining o`rtasi) naqsh bilan bezatilishi, buyumning (dasturxon) yuzasi buylab bazi naqsh motivlari sochilgan bo`lishi mumkin va hokazo.

Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va hokazolar) dan, shuningdek tulkinsimon, sinik chiziklar, spirralardan, usimlik motivlari (barglar, gullar, shoxlar, daraxtlar) dan jonivorlar dunyosi (xashorotlar, kushlar, baliklar, xayvonlar) tasviridan, shuningdek, umumlashgan odam kiyofasidan foydalanish mumkin. Ba`zan naqshda geometrik shakllar bilan tabiat motivlari kushilgan bo`ladi. Naqshning xama nakslari mutanosib bo`lishi kerak.

Ba`zan bezakda motivlar kaytarilmaydi. Bezak simmetrik va asimmetrik asosda tuzilishi mumkin. Bunday bezak ham naqshli bo`ladi.

Rus kashtasi bezaklariga simmetrik, ya`ni asosiy chiziklar, shakllar, ranglarning gorizonta yoki vertikal simmetriya ukiga nisbatan konuniy joylanishi xarakterlidir. Gul bitta, shuningdek, ikkita yoki bir nechta simmetriya ukiga nisbatan tuzilishi mumkin.

83-rasmda gulning bitta simmetriya ukiga nisbatan tuzilish printsipli ko`rsatilgan, bu gul kuzgudagi kabi takrorlanishiga asoslangan.

Kompozitsiya muvozanat printsipigiga asosan tuzilishi mumkin bo`lib, bunda bezakning qismlari bir birini muvozanatlab turadi.


Kashta gul ko`pincha yoriq yuzada, ya`ni qandaydir geometrik shakl bilan chegaralangan yuzada tuziladi. Bu kvadrat yoki to`g`ri turtburchak shaklidagi dasturxon, panno, uchburchak shaklidagi shol rumol, divan yostigining dumalok jildi va hokazolar bo`lishi mumkin. Buyum shakliga va kashtaduzning muljaliga qarab kashta gulning shakli va joyi uzgarishi, masalan, dasturxonning burchaklariga yoki o`rtasiga kashta tikilishi mumkin. Dasturxon yoki salfetka yuzasining kvadratlarga yoki to`g`ri turtburchaklarga bo`lib, ular ichiga kashta

gullarini joylashtirsa ham bo`ladi. Burchakdagi kashta gullarning tuzilishi xar xil bo`lishi mumkin. 85-rasmda na`matak va mimoza gullari va barglari tasvirlangan ikkita bezak ko`rsatilgan. Pastdagi bezakda bargli va gulli novdalar burchakdan chap va ung tomonga yunalgan. YUkoridagi bezakda esa mimoza novdalari bir-biriga qarab yunalgan va tuknashib burchakni tuldirgan.

86-rasmda zirkning bargi va mevalari tasvirlangan. Bu bezak to`g`ri burchakning butun yuzasini tuldiradi.

YUkoridagi xama bezaklarda aytilgan usimliklarga uxshashlik saklangan, lekin gul va barglari yangi ideal shakli kirgan.

Ularda tabiatda uchraydigan kamchiliklar: burishgan yoki singan barglar, buralgan gulbarglar, singan yoki zichlashgan shoxchalar yuk.



87-Rasm.



88-Rasm.

Bunday novdani kurish uchun barglarni surib tekislash, ulardan bir qismini uzib tashlash kerak. Rassom ham kashta bezagini yaratishda xuddi shunday kiladi. Gul va barglarning aniq shakllari rassom uylaganiga itoat etib, yangicha gruppalanib, yoʻl yoki yuzani tuldiradi. Bunday bezaklardagi gullar, barglar va mevalar bir-biriga xalakit bermaydi, bir-birining ustiga utmaydi. Bezak elementlari shunday joylashtiriladiki, ular orasidagi buyum foni (bush joylari) bir tekisda taksimlanib, bezakning bir qismi boʻlib qoladi. Kashta tikish uchun xalq orasida tarkalgan bezaklar va rassomlar yaratgan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi. Rasmlarning bazi qismlarini ixtiyoriy ravishda kombinatsiyalash ham mumkin, lekin tabiatni kuzatib, bezaklarni, ularni buyum yuzasiga joylashtirishni ham uylab topish yanada kizikarlirokdir.

2.3. Rang xakida

Kashta tikish rang bilan chambarchas bogʻlikdir. Iplarni tanlashda ranglarning uygunlashuvini, ular bir-biriga qanday taʼsir etishini bilish zarur. Buning uchun loakal ranglarningasosiy xususiyatlari va uzaro taʼsiri – ranglarning uygunligi, ularning xil tushishi bilan kiskacha tanishib chikish zarur.

Uzaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi.

Ranglar doirasini diametri buyicha bir tomonida qizil, tuk sarik, va sargish-Yashil, ikkinchi tomonida zangori yashil, zangori, kuk, kukish-binafsha ranglar

qoladigan qilib ikkiga bo'lish mumkin.

Doiraning kizgish-sarik bulagidagi ranglar va ularning xamma turlari ilik ranglar deyiladi. Bular ochiq ranglar bo'lib, kizdirilgan jismlarni, olovni, kuyosh nurini eslatadi. Ular burtib chikib, oldingi planda turganday kurinadi.

Doiraning zangori-kuk bulagidagi ranglarni va ularning xamma turlarini sovuq ranglar deyiladi. Ular kukimtir ufk, suv, muz ranglarni eslatadi. Bular ikinchi planda turganday kurinadi.

Xar qanday rang uzining tusi, och va tukligi bilan xarakterlanadi.

Rang tusi – qizil, kuk, sarik va xakozo – rangdorlik.

Rang tusiga kura bir rangni ikkinchisidan (Yashilni kukdan, kukni zangoridan) fark kilinadi.

Ochiqlik – oq rangga yakinlik darajasi. Sirti oq bulgan narsalar atrofimizdagi xamma narsalar ichida eng kup nur kaytaradigan bo'ladi. shuning uchun okka yakin (och pushti, och-sarik va boshqa) ranglar eng ochiq (demak, eng yorkin) ranglar bo'ladi.

Rangninng tukligini kuyuklik darajasiga, eng kup rangdorligiga qarab belgilanadi. Masalan, kuk rangni bundan ham ortik kukartirib bulmasa, u tuk xisoblanadi.

Xamma ranglar xromatik va axromatik («xromos» grekchada rang, a – inkor) ranglarga bulinadi. Spektrdagi xamma ranglar, shu ranglarning bexisob xamma turlari qatori xromatik ranglarga kiradi. Ular tonal deyiladi. Axromatik ranglarga ok, kulrang, kora ranglar kiradi. Bular tusi, turi yuk ranglardir. Ular neytral ranglar deyiladi.

Axromatik ranglar tuk bulmaydi. Ularning rang tusi ham bulmay, bir-biridan yorkinligi bilangina fark kiladi. Eng yorkin rang – bu oq rang. Koraning yorkinligi bulmaydi.

Agar qizil rangning o'rtasida diametr utkazilsa, u ranglar doirasidagi qizil rangning taxminan to'g'risidagi zangori-Yashil rangni kesib utadi va xakozo. Demak, qizilga zangor-Yashil, tuk sarikka zangori, sarikka – kuk, yashilrok sarikka – binafsha va xakozolar qo'shimcha rang bo'ladi.

Rang tanlashda uning yana bir xususiyatini esda tutish kerak. Rang buyumning shaklini yoki katta-kichikligini uzgartirib ko'rsatishi mumkin. Agar qizil va kuk doglar bilan koplangan yuzaga karalsa, bunda qizil doglar kuk doglarga nisbatan yakinrok bo'lib, aldab kurinishi mumkin. Och va ilik ranglar tuk va sovuq ranglarga karaganda yakinrok kurinadi. shuning uchun ilik ranglar buyumlarni kattalashgandek, sovuq ranglar esa kichiklashgandek ko'rsatadi. Ranglarning bu xususiyatidan kiyimning ayrim bulaklarini burttiribrok, turtib turgan joylarini sillikrok qilib kursptish uchun foydalansa bo'ladi. Uzoqdan kurinadigan buyumlar kashtasini tuk kontrast rangdagi iplar bilan tikish mumkin.

Kashta tikish uchun iplarni tanlash, ular rangini xillash buyumning nimaga muljallanganligiga, gulning kattaligiga va qanday joylashishiga boglik bo'ladi. Odatda, kashta guliga asosiy urin berilib, fonga (gazlama rangiga) qo'shimcha urin beriladi. shuning uchun fon naqsh rangidan ochiq bo'lib ajralib turmasligi kerak. Kashta gulining rangini tanlash bajarish texnikasiga (sanama chok, vladimiricha chok, tekis chok va x.) ham bog'liq bo'ladi.

2.4. Kashta tikish asboblari va moslamalari

Kulda kashta tikish uchun juda oddiy asboblari kerak. Bular: igna, angishvona, kaychi, santimetr, utkir uchli dukcha, kergi; bundan tashkari, millimetrlangan kogozi, kal`ka, kopirovka kogozi.

Kashta tikish uchun chuzinchokrok kuzli kalta (1-va 2-nomerli kashta tikadigan xamda turlanadigan) *ignalar* tanlangani ma`kul. Ignaning kuzi katta bo`lsa, bir necha kavat ipni utkazish shuningdek, vladimiricha chokli kashtalarni tikishda ishlatiladi. Bu ignalar ipni sanash va ajratib olish uchun juda kulay.

Jun ipni ignaga utkazish kiyin. Bu ipni utkazish uchun sotuvdagi ignalar komplektidagi ip utkazgichdan foydalanish mumkin. Uni bir katim ipak yoki ingichka galtak ip bilan utkazsa ham bo`ladi. Ipakni ikki kavat qilib, xosil bulgan petlya ichiga jun ip bilan birga tortib olinadi.

Zich va yupqa (markizet, polotno, shoyi, batis) gazlamaga kashta tikishda, kuzi kichkina ingichka igna kerak bo`ladi. Yugon igna sanchilgan joylarda teshik qoladi., katta kuzda esa ingichka ipni yaxshi tutib bulmaydi.

Buyumlarni biriktirib kuklash uchun 1-va 3-nomerli ignalar ishlatish kulayrok.

Kashtani kergisiz tikishda, bir necha kavat gazlamaga igna sanchishda, buyumlar chetini buklab tikish va hokazolarda ignani gazlamadan utkazish uchun *angishvona* kerak bo`ladi. U barmoqni igna kirishidan saklaydi. Angishvona ung kulning o`rta barmogiga takiladi, uning barmoqning yugonligiga qarab tanlanadi, lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qolmasligi kerak.

Ishlash uchun uch xil: uchni ingichka kichkina *kaychi* – kashta tikayotganda ip uchini kirkish uchun; katta *kaychi* – gazlama va kalava iplarni kirkish uchun.

Kaychilar yaxshi charxlangan, tiglarining uchi tula yopiladigan bo`lishi kerak.

Santimetrli lenta tikish ishlarida buyum ulchamlarini aniqlash, gazlamaga bezakni rejalash, tikish ishlarini bajarishda foydalaniladi.

Uchli dukcha (suyakdan, yogochdan yoki plastmassadan) oq tekis chokli kashta tikishda teshikchalar xosil kilish uchun ishlatiladi. Dukchaning diametri taxminan 5 mm, uzunligi 6-8 sm bo`lishi lozim.

Kergilar gazlamani tarang tortib turish va deformatsiyalanishdan saklash uchun ishlatiladi. Kergilar to`g`ri burchakli yoki doira shaklida bo`ladi. Doira shaklidagi yogoch kergi juda kulay. Kergilar diametri 20 – 40 sm li ikkita gardishdan iborat bo`lib, bir-birining ichiga tushib turadi. Agar kichik gardish katta gardish ichiga kiyin tushadigan bo`lsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak, u juda kichik bo`lib, katta gardishdan tushib ketadigan bo`lsa, atrofiga yupqa gazlama urab kuyish mumkin.

Kashta tikiladigan gazlamani keragiga tortishda uni kichik gardish ustiga qo`yib, iplarini kiyshaytirmaydigan qilib tug`irlanadi. Katta gardishni uning ustiga qo`yib, bosib gazlama tarang tortib quyiladi. Kergiga tortilayotgan yupqa gazlama yirtilmasligi, shuningdek, kashta tikiladigan gazlama ish paytida kir bulmasligi uchun, uning ustiga o`rtasi kergining diametridan kichikrok doira qilib uyilgan boshqa gazlama quyiladi.

Kergilar stolga maxkamlab kuyish uchun vintli bo`lishi ham mumkin.

Millimetrli kogoz naqshlar, ayniksa geometrik, sanama naqshlar tuzishda kerak bo`ladi.

Kashta gulni gazlamaga kuchirishga tayyorlashda kal`ka ishlatiladi. Naqsh avval originaldan kal`kaga kuchiriladi, keyin kal`kadan gazlamaga kuchiriladi.

Kashta gulini gazlamaga kuchirish uchun kopirka kogozi ishlatiladi.

2.5. Gazlama va ip tanlash

Kashta tikish uchun gazlama bilan ip buyumning nimaga muljallanganligiga, bezakning xarakteriga va tikish usuliga muvofiq tanlanadi. Masalan, vladimiricha choklar bilan sochiqka kashta tikish uchun zich gazlama, masalan, lavsanli zig`ir tola gazlama bilan bir necha kavat xar xil rangli iplar kerak, bluzkani oq tekis chok bilan tikish uchun esa, yupqaroq gazlama (markizet, chit va x. k.) bilan 1 – 2 kavat bir xil rangli muline ip kerak.

Iplarni sanab tikiladigan kashta uchun polotno usulida tukilgan gazlamalar: zig`ir va yarim zig`ir tolali (okartirilmagan, oq va rangli), markizet, rogojok, shtapel` va shoyi polotno, siyrak (pishitilgan zig`ir tola ipdan siyrak tukilgan) gazlama olinadi.

Polotno usulida tukilgan gazlamalarining asos (polotnoning buyiga yunalgan) iplari bir ip oralab chalishadi, shuning uchun asos ipi bir gal arkok ipining ustidan; bir gal uning tagidan utadi. Polotno usuli eng oddiy tukish usulidir. Iplari shunday usulda tukilgan gazlamalar pishik, kam chuziladigan va kam kirishadigan ungi va teskarisi bir xil bo`ladi.

Baxyasimon chokli kashta tikish uchun asos va arkok iplarning yugonligi bir xil gazlama kerak. Iplarnineg yugonligi bir xil bulmasa, ish kiyinlashadi, chunki asos va arkok iplarini sugurib olishda sanaladigan iplar soni xar xil bo`ladi. Bunday kashtani tikishda gazlamaning asosiy ip tola, arkogi zig`ir tola bulgan yarim zig`ir tolali polotno ishlatib bulmaydi.

Chizilgan kontur buylab tikiladigan kashtalar uchun zig`ir tolali gazlamalar xam, shoyi xam, movut, yo`l-yo`l yoki katak gazlamalar xam, shuningdek, burtgan yo`li yoki katagi kashtaning guli va strukturasiga uzviy mos kelsa, yirik strukturali gazlama ham to`g`ri kelaveradi.

Kashta tikish uchun merserlangan (Yaltillatish, mayin kilish uchun kuyuk ishkor eritmasida ishlov berilgan) zig`ir va oddiy ip va turli rangdagi leningrad mulinesi ishlatiladi. Leningrad muline ipning buyogi chidamli, jilvali va pishikligi etarli darajada bo`ladi. shuningdek, jun, shtapel`, ipak, sintetik (kashmilon, lavsan, kapron) iplar, ola-bula pishik ip, ip va jun garus ham yaraydi. Tayyorlov ishlari uchun (asosiy polotnoga gazlama parsachini kuklash), buyum chetlarini buklab tikish, rangli oddiy 40-, 50-, 60-nomerli galtak ipi, oq tekis chokning tortimlarini tikish uchun esa 80-nomerli ip ishlatiladi. Iplar pishik, bir tekis buyalgan, yoruglik va suvga chidamli bo`lishi kerak. Ipning pishikligi kul bilan tortib tekshiriladi: yaxshi ip darrov uzilmay chuzilish lozim. Ip buyogining chidamliligini tekshirish uchun ipni kuyoshga qo`yib kuriladi: bunda ip okarmasligi kerak.

Muline ip kalavasini ochib, tuguncha bir joyidan kirkiladi. Kalavada 14 ta

livit, xar livitda 6 tadan ingichka ip bo`ladi. Kashtadagi iplarning rangini moslab tanlash uchun ip namunalari uralgan kartonchalar yasab olish tavsiya etiladi. Buning uchun uzunligi 15-20 sm, 4 sm karton tasmachalari kirkib olinadi. Tasmachaning uzun tomoni buylab xar 1 sm oralikda nuktalar qo`yib chikiladi. Kaychi bilan karton xar ikki santimetrda oldin bir tomonida, keyin ikkinchi tomonida yarim aylana yoki uchburchak shakli kirkib chikiladi. Kirkilgan joylar bir-biriga rupara bo`lishi kerak. Kalavadan bitta livitni adratib olib, kartonning kirkilgan joyiga urab quyiladi. Bitta karton tasmachaga bir necha tusdagi ipni och rangidan tuk rangiga uta boradigan qilib joylashtiriladi.

Xar xil rangli iplarni sochdek qilib urish yaramaydi. Bunda bir xil rangdagi ip ikkinchi ip rangi bilan korishib ketadi-da, boshqa tusga kirib, tanlab olishni kiyinlashtiradi.

2.6. Kashta tikishga tayyorgarlik

Kashta tikishni boshlashdan oldin gazlamani asos va arkok iplari buylab tekislab, ustiga bezak quyiladi va gazlamaga kuchiriladi. Sung gazlama kergiga tortiladi. Gazlama chetlarini tekislab olish uchun, gazlamaning chetidagi ipni sugurib olinadida, uning izi buylab ortikcha gazlama kirkib tashlanadi. Buyumning buyi va eni ham shunday belgilanadi.

Ko`pincha dasturxon yoki salfetkaning bukilgan chetiga poloska shaklidagi bezak tikiladi (mukovaning ikkinchi betidagi bezak chetlariga karang). Ana shunday poloskalar bilan buyum yuzasini kvadratlarga, turtburchaklarga bo`lib, ularga kashtaning asosiy bezagini tiksa ham bo`ladi. Kashta gulni gazlamaga tushirishdan oldin, poloskalar urnini belgilab, bittadan ip sugurib olinadi. Natijada buyumning yuzasi kvadratlarga yoki to`g`ri burchaklarga bulinadi. shundan keyin ip sugurib xosil kilingan poloskalar orasiga asosiy kashta bezagini joylashtirib, uni gazlama ustiga kuchiriladi. Kashta tikib bulingandan keyin bu izlar ustiga biror chok yuritib tikiladi.

Agar kashta bezagi geometrik, gazlamaning tukilgan iplari aniq kurinib turgan bo`lsa, gazlama ipini sanash yo`li bilan tikish mumkin. Gazlama strukturasiga boglik bulmagan (vladimircha chok, rangli tekis chok va hokazolarni) tikishda bezakni gazlama ustiga kuchirish lozim bo`ladi.

Kiyim-kechaklar (bluzka, kuylaklar)ga ularni bichidan oldin yoki ularning bichilgan detallariga kashtani tikib olish eng kulaydir. Bichishdan oldin tikishda kiyim detallarning konturlari andaza buyicha belgilab chikiladi, keyin bezakni kuchiriladi va tikilaveradi.

Oson bezaklarni tayyor kiyimga tikish mumkin. Bunda gazlama tagiga kattik kogoz yoki taxtacha qo`yib, unga kashta gulni kuchiriladi.

2.7 Bezakni gazlamaga kuchirish

Bezakni gazlamaga bir necha usulda kuchirish mumkin. Xamma xollarda ham oldin bezakni originaldan kal`kaga yoki millimetrli kogoz uchi yaxshi ochilgan kalamda kuchirib olinadi. shundan keyin uni gazlamaga utkaziladi.

Bezakni kopirovka kogozi yordamida kuchirish. Gazlamani oldin dazmollab, tekis yuza (stol, taxta) ustiga yozib quyiladi, bunda gazlamaning asos va arkok iplari kiyshayib qolmasligiga karash kerak.

Bezak (kontur va tekis chok, suv chok, ustki chok va hokazo bilan tikiladigan) chizilgan kal`kani gazlama ustiga qo`yib, tugnagich bilan kadab quyiladi., uchi tomonini gazlamaga karatib kal`ka tagiga quyiladi, uchi yaxshi ochilgan kalam bilan bezak ustidan chizib chikiladi. Kopirovka kilish uchun turli rangdagi kopirovka kogozar komplekti bulgani ma`kul, shunda och rangdagi gazlamaga tuk rangli (kora, kuk, yashil), tuk rangli gazlamaga och rangli (ok, sarik) kopirovka ishlatiladi.

Bezak kuchirib bulingach, kopirovka kogozi olinib, bir tomondagi tugnagichlar chikariladi va bezakni tekshiriladi. shundan keyingina kal`ka olib tashlanadi.

Geometrik xarakterdagi bezaklarni (sanama chok va hokazolar bilan takiladigan) ham kopirovka kogozi yordamida kuchirish mumkin. Buning uchun bezakning kataklaridagi gorizontal va vertikal chiziklar kesishgan joylarni yugon igna bilan (ukuvchilar tsirkulining oyogini ishlatga ham bo`ladi) millimetrli kogoz va kopirovka ustidan teshiladi. Gazlama ustida nuktalar bilan belgilangan bezak xosil bo`ladi.

Rasmni kopirovka kogoz bilan kuchirishda bezakning chiziklari kalin bulmasligini yodda tutish kerak, aks xolda kashta tikayotganda gazlama va ip kir bo`lib qoladi. shuning uchun ishlatilgan kopirovka kogozidan foydalanish yaxshirok, yangisini esa ishlatishdan oldin kuruk paxta yoki latta bilan artish kerak.

Bezakni yorukka tutib kuchirish. YUpqa shaffof gazlamalarga kashta gulini gazlama tagidan yoritish yo`li bilan kuchirish mumkin. Tagiga lampa kuyilgan oyna ustiga yaxshi kurinadigan kashta gulini qo`yib, uning ustiga yaxshi tortilgan (kergiga urnatilagn) gazlama quyiladi. Gazlama tagida kurinib turadigan kashta gulni uchi yaxshi ochilgan kalam bilan gazlamaga chizib chikiladi.

**Bezakani popiros kog`oz yordamida kuchirish.** Movut, baxmal va yaltirok gazlamalar ustiga kashta gulni popiros kogoz ustidan kuklash yo`li bilan kuchiriladi. Buning uchun bezakni papiros kogozga kuchirib olib, uni gazlama ustiga quyiladi-da, butun konturi buylab mayda zich qaviqlar bilan ignani oldinga yunaltirib tikib chikiladi. Keyin kogoz yirtib tashlanadi. Kashta tikib bulingach kuklangan ip sukib tashlanadi.

Bezakni teshma kuchirish. Uni kogozga chizib olinadi, ustiga kal`ka kogozni qo`yib, ikkala kogozni igna bilan tugnaladi, yumshok gazlama yoki bir necha kavat gazeta kogozi ustiga quyiladi. Bezak konturi buylab extiyotkorlik bilan xar 2-3 mm oralikda igna bilan teshib chikiladi. Natijada kal`ka ustida nuktalardan teshma kashta guli xosil bo`ladi.

Geometrik shakldagi bezakni teshma kuchirishda uning kataklari va gorizontal chiziklar kesishgan chiziklar kesishgan nuktalarda teshib xosil kilinadi.

Kashta gul chizilgan kal`ka kogozni kerosinlangan latta bilan artib, toza tomonini gazlamaga karatib quyiladi-da, bir necha joyidan tugnaladi. Movut yoki paxmokni (ochrok rangli bulgani yaxshi) yoki paxtaning ustiga doka urab tampon kilinadi.

Agar bezak ochiq rangli gazlamaga kuchiriladigan bo`lsa, unda kerosinlangan tampon bilan oldin kopirovka kogozning tuk rangli tomoni, keyin

teshikli kogoz ustidan surtiladi. Kopirovka kogoz urniga sin`ka kukunini kerosin bilan aralashtirib ishlatsa ham bo`ladi. Kal`ka teshiklaridan buyokli modda utib, gazlama ustida iz tushirib kuchirish yo`li bilan nuktalar shaklidagi iz xosil bo`lib, shu iz buylab kashta tiksa bo`ladi.


Tuk rangdagi gazlamaga bezakni kuchirish uchun tamponni bur yoki tish poroshogi aralashgan kerosinda xullab olinadi. shu maksadda xech narsa bilan aralashmagan tish pastasini ishlatish ham mumkin.

Teshib kuchirishda kashta gulning gazlamadagi tasviri aniqrok, buzilmay chiqadi, bu ayniksa kashta gulning bitta bulagini bir necha marta tikish kerak bulganda, mexnatni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Teshmalarni bir necha marta ishlatish mumkin. Bu kogozlar aloxida paketda yoki papkada saklangani tuzuk.

Rasm chizilgan kergiga tortiladi. Agar kashta kichkina gazlama parchasiga tikiladigan, uni dumalok kergiga tortish keyin sukib tashlanadigan, xoxlagan chetlariga ish parchasini ulab kuyish mumkin.

Bezakni kattalashtirish (kichiklashtirish)

Ba`zan kashta tikish uchun tanlangan, bezak muljallangan buyum kattaligiga to`g`ri kelmay, uni kattalashtirish yoki kichiklashtirish kerak bo`ladi. Buning uchun bezak ustiga ixtiyoriy kattalikdagi uzaro teng kvadratlardan chiziladi. Bunda kvadratlar kancha mayda bo`lsa, bezakning nuktalari shunchalik aniq kuchiriladi va konturlarning nusxasi ham oson chiziladi. Millimetrli kogoz yoki toza kogozga buyum kattaligidagi to`g`ri turtburchak chizib, uni bezakdagi kvadratlar soni kancha bo`lsa, shuncha kvadratlarga bulinadi. Agar bezak sguli kattalashayotgan bo`lsa, bu kataklar originaldagidan kichik bo`lib chiqadi. shundan keyin kataklar buyicha originaldagi kashta gulning asosiy nuktalar toza turga kuchiriladi. Bu nuktalarni ravon chizik bilan extiyotlab birlashtirib bezakning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi xosil kilinadi. Rasm nuktalarini oson topish uchun chizilgan turning ikki tomoniga rakamlar quyiladi.



89-rasm

Kitobda kashta gullar 2 va undan ortik marta kichiklashtirib berilgan. Ular kvadrat katakli turga chizilgan. Kashta gulni kerakli ulchamgacha kattalashtirish uchun uni katakli turga kuchirish kerak. Bu kataklarning katta-kichikligi kashta gullarning tafsilotida ko`rsatilgan. Kalin kogozdagi gulni kal`kaga kuchirib olinadi, bunda kashta gulli kogozi ustiga kal`ka quyiladi, yumshok kalam bilan kashta gulning izidan aniq qilib chiziladi. Keyin kal`kadagi kashta gulni gazlamaga kuchiriladi.

Agar rasmla kashtagulning, masalan, bluzka uchun muljallanganidek yarmi ko`rsatilgan bo`lsa, uni tuldirib chizib olish kerak. Buning uchun oldin kashta gulni kataklarda katta kilinadi, keyin kal`ka kogozi ikki bukib, uni bukish chizigi belgilanadi. Kal`kani ochib, uni bukilgan zixini kashta gulning o`rta chizigiga to`g`ri keltirib, kattalashtirilgan kashta gulni kogozi ustiga kuchiriladi. Kal`ka kogozi yana ikki bukib, uni toza tomoniga gul kuchiriladi.

2.8. Kashtaduzning ish o`rni.

Kashta tikish kulay bo`lishi, charchatmasligi uchun, ish urnini to`g`ri tashkil etish, mehnat kilishning muayyan koidalariga rioya etish kerak.

Asbob va moslamalar quyiladigan stol ustidagi ishga yoruglik chap tonidan tushadigan xolatda turishi kerak. Agar stolda yashikcha bo`lsa, unda ip maxsus xaltada, asboblarni kutichada, kashta gulli kal`ka kogozi papkada saklanishi mumkin. Gavda xolatiga axamiyat berib, bukchayma, boshni juda past egmasdan utirish kerak. Ishvaktida gavda biroz oldinga engashgan bo`lishi, kuz bilanish o`rtasidagi oralik 25-30sm dan oshmasligi lozim. shu maksadda ba`zan kergini tagiga taxtacha, kitob va hokazolarni qo`yib balandrok urnatiladi. Stolni suyanchigiga suyanish mumkin bo`ladigan qilib, stolga yaqinrok surib quyiladi.

Ish vaktida kulni to`g`ri kuyish katta axamiyatga ega: chap kulkerigi tagida bo`lib, ung kul kergigi ustida bo`lishi kerak. Siyrak gazlamaga va turga baxyasimon suv chokli kashta tikishda ung kulda ignani uning uch tomoni bilan kashtaning teskari tomonidan utkaziladi. Ignaning uchli tomonini chap kulda tutib, kul bilan ip tortib quyiladi. Zich gazlamalarga kashtatikishda kashtaning ungiga ignani uning uchki tomoni bilan chikariladi.

2.9. Kashta tikilgan buyumlarga ishlov berish.

Kashta tikilgan buyum toza bo`lib, teskari tomonidan namlangan mato bilan dazmollangan bo`lishi kerak. Buyumning ikki marta buklab tikilgan cheti ung tomonidan ham dazmollanadi. yaxshi yuviladigan gazlamaga oq kashta tikilgan buyumlar oddiy usul bilan yuviladi, lekin bunda, ayniksa yirik qaviq bilan tikilgan kashtani yuvishda, kashta guluzgarib qolmasligi uchun, uni kattik ishkalamaslik kerak.

Rangli kashta tikilgan buyumlarning kiri ilik suvda juda extiyot qilib yuviladi.

Ularni ivitib qo`yib, kaynatib yoki ustidan kaynok suv qo`yib bulmaydi.

Yuvilgan buyumni yaxshilab sovuq suvda chayib siqib, buyumni namrok paytida teskari tomonidan, tagiga yumshok narsa solib dazmollanadi, shunda kashta gul burtgan va kabarik bo`lib chiqadi. Kashta tikilgan salfetkalar, kashta poyondoqlar, dasturxonlarning chetlari chuzilib ketmasligi uchun o`rtasidan boshlab dazmollanadi. Dazmollangan bunday buyum to sovuguncha yoyilgan xolda yotishi kerak.

2.10. Qo`l kashta chok turlari.

Kashta choklari bajarish texnikasi buyicha shartli ikki gruppaga bulinadi: gazlama ipini sanab tikiladigan sanama choklar va oldindan chizilgan kontur buylab tikiladigan ixtiyoriy choklar.

Sanama kashtalar uz navbatida gazlama tagiga utkazib tikiladigan va baxyasimon deyiladigan kashta va gazlama ustiga tikiladigan kashtalarga bulinadi.

Turli merejkalar, mayda baxya, rangli konturli baxya bugmacha baxya, gipyurlar, rangli chirmashma va boshqalar baxyasimon kashtaga kiradi. Bunday kashta turlari gazlama ustida bulmay, uning strukturasini xuddi uzgartirgandek gazlamaning uzida bo`ladi.

Gazlama ustiga tikiladigan sanama kashta choklarga iroki, chizma chok, atlassimon chok, sanama tekis chok, urim va boshqa choklari kiradi.

CHizma kontur buylab ixtiyoriy tikiladigan kashtalarda kashta gul konturi buylab baxya choklari tushiriladi yoki kashta gulni tuldirib tikib, dona-dona, burtik fakturali qo`shimcha satx xosil kilinadi. Bunday choklarga tekis choklar (ok tekis chok, vladimircha chok, rangli tekis chok va boshqalar), shuningdek, kontur va oddiy choklar – suv chok, iroksimon chok, urim chok va boshqa choklar kiradi.


Kashta tikishda odatda, bir necha chok bir vaktning uzida ishlatiladi. Kashta choklarning xamma turlari, koida buyicha kergida tikiladi.

Ipni gazlamaga puxtalash

Kashta tikishda xech kachon ipning uchi tugilmaydi. Kashta tikilgan buyumning teskarisi toza va batartib bo`lishi kerak. Ipni gazlamaning ungida kashta tikilgan joyga puxtalab quyiladi. Agar kashta tikish uchun juft sonli ip, masalan, 6 qavatli muline kerak bo`lsa, bunda livit ipdan (bittadan) 3ta ip tortib olib ularni birlashtirib ikkala uchini birga igna kuzidan utkaziladi. Ipni igna bilan kichkinagina qaviq xosil qilib, ipni gazlamadan to ikki kavat qilib buklangan ipdan xosil bulgan xalqa shaklidagi ip uchi kolguncha berkitiladi. Ipli ignani shu xalqadan utkazib tortib quyiladi.

Agar kashta bitta, uchta, beshta ip bilan tikilsa, unda ip boshqacha puxtalanadi. Gazlamada kichkina qaviq xosil qilib, ip uchidan gazlama ustida ozgina qoldirib, ipni tortib chikariladi. Bu ipning uchi birinchi qaviqa kundalang tushirilShgan ikkinchi kichkina qaviq bilan gazlamaga puxtalanadi. Ipning kolgan

uchi kirkib tashlanadi. Ipning puxtalangan joyini kashta qaviqlari bilan bekitib yuboriladi. Kashta tiqilib bulgandan keyin ipning uchi kashta tikilgan joyning teskarisida bir necha qaviq bilan puxtalanadi. Ipni gazlama ungida kashta tikilgan qaviqlar tagiga utkazib yoki keyin kashta tikilganda yopsa bo`ladigan joyda bir necha qaviq tushirib puxtalash ham mumkin.



90-rasm

1. Eng oddiy choklar. Rangli ip o`tkazish

Oddiy choklarga kontur choklarni – igna oldinlatilgan chok, suv chok, popop chok va hokazolarni, shuningdek petlya chok, iroksimon chok, puxtalama petlya chok va tugun choklarni kiritish mumkin. Bu choklar kupgina kashtalarda yordamchi chok sifatida uchraydi, masalan, usimlik shoxlarini va novdalarini suv chok bilan; gullarning uzaklari tuguncha chok, iroksimon chok, popop chok va boshqa choklar bilan tikiladi. Bu choklar oson tikiladi, lekin usimliksimon kashta gullarni bu choklar bilan mustakil tikish ham mumkin.

Kashtachilikni endi urganayotganlarga bu choklarni gazlama parchasida, masalan, 25x30 sm li gazlamada mashk kilish tavsiya etiladi. Bu gazlamaning tukilish iplari polotno tukima singari aniq tukimali (zig`ir bilan lavsan tola aralashgan, rogojka, movut polotno) bo`lsa yaxshirok chiqadi. Bu choklarni kashta turiga uni, albatta, kergiga tortib tikish ham mumkin.


Zich gazlamaga kashta tikish oson bo`lishi uchun gazlamadan 1-2 ip sugurib tashlab, shu izdan chok solib boriladi, bunda kerakli ipni sanab tikish oson bo`ladi.

Eng oddiy choklarni bajarish usullarini urganayotganda kullarni to`g`ri tutish, ipni ignaga utkazish, gazlamaga puxtalash singari kashta tikishning dastlabki kunikmalarini yaxshi mashk kilish mumkin.

Bu ishga 6 kavat muline ip bilan 2-nomerli igna to`g`ri keladi. Ipning ikkala uchini birga igna kuzidan utkaziladi va ipni ikki buklashda xosil bulgan xalqa bilan puxtalanadi.

Igna oldinlatilgan chok. (91-rasm) bir xil yiriklikdagi qator qaviqlar bo`lib, ularning orasi qaviqning uziga teng bo`ladi. Bu eng oddiy chok. Gazlamaninn ung


chetida 5mm li qaviq bilan (gazlamaning 5-6 ipi) ip puxtalanadi. Keyin ignani ikkinchi sanchiladigan nuktaga sanchib, uni xalqa bilan birga teskari tomonga tortib utkaziladi. Gazlamaning xuddi shuncha ipini utkazib yuborib, ignani gazlama ungiga chikarib, ikkinchi qaviq xosil kilinadi va hokazo. chokning qaviqlari ungdan chap qaviqlar ung tomondagi qaviqlar oraligida joylashgan bo`ladi.




91-Rasm.

Qaviqlarning yirikligi xar xil bo`lishi mumkin. Masalan, oq tekis chokda kashta gulning konturi 1 dan 2 mm gacha yiriklikdagi ana shunday chok bilan tikiladi. Sanama kashta choklarni (terma chok) tikishda qaviq yirikligi 3-4 mm, shunday chok bilan tikiladigan kashta gulda – 6 – 8 mm, qaviqlar oraligi esa 2 mm bo`lishi mumkin. Bu chokni gazlamadan sugurilgan ip izidan va rasm chizilgan kontur buylab tikish, igna oldinlatilgan chok qaviqlari ikki va undan kup qator bo`lishi mumkin. chok tushirayotganda ip buralib ketmasligiga, qaviqlar xurpayib chikishiga axamiyat berish kerak.

Kaytma chok. (92-rasm) bir xil yiriklikdagi qaviqlarning uzluksiz qatoridan iborat bo`ladi. Ignani ungdan chapga yuritib, birinchi qaviq bilan shu qaviq yirikligidagi, masalan, gazlamaning turtta ipi kengligidagi, oralik xosil kilinadi. Ikkinchi qaviqni tushirish uchun ip chapdan ungga yotkizib birinchi qaviq tugagan joydagi nuktaga igna sanchiladi-da, uni ikkinchi qaviqdan gazlamaning 4 ipi kengligigacha chaprokda gazlama ungiga chikariladi. shunday qilib, teskari tomondagi qaviq, ung tomondagiga qaraganda ikki barobar yirik bo`ladi. Uchinchi va undan keyingi qaviqlarni tushirishda, ularning uzidan oldingi qaviq tugagan joyga igna sanchiladi.



92-Rasm.



93-Rasm.


Suv chok (93-rasm) bir-biriga zich joylashgan qator qiya qaviqlardan iborat bo`ladi. Bu chokni chapdan ungga tomon yoki uzidan oldinga karatib yunaltirib tikish mumkin. Gazlamaga uzidan oldinga karatib birinchi qaviq tushirgandan keyin gazlama teskarisidan ipli ignani uziga karatib o`tkaziladida, dastlabki qaviq o`rtasining chap tomonidan chikarib olinadi. Qaviq ipini tortib, uzi tomon yotqiziladi, chap kulning bosh barmogi bilan gazlamaga bosib turiladi. Ikkinchi qaviqni tushirishda, ignani birinchi qaviqdan yukorida sanchib, ikkinchi qaviq o`rtasining chap tomonidan chikarib olinadi. shunday qilib, qaviqlarni uzidan oldinga karatib yotkizib, ignani uzi tomon yunaltirib chok solinadi. Bunda xar bir yangi qaviq uzidan oldingi qaviqdan yarim qaviq oldinga utadi.

Suv chokni tikayotganda ip doim bir tomonda – chapda yoki ungda bo`lishi kerak. Tikayotganda ip yunalishini uzgartirib bulmaydi, chunki unda chok strukturasi buzilib qoladi.

Suv chok bilan shoxcha va novdalarni tikishda «spis» deyiladigan oryolcha kashta gul motivlarning atrofi tikiladi. Egri chiziklarni (burtik yoki botik) tikishda, egri chizikni aylananing bir qismi xisoblab karalganda, igna aylananing ichki tomonidan gazlama ungiga chikariladi.


Ba`zan kashta gulda ingichka novda kalinlashib yugon shoxchaga aylanadi. Uni, gazlama ungiga ignani oldingi qaviqning o`rtasidan pastrokda chikarib, yirikrok qaviq bilan tikish mumkin.

Chilvir chok. (94-rasm.). ikkita usulda tikiladi. Oldin to`g`ri chizik buylab yoki kashta gulning konturi buylab igna oldinlantilgan chok bilan qaviqlar tushiriladi. Keyin gazlamani ilmay xar bir qaviq tagidan ipli (ko`pincha boshqa rangdagi ipli) igna yuo`ridan pastga tomon htkaziladi. Agar ipli ignani qaviqlar tagidan navbatma-navbat yuo`ridan pastga va pastdan yuo`origa htkazilsa, yana bir xil chilvir chok hosil bhladi.



94-Rasm

Iroksimon chok (94-rasm). Gazlamadan sugirib chikarilgan ikkita ip izi buylab yoki ixtiyoriy konturli kashta gulning motividan tikiladi. chokning tekis yo`li katta murakkab kashtalarni tikishda qo`shimcha chok sifatida, shuningdek, gazlama bulaklarining ulangan chokini yashirish uchun tikiladi. Bunda kashta gulning gox u, gox bu tomoniga navbatma-navbat igna sanchib, qaviqlar chapdan ungga tomon joylashtirib boriladi. Gazlamaga igna sanchilgan joylar oraligi bir xil bo`lishi kerak. Yo`lning o`rtasi buylab qaviqlar chalishib boradi. Xar bir yangi qaviq oldingi qaviq ustiga tushadi.




95-Rasm

Ixtiyoriy konturli kashta gullarda mayda yaproklar, gul uzaklari iroksimon chok bilan tikiladi. Kashta gulning xammasini tikishda ham shu chok ishlatiladi. Egri chizik buylab (gul uzagining aylanasi, yaproklarini) shunday chokni tikishda katta aylana buylab igna sanchilgan joylarning oralig`i kichik aylana chizig`i bo`ylab sanchilgandagi oralikdan uzunrok bo`lishiga ahamiyat berish kerak.

Petlya chok (95-rasm). Ba`zan zih chok ham deyiladi, chunki bu chok bilan gazlamaning chetlari tikiladi. Gazlamani teskari tomoniga 3-4 sm buklab, shu gazlama rangidagi ip bilan kuklab chikiladi. Petlya chok qaviqlari chapdan ungga tomon gazlama zixiga perpendikulyar joylashtirib tikiladi. Bu chok kergisiz tikiladi. Gazlamani chap kulning ko`rsatkich barmogi ustiga qo`yib, bosh barmoq bilan bosib turiladi. Tikish kulay bo`lishi uchun gazlamaning narigi tomonidagi uchini ogir narsa bilan stolga bosib quyiladi. Birinchi qaviqni gazlamaga tushirib, undan pastrokka ipni petlya qilib joylanadi. Birinchi qaviqdan sal ung tomonda igna gazlamaga sanchiladi-da, ipning petlyasi teskari tomonda qaviq xosil kilinadi. Ipni tortib qo`yib, uchinchi qaviq tushiriladi va hokazo.

Chok qaviqlarining yirikligi xar xil bo`lishi mumkin. Agar baxyasimon tur (masalan, rangli chirmashma) chetini petlya chok bilan tikiladigan bo`lsa, qaviqni 2-3 mm balandlikda tikib, ular orasida ikkita gazlama ipi qoldiriladi. Utkazib tikiladigan (uyma) kashtalarda ham taxminan shunday qaviqlar tushirib tikiladi. oq tekis chok bilan tikiladigan kashta chetlaridagi kunguralar (yoka va yoka umuzi chetlarining kungurali zixlari) petlya chok bilan tikiladi. Bunda qaviqlar bir-biriga zich yopishgan bo`lib, kungura shaklida, turli yiriklikda tikilishi mumkin.


Kichkina salfetkalar cheti, peshbandlar etagi, sochiq uchi petlya chok bilan tikiladi. Bunda qaviqlar rangli yugon ip bilan tikiladi. Qaviqlar yirikligi 5 dan 10 mm gacha, ular o`rtasidagi oralik 3 – 4 mm bo`lishi mumkin. Ba`zan gazlama cheti xar xil, masalan, qizil va kuk ip bilan ikki marta tikib chikiladi. chokni uch xil rangdagi ip bilan tikish ham mumkin.



96-Rasm.

Popop chok (97-rasm). Bir-birining ichidan chikib keladigan uzluksiz qator petlyalardan iborat bo`ladi. Bu chokni kergida va kergisiz tikish mumkin. Ikkala xolda ham ignani uzi tomon yuritib qaviq tushiriladi. Kashtani kergisiz tikayotganda gazlama tortilib qolmasligini chok petlyalari yumalok shaklda bo`lishini kuzatib borish kerak. Agar kashta ikki kavat ip bilan tikiladigan bo`lsa, ipni gazlamaga puxtalash kavigi popop chokining birinchi kavigi bo`lishi mumkin. Puxtalangandan keyin ipni chapdan past tomondan ungga yunaltiriladi, ignani esa birinchi petlya o`rtasidan ip gazlama ungiga chikkan nuqtasida gazlamaga kiritiladi. Igna birinchi petlyaga nisbatan gazlamanining tut-beshta ipiga teng oralikda pastrokdan, ip petlyasi igna tagida qoladigan qilib chikariladi. shunday qilib, kashta to`g`ri chiziq buylab, xar bir qaviqqa gazlamadan bir xil mikdorda ip sanab tikiladi.

Popok chokni siniq chiziq tarzida tikish ham mumkin. Bunday chokning teskari tomonidan qaviqlari va o`ngi tomonidagi petlyalari chokning o`rta chizig`idan navbatma-navbat bir chapga bir o`ngga joylashgan bhladi. Popok chok boshqa murakkab kashtalar yo`llarini tikishda, kashta gullarning hzaklarini va kashta gul motivlari atroflarini tikishda ishlatiladi. Bu chok bilan o`simlik xarakteridagi kashta gullarini, ularning konturi bo`ylab va kashta gulning motivini sidirg`a to`ldirib tikish mumkin.




97-Rasm

Puxtalangan petlya va puxtalangan chala petlya (98-rasm). Puxtalangan petlya kuyidagicha xosil kilinadi. Popop chokning birinchi petlyasini tikib olib, keyin petlyadan pastrokda gazlamaga igna sanchib mayda qaviq tushiriladi.

Oq va rangli tekis choklardagi kashta gullar va utlar shunday petlyalar bilan tikiladi. Petlyalarni aylana buylab agdarib joylashtirish mumkin. Ularni ikkita va uchta qaviq bilan puxtalash mumkin. Ikkita puxta qaviq tushirishda, ipni kattik tortmay, oldin birinchi, keyin esa ikkinchi puxta qaviq tikiladi. Uchta puxta qaviq tikiladigan bo'lsa, ip petlyasi dastlabkidandan ham boshroq o'hyiladi-da, oldin o'rtadagi puxta qaviqni tikib olib, keyin iuu chetidagilari tikiladi.

Bag'zan gulning hziga chala petlya bilan tikiladi. Ip ignani gazlamaning hngiga chiqarib olinadida, popok chokdagidek ipni petlya o'ioib, joylab birinchi igna sanchilgan joydan 5-6 sm. hngroo'da gazlamaga igna sanchiladi. Ignani 2 sanchilgan joyining o'rtasidan va sanchilgan joydan 5-6 mm. Pastroqdan chiqarib olinadi. Puxtalaydigan qaviqning yirikligi xar xil b'lib, 10 mm.gacha etishi mumkin. Bu gul uzagining aylanasi bilan gul markazining oraligiga bog'liq bo'ladi.




98-Rasm.

Tugunchalar. (99-rasm) oq tekis chok bilan kashta tikishda gullar uzagi yoki yaproklarning yarmi tugunchalar bilan tuldiriladi. Ba'zan oq tekis chok bilan tikilgan gul konturi buylab tugunchalar tikiladi. Tugunchalar bunday tikiladi. Ipni gazlamaga puxtalab, keyin uni gazlama hngidagi kontur chizig'iga chiqariladi. chap qo'hl bilan ip chap toionga tortiladi. Ignani, uning uchini chapga karatib, gorizontall ushlanadi. Uzidan oldingi tomon yunaltirib, ignaga 1 – 2 marta ip uraladi, chok solish tugaguncha ipni chap kul barmogi bilan tutib turiladi. Ung kul bilan ip gazlama yuzasiga utgan joydan ozrokkina oralikda gazlamaga igna sanchiladi. Extiyot qilib ip teskari tomonga tortib olinadi. Xosil bulgan tugunchani gazlamaga torta borib, tikilgan tugunchadan 1, 5 – 2 mmcha ungda ignani gazlama ungiga chikariladi-da, xosil bulgan tuguncha yonida gazlamaga sanchiladi va gulning uzagi tuguncha doira buylab tikilaveradi.

Tugunchalarni tikayotganda ignadagi tuguncha urami igna birinchi sanchilgan joyiga to'g'ri kelib qolmasligiga e'tibor berish kerak, chunki tugunchalar ip bilan birga osongina teskari tomonga utib ketadi.

Rangli tekis chok tugunchalarini ba'zan 4 – 5 va undan ortik kavat rangli muline ip bilan, uni ignaga 3-4 marta ip urab xosil kilinadi. Tugunchalar yirikligi igna yugonligiga ham bog'lik bo'ladi. Tugunchalar bejirim chikishi uchun ung kul bilan ipni gazlama teskarisiga tortib utkazayotganda, chap kul bilan ipni siltab-siltab turish kerak.



99-Rasm.

**Rangli ipni o`tkazish.** Gazlamani bezatish, shuningdek, uni ko`proq burtik kilish uchun gazlamaga rangli ip utkaziladi. YUpqa shaffof gazlamalarga (markizet, krepjorjet, shifon) ikki kavat yugon ipak utkazilganda burtma yo`llar xosil bo`ladi. Bu xolda gazlamadan shu ipakning yugonligiga to`g`ri keladigan, masalan, 5 ta ip sugurib tashlanadi. Oldin o`rtasidagi ip suguriladi, keyin bu sugurilgan ip izining ikki tomonidan bittadan ikkita ip sugurib tashlanadi. Sugurilgan ip izidan chap va ung tomonidan bittadan joylashgan navbatdagi ikkita ipni gazlama chetiga utkazib tugib quyiladi.

Tugilganda xosil bulgan petlya orasidan ingichka ipak utkaziladi, uchlarini birga tutib turiladi. Keyin gazlamaning karama-karshi tomonidan ikkita ip uchini topib, extiyotlab tortib olinadi va kirkib tashlanadi. Ingichka ipak petlyasiga yugon ipakni o`rtasigacha utkaziladi. Ipakning uchlarini juftlab, bir kul bilan to yugon ipakni gazlamadan ikkinchi kul bilan totib olgunga kadar tutib turiladi. Ingichka ipakni kirkib. Yugonini gazlama ichida qoldiriladi.

Kalinrok gazlamalarga rangli ip bir tortishda utkaziladi. Oldin gazlamadan bitta ip sugurib olinadi. Keyin sugirilgan ip izi chetidagi ikkita ip uchini tugib quyiladi. Bu ipdan xosil bulgan petlyaga rangli ip, masalan, 3-4 kavat muline utkaziladi. Gazlamaning qarama-qarshi tomonida ikkita ip uchini topib, gazlamaga rangli ip tortib utkaziladi.

2. Sanama choklar

Sanama choklar eng kup tarkalgan rus kashtasi choklariga kiradi. Bular iroki, terma, chizma, iroksimon, sanama tekis chok va boshqalardir. Bu choklar bilan tikilgan kashtalar keng tarkalgan bo`lib, ayniksa Arxangel`sk, Ivanovo, Ryazan`, Tambov, Smolensk oblastlari uchun xarakterlidir.

Bu choklar bilan gazlama ipini sinab, kashta bezagi tuldirib tikilishi uchun ularni sanama choklar deyiladi. Kashta qaviqlari gazlama ustida bir tekis joylashadi. Sanama chokli kashtani tikish uchun polotno usulida tukilgan gazlama

ma`kul, chunki, bunday gazlamaning strukturasi aniq kurinmaydigan gazlama ustiga tushirilgan rasm buylab tikish ham mumkin.


Sanama choklar kiyimlarni, salfetkalarni, pardalarni, divan, yostiklarini, panno va boshqa buyumlarni bezashda muvaffakiyatli ishlatiladi.

Sanama kashta tikish kuz bilan chamalashni rivojlantirishga yordam beradi, lekin aloxida e`tibor berishni talab etadi. Agar gazlama iplari noto`g`ri sanalgan bo`lsa, bunda qaviqlar yirikligi xar xil bo`lib qoladi, natijada gul buzilib, ish palapartish chiqadi. Kashtaning teskari tomoni ham ungiga uxshab bejirim bo`lishi kerak.


Oddiy iroki chok. Bu chok oson tikiladi. U bir xil yiriklikdagi diagonal kesishgan qaviqlardan iborat bo`ladi. Iroki chok kuyidagi tartibda: birinchi qaviq chap tomon pastdan ung tomon yukoriga karatib, ikkinchi qaviq ung tomon pastdan chap tomon yukoriga karatib tikiladi. (100-rasm). Ip birinchi qaviqdan pastga utadi. Agar bir necha iroki qaviq gorizontal buylab qator joylashadigan bo`lsa, bunda oldin birinchi qaviqlarning xammasi (ostki qaviqlar) tikib olinib, keyin xamma ikkinchi qaviqlar (ustki qaviqlar) tikiladi. shunday qilib, kashta gulidagi ustki qaviqlarning xammasi bir tomonga yunalgan bo`lishi kerak. Iroo`ning vertikal o`atori khirsatilgandek tikiladi. Rasmdagi punktir chizio`lar ipning teskari tomondagi yhnalishini bildiradi, bunda tug`ri qaviqlar vertikal joylashgan bhib chiqadi. Kashta gulga o`arab but ug`ri qaviqlar gorizontal buylab joylanishi mumkin, lekin dioganal buylab joylashmaydi. Murakkab bezakning tikishda ham choklarni tikishning asosiy koidalariga rioya kilish zarur. Masalan iroki dioganal buylab joylashgan romb motivida birinchi qatorda ostki kavish va x.k. tiqilib, kashta bezagining oxirigacha shunday davom etadi. Qator irokilar oralatib tikiladigan bo`lsa, gazlama teskarisida ung tomonidagi iroki qaviqlar xosil bo`lib qoladi.

Terma chok. Terma choklar gorizontal yoki vertikal qaviqlar gruppasidan iborat bo`ladi. Geometrik kashta bezaklari (100-rasm, a) ipli ignani gul bezakning bir chetidan ikkinchi chetiga bir gal chapdan ungga, yana bir gal ungdan chapga xarakatlantirib tikiladi. Kashta bezagiga muvofiq bitta qaviq tikib, bitta tikilmagan joy tashlab, yana bitta qaviq tikiladi va x. k. shunday qilib, kashta bezagi igna oldinlatilgan chok printspida, gazlama ipi terilgandek, oxirgacha tikiladi. Terma chokning tikilishini gazlama tuki, vekshdagi mokining xarakatiga uxshatsa bo`ladi. Teskari tomonida negativ bezak xosil bo`ladi. Terma chok faqat gazlama ipini sanab tikiladi.

Chizma chok (Chala iroki) chizma chok bilan mustakil katta kashta bezagini, shuningdek, boshqa choklar (iroki, sanama tekis chok) bilan tikilgan asosiy kashta bezagiga qo`shimcha ensiz uzun yo`llarni yoki buyum chetlarini tikish mumkin.




100-Rasm.



101-Rasm.

Chizma chok ingichka, xar tomonga yunalgan kuz-kuz, tursimon bezak xosil qilib, iroki chokdan farklanadi. Bu kashta ikki tomonlama bo`ladi. Ungida tikilgan kashta gul teskari tomonida ham takrorlanib, to`g`ri (gorizontal va vertikal) va qiya (dioganal) qaviqlardan iborat bo`ladi.

Chizma chok ignani bezak buylab ikki karradan xarakatlantirib tikiladi (102-rasm, a). Kashtani tikishda oldin uning konturini igna oldinlatilgan chok bilan tika borib, konturning tashki tomonidagi mayda detallar ham yo`lakay tikib ketiladi (102-rasm, b.). Keyin ignani teskari yunalishda yuritib, kontur ichida qolib ketgan joylarni va bezak detallarini tuldiriladi.(102-rasm, v.). Agar xamma to`g`ri qaviqlarning uzunligi bir xil bo`lib, ular orasida gazlama kurinib qolmasa va ip bitta intervalni ikki marta yopmasa kashta bezagi aniq chiqadi.




102-Rasm.

O'rma chok

Bu chok bilan ko'pincha asosiy kashta tikiladi. Biriktiruvchi chokni yashirib bezatiladi. 103-rasmda ikki xil usulda tikiladigan urma chok ko'rsatilgan. Birinchi xolda (103-rasm, a) o'ngidagi qaviqlarni teshikda ipli igna teskari tomonda kashta yo'lining yuqori chetidan pastiga vertikal yo'nalishda o'tadi. Teskari tomondan qator vertikal qaviqlar xosil bo'ladi. Ikkinchi xolda (103-rasm, b) igna teskari tomonda yo'lining ikkala cheti bo'ylab gorizontal yo'nalishda o'tkaziladi. Bunda teskari tomonida ikki qator gorizontal qaviqlar xosil bo'ladi.

O'rma chokni tikayotganda, gazlama ipi to'g'ri sanalayotganiga e'tibor berish kerak: qaviqlar o'rtasidagi oraliq (gorizontal bo'ylab) balandligi (yo'lining eni) dan ikki marta kichik (3x6, 4x8) bo'lishi lozim. O'rma chokli kashtani chiz to'qilgan gazlamaga ham tikish mumkin, bunda buyum cheti bo'ylab yo'lining joylashuvi belgilab olinadi-da, gazlamadan bitta ipni sug'urib tashlanadi. Keyin yo'l kengligidagi ikkinchi ip sug'uriladi. shu izlar bo'ylab, gazlama ipidan kerakli xil sanab chokning qaviqlari tikiladi.




103-rasm

Sanama tekis chok

Bu kashta ikki tomonlama bo'ladi. Sanama tekis chokni gazlama ipini sanab yo'g'on yumshoq ipda bir-biriga zich joylashgan qaviqlar bilan gazlamani tarang tortmay tikiladi. Gazlamaga birinchi qaviq tushirib, shu qaviq yonidan ignani chiqarib, ikkinchi qaviq tushuriladi va h.k. shunday qilib tekis chok qaviqlarni gazlamaning o'ngi va teskari tomoniga joylashadi, qaviqlar xar-xil: to'g'ri

(gorizontal va vertikal), qiya (og`ish darajasi xar xil)yo`nalgan bo`lishi mumkin. To`g`ri tekis chokli qaviqlar gazlama ipi bo`ylab joylashadi. Sanama tekis chok mativlari odatda geometrik xarakterda (yo`l-yo`l, uchburchak va x.k.) bo`ladi. chizma chok bilan tikilgan kashta konturlarining orasi ko`pincha sanama tekis chok bilan to`ldiriladi.



104-rasm.


3. Tekis choklar

Tekis chok badiiy kashtachiligida keng tarqalgan. Gazlamaga ko`chirilgan ixtiyoriy konturlar bo`ylab kashta bezagi elementlari tekis chok qaviqlari bilan to`ldiriladi. Bu kashtani tikish uchun xar xil chalishgan oddiy ip gazlama, ipak gazlama ishlatilishi mumkin. tekis chok turli usullarda va turli yo`llar bilan oq va rangli iplarda tikilishi mumkin. Oq tekis chokda xam, rangli tekis chokda xam o`simliksimon mativlar ko`proq bo`ladi.

Ustki tekis chok

Ustka tekis choklar-bir tomoni (ustki tomoni) tekis yirik qaviqlar bilan tikilgan dekarativ kashtadir. Bu chok rangli yo`g`on muline (6-10 qavat) ip, iris, ip, jun ipda zich qilib to`qilgan palatno, bortovka, movut va boshqa gazlamalarga tikiladi. Bu kashtalarning asosiy rangi qizil bo`lib, unga ozgina ko`k, yashil, sariq rangli iplar qo`shiladi.

Movitlarning o`ng tomoni tekis ustki chok bilan to`ldiriladi, teskari tomonida kashta konturi bo`ylab, punktir chiziv shaklidagi mayda koviqlar o`tish joylari hosil qiladi (105-rasm a,b). shu yo`sinda bezakning yirik motivlari, shuningdek, shoxlar, novdalar, chirmovviqlar ham tikiladi (98-rasm v). Tekis chok qaviqlari detal` shakliga qarab: gullari chetdan markazga tomon egilib turgan barglarda chetdan markazga tomon egilib turgan barglarda chetdan o`rtaga tomon yo`naltirib joylashtiriladi. Qaviqlar har xil yiriklarda bo`lishi mumkin . Bunda motiv konturi arra tishli, kashta gulidan fonga o`tish silliqroq, ravonroq bo`ladi.




105-rasm.

Tekis chok qaviqlarini tikishda, ularni bir-biriga yaqin joylashtirilmaydi. Masalan, guldagi gulbargning yuqori qismida tekis chok qaviqlarning oralig`i 1,5 dan 2 mm gacha bo`lishi mumkin. Qaviqlarni doira bo`ylab joylashtirishda ularning ayrimlarini kaltaroq tikiladi, masalan, birinchi qaviq gulbarg chetidan

gulning o`rtasigacha tushiriladi, ikkinchi qaviq 2 mm qisqarib, uchinchi esa birinchi qaviqdek bo`ladi va hakazo. shunda gul markazida qovivlar bir-birining ustiga o`tmaydi, teskari tomondagi qaviqlar esa kerakli yiriklikda bo`ladi. Agar tikayotganda ip burilib ketmasligiga axamiyat berilsa, ustki tekis chok qaviqlari tekis va xurpayib chiqadi.

Yirik gullarning o`zaklariga va mativlariga detallari quyma dekarativ to`rlar tushirib o`ki gazlama ipini sanab, ikki yoqlama tikiladigan kvadrat, uchburchak, romb, arra tishli tekis va siniq yo`llar ko`rinishidagi tekis va siniq shakllar bilan bezatiladi. Bunda kashta atlassimon deyiladi (106-rasm). ba`zan sanama tekis chok mativlari, yo`lli iroqisimon chok bilan navbatma-navbat tikiladi.

Quyma to`r bilan puxtalama bir xil rangli ipda tikiladi. Yirik qaviqlarni ikkiki (vertikal va gorizontal) yo`nalishda kontur chegarasigacha tortish natijasida to`r hosil bo`ladi. To`rni gazlama ustiga iroqi chok, kaviq, tepki (uchta qaviq) solib taxlamlar qo`yiladi. To`r xosil qiladigan qaviqlarning oldin xammasi bitta, masalan, vertikal yo`nalishda qaviqlar tortib, har bir yangi qaviqni vertikal qaviq bilan kesishgan joyida birin-ketin puxtalab qo`yiladi. 106-rasmda gorizontal qaviq o`ngdan chapga tomon tushirilib, ipli igna qaytishida iroqi qaviqqa o`xshatib puxtalangani ko`rinib turibdi. Puxtalama iroqi qaviqlarning ustki qatori bir tomonga yo`nalgan bo`lishi kerak.



106-rasm.

Yirik va mayda barglarning o`rtasi iroqisimon qaviq bilan tikiladi.

Divan yostiq jildlari, sochiqlar, panno, kiyimlar viladimircha kashta tikib bezatiladi.



107-rasm.

Kashta tikilgan buyumlarni yumshoq taglikka qo`yib faqsht teskari tomonidan dazmollanadi.

4. Oq tekis chok

Oq tekis chok bilan tikilgan kashta tikilish texnikasining nozikligi, bezaklarining ifodaliligi, ulardagi gul va barglar girlyanda, gulchambar, shoxcha va guldastalar hosil qilishi bilan farqlanadi. Oq tekis chok bluzka, yoqalar, tungi ko`ylak, salfetka va boshqa kiyim-kechaklarning eng chiroyli bezaklari bo`lishi mumkin. Oq tekis chok ko`pincha Oq ip bilan Oq gazlamaga tikiladi (Shuning uchun Oq tekis chok deyiladi). Bu kashta yupka gazlamalarda (batistda,


markizetda, krepdetinda, ipak polotnoda) juda chiroyli chiqadi. Gazlama ko`chirilgan kashta gulining konturi avval igna oldinlatilgan chokning zich qaviqlari bilan ko`klab olinadi.

Oq tekis chokning ko`p turlari bor. Bu kashtaning asosiy usullaridan biri ikki tomonlama tekis chokdir. Bu chokni tikishda gazlamaning ham o`ngi, ham teskari tomonida qaviqlarni motiv shakliga moslab bir-biriga zichlab tikiladi. Tekis chok Oq muline ipda (1-2 qavat) ko`zi kichkina ingichka igna bilan tikiladi. Tekis chok qavariq bo`lib chiqishi uchun, oldin shu ipning o`zidan tekis chok qaviqlarining bo`lajak yo`nalishiga qarama-qarshi yo`nalishda to`shama tikib olish mumkin.

Bu kashtani tikishda ko`z-ko`z to`g`ri chok, tortilma chok, teshik chok, tugun chok, sochma chok, taglikli chok yoki sakkizsimon chok, doiracha shaklidagi detallar, chirmoviklar ishlatiladi.

Tekis chok qaviqlarining qavariq, bo`rtma yuzasidan gazlamaning o`zidagi qarir ochiq joylarga o`tishlar bir xil rangda tikilgan kashtalarni manzarali, nafis qilib ko`rsatadi.


Kashta bezagining dumaloq detallari-kulchalari to`shamali tekis chok bilan tikiladi. Buning uchun doirachalar konturi igna oldinlatilgan chok bilan tikib olinadida, tushama tayyorlanadi va tekis chok qaviqlari tikiladi.



108-rasm.


To`shamali tekis chok bilan gullar, barglar, shoxchalar tikiladi. Oldin gul konturi igna oldinlatilgan chok bilan tikib chiqiladi, doira bo`ylab va konturning uzunasiga qaviqlar tushirib to`shama tikiladi, keyin gulbarglarning uzunasiga tekis chok qaviqlar tikiladi. Agar gul alohida-alohida gulbarglardan iborat bo`lsa, unda bu gulbarglar birin-ketin tekis chok qaviqlarini gul barglarga ko`ndalang tushirib tikiladi.

Mayda bargchalarni tikishda tekis chok qaviqlari to`g`ri yoki qiya yo`nalishda tikiladi. Yirikroq barglar, tekis chok, sochma chok yoki tugun chok bilan tikiladi.




109-rasm.

Bargchani uchdan ikki qismini ikki bo'lakka ajratib qo'ysa ham bo'ladi («ajratma barg»). Bargning uzunasi bo'ylab to'shab va ikkita parallel qaviqni barg o'rtasidan tushirib bo'lgandan keyin bargning yuqori qismidan boshlab tekis chok qaviqlari tikiladi. Ajratilgan joyga etgandan keyin, oldin bir tomoni tikiladi, keyin ignani parallel qaviqlar orasidan sanchib, bargning kontur chizig'iga chiqarib ikkinchi tomoni tikiladi. Sochma chok mayda qaytma chok qaviqlari bilan tikiladi. Sochma chok yoki tugun chok qaviqlarini bir-biriga ya'in qilib parallel zich joylashtirib, bargning yarmini to'ldiriladi. Bunday bargning cheti ko'tarma tekis chok bilan aylantirib tikib chiqiladi.



110-rasm.


Oq tekis chokda teshma va qirqma tekis chok bilan tikilgan motivlar uchraydi. Mayda teshma chok tikishda kontur bo'ylab teshikcha atrofi igna oldinlatilgan chok bilan tikib chikiladida, o'rtasidagi gazlama yog'och, suyak yoki plastmassa dukcha bilan teshiladi. Keyin teshikcha atrofi bir-biriga zich yopishgan qaviqlar bilan tikib chiqiladi. Ingichka ko'tarma tekis chok hosil bo'ladi. Katta o'lchamli teshikchalarning atrofi o'tkir qaychi bilan kontur ichidagi gazlama vertikal va gorizontal bo'ylab ikkita yo'nalishda qirqilgandan keyin tikib chiqiladi (qirqma tekis chok). Uzunroq shaklli barglar qirqma tekis chok bilan tikiladi.



111-rasm.

Gullarning o'ziga tortilma deb ataladigan chok bilan tikiladi. Bunday choklar asosan oddiy g'altak ip (№ 70-80) bilan ipga polotno yo'lida to'qilgan gazlamaga tikiladi.


Gazlamaning o'zidagi to'rsimon kashta gullar gazlama iplarini gorizontal va vertikal yoki diogonal yo'nalishda tortib qo'yish natijasida hosil bo'ladi. Rasmda tortilma chokning ignani diogonal bo'ylab yo'naltirib tikilishi ko'rsatilgan. Ipli igna uchta asos va uchta arqoq iplardan iborat kvadratdagi gazlamani tortadi. Birinchi qaviqni tushirgandan keyin shu qaviqdan o'ngga 3 ta ip sanab olinadi, keyin 3 ta ip pasttasanaladi, ya'ni gazlamaning ikkinchi kvadratini topib, igna shu kvadratdan pastroqda, gazlama o'ngiga chiqariladi. Ipni tortib, qaytma chok printsiplida yangi qaviq tushiriladi. Ignani oldingi qaviqqa sanchiladi-da, gazlamaning uchta ipidan iborat kvadratning pastidan chiqariladi. Bu chok yo'llarini bir tomonga yo'nalgan yoki ikki tomonga yo'nalgan qilib tikish mumkin. chokning yo'llari kesishgan joylarida ikkita o'ng qaviqdan iborat iroqi hosil bo'ladi.



112-rasm.

Zich to`qilgan gazlamada tortilma chokli kashtani tikish uchun gazlamaning arqoq va asos iplaridan bir qismini qirqib, sug`irib olinadi. Gazlamadan sug`urilgan va gazlamada qoldirilgan iplar gazlama ipidan to`r hosil bo`ladigan miqdorda bo`lishi kerak. To`r bo`ylab kashtani tikish ipli ignani teshiklardan o`tkazib, to`r iplari tortiladi.

Kashta detallari tagliklichok bilan ham tikiladi. Qaytma chok qaviqlari navbati bilan rasm konturining goh bir, goh ikkinchi tomoniga tushiriladi. Qaviqdan qaviqqa o`tish qismlari gazlamaning teskari tomonida sakkizsimon chalishib tushadi. Yupqa gazlamaga taglikli chok bilan tikilgan rasm elementlari kashtani bo`rttirib ko`rsatadi.



113-rasm.

Yoqa va salfetka chetlari, sorochka-ko`ylakning qirqmalari va englari ko`pincha kunguraga o`xshatib petlya chok bilan tikib chiqiladi. Oldin kashta bezagining konturi bo`ylab igna oldinlatilgan chok bilan tikiladi. Kontur bo`ylab qaviqlar tushirib bir oz to`shama tikib olinadi, keyin petlya chok bilan tikiladi. Buyumni yuvib dazmollab bo`lgandan keyin gazlamaning ortiqcha joylarini o`tkir qaychi bilan qirqib tashlanadi.


5. Rangli tekis chok

Bu tekis chok turi to`shamasiz tikiladi, u bir tomonlama va ikki tomonlama bo`lishi mumkin. Kashtani tikishda har xil rangli muline ip ishlatiladi.

Dala gullarining va malina, ryabina, krijovnik va hokazolarning umumlashirilgan, shartli shaklga keltirilgan novdalari va mevalaridan iborat o`simlik motivlari bor kashta bezaklari tekis chok bilan tikiladi. Bu bezaklarning rangi ham odatda, shartli bo`ladi. Masalan, qizil mevalar jigarrang barglar bilan, ko`k gullar tillarang-sariq barglar bilan moslanadi. Ba`zan kashta bezagining


hammasi faqat bitta rangda tikiladi, lekin o`simlikning shakli doim saqlanib qoladi. Bezak ochilgan gulli, pishgan mevali shoxchalardan ham tuzilishi mumkin. Bunday uyg`unlik o`simlikning o`ziga o`xshashligini kuchaytiradi, rassomga esa ajoyib rang echimlarini topish imkonini beradi. Bunday kashtaning osongina usullarini o`rganib olib, har kim ko`ngliga yoqqan gulli yoki mevali va bargli novdalarni o`zi chizib olishi mumkin. Novdachadan yo`llar hosil qilib, kashtani tikish uchun iplarni tanlab olinadi. Bunday ish kutilmagan va qiziqarli echimlardan iborat bo`ladi.

Bezak motivlari tekis chok, iroqisimon chok, suv chok, tugun chok, puxtalama petlya chok bilan tikiladi. Tekis chok qaviqlari motiv shakliga qarab: gulning gulbarglarida chekkadan markazga qaratib, barglarda tomirlari yo`nalishi bo`ylab o`rtaga qaratib joylashtiriladi. Gullardagi hamma qaviqlar markazga yo`nalgan bo`lishi uchun, qaviqlar yirikligini o`zgartirib, quyidagi tartibda: bitta yoki ikkita yirik qaviq, bitta mayda qaviq qilib tikiladi.




114-rasm, a.

Yirik barglarni hamma joyi to`ldirib tikilmaydi, bunday tekis chok tekis zich chok ham deyiladi. Qaviqlarni bargning chetidan o`rtaga yo`naltirib, har xil yiriklikda tikiladi. O`rta tomiri suv chok bilan tikiladi.




115-rasm

Mayda barglar qiya tekis chok yoki iroqisimon chok bilan tikiladi, mevalari esa to`g`ri tekis chok bilan tikiladi. Mevalar o`z shaklini saqlab qolishi uchun, ularning konturi bo`ylab igna oldinlatilgan chok bilan tikiladi, keyin konturi bo`ylab tikilgan qaviqlarni yopib, ikki tomonlama tekis chok qaviqlari tikiladi.




116-rasm.

O't va novdachalar suv chok va puxtalama petlya chok bilan tikiladi. Novdachani tikishda petlya-barglar shoxchaga nisbatan xuddi barglarning tomirlari yo'nalishidek burchak hosil qilib turishiga, hamma petlyalar uchi bitta nuqtada uchrashishiga ahamiyat berish kerak. Mayda gullarning o'zagi tugun chok bilan tikiladi.



117-rasm.

Ba'zan gul va barglar ip ranglarining tuslari bir-biriga singishadigan qilib tekis chok bilan tikiladi. Bunda bir xil rangning 2-3 tasi asta-sekin biri ikkinchisining orasiga o'tib ketgan bo'ladi. Bunday tekis chok yaproq chetidan boshlab tikiladi. Har xil yiriklikdagi qaviqlarni markazga yo'naltirib, gul-bargning 2/3 qismi qaviqlarning bir qismini yopadi.



118-rasm.


2.11. Aplikatsiya.

Applikatsiya (qoplama tikish) kashtaniig juda qiziq turi bo'lib, u uzoq vaqtlardan beri ma'lum. Bunda kiyim-kechak va ro'zg'or buyumlarini bezash uchun gazlama, fetr, zamsh, charm, mo'yna parchalaridan foydalaniladi, ya'ni ularni bezak bo'yicha asosiy gazlamaga qoplab, turli choklar: tekis chok, petlya chok, popop chok va hokazolar bilan chatib qo'yiladi. Aplikatsiya bilan tikilgan buyumlar alohida dekorativ xarakterda bo'lib, zamonaviy inter'erga juda mos tushadi.

Applikatsiya oson tikilishi, turli gazlama va materiallarni ishlatish mumkinligi bilan ko'pchilikning diqqat-e'tiborini tortadi. Qo'l hunarining bu turiga har qanday ochiq rangli gazlama parchalari yarayveradi. Bitta rangni ikkinchisiga qo'yib ko'rib, ranglarning juda chiroyli uyg'unligini va komnozitsiyalarni topish mumkin.

Applikatsiyani yupqa chit, satin, shtapel` polotnosi, shoyi va boshqa gazlamalardan tikishdan oldin, gazlamalarni kraxmallab, yaxshilab dazmollanadi.

Kopirovka qog'ozi yordamida butun bezak asosiy gazlamaga, uning detallari esa tayyorlangan gazlama parchasiga tushiriladi. Bezak detallari qirqib olinib, chetlari asosiy gazlamaga shu gazlama rangidagi muline yoki oddiy ipda, igna oldinlatilgan chok bilan, mayda qaviq bilan ilintirib ko'klab chiqiladi. Bunda detallardagi gazlama ipining yo'nalishi asosiy gazlama ipining yo'nalishiga to'g'ri kelishiga ahamiyat beriladi. Keyin bu detallar chetini igna oldinlatilgan chok kaviqlarini yopib turadigan qilib asosiy gazlamaga tekis chok qaviqlari bilan, petlya chok yoki popop chok bilan tikib chiqiladi. Tekis chok qaviqlari bir xil va har xil uzunlikda gruppalangan bo'lib, tish yoki oyoqchalar hosil qilishi mumkin.



119-rasm

Ba'zan kashta bezagining detallari buyumga yopishtiriladi. Buning uchun polietilen plyonkadan (paket ishlatish mumkin) gazlamadan qirqilgan detalga qaraganda 2-3 mm kattaroq qilib qirqib olinadi. Asosiy gazlamaga plyonka qo'yiladi, uning ustiga gazlama parchalarini qo'yib, juda qizib ketmagan dazmol bilan bosib yopishtiriladi. Plyonka erib, asosiy detalga gazlama parchalarini yopishtiradi.

Qalin gazlamalar (drap, movut, fetr va h.k.) dan applikatsiya tikishda kashta detallarini oldin karton qog'ozga ko'chirib qirqib olinadi. Tayyor bo'lgan trafaretni gazlama ustiga qo'yib rangli qalam bilan chizib chiqiladi. Movut, fetr, zamsh, drap detallarini asosiy gazlamaga tikmay, o'rtasiga tugma, munchoq kashta tikib mahkamlab qo'ysa ham bo'ladi.

Gazlama parchalaridan kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, doira, yarim doira shaklida qirqib olib, petlya chok bilan tikib poyandoz divan yostig'iga jild, yopinchiq, sumka va boshqa buyumlar yasash mumkin. Bu usulda kalta kelib qolgan yubka yoki ko'ylakni bezab uzaytirsam ham bo'ladi. Bunday buyumlarni tikish uchun eskirgan pal'to yoki kostyum gazlamalarini ishlatish ham mumkin. Gazlama atrofini xohlagan ipda, oddiy, sintetik ipda tikish mumkin, petlya chok bilan tikishda esa 3-5 tadan qaviqlarni gruppalab, uzunligi har xil qaviqlar va hokazolar bilan tikish mumkin.

2.12. Ko'z-ko'z kashta (rishel'e).

Ko'z-ko'z kashta (rishel'e) juda chiroyli bo'ladi. Hozirgi vaqtda bu kashta haqli ravishda juda keng tarqalgan. Uni qo'lda va tikuv mashinasida tikish


mumkin.

Ko`z-ko`z kashtada naqshning shakllari yoki ular orasidagi gazlama o`yiladi. Bunda tikiladigan bezaklar ko`pincha stilizatsiyalangan va bir-biriga ulagichlar bilan bog`langan gullardan, barglardan iborat bo`ladi. Bu kashtani zich to`qilgan zig`ir tola, ip, jun gazlamaga tikish mumkin. Siyrak to`qilgan gazlamalar bu kashtaga to`g`ri kelmaydi, chunki oradagi gazlama o`yilgandan keyin, gazlama titilib, kashta guli buzilib ketadi.

Bluzkalar, ko`ylaklar, yoqa va manjetlar, salfetkalar, ich kiyimlar va hokazolar rishel`e kashta tikib bezatiladi. Bunday kashta tikilgan buyumlar juda chiroyli chiqadi. Ko`z-ko`z teshikli, kashta tikilgan joydagi gazlama to`r polotnoga o`xshab ko`rinadi.

Kashta tikish texnikasi murakkab emas, lekin e`tibor va batartiblikni talab qiladi.

Kashta bezagi yaxshilab dazmollangan gazlamaga ko`chiriladi. Keyin gazlamani ko`ndalang va bo`ylama iplari kiyshayib qolmasligiga rioya qilib kergiga tortiladi. Bezak detallarining konturi bo`ylab, oddiy ipda igna oldinlatilgan yoki qaytma chokning mayda qaviqlari bilan tikib chiqiladi. Har qaysi ulagich uchun (kashta bezagi bo`yicha) bir yo`la ip qo`yib ikki marta tikib ketiladi; masalan, bezak detali barg bo`lsa, uning atrofi ulagichgacha tikib kelinadi, keyin bu bezakdagi ulagich uzunligida ip qo`yiladi-da, gazlama cheti kashta gulning boshqa elementi bo`ylab, ulagichning qarama-qarshi tomoniga kichkina qaviq tushirib tikiladi. Keyin ulagich bo`ylab orqaga qaytib barg tomonga ip ko`yiladi va keyingi ulagichgacha barg konturi bo`ylab qaviqlar tushirib tikishni davom ettiriladi. Ulagichlarning atrofi petlya chok bilan tikiladi yoki atrofidan ip o`rab chiqiladi. Ulagichning ikkala ipini to`rlab qo`yish mumkin.



120-rasm.

Ulagichni tikib chiqish uchun va petlya chokni tikish uchun yumshOq muline (1-2 qavat) oddiy ip, iris ip, garus ip (oddiy ip bilan ipak) kerak bo`ladi. Ulagichlarning bir-biriga o`tib chalishgan joyida, oldin tagidagisining atrofini to`la tikib chiqib, keyin ustidagi ulagich o`rtagacha tikiladi. Ikkita ulagich chalishgan joyda puxtalanadi-da, o`rgimchakka o`xshatib tikiladi, ipli ignani bir ulagich ustidan, bir uning tagidan o`tkazib, to`rlab ko`yiladi. shunday qilib, ikki marta aylantiriladi, keyin orqaga qaytarib, to doiracha hosil bo`lguncha tikiladi. shundan keyin o`ralmay qolgan ulagich atrofi tikib chiqiladi. Ulagichdan ulagichgacha ipni gazlama cheti bo`ylab o`tkaziladi.

Hamma ulagichlar atrofi tikib chiqilgandan keyin, kashta bezagi konturi bo`ylab petlya chok tikiladi. Bu chokni kergida yoki kergisiz tikish mumkin, bunda gazlama oldin salgina bo`shatiladi. Petlya chok qaviqlari bir-biriga zich yopishgan holda chapdan o`ngga yo`naltirib tikiladi.

Gullar, barglar va novdalardan iborat bezaklarda avval novdalarning atrofini tikib olib, keyin barg va gullar tikiladi, murakkab gullarda esa oldin tag tomondagi, keyin ustki tomondagi gulbarglar tikiladi.

Murakkab gullarni, masalan, atirgulni tikishda, oldin gulbarglar bukiladigan joylari yoki o`zakning chetini ajratib olish kerak bo`lgan joylarga ikki-uch qaviqdan iborat to`shama tikib olinadi. To`shama muline ipda yoki gazlamadan sug`urib olingan ipda tikiladi. Har qaysi bargni asosidan boshlab tikiladi-da, chokni uzmay shu joyda tugatiladi. Agar tikayotganda ip tugab qolsa, uni tikilmagan gazlama cheti bo`ylab o`ngida bir necha qaviq tushirib puxtalanadi. yangi ipni gazlama teskarisida puxtalab, oxirgi va undan oldingi petlya chok qaviklari orasidan o`ngiga chiqariladi.

O`tkazib tikiladigan chok tekis chok, chizma chok, merejka chok, teshma chok bilan qo`shib tikiladi. Ba`zan gul va barglar rang tuslari bir-biriga o`tadigan tekis chok bilan (petlya chok tikilgandan keyin) tikiladi.

Salfetkaning cheti yoqa, eng uchi, yubka etagi va hokazolar kungura shaklida bo`lishi mumkin. Kunguraning chetlari ozroq to`shama qilinib, petlya chok bilan tikib chikiladi.

Kashta tikilgan buyumlar zarur bo`lsa yuviladi, kraxmallab, tagiga yumshOq narsa qo`yib, teskari tomonidan o`rtadan cheti tomon dazmol yuritib dazmollanadi. Keyin uchi to`mtOq qaychi bilan, teskari tomonidan kashta bezagi motivlari orasidagi ulagich tagidagi gazlama, konturlari yo`rmalgan chok chetiga takab qir qiladi.

Agar buyumlar cheti kungura qilib tikilgan bo`lsa, u ham shunday qir qiladi. Keyin buyumlar yana teskari tomonidan dazmollanadi. Gazlamani qir qish ehtiyotkorlikni talab qiladigan ish: bunda petlya chok qaviqlari yoki ulagichlar qir qilib ketmasligiga e`tibor berish kerak.

2.13. Baxyasimon (o`tkazib tikiladigan) choklar.

Utkazib yoki ko`z-ko`z qilib tikiladigan har xil choklarni baxyasimon choklar deyiladi. Bularga oddiy va murakkab merejkalar, Oq mayda baxya, rangli kontur baxya, gor`kiycha gipyur, rangli chirmashma va hokazolar kiradi. Bu choklarni tikishda gazlamadan oldin asos va arqOq iplaridan keraklicha sug`urib olinadi.


Merejka baxyasimon kashtaning eng oddiy turidan iborat. Merejka gazlamaning bo`ylama va ko`ndalangiga iplarni sug`urib olib siyraklatilgan yo`l bo`ylab tikiladi. Siyraklatilgan gazlama iplarining bir nechtasini qo`shib bog`lab, ustunchalar hosil qilinadi. Ustunchalar turli usullar bilan kashta bezagi bo`yicha oddiy ip, muline ip, iris iplarni ishlatib birlashtiriladi.

Kashta tikishga har qanday polotno usulida to`qilgan gazlama yarayveradi. Merejkalarning hammasi kergida tikiladi. Ish chapdan o`ngga tomon yuritib tikiladi. Merejka chetlari petlya chok bilan yoqi ko`tarma tekis chok bilan puxtalanadi.

Oq va rangli ipda tikilgan dekorativ merejkalar bilan kiyimlarni, salfetkalar,

poyandozlar, ich kiyimlarini bezatiladi.

Popuk merejka eng oson tikiladigan merejkadir. Uni tikish uchun gazlamadan 3-5 ta ip sug`uriladi. Gazlamaning vertikal iplari merejkaning faqat bir tomonidan bog`lanadi, natijada popukchaga o`xshab to`plangan iplar hosil bo`ladi.



a


121-rasm

Tikiladigan ipni siyraklatilgan gazlama yo`lining pastki cheti chap tomoniga puxtalanadi. Igna birinchi vertikal ip oldida teskari tomonga tushiriladi, chapdan o`ngta 3-4 ta ip sanab ignani gazlamaning o`ngiga chiqariladi. Keyim bu iplarni gazlamaning o`ngida o`ngidan chapga, gazlamaning teskarisida chapdan o`ngga yo`naltirib o`rab chiqiladi. Igna merejka chetidan 2-3 ta ip pastroqda hosil bo`lgan popukchaning o`ng tomonidan chiqariladi. Ip tortiladi, igna birinchi popukcha bilan keyingi vertikal ip orasidan tushirib teskari tomonga o`tkaziladi-da, ikkinchi merejka popukchasi tikiladi.

Popuk merejka ko`pincha salfetkalar yoki dasturxonlarning chetini bezashda, ba`zan gazlama ipidan popuk hosil qilishda ishlatiladi.

Ustuncha merejka. Bu merejkani tikish uchun gazlamadan 4-5 ta ip sug`urildi. Bu iplar ham popuk merejkadek, lekin ikki tomonidan bog`lanadi. Oldin gazlama ipini bir tomondan bog`lanadi, keyin xuddi shu iplar gazlamaning siyraklatilgan ikkinchi tomonidan bog`lanadi. Ipdan ustunchalar hosil bo`ladi.


Ustuncha merejka bilan bluzka, ko`ylak va boshqa buyumlarni, shuningdek, dasturxon, salfetka, poyandoz chetlarini bezash mumkin.



δ

122-rasm.

YOrma merejka. Bu merejkani tikish uchun gazlamadan 5-7 ta ip sug`uriladi-da, oldin popuk merejka tikiladi. Bunda har kaysi ustunchada juft iplar bo`lishini kuzatib borish kerak. Merejkaning ikkinchi tomonini tikayotganda bitta ustuncha ipining yarmidan va ikkinchi ustuncha ipining ham yarmidan tutib, ular ustunchalarni ikkiga yorgandek qilib birga bog`lanadi.




8

123-rasm

To'shama merejka (124-rasm). Bu merejkani tikish uchun gazlamadan 10-12 ta ip sug'uriladi. Vertikal iplarni 40-50 nomerli oddiy ipda 3 tadan ipli ustunchalar hosil qilib bog'lanadi. Keyin merejka ustunchalari yo'g'onroq, qurpaygan ipda, masalan, 2-4 qavat muline ipda to'rlab chiqiladi: ip petlya qilib ustunchaga puxtalanadi, ignani goh ustuncha tagidan, goh ustidan o'tkazib, kashta gulning oxirigacha puxtalanadi. Qaytishda ip yonib turmagan ustunchalar ustidan ip o'tmagan ustunchalarning esa tagidan o'tkaziladi. Kashta gul taqab tushirilgan qaviqlarni gorizontaal bo'ylab joylashtirib, merejka ustunchalari tortilmaydigan qilib tikiladi.


Merejka, masalan, terma chok, qiya tekis chok singari boshqa kashta turlari bilan birga qo'shilib juda mos tushadi. Bu merejkani Oq va rangli muline, iris va boshqa ipda tikiladi.



α


124-rasm

Chalishma ustunchalar merejkasi (125-rasm). Merejka 8-10 mm kenglikda bo'ladi. Oldin oddiy ipda gazlamaning bo'sh iplari 3-4 tadan bog'lab olinadi. Keyin merejkaning o'rta chizig'i bo'ylab qalin ip, ba'zan rangli ipni gazlama chetiga puxtalab olib, har 2 ta ustuncha chalishtiriladi: igna bilan ikkinchi ustunchani ilib, birinchi ustuncha o'rniga o'tkaziladi. Ayni vaqtda birinchi ustuncha ikkinchi ustuncha o'rniga o'tadi. Ipli igna o'tkaziladi-da, ip tortiladi, bunda ikkinchi ustuncha iplari birinchi ustuncha ustiga yotadi. Merejkani to'rtta ustunchadan hosil qilish ham mumkin. Buning uchun merejka kengligini 12 mm gacha kengaytiriladi. Ustunchalar ikki usulda chalishtiriladi. Oldin uchinchi ustuncha birinchi ustuncha bilan, oldingi merejka ustunchalaridek chalishtiriladi. Bunda igna tagida qolgan ikkinchi ustuncha iplarini ilib olmaslikka harakat qilish kerak. Ignani gazlama ustiga chiqarib, ip tortiladi. Keyin uchinchi va birinchi ustunchalarni ipiga tegib ketmaydigan qilib, to'rtinchi bilan ikkinchi ustunchalar chalishtiriladi. Ignani chiqarib ip tortiladi.



125-rasm.

Boglam merejka (126-rasm). Bu merejka uchun 15 mm va undan ortiq kenglikda gazlama ipi sug`uriladi. Merejka oddiy 60-nomerli ipda tikiladi. Oldin gazlamaning 3-4 tadan ipi ustuncha qilib bog`lanadi. Merejkaning gazlama iplari qirqilgan ensiz tomoni ko`tarma tekis chok bilan tikib chiqiladi. Ipni shu chetning o`rtasida puxtalanadi-da, 3-4 ta ustunchani bog`lam qilib ikkita tuguncha bilan bog`lanadi. Oldin ipli igna yordamida oxirgi ustunchani tikayotgan ip ustida qoldirib to`rlab chiqiladi.




126-rasm

Ipni tortib halqa qilib joylashtiriladi. Keyin ignani tikayotgan ipdan pastroqda teskari tomondan ustunchalar tagiga kiritiladigan qilib ikkinchi tugun qilinadi. Bunda igna tortilgan ipdan yuqori bog`lama tagiga kiritiladi-da, ipdan hosil qilingan halqadan chiqariladi. Ipni tortib taranglab o`ngga yo`naltiriladi. shunday qilib, har qaysi bog`lamni merejkaning o`rta chizig`i bo`ylab joylashtirib, ikkita tugun bilan bog`lab boriladi. Ustunchalarni bog`larga tortib o`raydigan ipni o`ram deyiladi.

O`ram merejka (127-rasm). Gazlamadan iplarni sug`urib olib 12-15 mm siyraklantirilgan yo`l hosil qilib, ustunchala tikiladi. Ustunchalarga uchtdan ortiq ip olinmaydi, chunki ustunchalarni bog`lamlarga tortayotganda merejka tortilib qolmasligi kerak. Ipni merejka o`rtasidagi 1-nuqtada puxtalanadi va bog`lamga 4 tadan ustuncha bog`lanadi. 2-nuqtadan birinchi ustuncha ustidan ikkinchi ipni o`tkazib, ustuncha-ustida bitta tugun bog`lanadi. Ipni chapga tortib, keyin o`ngga tortib taranglanadida ikkinchi ustuncha ustida tugun bog`lanadi. Bunda tugunchalar birinchi bog`lamning to`rttala ustunchasi ustida bog`lanadi, ehtiyot bilan ikkinchi

bog`lamni teshib o`tib, uchinchi bog`lamning ustunchalarida (bog`lamning ostki tomoni) bog`lanadi. To`rtinchi bog`lamni o`tkazib yuborib, beshinchisida (bog`lamning ustki bo`lagi) tugunchalar bog`lanadi.




127-rasm

Merejka oxiriga etgach, qo`yib chiqilgan o`ram ustiga ip o`rab, 2-nuqtaga qaytib kelinadi. Keyin 3-nuqtaga o`tib, qarama-qarshi tomondagi xuddi shu bog`lamlar tugun qilib bog`lanadi. 1-nuqtadan muline ip (2 qavat) puxtalanadi, ikkinchi bog`lam o`rtasigacha birinchi o`ram ip bilan o`rab chiqiladi. Ignani bog`lam tugunchasidan o`tkazib, o`rgimchak qilib tikiladi. Buning uchun merejkaning ustunchalari bilan bog`lamlari terib olinadi (to`rlanadi), ipli igna bir ustunchaning ustidan, keyingi ustunchaning esa tagidan, oldin bir tomonga, keyin teskari tomonga o`tkaziladi. yana to`rtinchi bog`lam o`rtasigacha birinchi ustun ip o`raladi-da, ikkinchi o`rgimchak tikiladi.

O`ram merejkalar kengroq bo`lib, ularning kengligi 4-5 sm ga etadi.


O`ramlari 5-7 va undan ortiq bo`lishi mumkin. O`ramlar kesishadigan joydagi ustunchalarga ko`pincha o`ramli katta o`rgimchak yoki beshta, oltita gulbargli gul tikiladi. Bu o`rgimchak yoki gul muline ipda tikiladi. Merejka ustunchalari va o`ramlar merejka o`rtasidan boshlab turlab chiqiladi. Gulning gulbargini tikib bo`lgandan keyin igna kashta qaviqlari tagidan gul markazi tomon teskarisidan o`tkaziladi-da ikkinchi gulbarg tikiladi.

Qo`ng`izcha merejka (128-rasm). Bu merejkaning keng xuddi bog`lam merejkadek. Qo`ng`izcha merejkada 3 tadan ustuncha bog`lanadi, bunda bog`lamdan bog`lamgacha ip o`tkazilmaydi. Ignadagi ipni birinchi ustuncha chetida puxtalanadi, merejka enining yarmigacha 2 martadan o`raladi. Ustunchalarni ip o`rtadagi ustuncha ustidan va birinchi bilan uchinchi ustuncha tagidan o`tdigan qilib to`rlanadi. shu ipdan uchinchi ustuncha ustida halqa hosil qilib, ignani ustunchalar tagidan o`tkazib, halqa ichidan chiqariladi. Ipni taranglab, ignani ustuncha tagiga kiritib, ipdan hosil qilingan halqa ichidan chiqarib, ikkinchi tuguncha tikiladi. Keyin bog`lamning uchinchi ustunchasi o`rab chiqiladi, gazlamaga bitta qaviq tushirib (chetidan) merejkaning o`rtasigacha ikkinchi bog`lamning birinchi ustunchasi o`raladi.



127-rasm

Bo`g`ma merejka (128-rasm). Bu merejka uchun gazlamada ikkita yo`l sug`uriladi, ularning orasida sug`urilmagan ip qoldiriladi: oldin 4 ta ip sug`urib, 3-4 ta ip qoldiriladi, keyin yana 4 ta ip sug`uriladi. Gazlamada qolgan yo`lning ikki tomoni baravar popuk qilib tikiladi. Gazlamaning o`rta yo`lida ipni puxtalab, pastdan yuqoriga qaratib (yo`lga kundalang) qaviq tushiriladi. Teskari tomonda ipni yuqoridagi chap tomondan pastdagi o`ng tomonga diagonal bo`ylab o`tkaziladi, gazlama yo`lidan pastroqda birinchi vertikal qaviqdan to`rtta ip naridan chiqariladi. Unga tomonda ipni o`ngdan chapga yo`naltirib gorizontal bo`ylab, teskari tomonda esa ikkinchi diagonal bo`ylab: pastdagi chap tomondan yuqoridagi o`ng tomonga o`tkaziladi. Ipni taranglab merejkaning o`ngi tomonidan o`ngdan chapga yo`naltirib, gorizontal qavik tushiriladi. Teskari tomonda ipni yana birinchi diagonal bo`ylab joylab, gazlama yo`lidan pastroqdan birinchi popukning o`ng tomoniga chikariladi.



128-rasm

Merejka yupqa gazlamaga oddiy ipda (№ 60-70) yoki zichroq to`qilgan, masalan, lavsan aralashgan zig`ir tola polotno gazlamalarga oq yoki rangli muline ipda (4 kavat) tikiladi. Jun gazlamaga merejka jun ipda yoki gazlamada sug`urib olingan ipda tikiladi.

Bo`g`ma merejka ko`pincha boshqa murakkabrok merejkalarda, masalan, O`ram merejka, polotnocha merejka, to`shama merejka va hokazolarda uchraydi. Bu merejka enli merejkaning ikki tomondagi chetiga yaqin joyda tikiladigan bo`lib, uni baxyatagi merejka deyiladi. Bo`g`ma merejka kiyim chetlarini popukka o`xshatib bezashda ham ishlatiladi.

Gajimga o`xshash popukni gazlamaning teskari tomonidan tikiladigan boshqa merejka yordamida tikish ham mumkin. Gazlama chetidan mo`ljallangan popuk uzunligicha joy qoldirib, gazlamadan 12-15 mm kenglikda ip sug`uriladi va shu oralik shartli 3 ta bo`lakka bo`linadi. Bo`lingan chiziq yo`li bo`ylab gazlama ipini bir nechtadan to`plab ikkita petlyali tugun qilib bog`lanadi.

Ish paytida kergini gazlamadan sug`urilgan ip yo`li vertikal turadigan qilib mahkamlanadi.

Kashta bezagi merejkaning o`rta chizig`idan navbati bilan bir chap, bir o`ng tomondan tikiladi. Merejkaning chap tomondagi chetida to`rtta ipdan iborat birinchi to`pni bog`lanadi, u ikkiga bo`linadi. Ikkita ipli bir bo`lagini qoldirib, ikkinchisiga yana 2 ta yangi gazlama ipidan qo`shib, ularni merejkaning o`ng tomondagi chekkasida bog`lanadi. Keyin 2 ta yangi ipni oldingi to`rtta ipga qo`shib merejkaning chap tomondagi chetida ikkitali tugun tikiladi va hokazo. Merejkani oxirigacha tikib bo`lgandan keyin ip gazlamama oxirigacha sug`uriladi.

2.14. O`zbek do`ppilari.

Do`ppilar juda qadimdan o`zbek xalqining kundalik turmush tarziga shunchalik singib ketganki, ularsiz o`zbek bayramlarini, to`ylarini, ma`raka va yig`inlarini tasavvur qilib bo`lmaydi.

O`zbekistonda do`ppini erkaklar, o`g`il bolalar, qizlar, kelin-chaklar, yosh-u qari-barchasi sevib kiyishadi.

Bobolarimiz, momolarimizning qadimdan hayotlaridagi go`zallikka bo`lgan intilishlarini o`tmishdan saqlanib qolgan madaniy meroslar, yodgorliklar asosida o`rganamiz. O`zbek xalq amaliy san`atining ildizlari qadimgi, asriy tajribalar natijasi o`laroq, serjilo, har tomondan hayratga soladi kishini. Mahobatli me`moriy obidalar, zeb-u ziynatlar, liar xil uy-ro`zg`or buyumlari, anjomlari oxirgi yillarda xalq mulki sifatida o`rganilib, ma`lum va nianzur bo`lmoqda. yangi avlod amaliy san`atning yo`qolib borayotgan turlarini o`rganishga, qayta tiklash, rivojlantirish, ijodiy barkamollikka erishtirishga kirishmoqda. Oxirgi yillarda olib borilayotgan harakatlar, badiiy kashfiyotlar o`zbek xalq amaliy san`atining serjilo, go`zal chamanini bunyod etmoqda. O`zbek xalq amaliy san`atining go`zal durdonasi bo`lgan do`ppido`zlik san`atini o`rganish, uni yoshlarga o`rgatish, shu kasbga mehr uyg`otishning madaniy, estetik tarbiyasi muhim ahamiyatga egadir. Biz o`zimizning tarixiy madaniyatimizni qancha chuqur o`rganib borsak, shuncha katta, serunum, serjilo, keng gulShanga kirib borayotganimizni sezaveramiz. Bu gulShanning sehri, mehri shunchalar keng va chuqurki, biz uning ichida qancha


ma`naviyat boyliklariga duch kelimiz. Mali hech kim bilmagan, ko`rmagan serjilo guldastalar topaveramiz.

Do`ppi do`zlik, san`ati haqida qisqacha ma`lumot


Do`ppilar qadimdan o`zbek badiiy kashtachilik me`rosininj ajralmas durdonasi va xalq amaliy san`atining o`ziga xos go`za turlaridan biri hisoblanadi.

Do`ppilarning qachon paydo bo`lganligi, uning ilk ijodkor haqida biror-bir aniq ma`lumot yo`q. Faqat eramizdan ming yilla avval Ahamoniylar davrida O`rta Osiyoda Sakatigraxuada degan qabila yashaganligi va bu atama tepasi cho`nqaygan bosh kiyim kiygan saklar degan ma`noni bildirganligi haqidagi tarixiy ma`lumotlarga duch kelimiz.

Demak, do`ppilar juda qadimgi bosh kiyimlardan biri ekan.



129-rasm.



130-rasm.

Bunday shaklga yaqin bosh kiyim turlari yaqingacha saqlanib qolgan. Bunga misol qilib tepasi uchli Buxoro do`ppilarini, tepasi cho`zinchoq shahrisabz gilam do`ppilarini, Xorazmda ke`ng tarqalgan Xorazm takyalarini ularning takomillashgan turlari deb atashimiz mumkin.

XIX asrning boshlarigacha do`ppilarning shakli konussimon uchli bo`lgan. Jiyak va kizaklari keng bo`lgan. Do`ppilarning shakli keyinchalik to`rtburchak va dumaloq bo`lib o`zgargan, jiyaklari ingichkaroq qilib tikila boshlangan. Do`ppilar qadimdan ayrim etnik guruhlarining didiga va iqlimiy sharoitga ko`ra turli matolardan o`ziga xos texnologik asoslarda tayyorlanib kelingan.

XIX asrning oxiri va XX asrda o`zbek do`ppilari ancha takomillashgan.

1. Andijon Do`ppilari

Qariyalar kiyishiga mo`ljallangan Andijon do`ppilarining matosi oq satindan, astari oq bo`z yoki satindan tayyorlangan.

Kizagi jiyaksiz, vertikal bo`ylab, tepasi gorizontal bo`ylab, zich qilib mashinada choklangan. Astari va avrasining orasiga karton qog`oz qo`yilgan. Qo`l

chokida kashta tikilib, uni tikishda ipak iplar ishlatilgan.

SHakli to'rt tomonli, tepasi unchalik baland emas (8-10 sm), kizagi esa baland (7-8 sm). Tepa qismining bir-biriga qarama-qarshi tomonlariga bir xil rangli ipaklar bilan gul barglarining, gul-butalarning rasmi tikilgan. Kizagining to'rtala tarafiga bir xil gul barglari tikilgan.

Qizchalar kiyishiga mo'ljallangan do'ppilarning matosi baxmal bo'lgan, asosan, siyohrangli, jigarrangli baxmal ko'p ishlatilgan. Astariga satin, bo'z matolar tanlangan.

Kizagining chetiga qora baxmaldan jiyak tikilgan.

Bunday do'ppilar „piltado'zi" texnikasida tayyorlangan.

Shakli to'rt qirrali, tepasi va kizagi uncha baland emas.

Ayollar kiyishiga mo'ljallangan do'ppilarning yana bir turi mavjud bo'lib, uning matosiga oq parcha tanlangan, astari satin, kizagining chetiga qora baxmal jiyak tikilgan.

Bunday do'ppilar ham qo'lda bajarilgan. Do'ppilarga qo'l kashta usulining „xomdo'zi" chokida ipak iplar bilan kashta tikilgan.

SHakli to'rt qirrali bo'lib, tepasi yassi, kizagi ham baland emas. Unda kashta nusxasining „chorgul" kompozitsiyasi qo'llanilgan. Tepa qismi zigzag yo'li orqali to'rt tarkka ajratilgan.

Har bir tarkka bir xil gul g'unchalari joylashtirilgan va ba'zan ular orasiga yozuvlar qo'shib tikilgan. Erkaklar kiyishiga mo'ljallangan do'ppilarning matosi qora ipak, astari satin, kizagining chetiga yarim ipakdan tayyorlangan lenta-jiyak tiki'lgan.

Texnikasi-qo'l ishi, tepa qismiga oq ipak ip bilan „Ilmoq" va „yo'rma" chokida kashta tikilgan. shakli-to'rt tomonli.

Unda kashtaning „bodom nusxa" kompozitsiyasi qo'llanilgan, tagiga „qo'shgajak" nusxasi ham ishlatilgan. Kizagining bar tarafiga to'rttadan „mehrob" tikilgan. Mehrobning ichiga „zuluk" va „turna" kabi kashta nusxalari tikib chiqilgan. Kashta oq ipak bilan tikilgan.

2. Qashqadaryo do'ppilari

SHahrisabz va Kitob tumanlarida juda qadimdan iroqi nusxa do'ppilar (140-a rasm) tayyorlanib kelingan. Bunday do'ppilarga iroqi gul tikish usullarining, asosan, „sanama", „bosma" chok xillari ishlatiladi. Do'ppilarga maxsus jiyaklar qadalib, bezak beriladi.

Do'ppilarning ko'rinishi (shakli) esa yarim konussimon bo'ladi. O'ziga xos tayyorlanish texnologiyasiga ega bo'lgan bunday do'ppi-larni shahrisabz va Kitob tumanlarida „qalpoq" deb ataydilar. Tosh-kentda esa bunday do'ppilar „gilamdo'ppi" deyiladi.

Qashqadaryoda „iroqi" do'ppilardan tashqari „piltado'zi", yoki „to'ldirma" deb nomlangan do'ppilar (140-b rasm) keng iste'mol-da bo'lgan.


Bunday do'ppilarni tayyorlashda „piltado'zi" usuli qo'llanilgan. Piltalarga, asosan, qog'oz ishlatilgan. Do'ppining piltalari bo'ylab „tekis" va „ilmoq" qo'l kashta choki bilan gullar tikilib, ular „to'ldirma do'ppi" deb atalgan. To'ldirma do'ppilar bilan birgalikda xalq boshidan tushirmay, sevib kiygan gilam do'ppilar yoki „iroqi" do'ppilar ham keng iste'molda bo'lgan. Bunday do'ppilar kanvaga,

bo`z matoga, „bo`ronboy" deb nomlangan to`r matoga „tagdo`zi" usulida „iroqi" qo`l kashta choki bilan kashta tikib tayyorlangan.

To`ldirma do`ppilar paxta, qog`oz va ba`zan jun bilan piltalangan. Kizagining chetiga „yo`rma" usulida matoga tikib tayyorlangan enli va ingichka jiyaklar tikilgan.

Jiyagining birlashgan joyiga turli rangdagi ipaklardan tayyorlangan popuk qadab, bezak berilgan. Bunday do`ppilarning ko`rinishi dumaloq, tepasi konussimon, yassi bo`lgan.

Gullari ipak va paxta iplar bilan tikilgan.



131-rasm.

Gilam do`ppilar, „iroqi" do`ppilarning ko`rinishi dumaloq, tepasi konussimon yassi yoki konussimon cho`nqaygan va ba`zilari gumbaz shaklida baland qilib tikilgan.

Tepasi cho`nqaygan do`ppilarning kizagi ham enli bo`lgan. Bunday do`ppilarga gul tikishda „tagdo`zi" texnikasi ishlatilgan, kashta chokining „iroqi", „sanama iroqi", „ilmoq" xillaridan foydalanilgan. Do`ppilarning kizagiga matoga „ilmoq" choki bilan tikib tayyorlangan jiyaklar qadalgan. Ba`zan jiyaklarning birlashgan joyiga turli rangdagi ipak iplar bilan tayyorlangan popuk qadalgan.

XIX asrning boshlarida kuloxlar-kizagi chuqur, dumaloq, tepasi gumbazga o`xshash yoki konussimon baland bosh kiyimi ham iste`molda bo`lgan. Ko`pincha, bunday kuloxlarning avrasiga ham shahrisabz gilam do`ppilari kabi „tagdo`zi" usulida „iroqi", „ilmoq" choklari bilan rangli ipak va paxta iplar bilan gul tikilgan. Kashta nusxalari orqali tepa qismlari to`rt bo`lakka ajratilgan. Astar satin, chit va bo`zdan bo`lib, piltalangan. Piltalariga paxta, qog`oz va qo`y juni ham ishlatilgan.

XIX asrning o`rtalariga kelib, ayollar uchun to`rtburchak shakldagi, uchburchak qatlanadigan „iroqi" do`ppilar ham keng iste`molga kirgan. Bunday do`ppilar „piltado`zi" usulida tayyorlangan. Piltasiga qog`oz ishlatilgan. Do`ppilarning tepasi ikkita diagonaliga joylashgan kashta yo`li orqali to`rt qismga ajratilgan. To`rtala tomoniga bir xil gullar tikilgan. Kashta gullari turli rangli ipaklar bilan tikilgan.

Ayollar kiyishiga mo`ljallangan, qimmatbaho matolardan tikilgan do`ppilar ham bo`lgan. Masalan, xitoy shoyisi (zarparang) dan tayyorlangan „zarparang qalpoq".

Bunday do`ppilarga chiroyli matolar tanlangan. Ular „piltado`zi" usulida tayyorlangan.

Pilta yo`llari mashina chokida tikilgan. Do`ppilar, asosan, qog`oz bilan piltalangan.

3. Namangan do`ppilari

XIX asrning boshlarida chust do`ppilari udum bo`lgan. Do`p-pilarning avrasi qora satindan, astari paxta matodan tayyorlangan. Kizagining chetiga qora paxta yoki ipak ipdan tayyorlangan „Chalma“ jiyak ishlatilgan. Do`ppilarning shakli to`rtburchak, tepasi to`rt tomonli, yassi, uchburchaksimon qatlanadigan bo`lgan. Texnikasi-„piltado`zi“, qo`l chokida tikilgan. Qog`oz bilan piltalangan. Qo`l kashta chokining „xomdo`zi“, „Chamak“, „ilmoq“, „chindaxayol“ kabi turlari ishlatilgan. Kashtalariga „qalampir“, „ko`z“, „qubba“, „parrak“, „zuluk zanjira“, „zanjira dandona“, „girihi“, „zuluk“, „no`xat“, „chetan“, „bargak“ kabi gul nusxalari ishlatilgan. Ular, asosan, oq ipak ip bilan tikilgan. Kashta gullarining „ko`z“lariga gulobi, sariq, to`q qizil, siyoh, to`q yashil rangli iplar ishlatilgan. Kichik yoshdagi bolalarning do`ppilariga rangli ipaklar ko`proq ishlatilgan.

XIX asrning o`rtalariga kelib, do`ppilarga ipak matolar ishlatila boshlandi. Satin va ipak matolarning qora rangdan tashqari to`q yashil ranglari tanlanganda do`ppilar yanada ko`rkamlashdi. Gul nusxalariga ham yangicha sayqal berila boshlandi. O`sha davrlarda ham kuloh (darveshlar bosh kiyimi) iste`molda bo`lgan. Ularni tayyorlashda avrasiga jun matolar ham ishlatilgan. Astariga paxtadan tayyorlangan matolar tanlangan. chetlariga sun`iy jun mato, ba`zan jun va ipakdan tayyorlangan tasmalar ham ishlatilgan. Kashta tikishda „Chamak“, „bosma“ kabi qo`l kashta choklari bilan gul tikilgan. Arab yozuvlari bilan bezak berilgan.

4. Farg`ona do`ppilari

Farg`ona do`ppichiligida erkaklar uchun mo`ljallangan chust do`ppilaridan keyin ularga o`xshatma qilib, Marg`ilon do`ppilari yaratildi. Marg`ilon do`ppilariga ham, asosan, qora rangdagi satin vaipak matolar, astariga paxta mato ishlatilgan.

Marg`ilon do`ppilarining ham tepa qismi teng to`rt bo`laklarga ajratilib, to`rt karjiga to`rt dona qalampir nusxasi tikilgan. Marg`ilon do`ppisining qalampir nusxasi chust do`ppisinikiga nisbatan ingichkaroq va kashta tikish usuli o`ziga xos bo`lgan. Marg`ilon do`ppilarining gullari ham oq ipak bilan tikilgan. Do`ppilar „pilta-do`zi“ usulida tayyorlangan. Marg`ilon do`ppilarining kizagiga ham qora paxta va ipak ipdan tayyorlangan „Chalma“ jiyaklar tikilgan.

XIX asrning o`rtalaridan keyin xotin-qizlar uchun mo`ljallangan Marg`ilon do`ppilari keng tarqaldi. Ularning avrasiga kanva yoki to`r mato (tul), astariga paxtadan tayyorlangan matolar ishlatilgan. Do`ppilarga „piltado`zi“ usuli qo`llanilgan, pilta qog`ozdan qo`yilgan. Avrasi uchun tanlangan matoga „tagdo`zi“ usulida „iroqi“, „sanama iroqi“ qo`l chokida gul tikilgan. Kizagining chetiga qora baxmaldan ingichka jiyak tikilgan. Do`ppining shakli to`rtbur-Chak, tepasi ozgina ko`tarilgan, kizagi ingichkaroq qilib tayyorlangan. Do`ppining tepa qismi ingichka kashta yo`li bilan to`rt tarkka ajratilgan. To`rtala qismiga bir xil gul nusxalari yoki gul shoxida o`tirgan qushcha, ba`zida esa yozuvlar bilan („Farg`ona tong otguncha“ kabi) gul tikilib bezatilgan. Kizagiga tepaning guliga mos keladigan nusxa tikilgan. Gullar ipak iplar bilan tikilgan.

Erkaklar, yosh bolalar, xotin-qizlar uchun mo`ljallangan Qo`qon do`ppilari ham o`ziga xosligi bilan ajralib turgan.

Erkaklar uchun mo`ljallangan Qo`qon do`ppilarining avrasiga, asosan, qora

va yashil rangdagi satin, astariga esa paxtadan tayyorlangan mato ishlatilgan. Kizagining chetiga qora rangli ipak yoki paxta ipdan tayyorlangan „Chalma“ jiyak ishlatilgan. Do`ppilar „piltado`zi“ usulida, qo`l kashta chokining „xomdo`zi“, „chinda xayol“, „ilmoq“ kabi xillari qo`llanilgan. shakli to`rt tomonli, tepasi uncha baland emas, yassi bo`lgan. Do`ppilarga kashta nusxalarining „qalampir“, „bodom“, „chorgul“ kabi kompozitsiyalari qo`llanilgan. Kizagiga ham tepa gul nusxasiga mos gullar tanlangan („mehrob“, arka yoki sayqallangan gul barglari). Kashta tikish uchun ishlatilgan iplarning rangi, asosan, oq, sariq, gulobi, siyohranglarda bo`lgan.

Qo`qon do`ppilarining yosh bolalar, xotin-qizlar kiyishiga mo`ljallangan turlari ham, asosan, „piltado`zi“ usulida tayyorlangan, ularga gul nusxalari ancha sayqal berib tikilgan, rangli iplar ko`p ishlatilgan. Do`ppi gullarining orasiga ko`zmunchoqlar ham qadalgan. Kizagiga ipak yoki paxta ipdan tayyorlangan „Chalma“ jiyaklar qadab tikilgan.

5. Samarqand do`ppilari

Samarqandda ko`rinishi to`rt tomonli, tepasi baland, gumbazsimon, kizagi keng, kizagining chetiga enli (3-3,5 sm) to`q rangli matodan jiyak tikiladigan do`ppilarni erkaklar sevib kiyganlar. Sunday do`ppilarning avrasiga qora satin, ipak, astariga satin, chit yoki bo`z ishlatilgan. „Piltado`zi“ texnikasida tayyorlangan, piltasiga, asosan, qog`oz tiqilgan. Do`ppilarning tepa va kizak qismiga, ko`pincha, qo`l kashta chokining „ko`ptirma“ usulida kashta tikilgan. Kashtalar, asosan, rangli ipak iplar bilan tikilgan. Kizagining tomonlariga bir xil gul tanlangan, tepa qismining to`rtala tarafiga shu gulga mutanosib gul tanlangan.

Ko`rinishi dumaloq, tepasi konussimon, uchli, kizagi ba`zida keng yoki ingichkaroq qilib tikiladigan do`ppilarni ham erkaklar, ham turli yoshdagi o`g`il bolalar ko`p kiyganlar. Bunday do`ppilarning avrasiga kanva („bo`ronboy“ kanvasi), bo`z matolar ishlatilgan. Astariga uch, to`rt qavat bo`z, satin, ba`zan doka kabi matolar ham ishlatilgan. Kashta „tagdo`zi“ texnikasida, „iroqi“ kashta qo`l chokining „sanama iroqi“, „chizma iroqi“ usullarida tikilgan. Kashta tikishda rangli ipak iplar ishlatilgan. Do`ppi kizagining cheti keng yoki ingichka har xil jiyaklar bilan bezatilgan. Jiyaklar matoga qo`l kashta usulining „yo`rma“ choki bilan yoki „iroqi“ choki bilan tikib tayyorlangan. Do`ppilarga qora paxta ipdan tayyorlangan „Chalma“ jiyaklar ham qadalgan. Ba`zida esa kizakning jiyak o`midagi qora yo`l ichiga kashta tikilgan.

Bunday do`ppilar iste`molda juda keng qo`llanilgan. Matosi, avrasi gulli va gulsiz har xil rangli ipakdan yoki parchadan, astari satin, chit, ipak matodan tayyorlangan, ko`rinishi dumaloq, kizak kengligi har xil, tepasi konussimon uchli, keng bo`lgan do`ppilarni erkaklar va turli yoshdagi o`g`il bolalar kiyganlar. Bunday do`ppilarning kizagiga ham keng yoki ingichka jiyaklar tikilgan. Jiyaklar qora „Chalma“ yoki matoga „yo`rma“ chokida tikilgan bo`lgan. Do`ppilar „piltado`zi“ texnikasida tayyorlangan. Pilta uchun qog`oz yoki paxta ishlatilgan. Pilta yo`llarini tikishda mashina chokidan ham foydalanilgan.

Erkaklar va o`g`il bolalar uchun mo`ljallangan, ko`rinishi dumaloq, tepasi konussimon, „piltado`zi“ usulida tayyorlangan do`ppilarning yana bir

turi ham bo`lganki, bunday do`ppilarga ham satin, chit, ipak matolar

ishlatilgan. Pilta yo'llari tor, ba`zida juda keng qilib tikilgan. Do`ppilarning tepa va kizak qismiga „bosma" yoki „yo`rma" chokda ipak va paxta iplardan kashta tikilgan. Kizagining chetiga „Chalma" yoki „yo`rma" usulida tikilgan jiyaklar ishlatilgan.

Samarqandda Urgut do`ppilari barcha davrlarda o`ziga xosligi bilan ajralib turgan. Ko`rinishi dumaloq, kizagi baland bo`lgan do`ppilarning avrasiga, ko`pincha, qora satin, astariga paxtadan tayyorlangan matolar ishlatilgan. Kizagiga popuk qadalgan.

„Piltado`zi" texnikasida tayyorlangan, kashtalari, asosan, „kanda xayol", „yo`rma" qo`l chokida rangli ipak yoki paxta iplar bilan tikilgan.

Kashta uchun turli gul va geometrik naqshlar tanlangan. Xuddi shunday do`ppilarni yosh bolalar ham kiyishgan. Ularning do`ppilaridagi gullar orasiga yaltiroq metall „bargak"lar va mun-choqlar qo`shib tikilgan.

Erkaklar o`rtasida ko`rinishi dumaloq, konussimon do`ppilar ham iste`molda keng tarqalgan. Bunday do`ppilarga paxtadan tayyorlangan matolar ishlatilgan. „Piltado`zi" texnikasida tayyorlangan bunday do`ppilarga qo`l kashta usulining, asosan, „kanda xayol", „yo`rma" choklarida gul tikilgan.

Kashta rangli ipak va paxtadan tayyorlangan iplar bilan tikilgan. Ko`pincha, jiyak o`rniga to`q rangli yo`l ichiga gul tikilib, popuk qadalgan.

XX asrning boshlaridan ko`rinishi dumaloq, tepasi tekis, kizagi baland, „piltado`zi" texnikasida tikiladigan do`ppilar ayollar va qizlar o`rtasida keng tarqaldi. Bunday do`ppilarga, asosan, sariq, qizil rangli ipak va paxtadan tayyorlangan matolar ishlatilgan. Do`ppilarning tepa va kizak qismiga rangli ipaklar bilan kashta tikilgan. Gul tikishda, asosan, „kanda xayol", „yo`rma", „pcom-do`zi" kashta qo`l choklaridan foydalanilgan. Ba`zan kizak o`rniga gul tikilgan va popukchalar qadalgan. Tepa va kizak qismining gullari orasiga yaltiroq metall „bargak"lar va munchoqlar qo`shib tikilgan. Xuddi shunday do`ppilarni kichik yoshdagi qizchalar ham kiyishgan.

6. Toshkent do`ppilari

O`tgan asrlarda Toshkentda erkaklar uchun mo`ljallangan do`ppilarning ko`p xillari mavjud bo`lgan.

Masalan, ko`rinishi to`rt tomonli, tepasi konussimon, kizagi keng, uning chetiga keng jiyak (eni 4,5 sm gacha) tikiladigan do`ppilar bo`lganki, ular och va to`q yashil ipak matolar, satin, ba`zida esa yashil bo`zdan tayyorlangan. Astariga, asosan, paxtadan tayyorlangan matolar ishlatilgan. Do`ppilar qo`l ishi yordamida tayyorlangan, „tagdo`zi" kashta usulidan foydalanilgan. Asosiy gul naqshlari mayda „tepchik" chokida, qolgan joylari esa „Chakma-tur" choki bilan tikilgan. Unga oq ipak ip ishlatilgan. Kashta gullari do`ppi tepasining to`rt tomoniga bir xil, kizagiga ham shu gullarga mos naqshlar tanlab tikilgan.

Erkaklar kiygan do`ppilarning yana bir xili-to`rt tomonli, tepasi baland, konussimon ko`rinishda, kizagi ham enli, kizagining chetiga to`q rangli matodan jiyak tikilgan do`ppilar „piltado`zi" texnikasida tayyorlangan. „Tagdo`zi" kashta tikish usulidan foydalanilgan. Qo`l kashta chokining „Chakmatur", „chinda xayol" turlaridan foydalanib gul tikilgan.

Ko`rinishi to`rt yonli, tepasi konussimon, chuqur, kizagi enli va ensiz, jiyagi

ham enli va ensiz qilib tikiladigan do`ppilar ham bo`lgan. Bunday do`ppilar bo`zga, kanvaga tikilgan, astari paxtadan tayyorlangan mato bo`lgan. Do`ppilar „piltado`zi" texnikasida tayyorlangan. Rangli ipaklar bilan kashta tikilgan, uni tikishda, asosan, qo`l kashta chokining „bosma" chokidan foydalanilgan. Kashta tikishning „tagdo`zi" texnikasi ishlatilgan.

Ko`rinishi dumaloq, tepasi yarim yoysimon, kizagi enli bo`lmagan, kizak chetigaqora baxmaldan ingichka jiyak tikiladigan do`ppilarni ham erkaklar kiyishgan. Bunday do`ppilar ham „piltado`zi" texnikasida tayyorlangan. Do`ppining kizagi va tepasiga qo`l kashta chokining „xomdo`zi" choki bilan kashta tikilgan. Erkaklar uchun to`q sidirg`a rangli baxmaldan, „piltado`zi" texnikasida to`rt tomonli, kizagi keng va uncha keng bo`lmagan, kizagining chetiga keng qora baxmaldan jiyak tikiladigan do`ppilar ham bo`lgan. Ularning tepasi past bo`lgan. Do`ppilarga kashta tikilmagan.

„Piltado`zi" texnikasida tayyorlangan, dumaloq, „tagdo`zi" kashta usulida, kashta chokining „iroqi", „xomdo`zi" xillaridan foydalanib gul

tikiladigan gilam do`ppilarni ham erkaklar kiyganlar. Bunday do`ppilarga oq bo`z yoki kanva ishlatilgan. Astari paxtadan tayyorlangan matodan bo`lgan.

Konussimon, kizagi keng, bo`zga yoki satinga tikiladigan, avrasi va astarining orasiga qog`oz qavati qo`yilib, mashina bilan tikiladigan do`ppilarni qariyalar kiyishgan. Bunday do`ppilarga ham kashta tikilgan.


XX asrning, ayniqsa, birinchi yarmidan keyin ayollar kiyishiga mo`ljallangan do`ppilar ko`plab tikildi. Ko`rinishi to`rt yonli, kiza-gining chetiga ingichka qora baxmaldan jiyak, „tagdo`zi" kashta usuli bilan „Chakmatur" chokida kashta tikilgan do`ppilar udum bo`lgan. Do`ppilarga yashil ipak, bo`z, satin matolari ishlatilgan. Do`ppining tepasi kashta yo`li bilan to`rt tarkka ajratilgan. Do`ppining oq foniga gullar tikilgan.

Ayollarga mo`ljallangan do`ppilarning yana bir xili „iroqi" do`ppilardir. Bunday do`ppilar tyulga yoki kanvaga tikilgan. „Piltado`zi" texnikasi bilan, kashtaning „tagdo`zi" usulidan foydalanilgan. Kashta qo`l chokining „iroqi" chokida kashta tikilgan. Do`ppilarning ko`rinishi to`rtburchak, kizagi uncha keng bo`lmagan.

7. Xorazm do`ppilari

Xorazmda do`ppilar „takya", „toki", „teyxa" deb ataladi. Xorazm uslubida tikiladigan do`ppilarning tepasi yassi, duxoba, shoyi va zarbof matolardan tayyorlanib, o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xorazm do`ppilarining „zar takya", „kozma takya", „papakli takya" (popukli), „manatli takya" kabi nomlar bilan mashhur bo`lgan turlari mavjuddir. Ularning ko`rinishi, asosan, dumaloq shaklda bo`lib, ba`zilariga qog`oz yoki paxtadan pilta qo`yib tayyorlangan bo`lsa, ba`zilariga qalin qog`oz qo`yib tikilgan. Ular, asosan, chetdan keltiriladigan „farangi", „parcha" kabi gazmollardan tayyorlangan. Astariga oddiy paxtadan tayyorlangan mahalliy matolar ishlatilgan. Kizagiga ipakdan tayyorlangan chalma jiyaklar tutilgan. Jiyaklarning rangi, asosan, xo`jag`at (malina) rangida, qizg`ish, to`q sariq rangda bo`lgan. Jiyakning birlashgan joyiga popuk qada-lib bezatilgan. Popuklar jiyakning turiga, eniga, do`ppilarning xiliga qarab uzun va kalta qilib tanlangan. Xorazm takyalari ham boshqa viloyatlarning do`ppilaridan o`ziga

xosligi va mukammal tayyorlanish uslublari jihatidan ajralib turadi (132-rasm). Xorazm do`ppilariga turli zargarlik buyumlari, taqinchoq, bezaklar qo`shib tikilgan. Tumor uchun g`ilof, turli nafis, go`zal qilib yaratilgan manglaydizgilar va boshqa xil zargarlik bezak buyumlari shular jumlasidandir. Tumor solinadigan g`ilofChalar tilla, kumush kabi metallardan yasalgan. Ularga ham har xil tabiiy toshlar qadalib, naqshlar tushirilib, ishlov berilgan. Manglaydizgilar ham tilla, kumush tangalardan, misdan yasalgan. Ular ham zumrad, yoqut, firuza, aqiq, marvarid kabi turli tabiiy toshlar bilan bezatilgan.



132-rasm.

Bunday toshlar go`yoki ins-u jinslardan himoya qilib, baxt va omad keltiruvchi vositalar kabi qabul qilingan. Manglaydizgilarni takyaning peshana qismiga taqishgan. chiroyli qilib yasalgan chokilalari tekis, bir qator bo`lib osilib, qoshning ustiga tushib turgan. Zargarlik bezak buyumlariga ko`zmunchoqlar ham ishlatilgan. Ularning rangi ko`k, qora bo`lib, oq xoli bo`lgan. Ilishtirik degan daraxtning shoxidan maxsus tumor shaklidagi taqinchoq ham bezak o`rnida ishlatilgan. Xorazm do`ppilarining ham qachon paydo bo`lganligi ma`lum emas. Tarixiy manbalar Xorazm teyxalarining juda qadimiy bosh kiyim ekanligini ko`rsatadi. Xorazm do`ppilarining o`rni biroz chetga surilib qolgan. U durdonalar, asosan, ansambllarda, xalq teatrlarida, muzeylarda saqlanib qolgan.

Xotin-qizlar uchun keng iste`molda bo`lgan, ko`rinishi dumaloq, tepasi yassi, kizagi baland do`ppilarning kizagi chetiga ba`zida keng, ba`zida ingichka qizil jiyak tikilgan. Jiyakning chetiga popuk qadalgan. Bunday do`ppilarni tayyorlashda qo`l va mashina ishidan foydalanilgan. Avrasiga parcha, astariga esa paxtadan tayyorlangan matolar ishlatilgan. Avrasi va astarining orasiga karton qog`oz qo`yilgan.

Ayollarga mo`ljallangan do`ppilarning yana bir xili ko`rinishi dumaloq, tepasi yarim yoysimon, kizagi keng, kizagining chetiga „Chalma" jiyak tikilgan do`ppilardir. Ularning jiyagida sariq va yashil yo`llari bo`lgan. Jiyakning chetiga popuk qadalgan. Bunday do`ppilar „Piltado`zi" usulida tayyorlangan. Piltasiga qog`oz yoki paxta tiqilgan. Avrasiga parcha, astariga esa paxtadan tayyorlangan matolar ishlatilgan.


Matosi parcha, astari esa paxtadan tayyorlangan, shakli dumaloq, tepasi konussimon, kizagi keng, kizagining chetiga keng va ingichka „Chalma" jiyak, uning tutashgan joyiga popuk tikilgan, „piltado`zi" texnikasida tayyorlangan, piltasiga paxta yoki qog`oz ishlatilgan do`ppilarni ham ayollar va qizlar sevib kiyganlar.

XIX asrning oxiri, XX asrning boshida do`ppi tayyorlash texnologiyasiga pilta qo`yish usuli kirib kelgan. shundan so`ng do`ppilarning estetik ko`rinishi yanada sayqallanib ketdi va yangi turdagi ko`plab jozibador do`ppi xillari, nusxalari hamda shu do`ppilarga tikiladigan yangicha gullar, naqshlar paydo bo`ldi. Pilta qo`yib tayyorlangan do`ppilarning esa inson sihat-salomatligiga foydasi yanada ortdi. Qog`oz yoki paxtadan piltalab tikilgan do`ppilarning boshni sovuqdan va quyosh nuridan saqlash darajasi yuqori bo`ladi.


Piltalar, avval, paxtadan, keyinchalik, Rusiyadan arzon qog`oz keltirila boshlangandan so`ng oddiy qog`ozdan tayyorlana boshlangan.

XX asrning boshigacha do`ppilarni faqat erkaklar kiyishgan bo`lsa, keyinchalik qizlar va kelinchaklar ham kiya boshladilar. shundan keyin xotin-qizlar kiyishiga mo`ljallangan ko`plab, alohida, go`zal do`ppi nusxalari yaratildi. Turli ipaklar, zar iplar, munchoqlar bilan bezak berilib, rang-barang badiiy kashtalar bilan tikib tayyorlanadigan bunday yangicha do`ppi nusxalari hozirgacha sevib kiyilmoqda. Do`ppilar shakli, badiiy ishlanishi, gullarining ko`rinishi, ranglar tanlanishi va shu kabi jihatlaridan turli, o`ziga xos tayyorlanish uslublariga egadir.


Do`ppilar uch qismdan iborat bo`ladi



133-rasm. Tepa qismi.



134-rasm. Kizak qisml



135-rasm. Jiyak qismi.


Mana shu qismlarning tayyorlanish uslublari bir-biridan farq qiladi. Do`ppilar O`zbekistonning barcha tuman va viloyatlarida o`ziga xos texnologiya va uslublar asosida tayyorlanib, ko`pincha, shu joyning nomi bilan atalib kelinadi.

Xalqimiz, ko`pincha, eng aziz va yaqin kishilariga bosh kiyimlar sovg`a qilishadi. Boshga kiyilgan do`ppilar esabirovga berilmaydi. Do`ppilar ramziy ma`noda ehtiyot qilinib, doimo ozoda va baland joyda avaylab saqlanadi.

8. chust do`ppilari

XX asrning 30-yillarida Farg`ona do`ppichiligida „chust nusxa“ do`ppi yaratildi. U o`zining sipoligi, qulayligi, ko`rkamligi bilan O`zbekistonning hamma viloyatlariga keng tarqaldi. Bunday do`ppilar erkaklar, yigitlar kiyishiga mo`ljallangan bo`lib, hozirgacha xalqimizning boshidan tushmay, sevimli do`ppilaridan biri bo`lib kelmoqda (136-rasm). chust do`ppilarining go`daklar va yosh bolalarga mo`ljallab tikiladigan nusxalari ham bor.

Bunday do`ppilarning gullariga bezak elementlari ko`proq ishlatiladi, jiyagiga esa qora ipak bilan birgalikda sariq, yashil va boshqa xil rangli ipaklardan qo`shib to`qiladi. chust do`ppilari to`rt karjli bo`lib, asosan, qora, moshrang, to`q ko`k satin (las)dan tayyorlanadi. Karj chiziqlari bo`rtib turadi. Tepa qismining har bir bo`lagiga bittadan qalampir nusxasi tushirilgan gul tikiladi. chust do`ppilarining guli yirik va yo`g`onroq bo`ladi. Kizak qismining pastki tomonida eni yarim sm li chalmak choki ostida qoldirib tikiladi. Uning ustidan esa katta-kichik gul tikiladi. Kizak qismining har bir tomoniga to`rttadan gul joylanadi. Gullarni to`g`ri tushirish uchun tepa qismining gullari, kizak qismining gullariga ham gul qoliplari tayyorlab olinadi. Gullar shu qoliplar yordamida chiziladi. Kashta naqshlariga gul tikishning ham o`ziga xos kashta yo`llari bor. Bunda „bakir-bukir“, „taroq“, „pildiroq“, „nimpildiroq“, „barg“, „kulcha“, „chetan“, „qalandar“ va boshqa gul nusxalari ishlatiladi.



136-rasm.



137-rasm.

Do`ppilarning gullari oq ipakdan tikiladi. Ipakning tagiga naqsh chiziqlari bo`ylab namga chidamli qog`oz, ipak va sun`iy materiallardan tayyorlangan maxsus to`shamalar qo`yiladi. Gullar tikilib bo`lingach, do`ppining avra-astarini bir-biriga joylab, pilta chiziqlari tikib chiqiladi. Pilta

yo`llari ham o`ziga xos qoida va me`yorlar asosida tikib tayyorlanadi. Do`ppilarning tepa va kizak qismlari piltalanadi. Ulaiga ingichka qilib qirqilgan pilta qog`ozlardan qo`yiladi. So`ng tepa qismi bilan kizak qismi ulanadi. Oxirida jiyagi qadaladi. Do`ppilarning jiyagi maxsus jiyak do`konlarida qora ipakdan tayyorlanadi.

Hozirgi kungacha do`ppido`z chevarlar tomonidan chust do`ppilarining ko`plab yangi nusxalari yaratilgan va bunday do`ppilarai yaratuvchilarning didi, mehri va mahorati natijasida haqiqiy san`at darajasiga etkazilgan. chust do`ppilari-ning „zira“ nusxasini andijonliklar sevib kiyishsa, namanganliklar ko`proq „Injiq“ nusxasini yaxshi ko`rishadi. chust do`ppilari Marg`ilon do`ppilariga qaraganda chuqurroq ko`rinishda bo`ladi.



137-rasm.

9. Marg`ilon do`ppilari

Marg`ilon do`ppilari chust do`ppilaridan keyin ularga „o`xshatma“ qilib yaratilgan. Marg`ilon do`ppilari ham, asosan, qora, to`q ko`k, moshrangli satin (las) yoki selondan (Shoyi) tayyorlanadi. Marg`ilon do`ppilarining ham tepa qismi teng to`rt bo`laklarga ajratilib, to`rt karjiga to`rt dona qalampir nusxa tikiladi. Marg`ilon do`ppisining qalampir nusxasi chust do`ppisinikiga nisbatan ingichkaroq va kashta tikish usuli o`ziga xos bo`ladi. Marg`ilon do`ppilarining gullari ham oq ipak bilan tikiladi. Gul naqshlari bo`rtib turadi. Bunday ko`rinishni hosil qilish uchun esa naqsh chizig`i bo`ylab chok ostidan yo`g`on xom ipak to`shalib tikiladi. Namga chidamli qog`oz yoki matodan juda ingichka lenta

qirqilib, uni kashta guli tagida qoldirib tikiladi. Do`ppilar tepa va kizak qismlariga pilta qo`yib tayyorlanadi. Marg`ilon do`ppilariga ham maxsus tayyorlangan jiyaklar tikilib, bezak beriladi.




138-rasm.

10. Buxoro do`ppilari

Buxoro uslubiga xos do`ppilarning eng mashhuri „zardo`zi“ do`ppilardir. Zardo`zlik san`ati o`zbek badiiy kashtachilik merosining o`ziga xos go`zal, qimmatbaho turlaridan biri bo`lib, ildizi uzoq asrlarga borib taqaladi. Prezidentimiz I. A. Karimov o`zbek xalqining tarixini, O`zbekiston tarixini Amir Temur nomisiz tasavvur qilib bo`lmaydi, deganlaridek, buyuk Amir Temur o`z hukmronlik davrlarida o`zbek xalqining milliy badiiy kashtachilik san`ati merosiga ham juda katta ta`sir o`tkazib ketganlar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Amir Temur Iroqdan olib kelgan hunarmand usta do`ppilarga iroqcha kashta tikib, „Iroqi nusxa“ paydo bo`lgan ekan.

XIV asrda (1403-1406-yillarda) Samarqandga sayohat qilgan ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o`zining esdaliklarida Temur saroyida zardo`zlikning milliy kashta bezaklarini tomosha qilganligini, Amir Temur saroyidagi zar iplar bilan tikib beza-tilgan buyumlarni, darpardalarni, saroy ahlining zardo`zi usulida tikilgan kiyimlarini katta qiziqish bilan yozib qoldirgan. O`zbek xalqining juda qadimiy kashtachilik merosi turlaridan biri bo`lgan zardo`zlik san`atini buxorolik hunarmand-chevar ustalar saqlab kelyaptilar. Buxoroliklarning o`ziga xos sarmazmun kashta naqshlari g`oyat nafis, tekis texnik uslublari, uzoq davrlar mobaynida sayqal topgan rang-barang kashta choklari shu san`atning tarixiy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.



139-rasm.

XIX asr boshlarida do`ppilarning shakli, asosan, dumaloq, konussimon bo`lgan bo`lsa, keyinchalik, asr o`rtalariga kelib, ularning to`it tomonli shakli ham tayyorlana boshlandi. Unda „piltado`zi“ usuli qo`llanildi. Piltasiga qog`oz ishlatilgan.



140-rasm.

Erkaklar do'ppisi-kuloxlar ham keng iste'molda bo'lgan. Bunday bosh kiyimlariga bo'z, satin matolar ishlatilgan. Matoni uchqavat qilib, uning yuzasini to'ldirib kashta tikilgan. Ko'pincha, birinchi qavatga oq bo'z, qolgan ikki qavatiga satin ishlatilgan.

Texnikasi-qo'l ishi, kashta „tagdo'zi" usulida, „iroqi" chokida ipak iplar bilan tikilgan. Do'ppi bir bo'lak matodan, kizagi ajralmagan holda, tomonlari chiqarilib bichilgan. Kizagi kashta yo'li orqali ajratilgan.


SHakli to'rt tomonli, baland, gumbaz shaklida bo'lgan. Kashta fonlari, asosan, oq ipakda, tepa va kizagiga arab yozuvlari ham tikilib bezatilgan.

Ayollar, qizlar kiyishiga mo'ljallangan Buxoro do'ppilari, asosan, oq bo'zga, sariq satinga, turli rangdagi baxmalga „zardo'zi-guldo'zi", „zardo'zi-zamindo'zi" usulida tayyorlangan.

„Zardo'zi"-fors tilidan olingan so'z bo'lib, zar-tilla, do'zidan-tikmoq, ya'ni tilla ip bilan kashta tikmoq ma'nosini bildiradi.

Zardo'zi usulida kashtalar zar yoki kumush iplar bilan tikiladi. Zar va kumush iplarning bir necha xil turlari mavjud. Bunday zar tolalar buxorolik ustalarning tilida kalyobatun nomi bilan mashhur bo'lib, zar va kumush iplar o'rniida qo'llanilgan. Kalyobatun tayyorlash uchun kumush qotishmasi ishlatiladi. Tilla kalyobatun esa sim ipga tilla suvi yugurtirilib tayyorlanadi. Mana shunday kumush va tilla ipaklar bilan tikiladigan Buxoro do'ppilarining shakli to'rtburchak va dumaloq ko'rinishda bo'ladi.

Kashta tikishning zardo'zi-zamindo'zi usulida naqshlarning tagi yoppasiga zar yoki kumush iplar bilan o'ziga xos uslubda tikiladi. Zardo'zi guldo'zi usulida esa oldindan maxsus karton yoki charmdan qirqib tayyorlangan naqshlar, gullar ustidan zar, kumush iplar bilan tikiladi.



141-rasm.

Gullar tikib bo'lingach, ularga qo'shimcha ipaklar, o'rtasi teshik pulakchalar (pirpiraklar), turli munchoqlar, zargarlar tomonidan maxsus tayyorlangan, odatda, qora sir, firuza toshlar bilan bezatilgan to'g'alar va zargarlik taqinchoqlariga

o`xshash olmos qubbalar deb ataluvchi oltinning turii navlaridan tayyorlangan, bo`rtib turuvchi naqshlar bilan bezak beriladi.

11. Surxondaryo do`ppilari

Surxondaryo xalq amaliy kashtachilik san`ati ham o`ziga xos uzoq tarixiy yo`lni bosib o`tgan. Xalq orasida kashta tikish san`ati an`analari muntazam rivojlana borib, avloddan-avlodga o`tib, takomillashib kelgan. Surxondaryoda milliy kashtachilik merosining ajralmas durdonasi bo`lgan do`ppido`zlik san`atining ham o`ziga xos xalqchil uslubi saqlanib qolinganki, bunday do`ppilarni xalqimiz boshidan tushirmay, sevib kiyib kelmoqda.



142-rasm.

Ayniqsa, Boysun, Dashnobod tumanlarida o`ziga xos uslubda tayyorlanadigan do`ppilarga ko`zingiz tushar ekan, ularga qarab, shu xalqning qalb qirralarini, ko`ngil ranglarini ham qisman anglaganday bo`lasiz. Turli-tuman, o`ziga xos naqshlar tikilgan, kamalakning etti xil ranglarida jilolanib, tovlanuvchi do`ppilar xalqimiz qalbining jo`shqinligini va bu qalb egalarining tabiatga yaqin, hamnafas ekanligini so`zlab turgandek bo`ladi, go`yo.

Surxondaryo do`ppilarining „piltado`zi" yoki „to`ldirma" (143-a rasm), „pulakcha" yoki „tangacha" (143-b rasm) va „Shabanok" yoki „munchoqli" do`ppi (143-d rasm) deb atalgan turlari ko`p tarqalgan bo`lib, hozirgacha xalqimizning boshidan tushmay kelmoqda. Bunday do`ppilarning ko`rinishi dumaloq shaklda bo`lib, kizagining adog`iga „yo`rma" usulida tayyorlangan jiyak tikiladi. „Pil-tado`zi" yoki „to`ldirma", „pulakcha" yoki „tangacha" deb nom olgan do`ppilarni yigitlar va erkaklar kiyadilar. Rang-barang ipaklar bilan kashta tikib tayyorlanadigan do`ppilarning „piltado`zi" deb nomlanishiga sabab, ularga tikiladigan kashta pilta chiziqlari bo`ylab tikiladi. Aynan shu do`ppilarning „to`ldirma" deb nomlanishiga sabab, ularga kashta tikish usulining „sanama tekis chok"i yordamida rangli ipaklar bilan pilta chiziqlari bo`ylab to`ldirib tikiladi.



143-rasm.

Baxmalga sariq va gulobi rangdagi ipaklar bilan tangacha ko`rinishdagi naqshlar tikib tayyorlanadigan do`ppilarni esa „pulakcha" yoki „tangacha" va ba`zan „lolagul" do`ppi deb ham ataydilar. Bunday do`ppilar patli baxmalga tikilgani sababli „patdo`zi" deb nom olgan. Ayollarga mo`ljallangan „Shabanok" yoki „munchoqli" do`ppilarning ham shakli dumaloq bo`lib, ba`zan kiza-gining o`ziga, ko`pincha esa ustki tarafi va kizagiga mayda mun-choqlardan gul tikib tayyorlanadi. Bunday do`ppilarga ishlatiladigan munchoqlar „suvmunchoq" yoki „Shkhamunchoq" deb ataladi. Ular shaffof, mayda, shisha kabi tiniq, yaltiroq munchoqlardir.

Surxondaryo do`ppilarining barchasining kizagiga jiyak qadalib, bezatiladi. Do`ppilarning jiyagi alohida tayyorlab olinadi. Jiyaklar kashta chokining „yo`rmado`zi" usulida gul nusxalari solinib tikiladi. Jiyak oddiy paxtadan tayyorlangan gazmolga maxsus silliq, uchi qayrilgan bigiz yordamida tikiladi. Jiyak tayyorlanadigan mato esa uzunligi jiyakning uzunligidan katta, eni ixtiyoriy, qulay kenglikda bo`lgan maxsus kergiga tarang tortib qo`yilgan bo`ladi. Erkak va ayollar do`ppilariga mo`ljallangan jiyaklar ularning gul nusxalariga qarab farqlanadi. Do`ppi tikilib, tayyor bo`lgach, jiyak tutiladi, jiyagining tutashgan joyiga esa turli rangdagi ipaklardan popukcha qadab bezatiladi.

Ko`pincha, kichik yoshdagi bolalarga shabpo`shlar tikib berishgan. shabpo`shlar paxta matodan, dumaloq, tepasi tekis, kizagi baland qilinib, tepa va kizagi spiral ko`rinishda tkuv mashinasida tikib chiqilgan. Tepa qismiga va kizagiga boshqa rangdagi matodan ingichka tasmali yo`l tikilgan, o`rtasiga popukchalar qadalgan.

2.15. Do`ppi tikish uchun ish o`rnini tashkil qilish kerak

Do`ppi tikuvchining ish o`rni qulay, yorug`lik soya hosil qilmagan holda, chap tomondan tushgani ma`qul. Ish stuli chevarning bo`yiga mos bo`lishi lozim. Ish jarayonida gavda holatiga ahamiyat berilishi zarur. Gavda ish stoliga biroz egilgan, lekin stolga ko`krak bilan suyanmagan holda bo`lishi kerak. Stolni suyanishga qulay qilib, stolga yaqin qo`yib olinadi. Qo`l stol ustida bimalol harakat qiladigan bo`lishi lozim. Ko`z bilan ish o`rtasidagi oraliq 25-30 sm dan oshmasligi lozim. Kergi bilan ishlangan vaqtda chap qo`l kergining tagida, o`ng qo`l esa kergining ustki tomonida harakat qiladi.

Ish stolining ustida ortiqcha buyumlar bo`lmasligi kerak. Do`p-pining bichilgan qismlari (tepa va kizak qismlarining avra-astari, jiyagi) alohida bir qutichada, ishlatiladigan asboblari alohida, ipaklar, iplar alohida, pilta materiallari alohida qutichada, ninalar ninasanchgichda ehtiyot qilinib, alohida tartib bilan joylanishi kerak. Kashta sxemalari, rasmlari va oldindan tayyorlangan andazalar ham alohida papkalarda saqlangani ma`qul. Qaychining uchi hech qachon ochiq holda qolmasligi kerak. Narsa bichayotganda qaychining uchi pastga qilib ushlanadi.


1. O`lcham olish

O`lcham olish uchun santimetr lentasidan foydalanamiz. O`lcham peshananing eng baland nuqtasi bo`ylab gorizontal yo`nalish orqali aylantirib

o`lchanadi. O`lchamda ko`rsatilgan sonni yozib olamiz. shu son bosh kiyimning o`lchami bo`ladi.



144-rasm.



145-Rasm

Do'ppilar uch qismdan iborat bo'ladi:

A) do'ppining (tepa) ustki qismi;

B) kizak qismi;

D) jiyak qismi.


Do'ppilarning mana shu uch qismi-tepa qismi, kizak qismi va jiyak qismlari qanday usulda va qaysi uslubda tayyorlanishi bilan bir-biridan farq qiladi va har xil nomlar bilan ataladi.

2. Do'ppilarning andazasini tayyorlash

Do'ppilar shakli, ko'rinishi jihatidan dumaloq, uchburchak-simon taxlanadigan, konussimon, yarim konussimon shakllarda bo'ladi.

1. Dumaloq shakldagi do'ppilarning andazasini tayyorlash.

Dumaloq shakldagi do'ppilarning andazasini tayyorlash uchun avval kerakli o'lchamni aniqlab, yozib olamiz. (Aytaylik, 54-o'lcham.)




146-rasm.

Tepa qismining andazasini tayyorlash

Olingan o'lcham asosida do'ppining tepa qismi radiusini aniqlaymiz. Uni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

Bu erda: L-o'lcham uzunligi, 6,28-o'zgarmas son. $L = 54 \text{ sm}$.




O'lcham uzunligi L ni tepa qismining radiusini topish formulasiga qo'yamiz:

Mana, formula yordamida 54- o'lcham uchun tepa qismining aylana radiusini aniqlab oldik. Endi pargor yordamida radiusi R 8,6 sm ga teng bolgan aylana chizamiz. chizilgan aylanani qaychi yordamida qirqib olamiz. Qirqib olingan doirani karton qog'ozga ko'chirib, do'ppining tepa qismi andazasini tayyorlab olamiz.

147-rasm.

Kizak qismining andazasini tayyorlash

Endi kizak qismining andaza chizmasini chizamiz. Buning uchun eni 4 sm, uzunligi L ga, ya'ni o'lcham uzunligiga (u kizak uzunligiga teng, bizning misolimizda $L=54 \text{ sm}$) teng bo'lgan to'g'ri to'rt-burchak chizib olamiz:



148-rasm

Mana, kizak qismining ham andazasi tayyor bo'ldi. Kizakning enini ixtiyoriy ravishda 4 sm dan oshirib olish ham mumkin. Bu do'ppining chuqurroq bo'lishini ta'minlaydi.

2. Uchburchaksimon taxlanadigan do'ppilarning andazasini tayyorlash.




149-rasm.

Avval do'ppi uchun kerakli o'lchamni aniqlab, yozib olamiz (misol uchun 54-o'lcham). Uchburchaksimon taxlanadigan do'ppilarning tepa qismining andaza chizmasi quyidagicha tayyorlanadi. Kizak qismining uzunligini to'rtga bo'lamiz:


$$54: 4=13,5 \text{ sm}.$$

Tomonlari 13,5 sm ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizamiz. To'g'ri to'rtburchakning burchaklarini chizg'ich yordamida


markaziy O nuqtada kesishuvchi $A-E$ va $B-D$ to'g'ri chiziqlar orqali tutashtiramiz.




150-rasm.



151-rasm.




152-rasm.



153-rasm.

Hosil qilingan chizmada to'g'ri to'rtburchakning markaziy nuqtasi O dan istalgan burchak nuqtasigacha bo'lgan masofani (O-A, O-B, O-E yoki

O-D ni) chizg'ich yordamida o'lchab aniqlaymiz. (Bizning misolimizda 9,5 sm ga teng.) Endi pargor yordamida to'g'ri to'rtburchakning markazi O nuqtada, radiusi 9,5 sm ga teng bo'lgan aylana chizib olamiz.



154-rasm.

Aylananing to'rtburchak tashqarisiga chiqib turgan qismini ikki yoki uch bo'lakka bo'lib chizib olamiz.

Chizib olingan bo'lakning 152-rasmda birinchisi yoki 153-rasm ikkinchisini qoldirib, qirqib olamiz. Buni ham karton qog'ozga ko'chirib, qirqib, andaza tayyorlab olamiz.

Mana, uchburchaksimon taxlanadigan do'ppining tepa qismi andazasi tayyor bo'ldi. Kizak qismining andazasi uzunligi 54 sm bo'lgan, enr esa do'ppilarning turiga qarab, 4 sm dan 6 sm gacha bo'lgan to'g'ri to'rtburchak holida tayyorlanadi.

Mana, siz bilan dumaloq va uchburchaksimon taxlanadigan do'ppilarning andazalarini tayyorlashni o'rganib oldik.

2.16. Toshkent do'ppilarini bichish-tikish texnologiyasi

Toshkent uslubidagi do'ppilarning erkaklar va xotin-qizlar kiyadigan alohida turlari mavjuddir. Erkaklar kiyishiga mo'ljallangan do'ppilar, ko'pincha, qora, ko'k, to'q gunafsha, to'q yashil va shu kabi ranglardagi sidiq'a, taqir duxobalardan karjli (A) va karjsiz (E) dumaloq (salla do'ppilar) shaklda bo'ladi.


Duxoba arqog'i tabiiy yoki sun'iy matodan tayyorlangan path gazmoldir. Bunday mato patining uzunligi 2, 3 mm dan oshmagani taqir duxoba deyiladi.

Toshkent do`ppilarining xotin-qizlar kiyishiga mo`ljallangan turlaridan biri „Bashorat“ do`ppisidir (D).

Do`ppilar to`rt karjli qilib tayyorlanadi. Unday do`ppilarga ham sidirg`a taqir duxoba ishlatiladi. To`rt karjiga, kizaklariga pishitilmagan, turli ranglardagi xom ipaklardan gullar tikiladi. Bunday do`ppilarga har xil g`uncha bargli gullar, dasta gul nusxalari tanlanadi. Ayrim gul g`unchalarining tagiga qog`oz yoki paxta piltalar qo`yilib, ustidan ipak ip bilan tikib chiqiladi. Natijada gullar bo`rtib chiqib, o`zgacha jonli ko`rinish kasb etadi.

Xuddi shunday to`rtburchak do`ppilarning ipak iplar o`rniga munchoqlar bilan gul tikiladigan xili ham mavjud (E).

Munchoqlar bilan bezak berib tikiladigan do`ppilar ham shaklan to`rtburchak bo`lib, ko`pincha, to`q ko`k yoki to`q binafsha rangli taqir duxobadan tayyorlanadi.



155-rasm.

Bunday do`ppilar qizlar uchun mo`ljallangan bo`lib, tikiladigan „munchoq“ gullar do`ppining tepa va kizak qismiga tushiriladi. Tanlangan gul nusxasining foniga qalinroq oq qog`oz qirqib olinib, do`ppining tepa qismi va kizagining naqsh mo`ljallangan joyiga elimlanadi.

Shu gul naqshlari tushirilgan qog`ozning ustidan oq ipga tizilgan munchoqlar qadalib, gul tikiladi. Gul tikish uchun, asosan, mayda suvmunchoqlar (Shishamunchoqlar) ishlatiladi. Gullari tikib bo`lingach, boshqa do`ppilar kabi avra-astari bir-biriga joylanib, pilta yo`llari tikib chiqiladi.

Pilta yo`llari maxsus sxema bo`yicha choklanadi. Pilta yo`llari tayyorlanib bo`lingandan keyin putalar piltakach (maxsus po`lat sim)lar yordamida pilta

yo`llariga joylanadi. Piltalarni buyumning qovirg`asi deb tushunsak bo`ladi. Toshkentda XX asrning 40-yillaridan boshlab iroqi kashta chok usuli bilan tikiladigan „iroqi nusxa“ do`ppilar (1) tayyorlana boshlandi.

Ilgari iroqi nusxa do`ppilar shaxrisabz va Kitob tumanlarida tayyorlanar edi. Toshkent iroqi do`ppilari ularnikidan farqli o`laroq, to`rt karjli, tepasi yassi qilib tayyorlanadi. Bunday do`p-pilarga iroqi gul tikish usulining, asosan, „sanama“ tekis choki ishlatiladi.


Kashta tikishda maxsus „kanva“ deb ataluvchi matodan foydalaniladi yoki oddiy paxtadan tayyorlanadigan oq matolarning to`qish iplari sug`urilib, katakchalar hosil qilinadi, shu katakchalarga gul naqshlari sanab tikiladi.

Do`ppining gullari tepa qismining to`rt karjiga va do`ppining kizagiga o`ziga xos nozik ta`b bilan tikiladi. Bunday do`ppilarga, asosan, turli dasta gullar naqshi, gul barglari, gul g`unchalari, qushlarning rasmi, ba`zan turli yozuvlar ishlatiladi. Ular tikilib bo`lingach, avra-astari birlashtirilib, pilta yo`llari tikilib, piltalanadi.

Toshkent do`ppilarining hammasiga uning rangiga mos tushuvchi taqir duxobadan jiyak tikiladi. Uning tagiga ingichka, eni 1,5 sm bo`lgan, namga chidamli karton-lenta joylanadi.

Toshkent do`ppilarini tayyorlash uchun kerak bo`ladigan asbob va matolar (156-rasm):

1. Avrasi uchun taqir duxoba.
2. Astari uchun paxtadan tayyorlangan gazmol (istalgan rangda).
3. Nina.
4. Ip.
5. Angishvona.
6. Qaychi.



156-rasm.

7. Pilta uchun piltaqog`oz yoki paxta.
8. Tepapiltakach (diametri 1-1,5 mm, uzunligi 8-10 sm keladigan po`lat sim).
9. Kizakpiltakach (diametri 1,5-2 mm keladigan, uzunligi 15-18 sm bo`lgan po`lat sim).
10. Gazmol elimi.
11. Munchoqlar.
12. Rangli ipaklar.
13. Kanva.

1. Katta gulli do`ppilarni tayyorlash.

Bu xildagi do`ppilarni Bashoratxon degan qo`shiqchi ayol yaratgan va uning nomi bilan mashhur bo`lgan.



157-rasm

Qizlar kiyishiga moʻljallangan bu xildagi doʻppilar toʻrtburchak shaklda boʻlib, sidirgʻa duxobadan tayyorlanadi.

Bunday doʻppilarga, asosan, duxobaning binafsha, toʻq binafsha, jigarrang, yashil va boshqa ranglari ishlatiladi. Doʻppilarning kizagi va tepa qismiga turli rangdagi xom ipaklar bilan gullar tikilib, oʻziga xos goʻzal uslubda bezak beriladi. Doʻppini tikishga kirishishdan avval naqsh koʻchirish usuli hamda kashta tikishning „sanama tekis chok“ usulini oʻrganib olamiz.

2. Naqsh koʻchirish usuli


Naqshlarni gazlamaga bir necha usullarda koʻchirish mumkin. Doʻppiga ishlatiladigan gazlama patli boʻlganligi uchun va bir xil naqshlar bir necha marta qayta chizilishi kerak boʻlganligi uchun naqsh koʻchirishning kalkani („xitoy qogʻozi“) teshib koʻchirish usulidan foydalansak boʻladi. Bu quyidagicha bajariladi. Tanlangan naqshni qogʻozga chizib olamiz. shu qogʻozning ustiga kalka boʻlagini qoʻyib, maxsus nina toʻgʻnagʻich bilan bir necha joyidan mustahkamlaymiz. Uni yumshoq joyga (masalan, gazmolni bir necha qavat qilib) qoʻyib, chizilgan naqsh konturi boʻylab, 2-3 mm oraliqda yoʻgʻonroq igna bilan teshib chiqamiz. Natijada kalka boʻlagining ustida zich teshikchalardan iborat boʻlgan naqsh gullari paydo boʻladi.

Kalkaning bir tomonini toza kerosin bilan artib olamiz. Bir boʻlak paxta yoki gubkaning ustidan doka oʻrab kichik tampon tayyorlaymiz. Kalkani moʻljallangan joyga (doʻppining ustki yoki kizak qismiga) joylaymiz. Tamponni oldindan tayyorlab qoʻyilgan kerosin bilan mel, pudra yoki tish poroshogi aralashmasiga botirib, kalka ustidan yurgizib chiqamiz. (Bu aralashnianing oʻrniga tish pastasini ishlatish ham mumkin.)

Keyin kalkani olib tashlaymiz. (Naqsh teshikchalari tushirilgan kalkani olib qoʻyib, bir necha marta ishlatish mumkin.) Kalkaga tushirilgan naqsh teshiklari orqali oʻtgan aralashmaning izlari yonma-yon nuqtalar koʻrinishida naqsh izlarini hosil qiladi.

Gul tikishning „sanama tekis chok“ usuli

Kashta tikishning bunday usulida chok qaviqlari sanalib, bir-biriga zich joylashtirib tikiladi. Kashta gullari xom ipak bilan tikiladi.



158-rasm.

Avval birinchi qaviq tushirilib, shu qaviq yonidan ignani chiqarib, ikkinchi qaviq tushiriladi va hokazo.

„Sanama tekis chok" usulida chok qaviqlari gazlamaning o`ng va teskari tomonlariga joylashadi. Bunday usulda chok qaviqlari to`g`ri yo`nalgan, qiya yo`nalgan va archasimon ko`rinishda bo`ladi.

a-to`g`ri yo`naltirilgan chok qaviqlari gazlamaning to`qilish ipi bo`ylab, gorizontal yoki vertikal holatda joylashgan bo`ladi.

b-qiya yo`naltirilgan chok qaviqlari o`ngga yoki chap tomonga og`gan bo`ladi. Og`ish darajasi naqsh elementiga qarab o`zgaradi.

d-archasimon chok qaviqlari diagonal bo`ylab joylashgan bo`ladi.

Do`ppilarga, ko`pincha, dasta gullar naqshi tushiriladi. Do`ppiga tanlangan naqsh elementlari konturlarining ichi yuqorida ko`rsatilgan sanama tekis chok qaviqlari bilan to`ldirilib tikiladi.

Gullarning ba`zi elementlari tagiga ingichka piltalar qo`yilib tikiladi. Bunday usulda tikilgan gul g`unchalari yoki gul yaproqlari bo`rtib chiqib, o`zgacha jonli chiroy kashf etadi. Gul tagiga piltalar oddiy paxtadan yoki namga chidamli kartondan kesib qo`yiladi.



159-rasm.



160-rasm.



Ba`zan do`ppining gul barglari hamda gul yaproqlarini tikishga tanlangan ipak rangining bir-biriga yaqin bo`lgan ikki xili baravariga ninaga o`tkazilib tikiladi. Masalan, gul yaprog`ini tikishda och yashil va to`q yashil ip birdaniga ninaga o`tkazilib tikiladi. Gul g`unchasini tikishda esa och qizil va to`q qizil

rangdagi ipak ip birdaniga ninaga o'tkazilib tikiladi. Bunda gul yaprog'i, gul barglari bir-biriga yaqin bo'lgan ikki xil rangda jonli tovlanib, o'zgacha jilo kashf etadi.

Mana, biz siz bilan birgalikda gul ko'chirish va sanama tekis chok usulini o'rganib oldik. Endi do'ppini tikishga kirishamiz.

3.1 Do'ppining avrasi uchun tanlangan duxobani, astari uchun tanlangan gazmolni dazmollab, bichishga tayyorlaymiz.

3.2 Kerakli o'lcham uchun yuqorida o'rgangan usulimiz bo'yicha (uchburchaksimon taxlanadigan do'ppilar uchun) tepa va kizak qismlarining andazasini tayyorlaymiz (54-o'lcham). (Qarang, uchburchaksimon taxlanadigan do'ppilarni bichish, 48-bet.)

3.3 Avval tepa qismining avrasini bichamiz. Buning uchun duxobaning chap tomoniga tayyorlagan do'ppi andazasini joylashtirib, 1 sm chok haqqi qoldirgan holda bichamiz.

3.4 Bichib olingan tepa qismining avrasi bo'yicha astarini bichamiz. Astar avrasidan 0,5 sm kengroq bichiladi. Bu piltalashda qulaylik tug'diradi.

3.5 Tepa qismining avra va astarini to'rt karj bo'laklarga ajratib, dazmollaymiz.


3.6 Kizak qismining avrasi chok haqqi qoldirilib, uzunligi 54 sm, eni 4 sm ga teng bo'lgan lenta shaklida bichiladi. Kizakning avrasi duxoba yuzasining diagonal bo'ylab bichiladi. Kizakning avrasi bichib bo'lingach, ikki uchidan 1 sm dan chok haqqi qoldirib, qolgan qismini teng to'rt bo'lakka bo'lib, dazmollab qo'yamiz.

3.7 Kizakning astarini bichib olingan avrasi bo'yicha bichamiz.

3.8 Do'ppining jiyagi uchun unga tanlangan duxobaning rangidan boshqa va o'sha rangga mos bo'lgan duxoba tanlaymiz.

Jiyakni eni 3-3,5 sm, uzunligi kizakning uzunligiga teng bo'lgan lenta ko'rinishida bichamiz. Bichib olingan jiyakni uzunasiga ikki buklab, dazmollab qo'yamiz. Do'ppini bichib bo'ldik.

3.9 Do'ppining bichib olingan kizagi va ustki qismining avrasiga yuqorida o'rgangan naqsh ko'chirish usuli bo'yicha tanlangan naqshlarimizni ko'chiramiz. Do'ppining kizagini to'rt bo'lakka va ustki qismini to'rt karjga ajratib, dazmollab qo'ygan edik.




161-rasm.


Avval quyida berilgan naqshni kizak qismiga ko'chiramiz. Kizakning to'rtala tarafini teng ikkiga buklab, o'rtasiga belgi qo'yamiz. Naqshning o'rtasidagi belgi-

A nuqtasi kizakning o`rtasiga to`g`ri kelishi kerak.

Quyida ko`rsatilgan naqshni esa do`ppining ustki qismining to`rtala karj bo`laklariga ko`chiramiz. Buning uchun maxsus chiz-g`ich yordamida dazmol chiziqlarining o`rta nuqtasi (A nuqta) dan karj chiziqlarining kesishgan nuqtasi (O nuqta)gacha chiziq tortib, har bir karjning o`rtasini belgilaymiz. Karj naqshlari shu chiziqning ikki tomoniga simmetrik ravishdajoylashadi.



162-rasm



163-rasm

3.10. Do`ppining kizagi va tepa qismiga gul tikamiz.

Gullar tikib bo`lingach, uni patli matoning ustiga qo`yib, chap tomonidan engil dazmollaymiz.

3.11 Tepa qismining pilta yo`llarini tayyorlaymiz. Tepa qismining avrasini astariga xomaki ko`klab olamiz. Do`ppi tayyor bo`lgach, bu choklar kichkina o`tkir qaychi yordamida olib tashlanadi. Pilta yo`llari karj bo`laklari bo`lingan joylaridan, markaziy O nuqtadan boshlab chetgatomon bir me`yorda ko`klab

chiqiladi. (Qarang, uchburchaksimon taxlanadigan do`ppilarning tepa qismining pilta yo`li)

3.12 Do`ppi kizagining avrasiga jiyagini ulab tikamiz. Duxobaning rang tovlanishiga e`tibor beramiz. Tekis ulanishi uchun avval qo`lda ko`klab, keyin tikuv mashinasi yordamida tikamiz. Jiyakka kizakning astarini ulab tikamiz. (Avval qo`lda ko`klab, keyin tikuv mashinasi yordamida tikib olamiz.)

3.13 Kizak choklarini qulay yo`nalishda dazmollab, ikki tomonini birlashtirib tikamiz.

3.14 Nanga chidamli bo`lgan yupqaroq karton qog`ozdan jiyakning tagiga qo`yish uchun uzunligi 56 sm (54 sm kizak uzunligiga, 2 sm birlashgan joyida 1 sm dan bir-birining ustiga chiqishi uchun), eni 1,5 sm bo`lgan lenta kesib olamiz.

3.15. Qirqib tayyorlangan karton-lentani jiyakning ichiga tekis qilib joylab, jiyakning kizakka ulangan chokining ustidan avval qo`lda ko`klab, keyin tikuv mashinasida tikib olamiz.

3.16 Endi kizak qismining pilta yo`llarini qo`lda tikib tayyorlaymiz. (Qarang, pilta yo`li ko`klangan kizakning rasmi, 33-rasm, 46-bet.)

Jiyakning kizakka ulangan chokining ustidan yuqoriga qarab pilta chiziqlarini ko`klay boshlaymiz. Pilta chiziqlarining kengligi 0,2-0,3 sm bo`lishi mumkin. Pilta yo`llari tayyor bo`lgach, piltalaymiz.

3.17 Do`ppining kizak qismi piltalab bo`lingach, uzunasiga teng to`rt bo`lakka buklab, dazmollab qo`yamiz.

3.17 Do`ppining tepa qismini kizagiga ulab tikamiz. Tikish vaqtida tepa qismining karj chiziqlari kizak qismining to`rt bo`lakka bo`lingan dazmol chizig`iga mos tushishi kerak. Buning uchun tepa qismini bir tekisda kizakning avrasiga qo`lda ko`klab, keyin tikuv mashinasida tikamiz. Kizak astari tikmay qoldiriladi. Ulangan chok atrofmi qaychi yordamida qirqib, tekislab, do`ppini o`ng tarafga o`girib tekislaymiz.

3.19 Kizak astarini tepa qismiga ulash chog`ida tikmasdan qoldirgan edik. Endi astarning qolgan joyini kizakning tepa qismi bilan ulangan chokini yashirib, qo`lda chiroyli va tekis qilib, ko`rinmas chok yordamida maydalab ko`klab chiqamiz.

3.20 Do`ppining astar tomonidan maxsus yog`och tekislagich yordamida pilta yo`llarini xiyol bosib silliqalaymiz.

3.21 Endi biz tanlagan maxsus gazmol elimini o`z ko`rsatmasiga asosan tayyorlaymiz. Elim tayyor holga kelgach, do`ppining astar tomoniga surib chiqamiz. Elim quriguncha qolipga solib qo`yamiz.

3.22 Elimi qurigach, do`ppining ichkari tarafmi suv qaynab turgan qulay idishning bug`iga ozgina tutib, xiyol yumshatamiz, so`ng maxsus yog`och tekislagich yordamida do`ppini tekis joyga qo`yib, ichkari tarafidan silliqalaymiz. Do`ppimiz tayyor bo`ldi.


3. «Iroqi» do`ppilarni tayyorlash.

Toshkent iroqi do`ppilariga iroqi gul tikish usulining „sanama tekis choki“ asosida turli ranglardagi xom ipaklar bilan gullar tikilib, bezak beriladi (163-rasm). Kashta tikishda maxsus kanva deb ataluvchi matodan foydalaniladi yoki paxtadan tayyorlanadigan mahalliy matolarning to`qish iplari sanab, sug`urilib, katakchalar

hosil qilinib, gul tikiladi. Do`ppining gullari tepa qismining to`rt karjiga va kizagiga tikiladi. Naqshlarda, asosan, turli dasta gullar, gul barglari, gul g`unchalari, qushlarning rasmi, ba`zan turli yozuvlar ham ishlatiladi. Bunday do`ppilarni xotin-qizlar kiyishadi.

“Iroqi” do`ppilarni tayyorlash uchun kerak bo`ladigan asbob-uskunalar:

1. Avrasi uchun kanva.
2. Astari uchun paxtadan tayyorlangan gazmol.
3. Nina.
4. Ip.
5. Angishvona.
6. Qaychi.
7. Pilta uchun piltaqog`oz.




163-rasm.

8. Tepapiltakach (diametri 1,5 mm, uzunligi 8-10 sm keladigan po`lat sim).
9. Kizakpiltakach (diametri 2 mm keladigan, uzunligi 15-18 sm li po`lat sim.)
10. Gazmol elimi.
11. Rangli ipaklar.

Do`ppining avrasi uchun, asosan, kanva ishlatiladi. Kanvani ishlatishdan oldin maxsus elimga botirib olinib, quritiladi. shunday qilinganda kanva bo`lagi qotib turadi va gul tikilayotgan vaqtda kergi ishlatishga hojat qolmaydi. Ba`zi hollarda satin matosining bo`ylama va ko`ndalang to`qilish iplari bir xil kattalikda sanab, sug`urib, katakchalar hosil qilinib, gullar shu katakchalarga sanab tikiladi.


Astari uchun ishlatiladigan gazmol oddiy, paxtadan tayyorlangan mato bo`lib, u dazmollanadi va bichishga tayyorlanadi.

Iroqi do`ppini tikishdan oldin oddiy iroqi „sanama tekis chok“ kashta tikish usulini o`rganib olamiz. Iroqi chok quyidagi sxemalarda ko`rsatilgan tartibda bajariladi. Ip qaviqlari to`g`ri to`rtburchak kataklarga diagonal bo`ylab joylashadi. Birinchi qaviq (ostki qaviq) chap tomon pastdan o`ng tomon yuqoriga qaratib, ikkinchi qaviq (ustki qaviq) o`ng tomon pastdan chap tomon yuqoriga qaratib tikiladi. Ip birinchi qaviqdan ikkinchi qaviqqa teskari tomonda vertikal bo`ylab yuqoridan pastga qadaladi.



— Ostki ip.
— Ustki ip.

164-rasm.



165-rasm.

Agar bir necha iroqi qaviq gorizontal yoki ver-tikal qator bo`ylab joylashadigan bo`lsa, bunda oldin birinchi qaviqlarning hammasi (ostki qaviqlar) tikib olinib, keyin ikkinchi qaviqlar (ustki qaviqlar) tikiladi (165-166-rasmlar).

Shunday qilib, kashta gulidagi ostki qaviqlar bir tomonga va ustki qaviqlar hammasi boshqa tomonga yo`nalgan bo`lishi kerak.

Rasmdagi punktir chiziqlar ipning teskari to-monidagi yo`nalishini bildiradi, bunda to`g`ri qaviqlar vertikal yoki kashta guliga qarab gorizontal bo`ylab joylanishi ham mumkin, lekin diagonal bo`ylab joylashmaydi. Mana, siz bilan oddiy iroqi chokining tikilishini o`rganib oldik.



166-rasm.

Endi do`ppi tikishga kirishamiz.


5.1 Kerakli o`lcham uchun yuqorida o`rgangan usulimizga binoan andaza tayyorlaymiz (54 o`lcham). (Qarang, uchburchaksimon taxlanadigan do`ppilarning andazasini tayyorlash,)

5.2 Oldindan elimga botirib quritilgan kanva bo`lagiga do`ppining tepa va kizagi uchun gul tikamiz.

Iroqi do`ppilarning kizagini ham chok haqqi qoldirib, uzunligi 54 sm va eni 4 sm ga teng bo`lgan lenta shaklida bichamiz.

YUqorida iroqi kashta usulining „sanama“ chokini o`rgangan edik. shu usul yordamida bichib qo`yilgan ki-zak va ustki qismiga gul tika boshlaymiz. Avval do`ppining tepa qismiga gul tikamiz.


Do`ppining tepa qismini to`rt karjga ajratib dazmollaymiz. Karj chiziqlari kanvaning bo`ylama va ko`ndalang to`qilish iplari bo`ylab mos tushishi kerak. Aks holda gul tikish chog`ida qiyshayib ketadi. Do`ppining tepa qismiga quyidagi kashta naqshini tanladik.



167-rasm.



168-rasm.



169-rasm.


Mana shu rasmdagi naqsh bo'yicha kashta gullarini sanaymiz, kerakli ranglardagi ipaklarni tanlab, gul tika boshlaymiz. Gul tikishni avval karj chiziqlarining yo'liga gul tikishdan boshlaymiz.

5.3 Endi quyida berilgan sxema bo'yicha do'ppining kizagiga gul tikamiz (165-rasm).

5.4 Tapa qismining gul tikib bo'lingan avrasini andaza orqali bichamiz. Tapa va kizakning avrasini qo'yib, astarini bichamiz.

5.5 Do'ppining tapa qismi va kizagining gullari tikib bo'lingach, chap tomonidan avaylab dazmollaymiz. Dazmollash chog'ida gul tikilgan yuzalarni nam tegishidan ehtiyot qilamiz, aks holda gul tikilgan ipaklarning rangi o'zgarishi mumkin.

5.6 Do'ppining jiyagi uchun, asosan, sidirg'a, taqir, qora rangli duxoba ishlatiladi. Jiyakni eni 3-3,5 sm, uzunligi kizakning uzunligiga teng bo'lgan lenta ko'rinishida bichamiz.



170-rasm.



171-rasm

Jiyak matoning diagonal bo`ylab bichiladi. Bichib olingan jiyakni uzunasiga ikki buklab, dazmollab qo`yamiz.

5.7. Tepa qismining avrasini astariga xomaki ko`klab olamiz. (Do`ppi tayyor bo`lgach, bu choklar kichkina o`tkir qaychi yordamida olib tashlanadi.) Tepa qismining pilta yo`llarini tayyorlaymiz. Buning uchun quyidagi sxema bo`yicha markaziy 0 nuqtadan boshlab chetga tomon bir me`yorda ko`klab chiqamiz.

(Qarang, uchburchaksimon taxlanadigan do`ppilarning pilta yo`li)

Pilta yo`llari tayyor bo`lgach, o`rgangan usulimiz bo`yicha piltalaymiz. Pitalashni karj chiziqlari bo`ylab o`tgan pilta yo`llaridan boshlaymiz.

Pitalab bo`lgach, karj chiziqlari bo`yicha qatlab, dazmollab qo`yamiz.

5.8 Do`ppi kizagining avrasiga jiyagini ulab olamiz. Tekis ulanishi uchun avval qo`lda ko`klab, keyin tikuv mashinasi yordamida tikamiz.

5.9 Jiyakka kizakning astarini ulab, tikamiz. (Avval qo`lda ko`klab, keyin tikuv mashinasi yordamida tikib olamiz.)

5.10 Kizak choklarini qulay yo`nalishda dazmollab, ikki tomonini birlashtirib tikamiz.

5.11 Nanga chidamli bo`lgan yupqaroq karton qog`ozda jiyakning tagiga qo`yish uchun uzunligi 56 sm (54 sm – jiyak uzunligi, 2 sm birlashgan joyida 1 sm bir-birining ustiga chiqishi uchun), eni 1,5 sm bo`lgan lenta kesib olamiz.

5.12 Qirqib tayyorlangan karton-lentani jiyakning ichiga tekis qilib joylab, jiyakning kizakka ulangan chokining ustidan avval qo`lda ko`klab, keyin tikuv mashinasida tikamiz.

5.13 Endi kizak qismining pilta chiziqlarini qo`lda tikib tayyorlaymiz. Jiyakning kizakka ulangan chokining ustidan yuqoriga qarab pilta chiziqlarini tika boshlaymiz. Pilta chiziqlarining kengligi 0,2-0,3 sm bo`ladi. (Qarang, kizakning pilta yo`li ko`klangan,)

5.14. Do`ppining kizak qismi piltalab bo`lingach, teng to`rt bo`lakka qatlab, dazmollaymiz.

5.15 Do`ppining tepa qismini kizagiga ulaymiz. Tikish vaqtida tepa qismining karj chiziqlariga tikilgan kashta yo`li kizak qismini to`rt bo`lakka bo`lib turuvchi vertikal kashta chizig`iga to`g`ri kelishi kerak. Buning uchun avval to`rtala karj chizig`ini kizakning o`sha chiziqlariga to`rt joydan qo`lchokida yoki maxsus nina tutgich yordamida mustahkamlaymiz.

Do`ppining tepa qismini bir tekisda kizak avrasiga avval qo`lda ko`klab, keyin tikuv mashinasida tikib olamiz. Kizak astarini tikmasdan qoldiramiz.


5.16 Ulangan chok atrofini qaychi yordamida qirqib, tekislab, do`ppini o`ng tomoniga o`girib, tekislaymiz.

5.17 Kizak bilan tepa qismlarini ulash chog`ida astarini tikmasdan qoldirgan edik. Endi astarning qolgan shu joyi yordamida kizakning tepa qismi bilan ulangan chokini yashirib qo`lda chiroyli va tekis qilib, ko`rinmas chok yordamida maydalab ko`klab chiqamiz.



5.18 Do`ppining astar tomonidan maxsus yog`och tekislagich yordamida pilta yo`llarini xiyol bosib silliqalaymiz.

5.19 Do`ppining ichiga elim suramiz. Elim quriguncha qolipga solib qo`yamiz.

5.20 Elim qurigach, uning ichkari tarafini suv qaynab turgan qulay idishning bug`iga tutib, xiyol yumshatamiz. Keyin maxsus yog`och tekislagich yordamida do`ppini tekis joyga qo`yib, ichkari tarafidan ohista silliqalaymiz. Do`ppimiz tayyor bo`ldi.



172-rasm.



173-rasm. „Iraqi" do`ppilarga naqsh: a-tepasiga; b-kizagiga.

Kashtachilik buyumlari turlari.





III. BOB. ZARGARLIK.

3.1. Zargarlik tarixi.

O'zbek xalqi amaliy san'ati turlari ichida zeb-ziynat san'ati bo'lmish zargarlik aloxida o'rin egallaydi.

Ajdodlarimiz bizga xozirda mo'jizadek tuyuladigan noyob qobiliyatlarga ega bo'lganlar, insonga tabiat tomonidan ato etilgan cheksiz imkoniyatlardan samarali foydalana olganlar. Ota-bobolarimiz xalq amaliy san'ati turlaridan biri bo'lgan bezak buyumlaridan insonlar faqat bezak sifatida emas balki, inson ruxi va kasalliklarini davolashda foydalanganlar. Xalq tabobatining bu noyob tajribalari avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Dunyoga mashhur tabib va olimlarimizning ba'zi qo'lyozmalari xozirda ham mavjud. Bu nodir qo'lyozmalarda nafis san'at turlaridan biri bo'lmish zargarlik buyumlarining xosiyatlari, ularning inson ruxiyati va sog'lig'iga ta'siri haqida batafsil ma'lumotlar bor.

O'zbek xalqi amaliy san'ati turlari ichida zeb-ziynat san'ati bo'lmish zargarlik aloxida o'rin egallaydi.

O'zbek zargarligi juda kadimiy tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa tuzumi davrida asos solingan. Arxeologik topilmalardan ma'lumki, zargarlik san'ati juda kadimiy san'at bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan II asrdan boshlab eramizning VII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolgayon, Bolaliktepada chiroyli xaykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san'ati rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Tosh asrining so'nggi davri neolitdayok (eramizdan IV-III ming yillikning oxirida) shildirok, munchoqlar, xar xil toshlar, chiganok hamda suyaklardan yasalgan bezaklar topilgan. Bu esa zargarlikni rivojlanganligidan dalolat beradi. Ikki daryo oralig'ida joylashgan YUnonistonda ajoyib va qimmatbaxo zargarlik buyumlari ishlangan. Miss davriga tugnagich, zirak, baldok, bilakuzuk, shildiroq va boshqalar metaldan, xattoki oltindan ishlanadigan bo'ldi.

Xorazmdagi Tuproqal'a devorlaridagi tasvirlardan o'sha davrlardagi ayollar quloqlariga nafis zirak taqqanliklari ma'lum bo'lgan (bu tasvir III asrga taallukli). Bulardan tashkari bronzadan quyib ishlangan bir qancha osma taqinchoqlar ham topilgan. Bu osma taqinchoqlar I-IV asrga mansub bo'lib, Xorazmning Ayozaqal'a, Etti asar, Burgutqal'a va boshqa joylarda topilgan.

IV-V asrda zargarlik buyumlari kam ishlatilgan. Ular tosh shisha, pastalardan kilingan. Masalan: Xorazmda shishadan kilingan sher va kubraka shaklidagi munchoqlar topilgan. Bobaliktepadagi topilmada V asr oxiri VI asr boshlarida ishlangan devoriy rasmda ayol kishining qulog'i va barmog'ida zargarlik taqinchoqlari tasvirlangan. Afrosiyobdagi VI-VII asrga mansub devoriy rasmda erkak kishining qo'lida sovg'a taqinchoqlarni olib kelayotgani tasvirlangan. Bulardan tashqari, ayol sochlarida osma taqinchoqlar sur'ati tasvirlangan.

V-VI asr o'rtasida bita kata tegishli bo'lgan suyakli tugmachalar ko'p ishlangan.

XIV-XV asrlarda zargarlik juda yaxshi rivojlangan bo'lsada, nima uchundir bizgacha juda kam miqdorda saqlanib qolgan. Ba'zi bir yozma manbalarda ko'rsatilishicha, XIV asr oxiri XV asr boshlarida Tojiddin zargar Buxoro

yakinidagi Tavans shaxrida yashagani, bulardan tashqari Xusayinning o'g'li Muhammad zargar, XV asrning ikkinchi yarmida yashagan usta Ali zargar, xo'ja Sulton Xusayn zargar, xo'ja Bobo Dustning o'g'li xo'ja Xasan zargar nomlari bizga ma'lum.

XVI asrda ishlangan ko'krak bezak zargarlik buyumlari faqat devoriy rasmlar orqali etib kelgan. XIV-XVII asrlarda zargarlik buyumlarida ko'pincha xayvonlar tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik arab yozuvlari kompozitsiyasiga kirib, uziga xos ko'rinish berdi. Bu yozuvlar bir tomondan naqsh bezagi va ikkinchi tomondan ma'no jixatdan farklanar edi.

XIII asrda O'rta Osiyodagi o'zaro ichki urushlar zargarlik san'atining rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. Keyinchalik xonliklar paydo bo'lishi bilan zargarlik yanada rivojlana boshladi. XVIII asrda mug'ul bosqinchilaridan so'ng birinchi marta oltin tangalar ishlab chiqarila boshladi. Zargarlik buyumlari oltindan, kumushdan va boshqalardan ishlangan. Qurol-aslaxalar ajoyib qimmatbaxo toshlar, shisha, billur, mis, oltin va boshqalar bilan bezatilgan. Zargarlari juda yumshoq va YOrqin bo'lmagan nefrit kabilarni ishlatadilar.

XIX asr va XX asr boshlari O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida badiiy xunarmandchilik rivojlandi, shular katori zargarlik ham tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Ko'pgina shaxarlar, masalan, Xiva, Buxoro, Qo'qon, Samarqand, shaxrisabz, Toshkent, Andijon, Urganch, Nurota, Kitob, chust, Asaka, Gijduvon, Margilon va boshqa joylarda usta zargarlar bo'lib, ular alohida maxallarda ishlaganlar. shuning uchun ham zargar maxallasi deb yuritilgan. Xivada 1860 yilda 12ta va XX asrning boshlarida 400tacha, Toshkentda esa 100 dan ortik, Samarkanda 1893 yili 20 dan ortik zargarlik do'koni bo'lgan o'sha vaqtda katta shuxrat kozongan zargar ustalardan Qo'qondan usta Maxmud, usta Omon xoji, M. Raximov, X. Najmiddinov, Namanganda usta Niyoz Oxun, Andijonda usta Oybergan, X. Otaboev, Toshkentda S. Bobojonov, usta Samariddin, A.SHoislomov, usta Mirxalil, Urganchda M.Abdullaev, Samarkanda X. Yuldoshev, I. Komilbekov, V. Xafizov va boshqalar bor edi. Sobik ittifok davrida xalq amaliy badiiy san'atining barcha turlari singari zargarlik san'atida ham umumiy uslubga xos buyumlar ishlab chiqarish ko'paydi. 1920 yillardan so'ng zargarlik artellari tashkil etilib, ular birlashtirildi.

1975 ymla xalq badiiy kasb-xunarlarini rivojlantirish to'g'risida e'lon qilingan qaror juda katta ahamiyat kasb etdi. Bu qarordan so'ng ko'pgina zargarlik korxonalarini kaytadan ochildi. Ustaxonalar kengaytirildi. Xozirgi vaqtda xunarmandlarning madaniy-maishiy axvoli, farovonligi yaxshilandi va zargarlik buyumlariga bo'lgan extiyoji yanada ortdi. Respublikamizning Buxoro, Toshkent, Samarkand, Andijon, Fargona va boshqa shaxarlaridagi zargarlik korxonalarida zargarlik buyumlari ishlab chikarilmokda. Ayniksa, Toshkent zargarlik fabrikasi jamoalari ishlari diqqatga sazovordir. U erda 110 dan ortik rang-barang ziynat va sovg'abob buyumlar tayyorlab chikarilmokda. Bu buyumlarni O'zbekistonimizning turli chekkalarida uchratish mumkin. U erda mashxur zarduzlar ishlamokda. shulardan biri Ibroxim Javorovdir. Uni dustlari qo'li gul zargar deb bilishadi. U metalga jon kiritib, sexrli va nafis zeb-ziynatlar yasaydi. U ko'p yillik boy tajribalar va zargarlik san'ati sirlarini yoshlarga sidqidildan

o`rgatib, ko`pgina shogirdlar etishtirdi. Ustaning Jalol Sodikov, Ibroxim Javorov, Abdukarim Ganiev, Ulmas shoakbarov, shorxida Karimjonova, Xalima Oymatova kabi yigirmadan ortik shogirdlari ishlamokdalar. Xozir Respublikamizning Andijon, Toshkent, Samarkand, Xorazm, Fargona, Buxoro va boshqa shaxarlarida ishlatish bilan birga, zargarlarning eng yaxshi kadimiy an`analari va boy tajribalaridan samarali foydalanib kelmoqdalar. Ular xozirga avlod dinini mos nafis zargarlik buyumlarini ko`plab ishlab chikarib, xaridorlarni yanada xushnud etmokdalar.

3.2. Zargarlik buyumlari va ularning turlari.

Bezaklar ayollar libosining ko`p kismini egallaydi. Bosh, bo`yin, peshona, ko`krak, qo`ltik, bel, burun, quloq va boshqa taqinchoqlarning butun bir majmuasini ishg`ol etadi. Bularning hammasi kelin-kuyovlar libosini to`ldirib, xonadonda to`y, bayram va boshqalarda taqiladi. Zargarlik buyumlari turli-tuman bo`lib, ular o`zlariga xos nomlanadi. Peshonaga taqiladigan tillaqosh, boliabru, barkak, quloqqa zirak, boshga takduzi, sanchok, oltin tumor, ko`krak bezagiga murgak zebigardon, tumorcha, soch bezaklari, sochpopuk, zulfi tilla, osma bezak, gajak, butun tirnok, kush duo, burun bezagi, arabak, yuz bezagi xolbini, bo`yin bezagi bo`yintumori, bozband, bel bezagi kamar, qo`l bezagi bilakuzuk, barmok bezaklari uzuk va boshqalar bor.

Turfa soch bezaklari kizlar kizlar kiyimi boshida muxim o`rin tutgan. shulardan sochpopuk, yumaloq, tuf va boshqalar kiradi.

Sochpopuk-soch bezak turlaridan biri bo`lib, sochpopuk deb ham yuritiladi. Ayollar sochlariga taqadigan zargarlik bezagi. Bu bezak qora bezakdan eshtlgan, uchlari popukdan o`n besh-yigirmata chiyratma ip bo`ladi. Bu iplarda kumushdan quyma, guppa, qo`ng`iroqcha hamda naycha shaklidagi yana boshqa taqinchoqlar takiladi. Sochpopuk turli shakllardan iborat bo`lib, uni turli nom bilan yuritiladi. Andijonda sochpopuk, Namanganda esa kaqo`lli sochpopuk, pur sochpopuk yoki balikogiz, panjarali sochpopuk turlari bor. Qo`qonda kuba sochpopuk yoki katta kubba, Namanganda kartnoma, kartnoma burdak, naycha, kartnoma, katta kubba, katta gubba va boshqa turlari bor.

Bilaguzuk-bilak bezagi (dastpona), oltin, kumush yoki misdan yasaladi. U ayollar taqadigan zargarlik buyumi bo`lib, uning bodomcha bilaguzuk, ilonboshi bilaguzuk, rosmata bilaguzuk, kichik bilaguzuk va boshqa turlari bor. Bilaxuzuklar quyish hamda sukish bilan ishlanadi. Metallni butada eritib, taganak quyib yasalgani quyma bilaguzuk deb yuritiladi. Metallni butada eritib, kolibga quyib sovitib, so`ng bolg`a bilan urib, yorib ishlangan sukma bilaguzuk, yozma yoki yorma bilaguzuk deb yuritiladi. Bilaguzukni marjonlardan shoddi kilib tayyorlangani puncha deyiladi. Asosan chaqaloq va kizchalarning bilagiga takiladi. Bilaguzuk panjalari, uymali, xar xil toshlarni yopishtirib ishlanadi. Bilaguzuklar kumush, tilla, miss hamda munchoqlardan yasaladi. Uning tutashgan hamda tutashmagan turlari bo`ladi.

Peshona bezaklari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zeb-ziynatlar asosini tashkil etadi. Toshket, Samarkand, Fargoia vodiysida Tillakosh, Buxoroda bolabru va Tilla bargak rasm bo`lgan. Kosh tepasida uchburchak shaklidagi yupka metallga

feruza hamda rangli shishalar kadalgan bo`ladi. Barkakni tag kismida esa bir talay bargak yaprokchalar yusib kuyiladi. Bu yaprokchalar ajoyib ko`rinish beradi. Peshona bezagi bolabru Tillaqoshga o`xshaydi. shunga o`xshash peshona bezaklari O`rta Osiyoni boshqa metallardan kisman o`zgarishlar bilan tarqalgan. Peshona bezaklardan biri gajak ham ko`p tarqalgan.

3.3. Zargarlikda ishlatiladigan materiallar va asboblari.

XVIII asrda zargarlikda asosiy material tilla, kumush, xar xil qotishmalar, bronza, chaqnoq tosh va rangli toshlar ishlatiladi. Eng ko`p ishlatiladigan narsa tosh, oltin va kumushdir.

XIX asrga kelib zargarlikda oltin ishlatish ko`paydi. O`rta Osiyo xududida zargarlik ishlarida chaqnoq toshlar, rangli toshlar va dengiz osti ne`matlari ishlatilar edi. Umuman olganda bularning hammasi javoxirlar deb yuritilardi.

Javoxirlar zargarlikda qimmatbaxo tosh xisoblanadi. Ular chiroyliligi, rangining tinikligi, bir xilligi, yaltirokligi, tovlanishi, qattiqligi, turli rangda o`zgara olishi va boshqa xususiyatlarga ega. Ular uch darajaga bo`linadi. Birinchi darajali qimmatbaxo toshlarga olmos, sapfir, zumrad, yokut, aleksandrit, shpinel`, evklaz, oltin, platina, marvarid.

Ikkinchi darajali qimmatbaxo toshlarga akvamar, topaz, vorob`evit, geliodor, qizil turjal, demontoid, ametist, pirop, al`mendir, tsirkon, opal, uvarovit.

Uchinchi darajali qimmatbaxo javoxirlarga nefrit, yokutlar, feruza, kordierit, gagat, kaxrabo, malaxit, kianit, epidot, billur, tsitrin, xal`tsedon, agat, akik, serdoriq, sodalit, prenit, lojuvard, flyuorit, andaluzit, dippsid va boshqalar kiradi.

Zargarlikda ishlatiladigan materiallar asboblari.

Boshqa kasblar singari zargarlikda ham uziga xos asbob-uskunalar ishlatiladi. Loyli uchok, charm, o`tga chidamli loylar, payvand, naycha, temir kiskichlar, bolgachalar, metall taxta, metall kiskichlar, pargor, zubilalar, misgarliklar ishlatiladigan ba`zi bir kiskich asboblari, charx tosh, kichkina kiskichlar, koliblar, metallardan kilingan xar xil diametrli yarim sharsimon chukurchali kolipchalar, tunukalarni kirkish uchun kaychilar, ombirlar, payvandlovchi asbob va boshqalar ishlatiladi. Zargarlar bu asboblarning ko`pini temirchi ustalarga buyurtma berib yasattirib oladilar. Ba`zi bir zargarlar uzlari yasab olodilar. Bu asboblarning ko`pchiligi biron narsaga uxshatib ishlangan, masalan, Xivalik ustalar kaychini tuyakushga, yana birlari kurbakaga uxshatib ishlangan.

Punson-(puanson) zargarlikda ishlatiladigan asbob bo`lib metallga naksh ishlashda ishlatiladi.

Kurya-temir yoki pulatdan yasalgan. Uning bir necha kattalikdagi teshigi bo`lib, oltin yoki kumush oldin kattaroq, keyin kiyin kichikroq, so`ng yanada kichikroq teshikdan utkazib tortiladi. Oltin yoki kumush sim xozir shu xilda tayyorlanadi. Sim kurchning naksh uyilgan joyga quyib boglansa natijada naksh xosil kilinadi.

Xosil kilingan simni kirkira dnb ataladi. U bezak buyumlarida ishlatiladi.

3.4. Zargarlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi.

Zargarlik ishi ancha nozik va murakkab. Zargarlikda kumush, tilla, miss, kalay, jez va boshqalar asosiy ashyo xisoblanadi. Avvalambor, zargarlik buyumini yasash uchun xom ashyo eritiladi va quyib olinadi. Uni gox kizdirib, gox sovutib ishlatiladi. Zargarlik uchok va bir ikki kaskonli damning bosma shaklda ishlatiladi. Kumush yoki tillani butaga solib, ustidan bir chimdim tanakkor sepib, kuraga kuyiladi. Daxandam bilan utni puflab butadagi ma`jan eritiladi. Eritilgan metallni rejaga quyib kotiriladi. Kotgan metallni simdondan xoyis bolga bilan boglanadi. chuzilgan metallni gadir-budurlar durusht egov bilan, kolgan izlari mayin egov bilan undan so`ng kirgi bilan ketkaziladi, silliklab yaltiratiladi. Tayyorlanayotgan buyum tekislab bulingandan so`ng, utga quyib dam beriladi va tovlanadi. Tovlangan metall yapalok yoki chorsi ombir bilan kisib sandongan olinadi. shundan so`ng tayyorlanayotgan masalan, bilaguzuk korchup asbobida urib egiladi. Uni egovlab chizib bilaguzuk ko`rinishiga keltiriladi. Bilaguzuk kirini ketkazib, pardozi beriladi. Uni kislotada tozalanadi. Zargarlik buyumlarini uyma va kolipi usulda yasaydilar. Ularni turli qimmatbaxo toshlar: marjon, shisha, sadaf va boshqalar urnatilib bezatiladi. Xozir Buxoro, Samarkand, Xiva, Qo`qon va boshqa zamonaviy zargarlik fabrikalarida munchoqlar tayyorlayapti.

Qaysi taqinchoq qaysi libosga mos?

Munchoqlar. Oq no`xat kattaligida toshlardan tizilgan munchoq oppoq ko`ylak, oq tufli bilan yarashadi. Quloqqa taqilgan sirg`a, qo`lingizdagi sumkacha ham oq bo`lsin. Bu qomati baland, ozgin ayollarga mos.

Munchoq va oq (sumkacha) zirak yoqasi kentroq, ochilgan qizil ko`ylak, qizil tufli, qo`lda shu rangda sumkacha bilan ham yarashadi.

Yoqasi uchburchak (yoki tomoqqacha yopiq) qora ko`ylak, qora tufli, sochga qora rangli bant, qo`lga qora rangli sumkacha bilan ham joyiga tushadi.

Havorang guruch kattaligida toshlardan tizilgan munchoq va zirak tuq ko`k gazmoldan yoqasi yopiq, (yoki yarim ochiq) ko`ylak, qora qo`lda qora sumkacha, oyoqda qora tusli tufli kiyganda yarashadi.

Qizil kattaligi olchadek keladigan toshlardan tizilgan munchoq, oq tusli ko`ylak, oq tufli, qo`lga oq sumkacha ushlaganda yarashadi.

Boshdan-oyoq qora kiyganda ham bu taqinchokni taqish mumkii. Faqat qizil libos bilan taqa ko`rmang.

Tagi yashil, nim qizil va qora rang uyg`unlashgan zamonaviy libos bilan toshi yarim qizil, yarim qora munchoq va shu tusdagi toshli, shokilali sirg`a yarashadi.

Oq dur atlas ko`ylak-lozim kimib boshga yaltiroq ro`mol o`ragan kelinlarga munosibdir. O`ta semiz va o`ta oriq ayollar dur taqmaganlari ma`qul.

Taqinchoqlarning shifobaxsh xislatlari.

Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlangan. chunki ular inson uchun faqat bezak bo`lib qolmay, balki sog`liq uchun, inson ruhiyati uchun ijobiy ta`sir etgan. Masalan, marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi istirobni haydaydi, ko`z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og`izdagi qo`lansa hidlarni yo`qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash, bavoil va boshqalarni tuzatadi. Feruza esa uni qudratli tumor sifatida taqilgan. Oshqozon

hamda ko`z kasalligiga shifobahsh ta`sir etgan, ilon chaqqanda eng yaxshi davo xisoblangan, shuning uchun qadimdan kelinlar kiyimga feruza taqishgan. Sadaf sharqda ham yuqori baholangan. Undan to`g`nogich, marjonlar, yasama tugmalar yasalgan. Uni qadimda oshiqlar mahbubasiga sovga qilgan. Uni taqqan kishini ajin hamda sepkillardan asragan zexnini ravshan qilgan, kishini bardam qilgan, ruhiyatini ko`targan.

O`sha zamonlardan qolgan udumlardan ba`zi birlari hamon saqlanib qolgan. shu bois bo`lsa kerak, hozirgacha ko`zmunchoqlar, tumorlar, durlar va boshqalar taqilgan.

Quyida ushbu qmmmatbaxo toshlar, duru javohirlar va ularning foydali hususiyatlari haqida ba`zi bir ma`lumotlar beramiz.

Marvarid

Marvarid-dumaloq noanmq donacha, tuguncha, Marvarid turlanib, chiroyli dur deb ham ataladi. Marvarid zeb-ziynat buyumi, durning maydasi zargarlik hamda amaliy bezak san`atining boshqa turlarida keng qo`llaniladi. sharqda marvarid faqat bezak buyumi sifatida emas, balki unmg kishilar ruhiyati, kayfiyati va sog`lig`iga katta ijobiy foydasi bor deb qadrlangan. Masalan, marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va istirobni haydaydi, ko`zning ko`rish tsobiayatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og`izdagi qo`lansa hidlarni yo`qotadi. Oshqozonni jigar, bo`yrakdagi toshlarni maydalaydi, shamollashni yo`qotadi, bavoil va boshqa kasalliklardan tuzatadi. Sayyid Muhammad Xasrart marvaridnig xosiyatlari haqida quyidagilarni yozib qoldirgan:

Marvariddan aytay endi xosiyat,
Yuraklarga shodlik bag`ishlar g`oyat,
Naf qiladi kimda bo`lsa xafoqon,
Yuraklarga quvvat berur begumon,
Tozalanar yana yurakdagi qon,
Suyultirar quyuq qonni har zamon.
Quyidagi so`zni to`g`ri deb bilgin,
Og`iz ichra solginda yurgin,
Yuraklarga shunda beradi quvvat,
G`am-qayg`uni chetga quvar hamma vaqt,
Arastudan xalqqa etishda bu roz,
Marvaridda, bilsang mo``tadil mijoz.
Eritishdan agar bo`lsang xabardor,
Pes dog`ini tanidan qilar torumor ...

Marvarid insonga osoyishtalik, uzoq umr va baxt keltirarkan. Qo`ldagi marvaridning yaltirashi o`sha insonning kayfiyati va sog`ligiga bog`liq ekan. Mabodo o`sha inson vafot etsa u qorayib ketarmish, marvaridni qadimgi Rimda sevgi xudosi Veneraga taqdim qilgan deyishadi.

Qahrabo.

Qahrabo-zargarlikda ishlatiladigan asosiy tosh turi. Qahrabo yosh bolalarga quvvat bag`ishlab, ularni begona ko`zlardan asraydi. Aytishlaricha, kmmki qaxraboni yostiq tagiga qo`yib uxlasa tinchgina orom oladi. Qahrabo shodasini

xomilador ayollar taqib yursa, xomiladan osonroq qutular ekan. Allomalarning ta'kidlashicha, qahrabo badandagi zoxillik yurak o'ynashi va boshqa kasalliklardan xalos bo'lishiga yordam berarkan. Qahrabo-Asad belgism ostida tug'ilganlargagmna baxt keltiradi. Boshqalarga esa birinchi navbatda sovrage mutlaqo nomaqbo'ldir. Qahrabo mo'rtak, bosh og'rig'i, quloq va kuz og'rig'i kasalliklarini davolaydi. Qahraboning inson sog'lig'iga ta'siri xaqida Sayyid Muhammad Xasrat quyidagilarni ta'kidlab o'tgan:

Qaharbo bir elim-sarshu shaffof,
Kindik, ma'kad, zavxir uchun davo sof.
Qon ketganda, yana qon tuflagan xolda,
Yana yurak uchun nafas berar darxol
Qahrabodan foyda topar hafakon,
Bir ichimi yarim misqorlidir ayon.

Zargarlik buyumlarining ko'pchiligi kumushdan yasaladi va bezaladi. U chiroyliligi bilan birga inson sog'ligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu haqida ham Sayid Muhammad quyidagilarni yozib qoldirgan:

Quruq-sovuq erur kumushda mijoz,
«Sim» u nuqra» deya forslar atar boz.
Yurakka quvvatni qidirgin undan,
Hafa elib ketdi tandan.
Yana u quvadi qo'tir, kichishni.

Zumrad.

Zumrad yashil tusli qimmatbaxr tosh, chiroyli tovlanishi, yaxshi jilolanishi, shaffofligi bilan ajralib turadi. Zumraddan zargarlik, pichoqchilik, qandakorlik va boshqalarda foydalaniladi.

Veneraga mansub bu yashil tosh hushchaqchaqlik va shodlik baxsh etadi. Zumrad dengizchilarga, onalarga xomiylik qiladi. U tosh uyqusizlikdan muhabbat sehdan va turli-tuman markazlarni saqlaydi. Umrni uzaytirishda yordam beradi, yashirin fikrni ochadi. Sentyabrda tug'ilganlarni zumrad soxta do'stlardan ehtiyot qiladi, ammo egasining yomon ofatlarni engolmasa maydalanib ketishi, sehrli xususiyatlarinm yo'qotishi mumkin.

Zumrad toshi tovlanishi ko'ngilni ravshanlashtiradi, aqlni charxlaydi. Agar kimki, o'zi bilan zumrad olib yursa, u zerikmsh va o'quvsizlik nimaligini bilmaydi. Uni bezovta qiluvchi tushlardan xolos bo'ladi. Xatto kelajakni oldindan bashorat qila oladi. Neron imperatori sariq kristalni-zumradga termulib o'zining kelajagini bilmoqchi bo'lgan ekan. Naql qilishlaricha, zumrad nogyuklikni yoqtirmas ekan. Unga zarracha "xiyonat" qmlinsa o'z-o'zidan yorilib ketar ekan.

Yoqut.

Yoqut-mineral (korund)ning oddiy oksidlar sinfiga mansub. shaffof turi, qimmatbaho tosh. Zargarlikda ishlatiladigan chaqnoq toshlar turiga kiradi. Tarkibidagi xirom aralashmasi unga pushtidan to'q qizilgacha rang beradi. Zavoxirlar orasida yuqori baxolanadi. Yoqud qadimdan zargarlik, pichoqchilik, qandakorlikda ishlatiladi. Equtdan har xil. taqinchoqlar, pichoq va qilich bandi hamda qinlarini bezashda qandakorlik buyumlarini yoqut qadash, naqqoshlikda xattoki uylarini va buyumlarini badiiy bezashda keng foydalaniladi. Xozir

zargarlikda sintetik yoqutlar ham ishlatiladi. Yoqutni inson sog`lig`igaga ijobiy ta`siri haqida Sayyid Muhammad Xasrat «Tuxfai Xusaiv» asarida shunday bayon qmlgan:

Arastu yoqutni uch xil deb aytar,
Yurakka shodligu quvvati etar.
Biri oq, biri ko`k bittasi qizil,
Uchovidan qizili behazml.
VabonngShg havosi va yana taun,
Equtdan doim yuragida xun
Hujjat al-had ushal.

Ibn Sino.

Mo`tadil aytgan, bilgin, ey dono
Yurakka kuch nasor qiladi tezda,
Zaharini kesadi ichilgan kezda.

Qadimgi grek afsonalarida aytilishicha, yosh go`zal Apollon yoqutni yaxshi ko`rgan ekan. Yoqutni savdogarlar va artistlar ham xush ko`risharkan. Uni olib yuruvchi kishini doimo ovi baroridan kelgan. Bunday kishi hurmatli mehmon bo`lgan. Naql qilishlaricha, yoqut insonning shirin tush ko`rishiga sababchi bo`larkan.

Ota-bobolarimiz aytishicha, yoqutni kissasida olib yurgan kishi yoki yoqut ko`zli uzuk, zirak taqqan kishining ikki yuzi qizil bo`lib yuradi. Bu toshni yonida olib yurgan odam cho`lda bo`lsa tashna bo`lmaydi. Zahar solingan ovqat yoki suvga yoqut tashlansa, zahar yuzaga qalqib chiqadi va hokazo.

"Yosh kuch" jurnalning 1996 yil 2 sonida Xayrullo Nuriddinov «yoqut mo`jizasi» deb nomlangan maqolasi yoqut haqida:

Yoqut aytganlar «ming bir kecha», "it ham qopmaydi", "belga quvvat bo`lgan tosh" haqida qiziqarli materiallar bayon etgan. Quyida ularni keltiramiz:

Yoqut aytganlar.

Yoqutni kukun xolatga keltirib, ma`jun mevasi bilan qo`shib oz miqdorda iste`mol qilinsa, qonni toza, kuchni ziyoda qilar ekan. «Vadoe` ul-raqse»da yozilishicha, Abu Said Mirzo ismli temuriy ildishi ham yoqutni ana shunday iste`mol qilar ekan.

Ming bir kecha.

Bu tosh yoro`g`likka nihoyatda sezgir bo`lib, uzoqqa miltilgan bir kuni chuk ham uning mirkoklarida o`z aksini topar ekan. Mashhur «Ming bir kecha» kitobining aksar qaxramonlari er osti yo`llaridan chiqish joyini yoqut ko`zli uzuk yordamida topganliklari ma`lum.

It ham qopmaydi.

Mashhur Xorin al-Rashidning bebaho bir yoquti bo`lgan ekan. Bir kuni o`sha yoqut o`g`irlanibdi. Halifa g`azab o`tida yonib saroyda xozir bo`lgan barcha a`yonlariga zulum o`tkiza boshlabdi. shunda Xalifaning xizmatida bo`lgan Beruniy yoqutni topish yo`lini aytibdi va uniig itini keltirishlarini iltimos qilibdi. Bu it kattaligiga va qopaganligi bilan don taratgan ekan. Olim mazkur itni mahkam zanjirlab, saroyni barcha amaldorlarini shu it oldidan o`tishlarini talab qilibdi. Har bir amaldor o`tganda it ularga tashlanib talpinaveribdi. Lekin bitta a`yon

o'tayotganida it tinchib, dumini qisib erga yotib olibdi. Beruniy darhol a'yonni tekshirishlarini buyuribdi. A'yonni qo'ynidan yo'qolgan bebaho javohir topilibdi. Yoqutning yonida olib yurgan odamni it ham qopmas ekan.

Belga quvvat bo'lgan tosh.

Ulug'bek Mirzo Samarqand atrofida ulkan ariq qazishlarini nazorat qilib yurganida bir mo'ysafid ishchining mexnatini ko'rib hayratda qoldi.

Chol nihoyatda keksa va ko'rinishidan kam quvvatliligiga qaramay, chuqurdan katta-katta loy bo'laklarini olib bir gaz yuqoriga yigitlarday bemalol otardi. Podisho va uning hamrohlari bu holdan lol qoladilar. Ulug'bek bunda sir bo'lsa kerak, deb o'yladi hamda cholni o'z yoniga chaqirtiradi. chol kelgach, Mirzoning bo'yrug'iga binoan uni echintirib ko'radilar. shunda cholning belbog'i orasidan besh dona qip-qizil yoqut toshChalar chiqadi. Ulug'bek ishchiga deydi, «Siz qo'rqmang, bu molingazga zarra tama qilmaymiz. Balki uning yoniga tillo qo'shib beramiz. Faqat hozir mening aytganimni qiling. shu toshlarni menda qoldirib, ishingizni davom ettirib ko'ring!»

Chol darhol ish joyiga qaytib, ketmonni oldi. Biroq, qancha o'rinmasii, bir ketmon loyni ham irg'ita olmadi. Har otgan loyi chuqurdan chiqmay, o'z ustiga tushaverdi. shundan so'ng podshoh, boyagi yoqutlarni cholning belbog'iga to'ldirib qo'yadi. Chol yana hammani hayratga solib, zabardast kishilarday, botmon-botmon loyni bosh uzra o'ynatib chuqurdan uzoqqa ota boshladi. shunday qilib, Ulug'bek yoqutning ulkan quvvatbaxsh kuchini e'tirof etgan ekan.

Serdolik.

Bu qimmatbaho tosh hisoblanadi. Zilzila kabi ofatlardan saqlagan. Uni taqib yuruvchi har bir musulmon Muhammad payg'ambarga yaqin kishm hisoblangan. Serdolik ko'zli uzuk taqib yurish, kambag'alliqdan xolos etadi. Kimki ko'lga shunday uzukdan taqib olsa, uning ko'ngli xotirjam bo'lib ssYa-salomat goradi, deyigtsgan. Niliy rangdagi ko'zlik uzuk qonni tezda to'xtatadi.

Sapfir.

Sapfir ham yoqutga hos bo'lib, o'zaro ishonch, to'g'rilik va bosiqlik toshdir. U baxtsizlikdan, g'amlikdan saqlaydi, yurakka kuvvat beradi. Ko'ngilni ko'tarib, xushkayfiyat uyg'otadi. Qadimda sapfir dengizchilar toshi hisoblangan. Dengazchilar ham sapfir har xil ofatlardan saqlaydi deb qattiq ishongan.

Sadaf.

Sadaf sharqda ham, Ovrupada ham yuqori baholangan. Undan to'gnog'ich, baldoq, marjonlar, ilma tugmalar yasagan. Uni qadimda oshiqlar maxbubasiga sovg'a qilgan. Sadaf taqqan holi bo'lgan. Bu tosh zehnni ravshan, kishini bardam, ruhiyatini tetik qiltan.

Feruza.

Feruza-jilosiz mumga o'xshash, xira bo'ladi. U zangori, havorang bo'ladi. Uning Nishopur (Eron)da, O'rta Osiyo, Qozog'iston va boshqa joylarda yirik konlar bor. Nishopur Feruzasi dunyoda eng sof Feruza bo'lib, nihoyatda sifatlidir. Eramizning IX asriga oid Feruzadan yasalgan qumgon saqlangan. Markaziy Qizilqum Feruzasini sharq mamlakatlari nihoyatda qadrlagandir, chunki bu tosh qudratli tumor sifatida oshqozon va ko'z kasalligida, ilon chaqqanda eng yaxshi

shifo hisoblangan. shuning uchun qadimda kelinlar kiyimga feruza taqishgan.

Feruza qutlug` sifatlariga egadir, adovatlarga barham beradi, baholarni bataraf etadi. Munis odamlarga osoyishtalik, xonadonlarga ma`murlik keltiradi. Agar bu tosh bo`yniga taqib yurilsa, qon ketishini to`xtatishadi, sariq kasallikda yordam beradi. Feruza inson kabi, yoshlik, balog`at, keksalik davrlarini kechiradi. Oqishlikdan moviylikka, ko`klikdan yaxshilikka aylanib to`nini o`zgartirib boradi. Kelayotgan xatardan ogoxdaitiradi, quyi feruza ko`z o`ngingizda qaraydi yoki baxtsizlik yuz berishi oldidan sayqalini yo`qotish, hatto o`limga mahkum odam taqib yurgan bo`lsa, feruza paqqos «o`ladi-qoladi».

Utruj.

Utruj chiroyli sariq rangda tovlanadi. Uning odamlar orasida tarqalgan nomi «tsitron» limon degan ma`noni bildiradi. U och sariq-samon rangda to`q, sariq, jigarrang ko`rinishda ham bo`ladi. «Bundan tariyoqli xususiyati bo`lgani uchun sariq chayon, «burgut biti» (zaharli hashoratlarning bir turi) va ilon chaqqanida ham foyda qiladi. Utraj uchinchi darajada sovuq va qurukdir»-deydi Ibn Sino «yurak dorilari» risolasida. «Utraj yurakni nurlantiruvchilardan bo`lishi ham haqiqatdan uzoq emas», deb yana shu asarida aytib o`tadi buyuk alloma.

«Qadimda biron ishga qo`l urishdan oldin toshni e`tibor berib kuzatishgan, keyingana qat`iy qarorga kelib ishni boshlagan. Ayniqsa, muhim savdo shartnomalarini tuzishda va do`sglik munosabatlarini o`rnatishda shu toshdan foydalanishgan. Utraj toshni taqib yurgan bolaning do`stlari ko`p bo`ladi, xushchaqchaq o`sadi va tez, ravon gaplashadi degan taxminlar tarixidan ma`lumdir. Ko`pchilik tarixchilarning tasdiklashicha, qadimda notiqlar ham utruq toshidan-o`z uzukka ko`z qilib soldirib taqib yurishgan.

Aleksandrit.

Aleksandrit-yorug`lik muhitiga qarab rangani o`zgartiradigan bu tosh inson vujudiga qon aylanish ziddiyatlarini ifoda etadi. Qonni tozalaydi, tomirlarni mustahkamlaydi.

Marjon.

Marjon-barcha uchun ayniqsa, folvunlar uchun yaxshi. Yomon ko`zdan saqlaydi, xotirani mustahkamlaydi, et uchishidan xalos etadi, yaralar va jarohatlarni davolaydi.

Zarin topoz.

Zarin topoz uyqusizlik, yomon ko`zdan xalos qiladi. Noyabrda tug`ilganlarga muhabbat va vafodorlik bag`ishlaydi, may oyida usa-jo`shqin xayolparastlik bexuda g`azab uyg`otadi.

Ametist.

Ametist ichkibozlikdan saklaydi. Birdamlik baxsh etadi, yomon xayollarni bartaraf etadi. Ajinlarni tekislaydi, sepskillarni yo`qotadi.

Karaagat.

Karaagat hukumdorlikni bildiradi, havf-xatardan ko`riqlaydi. Agatning qat-qatli turi erkaklarga muhabbat sexrini baxsh etadi. Kasalliklardan saqlaydi. Taram-taram agat og`riqni susaytiradi, eshitish quvvatini kuchaytiradi.

Sardoniks.

Sardoniks-yolg`on yashiqlardan himoya qiladi, davolash jarayonida qon

ketishini to`xtatadi, singan suyaklarni ulaydi. Avgustda tug`ilganlarga uzoq umr, baxt va saodat baxsh etadi.

Safsar.

Safsar-degani kadimda grek tilida «xushyor», «ziyrak» ma`nolarini bildiradi. U mast qilmaydigan vino rangaga, ya`ni qalam rangiga ega, safsarni olib yuruvchi inson hech qachon mast bo`lmaydi. Agar undan quyosh yoki oy shaklini kesib olsangiz, me`daichak kasalliklaridan xalos bo`lasiz. Yigitlar o`z sevgililariga sovg`a kilishsa, ularning sevgisi yanada mustahakam bo`ladi, safsar fikrni tiniqlashtiradi. Bu toshni ayollar olib yursa, yuz terisini bir tekis saqlaydi.

Qadimda xotinlar yoki erkaklarning biri vafot etsa, biri o`sha umr yo`ldoshga sadoqat ma`nosida bu toshni olib yurishgan. shu sabab safsarni «bevalar toshi» yoki vafo tosh ham deydilar.

Nefrit.

Nefrit-qimmatbaho bezak tosh, asosan qo`lrang-Yashil, shuningdek sariq qizil, qora va boshqa ranglari ham uchraydi. Nefrit har xil cholg`u asboblari, taqinchoqlar tayyorlashda kengfoydalaniladi. Me`morlik bezagi va tosh o`ymakorligida ko`llaniladi,

Nefrit qadimgi Xitoy va ba`zi sharq mamlakatlarning iloxiy toshidir. Aytishlaricha, go`zal Buddlarning taxta nefritdan barpo qilingan. Xitoylik amaldorlar nefritdan yasalgan toshchalar bosh kiyimlarga taqib yurisharkan.

Xitoyliklarning ta`biricha, nefrit bo`yrak, jigar va boshqa kasalliklarning tuzalishiga yordamlasharkan. Nefrit chaqmoq, urishidan saqlaydi.

Asil apal.

Asil apal 22 kamalakdagi barcha ranglar bilan jilolanadigan tosh. U puch umidlar toshi mash`um shubhalar uyg`otadi, adovat urug`larini sochadi, xushdan og`diradi.

Giatsint.

Giatsint-vasil Tsirkon-dirgirlik va hulyodan xolos bo`lishda ko`l keladi. Ularni yovuz ruhlaridan ehtiyot qilish uchun duxonalar taqib yuradilar. Giatsint homilaga monelik qiladi, sochmo`y o`sisini to`xtatadi.

Olmos.

Olmos-sahovat, mardlik baxsh etadi, g`alaba keltiradi. Olmos o`z kuchiga ishontiruvchi va umidvorlik belgisi hamdir.

Olmosning pulga sotib olgan kimsaga unchalik muvaffaqiyat keltirmaydi, jinoyatchining qo`liga tushib qolgudek bo`lsa, uni xatto maxum kuchlarga duchor qiladi.

Qadimda urishayottan tomonlarniig qaysi birida olmos ko`p bo`lsa, o`sha g`alaba qozongan. sharq allomalarining hikmatlarda yozilishicha, agar xomilador ayol qo`liga olmos uzuk taqsa, u bola tug`ayotganda qiynalmas ekan.

Agar kimki bir bo`lak olmos olib yursa, u o`zini eng kuchli hisoblar ekan, hech narsadan qo`rqmas ekan. Xattoki doimo xushchaqchaq yurarkan. Olmos eslash qobiliyatini kuchaytirar ekan. Gap gashtaklarida uni so`zi o`taverar ekan. Bundan tashqari, yashin ham urmas ekan. Dushmanlardan, yomon tushlardan asrar ekan.

La'l.

La'l jo'shqin va ehtirosli muhabbat ramzidir. Aytishlaricha, sharqda kimki la'ldan bo'yniga marjon taqib olsa, u ulug' inson hisoblanib, aloxida xurmatga sazovor bo'ladi. La'l oqayotgan qonni to'xtatuvchi xususiyatga ega. Havoni tozalab, har bir kasalliklardan himoya qilarkan. Naql qilishlaricha, ma'budlar osmonda bir-biri bilan urushayotganda bir tomchm qoni Ganganing qizigan qumlariga tomb la'l va durga aylanibdi. sharqda ayniqsa, Hindistonda bu qimmatbaho toshlar erdan ko'k va xavorang, nihoyat qizil rang olib juda go'zal toshga aylanishadi, deb biladilar. Aytmshtaricha, la'l har ming yilda o'z rangini o'zgartirarkan, etti ming yildan so'ng o'zining asl qiyofasini toparkan.

Topaz.

Bu qimmatbaho tosh yaltiroq bo'lmb, qo'rkuvdan halos etadi. U erkaklarni jasurlikka undaydi, ayollarga esa homiladorlik paytida yordam beradi. Dengizchilar dengiz to'lqinlaridan, balolardan omon qolishlariga ishonishgan.

Berill.

Berill qimmatbaho tosh bo'lmb, u insonni kuvonch, xushchaqchaq qiladi. shu bilan u insonga omad ham keltmradi.

Tumor.

Zargarlik zeb-ziynatlarining bir turi bo'lib, ayollar bo'yin hamda ko'ltiklarga termladigan bezak hamda inson sog'ligi uchun foydali. U uchburchak shaklida, ba'zan tilla yoki tilla hal yuritilgan kumushdan yasaladi. Keyingi vaqtlarda to'rtburchak shaklidagi: tumorlar yasalyapti. Tumor ikki qismdan iborat bo'lib, u juda chiroyli qilib bezaladi. Orqa tomoni qutichadir. Tumorning bo'yniga osiladigan zanjiri bo'lib, kichkinasi bo'yniga osiladi. Uni bo'yin tumor, ko'ltiqqa taqiladiganini ko'ltiq tumor deb yuritiladm. Duo yozilgan qog'ozni buklab charm yokm biror matoga o'rab tikiladi. Buni ham tumor deyiladi.

Qadimdan tumorchilarni taqib yurishdan maqsad, uni taqqan kishi turli: ofat, balo-qazolardan, yomon ko'zdan saqlagan.

3.5. Zargarlik mahsulotlarining tasniflari va turlari.

Zargarlik mahsulotlari ikki ko'rsatkich bo'yicha tavsiflanadi: mo'ljallangan vazifasi va tayerlangan materiali bo'yicha.

Mo'ljallangan vazifasiga qarab mahsulotlarni taqinchoq buyumlarga yoki kundalik xayot uchun mo'ljallangan ashyolarga bo'lish mumkin. Zargarlik mahsulotlarining juda katta qismini, taqinchoqlar: to'gnog'ichlar, uzuklar, ziraklar, kulonlar, zebigardonlar, bilakuzuklar, zanjirlar va shu kabi tashkil etadi. Kundalik xayot uchun mo'ljallangan anjomlarga soch turmaklagichlar, taroqlar, qisqichlar, upadonlar, soat tasmalari, portsigarlar, munShtuklar, oshxona anjomlari va shu kabilar kiradi.

1. Zargarchilikda qo'llaniladigan materiallar uch turga bo'linadi:

Qimmatbaxo metallardan tayyorlanib, qimmatbaxo yoki yarim qimmatbaxo toshlar bilan bezatilgan yoki bezatilmagan mahsulotlar;


2. Qimmatbaxo, yarimqimmatbaxo va qimmatbaxo bo'lmagan materiallardan suvenir uchun mo'ljallangan, badiiy qimmatga ega mahsulotlar;

3. Seriyali ishlab chiqarishda qimmatbaxo bo'lmagan materiallardan tayyorlanib, shisha yoki plastmassa toshlar bilan bezalgan maxsulotlar.

Zargarlik maxsulotlarining asosini taqinchoqlar tashkil etadi. Qimmatbaxo metall va uning kotishmalaridan tayyorlanadigan taqinchoqlar zargardan har bir taqinchoq uchun yuqori maxorat, saranjomlik va aniqlikni talab etadi. Bunday yondoshib tayerlangan taqinchoqlar chiroyli, umri uzoq bo'lishi bilan birgalikda davr o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotmaydigan, unga modaning o'zgarishi deyarli ta'sir etmaydigan bo'lganligi sababli, xakkoniy zargarona ish deb ataladi.

Uzuklar. Zargarlik mahsulotlarining ichida eng keng tarqalgan turi-barmoqlar uchun mo'ljallangan uzuklar (174-rasm) xisoblanadi. Uzuklarning bir qancha turi mavjud bo'lib, ba'zilar biron belgini (masalan, unashish yoki nikox) bildiradi. Ular oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Oddiy uzuklarga tayyorlanishi murakkab bo'lmagan kesim yuzasi yarimaylana yoki turli to'rtburchak ko'rinishidagi nikox uzuklari; murakkab bo'lmagan ko'zxona va shinkadan tashkil topuvchi toshli uzuklar kiradi. Ko'zxona-tosh o'rnatish uchun tayyorlangan gardish, shinka-barmoqqa kiritiluvchi xalqa.

Tuzilishi, tayyorlanishi va yig'ilishi murakkab bo'lgan uzuklar murakkab xisoblanadi. Bularga naqsh ko'zxonali, ko'p toshli, yig'ma qismlardan tashkil topuvchi, filigranli, gravirovkalanadigan va shu kabi uzuklar kiradi.



174-rasm. o'lchovchi (a) va barmoq o'lchovchi (b).

Uzuklarning bezak qismida ko'zxona bo'lishi yoki bo'lmasligi, extiyojga qarab turli usullar bilan toshlar o'rnatilishi yoki o'rnatilmasligi mumkin. Uzuklarning bezak qismining ko'rinishi aylana, oval, ko'p qirrali, turli ko'rinishdagi shoxcha ko'rinishida; yassi yoki gumbaz ko'rinishida, turli elementlar kavsharlangan bo'lishi mumkin. Uzukning bezak qismini o'rnatishga qulaylik yaratish xamda mustaxkamligini oshirish maqsadida ularga ostki kovurga o'rnatiladi. Ostki kovurralar ustki shaklga moslab baland yoki past, tik yoki konussimon tuzilgan bo'lishi mumkin. Ba'zan qavariq kovurg'alar xam qo'llaniladi.

Uzuklarni shinkalari, ya'ni xalqalari xam turli kesim yuzaga ega bo'lishi mumkin-kengligi va balandligi o'zgaruvchan, ko'p xolatlarda ko'zxonaga yaqinlashgan sari kengayib boradi. shinkalarga qo'yiladigan asosiy talab shundan iboratki xalqa, ko'zxona, ostki qovurg'a va yuqori qism to'plamasi uzukning ichki aylana qo'rinishini hosil etishi shart. Ko'p xollarda shinka uzukning yuqori qismiga o'rnatilgan ostki qovurg'aga kavsharlanadi. Nozik shinkalar xam ostki qovurg'alarga ulanadi, lekin ko'pincha qo'shimcha qo'yilmalardan foydalaniladi.

Ko'yilmalar mustaxkamlikni va chiroyini ta'minlash bilan bir o'rinda ba'zan mayda toshlar bilan bezatilinadi.

Uzuklarning ichki diametr o'lchamlari 15,5-24,5 mm oraliqda tayyorlanadi. Agarda uzukning ichki diametri 18 mm bo'lsa, demak uning o'lchami 18 bo'ladi. "o'lchamlar xar 0,5 millimetrdan o'zgaradi. O'lchamlarini aniqlash uchun uzak ko'rinishidagi rigeldan (174-rasm,a) yoki xalqa ko'rinishidagi barmoq o'lchagichlardan (174-rasm,6) foydalaniladi. Barmoqlarning o'lchamini aniqlovchi barmoq o'lchagich to'plami maxsus nomerlangan xalqalardan tashkil topadi va ular bir boylamga yig'ilgan ko'rinishda saqlanadi,

Ziraklar ayollarning (asosan) quloqlari uchun, bir qancha turlardan iborat. Boshqa taqinchoqlardan farqli ziraklar juft xolatda ishlab chiqariladi. Juftning bir bo'lagi ikkinchi bo'lagi bilan batamom o'xshash; sarflangan metall va toshning og'irligi, rangi va shakli bir xil bo'lishi darkor. Uzuklar singari ziraklar xam oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkabligi uning tuzilishi va tayyorlash texnologiyasi bo'yicha aniqlanadi. Zirakning asosiy qismlarini bezak qismi-ko'zxona, qulf qismi va agarda bo'lsa, osilchoqlar tashkil etadi. Har bir asosiy qism murakkab xisoblanishi mumkin. Ziraklarning oldingi bezak qismi bilan birga orqa qulf qismiga xam e'tibor beriladi. chunki qulf xam zirakning chiroyiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va shu sababli unga katta talablar qo'yiladi. U ishlatishda oddiy, qulay, mustaxkam, zirakning bezak qismiga va quloqning osilgan kismiga mos tushishi, inson badanining tegib turgan qismiga zarar etkazmasligi zarur. Qulflar tuzilishi va ishlashiga qarab bir tekisda bukilgan ilmoqli yoki ilmoqsiz, rezba yordamida berkiluvchi, prujinasimon va shu kabi bo'lishi mumkin.

Ziraklar (174 b-rasm)-ayollarning taqinchog'i bo'lib, kukrakka, yokaga, bo'yin oldiga taqiladi. To'g'nog'ichlar bir qancha turda tayyorlanadi va ishlab chiqariladi. Tug'nog'ichlarni oddiy yoki murakkabga bo'lish mushkul. Oddiy bir tosh uchun mo'ljallab tug'nog'ich tayyorlanadigan bo'lsa xam, uning o'lchamlari kichkina bo'lmaydi, bu o'z navbatida murakkablikni xosil etadi. Tug'nog'ichlar turli shakllarda bo'lishi mumkin-bir tekis, notekis, shoxcha ko'rinishida, barg ko'rinishida va shu kkbilar. Ular turli-qo'lda, filigran, shtamplab, quyma va yig'ma usullar bilan tayyorlanishi mumkin. Tug'nog'ichning old qismiga bezaklar joylashsa, orqa qismi tugnash uchun xizmat etadi. Ularni tugnash uchun turlicha ilmoqli qulflardan foydalaniladi.

Kulonlar-ayollarning (erkaklarning) ko'kragiga yoki bo'yniga mo'ljallangan taqinchoq; zanjirga, marjonga yoki biron buyinboqqa osilib taqiladi. Oddiy kulonlar turkumiga bir tosh uchun mo'ljallangan ko'zxonali va zanjirga ilish, xalqachasidan tashkil topgan kulonlar kiripgi mumkin. Kulonlar turli ko'rinishda-biron belgini (muchal, ism, tumor va shu kabi) bildiruvchi yoki bir necha toshli, turli shaklli bo'lishi mumkin. Ba'zi xollarda, zanjirga osish uchun mo'ljallangan xalqacha xam, toshlar bilan bezatilishi mumkin. Ko'p xollarda kulonlar uzuk, zirak bilan bir turkumda tayyorlanadi.

Zebigardon-ayollarning bo'yniga taqish uchun mo'ljallangan taqinchoq bo'lib, ko'p xolatda uning detallari zanjirchaning yo'nalishi bo'yicha joylashadi. Agarda kulon osilchokdan tashkil topgan bo'lsa, zebigardon bir-biri bilan ulangan yoki ulanmagan bir qancha osilchoqlardan tashkil topadi. Agarda kulon

zanjirda bimalol xarakatlanadigan bo`lsa, zebigardonni zanjirga ulash ikki xalqacha bilan amalga oshiriladi, buning yordamida u zanjir bilan birgalikda xarakatlanishi mumkin. Zebigardon odatda bir qancha toshlar bilan bezatilgan va bir-biri bilan ilashib ketgan elementlardan tashkil topadi. Odatda zebigardonlar badanga yaxshi yopishib turishi uchun ularning ostiga qovurg`a qo`yilmaydi.

Zashkirlar-ayollar va erkaklar bo`yniga osish uchun mo`ljallangan, turli to`qimalardagi birikma elementlar shodasi. Ular qulda yoki dastgoxda to`qilishi mumkin. To`qimalarning tuzilishiga qarab oddiy yoki murakkab to`qilgan zanjirlarga turkumlanadi. Ba`zi xollarda to`qimalar shtamplab yoki quyma ko`rinishida tayyorlanishi mumkin. Zanjirlarning uzunligi inson bo`ynining uzunligiga qarab tanlanadi va 40, 45, 55, 60 sm oraliqda bo`lishi mumkin.

Bilakuzuklar-ayollar xamda erkaklarning qo`liga taqish uchun bezak yoki kundalik xayot (masalan, soat tasmalari) uchun kerakli ashyo bo`lishi mumkin. Bezak uchun mo`ljallangan bilakuzuklar tuzilishi, materiali, bezak toshlari va zargarona bajarilganligi bilan ajralib turadi. Tuzilishi bo`yicha-butun, bo`laklardan, bir necha to`qimalardan tashkil topgan bo`lishi mumkin. Qimmatbaxo yoki yarimqimmatbaxo metall va toshlardan, filigranli badiiy bajarilgan bilakuzuklarning qiymati yuqori baholanadi. Ko`p bilakuzuklar zanjirsifat ko`rinishida tayyorlanadi.

3.6. Zargarlikda ishlatiladigan qimmatbaho metallar va toshlar.

Qimmatbaxo metallar turkumiga "nodir" metallar guruxidagi xamma elementlar kiradi. Bular-oltin, kumush, platina, palladiy, radiy, iridiy, ruteniy va osmiy. Ular korroziyaga bardoshli bo`lganligi sababli "nodir" deb ataladi, boshqa metallarga nisbatan ularning narxi qimmat bo`lganligi uchun qimmatbaho deb ataladi. Zargarlik sanoatida qo`llanishiga qarab, ular-asosiy va ikkinchi darajali xisoblanadi. Asosiy metallar-oltin, kumush va platina. Bu metallar korroziyaga bardoshliligidan tashqari, yana bir qancha qulay xususiyatlarga ega; yumshoq, cho`ziluvchan, plastik va boshqa metallar bilan qotishma xosil etishi darajasi yuqori. Nodir metallarning ichida eng jiloli va zargarchilikda keng qo`llaniladigan metall oltindir.

Oltin (Ai)-chiroyli sariq; rangda tovlanadi, jilolanganda tovlanish yanada ortadi. Juda yumshoq, bolg`alanuvchan, plastik va chuziluvchan metall. Zichligi  $19,32 \text{ g/sm}^3$ , erish xarorati  $1064^\circ\text{S}$ . Bir gramm oltindan 3,5 km sim tortsa va shunday yupqalikda bolg`alasa bo`ladiki, undan yorug`lik o`tishi mumkin. Bunda varaqaning qalinligi 0,0001 mm atrofida bo`ladi. Bu qalinlikda tayyorlanadigan oltin "susall" oltin deyiladi va bu zarvaraq bezaklarda keng qo`llaniladi.

Nodir metallarning ichida oltinni eng nodir deb atasa bo`ladi. Uning eng qimmatbaxo xossasi-kimyoviy bardoshligidir. Oltin ochiq xavoda xatto qizdirilganda xam oksidlanmaydi, unga namgarchilik ta`sir etmaydi, u kislota, ishkor va tuzlarning ta`sirini sezmaydi. Unga oltinguturt vodorodi xam ta`sir etmaydi. Oltin zar suvida (tsarskaya vodka-xlor va azot kislotasining birikmasi) eriydi. Xlorning ta`siri ostida  $200^\circ\text{S}$  da oltin metalli, xlorli ko`rinishga o`tadi va u suvda yaxshi eriydi. Tsionli xlor va brom ishqoriy suvlari xam oltinni eritadi. Simobda oltin engil eriydi. Xarorat  $10-30^\circ\text{S}$  bo`lganda simobdagi oltin 15% ga

etadi va qotadi.

Oltinning asosiy miqdori pul qiymatini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Toza oltin sanoatda juda oz miqdorda qo'llaniladi. U aniq priborsozlikda; kimyo sanoatida, korroziyaga bardoshli qoplamalar qoplashda; samolyotsozlikda va raketsozlikda qo'llaniladi. Zargarchilik sanoatida esa toza oltin bilan qoplashdan tashqari, qimmatbaxo qotishmalarning asosiy tarkibi sifatida qo'llaniladi.

Kumush (Ad)-oq rangdagi metall, juda chuziluvchan plastik va bolg'alanuvchan. YUmshoqligi bo'yicha kumush, oltin va misning oralig'ida joylashgan. Kumushning issiqlik va elektr o'tkazuvchanligi juda yuqori. Uning yorug'lik qaytarish xususiyati juda yaxshi bo'lib, kelayotgan nurning 95% ini qaytaradi. Juvalash yo'li bilan kumushdan 0,00025 mm qalinlikdagi varaqalar xosil etish mumkin. Kumushdan juda ingichka sim tortsa va o'rasa bo'ladi, u yaxshi kesiladi va jilolanadi. Kumushning zichligi 10,5 g/sm³, erish xarorati 960,8 °S.

Kumushning ochiq xavoga va namgarchilikka bardoshligi yuqori. Uning tuzli va plavikli (Shishani uyuvchi) kislotalarga chidamliligi yuqori. Kumushning rangini xiralashishi xavoning tarkibidagi oltinguturt vodorodi ta'sirida ro'y beradi. Azon ta'sirida xam kumush oksillanadi va qora parda xosil etadi. Azot va kontsentratsiyalangan sulfat kislotasi ta'sirida kumush engil eriydi. Uni tsionli tuzlarda ham eritish mumkin. Ishqorlarning suvdagi eritmasi kumushga keskin ta'sir etmaydi. Oltin singari, kumush xam simob amalgami xosil etadi. Erigan kumushning xavo surish xususiyati yuqori (1:22) bo'lganligi sababli, quyilgan quymalar g'ovakli chiqishi mumkin.

Qimmatbaxo metallarning ichida kumush eng arzoni xisoblanadi. shu xususiyati xamda issiklik va elektr o'tkazuvchanligi yukori bulganligi sababli, kumushlar: elektrotexnikada, kimyoviy sanoatda, kuzgu, badiiy va zargarlik buyumlari ishlab chika-rishda keng kullaniladi. Muxofazalovchi va bezovchi galvanik koplamlar'koplashda, oltin-kumush kotishmalarini va ularning kavsharlarini tayyorlashda kumushdan keng foydalaniladi.

Platina (R1)-ogir, kulrang-ok metall, juda chuziluvchan, etarli darajada bolralanuvchan, lekin kattikligi oltin va kumushdan ancha yukori. Platinaning zichligi 21,45 g/sm³, erish xarorati 1769 °S. Juvalanishi yaxshi, prokatlab 0,0025 mm li varaka xamda ingichka sim xosil etsa buladi.

Platina kimyoviy turrun metallar turkumiga kiradi. Juda kam moddalar unga ta'sir etishi mumkin. Masalan, qavoda kattik kizdirilganda xam u oksidlanmaydi va sovi-ganda uz rangini saklab koladi. Dech kanday birikmasiz kislota unga ta'sir etolmaydi, fakatgina yukori xarorat-dagi kislotalar birikmasi (zar suvi) uni parchalaydi. TSionli kaliy va eritilgan ishkorlar uni emirishi mumkin.

Yuqori fizikaviy-kimyoviy xususiyatlarga ega bulgan platina kimyoviy, priborsozlik, aviasozlik sanoatlarida keng kuldaniyadi. Zargarchilikda esa asllik darajasi yukori bulgan platina kotishmalarini tayyorlash uchun kullaniladi.

Palladiy (Rs1)-kumush-ok rangdagi metall, yumshok va bolgalanuvchan, yupka xolatgacha juvalanishi va ingichka sim kurinishigacha tortilishi mumkin. Palladiyning zichligi 11,97 g/sm³, erish xarorati 1552 °S. Platina sifatli metallar gu-ruxiga

kushiladi, palladiidan tashkari radiy, ruteniy, iridiy va osmiy bu guruxga kiradi. Erigan xolatda palladiy-ning vodorodni surishi darajasi yukori (1:900) bo`lib, bu xolatda uning xajmi ortadi va engillashadi, lekin metall kurinishini yukotmaydi.

Palladiyning kimyoviy xususiyatlari platinadan pastroq bo`lib, uni 860 °S gacha kizdirilganda, u oksidlanadi va kiz-dirishni davom ettirilsa, oksid metallga surilib, uning kurinishi yana oydinlashadi. Yodning spirtidagi eritmasi ta`sirida palladiy korayadi. U zar suvida, azot kislotasida va boshka mineral kislotalarda engil eriydi.

Zargarlik sanoatida ba`zi takinchoklarning kotishmalarini tayyorlash uchun, ok tillaning tarkibiga xamda asllik darajasi past bulgan oltin kotishmalarining korroziyaga bardoshliligini oshirish maksadida kullaniladi.

Radiy (YAp)-kumushsimon-zangori rangli metall (alyuminga o`xshash), kattiq va murt bo`lib, yoruglik kaytarish xususiyati yukori. Zichligi 12,42 g/sm³, erish xarorati 1960 °S.

Radiy-kimyoviy bardosh metall. Havo ta`siriga chidamli, kizdirilganda kora parda xosil etadi va xarorat 1200 °S ga etganda parda yukoladi. Zar suvi radiyga ta`sir etmaydi, lekin sulfat kislotasining kontsentratsiyasi uni eritadi. Radiy-kislorod, oltingugurt, fosfor, xlor va ftorlarning ta`siriga chidamli.

Kimyoviy va fizikaviy xususiyatlari yukori bulganligi sababli kumush va oltin (ok) qotishmalaridan tayyorlangan takinchoklarning koplamasi vazifasini bajaradi. Max-sulotlarni radiylashda koplamaning kalinligi 0,1 mm dan ortmasligi zarur.

Rusheniy (Ki)-kiyin eruvchan, ranggi platinani eslatuvchi, kattik va murt metall. Mexanik ishlovga yaroksiz, bolga-lansa maydalanib ketadi. Ruteniyning zichligi 12,3 g/sm³, erish xarorati 2450 °S.

Ruteniy oltin singari zar suvida engil eriydi. Boshka platina guruxidagi metallarga nisbatan u xlorga chidamli.

Platina kotishmalarining tarkibida ruteniyning ish-tiroki sezilarsiz. Priborsozlikda kullaniladi.

Iridiy (1t)-kulrang-ok rangdagi kiyin eruvchan metall, juda kattik va murt, mexanik ishlov berish mushkul. Iridiyning zichligi 22,4 g/sm³g erish xarorati 2410 °S.

Kimyoviy xususiyatlari jixatidan-mustaxkamligi yukori metallar turkumiga kiradi.)qech kaysi kislota yoki zar suvi unga ta`sir etmaydi. Faqatgina 800 °S dan yukorida unga xlor, ftor va kislorod ta`sir etishi mumkin.

Kimyoviy xususiyatlari yukori bulganligi sababli, iridiy kimyoviy idishlar tayyorlashda kullaniladi. Platina kotishmalarining tarkibiga iridiy kattiklikni oshirish maksadida kushiladi. Eyilishga bardoshlilik xususiyatlari yukori bulganligi sababli, u soat mexanizimlarining ukklarini tayyorlashda kullaniladi. Erish xarorati yukori bulganligi sababli platina-iridiyli termopara tayyorlanib, yukori xaroratlarni aniklashda foydalaniladi.

Osmiy (On)-ok rangdagi metall, juda kiyin eruvchan, kattik va murt. Zichligi 22,5 g/sm³, erish xarorati 3050 °S. Mexanik ishlov berishga yaroksiz.

Osmiy kislotalarda va zar suvida erimaydi. qotishmalar-ning tarkibiga, kattikligi xamda kimyoviy bardoshliligini oshirish maksadida, kushilib anik priborsozlikda kullaniladi.

1. Qimmatbaxo metall va qotishmalarning asllik darajasi

Asllik darajalari (probalar). Qimmatbaxo metallarning sarf bo'lishi xar doim davlat nazoratida bo'ladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tarkibidagi qimmatbaxo metallning miqdorini ko'rsatish maqsadida, ularga belgi (kleymo) qo'yiladi. Avval qotishmaning tarkibidagi qimmatbaxo metall miqdorini aniqlash maqdida, u "tilinib" yoki "kirilib" asllik darajasi aniqlangan (probirovan), demak asl metallning miqdori aniqlangan.

Lekin bunday asllik darajasini aniqlash xar doim va xamma joyda xam bir xil yo'lga qo'yilmagan. Masalan, sobiq ittifoq xududida 1927 yilgacha, chor Rossiyasida amal etilgan "zolotnikovaya" asllik darajasidan foydalanilgan bo'lsa, xozirgi kunda ba'zi xorijiy davlatlarda "karatli" asllik darajasidan foydalaniladi. "Zolotnikovaya" asllik darajasida quyidagi asllik darajalari amalda bo'lgan: oltin qotishmalari-36, 48, 56, 72, 82, 92, va 94; kumush qotishmalari-72, 76, 84 va 88.

1927 yilda metrik asllik darajasiga o'tilganidan so'ng, bir kilogramm qotishmaning tarkibidagi oltin grammlarda yozilgan. Masalan, asllik darajasi 583 bo'lgan qotishma, demak 1 kg qotishmada 583 gr oltin bor. Agarda buni foizga aylantiradigan bo'lsak-58,3%. Metrik asllik darajasida, quyidagi asllik darajalari mavjuddir:

oltin qotishmalari-375, 500, 583, 585, 750 va 958;

kumush qotishmalari-800, 875, 916 va 925;

platina qotishmasi-950;

palladiy qotishmasi-500 va 850.

Evropa davlatlarida 333 probali oltin qotishmalari xam ishlab chiqariladi.

Bir qancha davlatlarda esa, qotishmadagi oltinning miqdorini aniqlash uchun, karatli tizimdan foydalaniladi, bunda xisob 24 birlikdagi qotishmadan boshlanadi. Masalan, 14k oltin qotishmasining asllik darajasi, qotishmaning 24 bo'lagidagi 14 birligini toza oltin tashkil etadi. Karatli tizimda: 6k, 8k, 10k, 12k, 14k, 18k va 22k da qotishmalar tayyorlanadi.

Agarda karatli va "zolotnikovaya" va karatli asllik darajalarini solishtiradigan bo'lsak, karat qiymati "zolotnikovaya" kiymatining turtdan bir qismini tashkil etadi.

Masalan: karatli asllik darajasining maksimal qiymati-24, "zolotnikovaya" asllik darajasining maksimal qiymati esa-96. Demak, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish uchun 4 ga ko'paytirilsa kifoya. Masalan: (karatli) $14 \times 4 = 56$ (zolotnikovaya); (karatli) $18 \times 4 = 72$ (zolotnikovaya).

Karatli tizimdan metrik tizimga o'tish mushkulroq. shu sababli, qulaylik yaratish maqsadida, doimiy koeffitsient kiritilgan, buning yordamida bir tizimdan ikkinchisiga utiladi.

Karat tizimidagi va metrik tizimdagi eng katta ko'rsatkichlar nisbati 24:1000 yoki 0,024. Demak, o'tkazish koeffitsienti, 0,024 ga teng. Shu sababli, karatli asllik darajasini metrik asllik darajasiga aylantirish uchun metrik asllik darajasini 0,024 ga bo'linadi. Masalan: (karatli) 18:0,024-750 (metrik);

(metrik) $500 \times 0,024 = 12$ (karatli).

Xuddi shunday koeffitsient "zolotnikovaya" xamda metrik tizimlar orasida xam mavjud. Ularning nisbat qiymati 96:1000, yoki 0,096. "Zolotnikovaya" asllik darajasini, metrikka o'tkazish uchun, shu koeffitsientdan foydalaniladi. Masalan: (zolotnikovaya) $72 : 0,096 = 750$ (metrik). Yoki aksincha (metrik) $585 \times 0,096 = 56$ (zolotnikovaya).

Oltin qotishmalarining asllik darajasini solishtirish 6-jadvalda keltirilgan.

-qavslarda asllik darajasining aniq metrik xisobi ko'rsatilgan.

6-jadval.

Turli tizimlardagi asllik daraja qiymatlari

Metrik	Zolotnikovaya	Karatli	Ilova
333		8 (333,33)'	
375	36	10	
500	48	12	
583 (585)	56	14(583,33)"	
750	72	18	
916	88	22(916,74)-	Bunday qotishmalardan tish Qoplamalari tayyorlanadi
958	92		
999,9 (1000)'	96	24	Asllik darajasi 1000 bulgan oltin shartli nomlanadi

2. Zargarlikda ishlatiladigan toshlar

Qadimgi davrlardanoq insonlar zargarlik toshlarining rangi, jilolanishi kabi xususiyatlarini munosib baxolab kelganlar. Ayniqsa, qizil, och qizil rangdagi toshlar odamlarda iloxiy kuchlarga ishonish va davolovchi manba sifatida xizmat qilgan.

XIX asrga kelib bunday toshlarning qiymati faqat rangi bilan emas, balki qattiqligi, tozaligi va xajmining turli-tumanligi bilan xam baxolanadi. Texnika rivojlanishi natijasida tog` jinslaridan katta miqdordagi turli xil toshlar qazib olina boshlagan. Xozirgi paytda tabiiy toshlarga o`xshash bo`lgan turli ko`rinishdagi sun`iy toshlar ishlab chiqarilmoqda.

Tabiiy kimyoviy brikmalarning tog` jinslari bilan xosil qilgan toshlar **minerallar** deyiladi. Toshlarining narxi ularning rangiga bog`liq. Rangiga ko`ra toshlar idoxramatik va aloxramatik toshlarga ajratiladi.

• Minerallarning tarkibiga kimyoviy moddalarning rangidan iborat bo`lgan toshlar **Idoxromatik** toshlar deb ataladi.

- Minerallarning tarkibidangi kimyoviy brikmalarga tashqi kimyoviy ranglar aralashmasi bo'lgan toshlar aloxromatik toshlar deb ataladi.

Kimyoviy xossa deganda toshning bir xil kislota va tuzlar ta'siriga tushuniladi.

Toshlar nur o'tkazuvchanlik xossasiga qarab uch turga bo'linadi:

- Nur o'tkazuvchi;
- Yarim nur o'tkazuvchi;
- Nur o'tkazmaydigan.

Toshlarning nur o'tkazuvchanligi ularning qirralariga bog'liq bo'lib, bu xususiyat toshning narxi oshishiga olib keladi. Ko'zlari yaltirashiga ko'ra toshlar uchga ajratiladi:

- yaltiroq shisha ko'zli;
- Yaltiroq olmos ko'zli;
- Yaltiroq yarimmetall ko'zli.

Ko'zlarning yaltiroqligi yog'liq, perlamutr va shoyi ko'rinishida uchraydi. Yorug'likning sinish ko'rsatkichi shisha ko'zlarda 1,3-1,9 gacha, olmos ko'zlarda 1,9-2,6 gacha va yarimminerall ko'zlarda 2,6-3 gacha bo'ladi.

Zargarlik toshlari buyumlarni bezatishda ishlatilib, besh guruxga bo'linadi:

- Qimmatbaxo zargarlik toshlari;
- Rangli zargarlik toshlari;
- Organik zargarlik toshlari;
- Turfa rang zargarlik toshlari;
- Sun'iy zargarlik toshlari.

Zargarlik toshlari qattiqligi, kimyoviy turg'unligi, rangi va serqirraligi, kimyoviy xossalari, tabiiy rangi, ishlatilish joyi, baxosi bilan bir – biridan farq qiladi.

Toshlarning kimyoviy xossalari silikat va oksidlari tarkibiga ko'ra aniqlanadi.

2. Qimmatbaxo toshlar

Qimmatbaxo toshlar sinfiga olmos, yoqut, sapfir, dur-marvarid va zumrad kiradi.

Olmos uglerod kristallaridan iborat silikatlar (kremniy, natriy, kaltsiy, magniy, alyuminiy va boshqa elementlar)ning tabiiy xolatdagi birikmalaridan xosil bo'ladi. Elementlar kislorod bilan brikishi natijasida oksidlar xosil bo'ladi. Oksidlar mineral xolda uchraganda ularning tuzilishi va rivojlanishiga ko'ra garnli, sun'iy, organik xolatda bo'ladi.

Olmos grekcha "*adamas*" so'zidan olingan bo'lib, "*yengilmas*" degan ma'noni bildiradi. Olmosning rangi oq, qora va yashil bo'lib, u yaltiroq va juda mustaxkam tosh.

Olmos yuqori nurlanish va qattiqlikka ega bo'lib, uning Moss bo'yicha qattiqligi 10, zichligi $3,5 \text{ g/sm}^3$, nur qaytarishi (sinish ko'rsatkichi) 2,42 ga teng

(21.1-jadval).

No	21.1-Jadval			
T/r	Qimmatbaxo toshlar	Moss bo'yicha qattiqligi	Zichligi, g/sm'	Sinish ko'rsatkichi
1				
2	Olmos	10	3,5	2,42
3	Yoqut	9	4,08	1,76
4	Sapfir	9	4,08	1,76
5	Dur-marvarid	7,75	2,67	1,58
6	Zumrad	7	3,5	1,6
7	Xrizalit	8	3,5	1,66
8	Shpinel	7,7	3,6	1,72
9	Turmalin	5	2,9-3,3	1,63
10	Sirkoniy	7,8	4,7	1,92-1,93
11	Topaz	8	5-3,6	1,62-1,63

Olmos kimyoviy ta'sirlarga chidamli. Olmos xech qanday kislota va ishqorlar ta'sir qilmaydi.

Xarorat 85(MOOO°C bo'lganda olmos xavoda kuyadi va 3000°C da grafit xolatiga keladi. Olmos yirik xolatda uchraydi. Bir karat olmos 1,2 g ga teng. Olmosning qirralanishi natijasida brilliant xosil bo'ladi. Brilliant nurli yaxshi o'tkazadi va sindiradi. Brilliant qirrali soni, og'irligi va shakli bilan farqlanadi. Masalan, dumaloq 17 qirrali (Kp-17), 33 qirrali (Kp-33), 57 qirrali (Kp-57), tuxumsimon 57 qirrali (Ou-57), uchburchak 19 qirrali (T-19) brilliant bor. Toshlarining shakli 17 xil bo'ladi.

Yoqut xam olmos singari mustaxkam, unga xech qanday kislota va ishqorlar ta'sir qilmaydi. Yoqut turlicha qirralanadi. Yoqut qimmatbaxo zargarlik buyumlariga qo'yiladi. Sapfir-titan va temir oksididan iborat ko'k rangli tosh. U och xavorang, to'q xavorang va ko'k rangda uchraydi. Sapfir xam olmos kabi qattiq, yaltiroq, kimyoviy turg'unligi yuqori, turlicha qirralanuvchi tosh.

Zumrad – yashil rangli, qattiq, shishasimon, shaffof yaltiroq tosh. Zumrad qirralangan xolda to'rtburchak va kvadrat shaklda bo'ladi. U pog'anali qilib qirralanadi. Zumrad 750° oltin qotishmadan tayyorlangan zargarlik buyumlariga qo'yiladi.

Dur-marvaridning tarkibi 86-90 % kaltsiy karbonat va 2-6 % suvdan iborat bo'ladi. Uning shakli molluskalar rivojlanishiga bog'liq bo'lib, eng qimmatbaxo dur-marvarid dumaloq sharsimon shaklga ega; uning kattaligi 15 mm gacha bo'ladi. Katta dur-marvarid kam uchraydi. London muzeyida o'lchamlari 4,5 va 85 mm li dur – marvarid saqlanmoqda.

Oliven tarkibida magniy silikati bilan temir bo'ladi. Oliven ko'kimtir sariq, rangda, oyna kabi yaltiroq va mo'rt bo'ladi.

Oliven zargarlik toshi sifatida ishlatiladi.

Xrizolit sarg'ish, ko'kish, shishasimon yaltiroq tiniq rangda va mo'rt bo'ladi.

Xrizolit zargarlikda mayda toshlar sifatida qo'llaniladi.

Shpinel -tarkibi magniy va alyuminiy brikmalardan iborat yaltiroq, qattiq va mo'rt tosh.

Shpinel turlicha qirralanadi. U yuqori probali zargarlik buyumlariga qo'yiladi.

Turmalinning tarkibi alyuminiy silikat, kaltsiy, magniy va buradan iborat. U murakkab kimyoviy tarkibiga ega. Turmalin yaltiroq va qattiq tosh.

Axroit rangsiz, turlicha turmalindan iborat och yashil rangdagi tosh. Axroit aralash, pona va pag'ana shakli qirralanadi.

Sirkoniy granata guruxiga kiruvchi tosh. Sirkoniyni tarkibi sirkoniy va kremniy oksiddan iborat. Sirkoniy so'zi «oltinrang» ma'nosini anglatadi. U yaltiroq tiniq tosh. Zargarlikda ko'k xamda yashil sirkoniy ishlatiladi.

Topaz granata guruxiga kiruvchi tosh. U birinchi marta Qizil dengizning topaz orolidan topilgan. Topaz rangsiz sarg'ish, somonsimon oqish rangda, oynasimon yaltiroq bo'ladi. Topaz aralash, brilliant va pog'ana shaklida qirralanadi. U oltin va kumushdan yasalgan zargarlik buyumlariga qo'yiladi.

4. Rangli toshlar

Rangli toshlarga Brazilya yoquti, yashma, agat, feruza, nefrit va malaxit kabi toshlar kiradi. Brazilya yoquti rangli toshlar sinfiga kirib, pushti rangda tovlanuvchi yaltiroq tosh. Brazilya yoqutining zichligi 2,6 g/sm³; Moss bo'yicha qattiqligi 6,7. Brazilya yoquti kabashon usulida qirralanadi. Agat rangli toshlar chinifiga mansub, qatlamsimon bo'ladi. U turli rangda bo'lib, ajoyib rasm xosil qiladi.

Agat toshining zichligi 2,6 g/sm³; Moss bo'yicha qattiqligi 6,5-6,7. Agat kabashon va yapasqi dumaloq shaklda qirralanadi. Yashina rangli toshlar sinfiga kirib, qizil, qo'ng'ir, jigarrang, mustaxkam tosh.

Yashina toshining zichligi 2,55-2,56 g/sm³; Moss bo'yicha qattiqligi 6,5-6,7; sinish ko'rsatkichi-1,66.

Feruza rangli toshlar sinfiga munsub ko'kimtir tosh. U kimyoviy turg'un emas. Xavo va kislotalar ta'sirida rangi o'zgaradi. Feruza mo'rt shaffof emas. Feruza toshning zichligi 2,6-2,8 g/sm³; Moss bo'yicha qattiqligi 3,4.

U kabashon usulida qirralanadi. Feruza oltin va kumushdan yasalgan buyumlarga ko'z sifatida qo'yiladi. Feruza vaqt o'tishi bilan o'zining tabiiy rangini o'zgartiradi.

Nefritning tarkibi kaltsiy, magniy va temir sulfatidan iborat. U shaffof emas, lekin juda mustaxkam tosh.

Nefritning zichligi 3 g/sm³; Moss bo'yicha qattiqligi 5-7,5. Nefrit kabatosh va yapasqi dumaloq shaklda qirralanadi. U asosan kumushdan yasalgan zargarlik buyumlariga qo'yiladi. Ba'zan oltindan yasalgan buyumlarga xam o'rnatiladi. U o'tsimon, yashil, sarg'ish, oq, to'q yashil rangli yaltiroq tosh. U turlicha tovlanadi.

Malaxitning tarkibi mis oksididan tashkil topgan. Malaxitning zichligi 3,6 g/sm³; Moss bo'yicha qattiqligi 3-4,5. Malaxit yaltiroq emas, ammo jilvalanadi. U yashil rangli, mustaxkamligi past tosh. Malaxit kabatosh va yapasqi dumaloq shaklda qirralanadi. Oltingugurt kistosida eriydi. Oltin va kumushdan yasalgan zargarlik buyumlarida kam miqdorda ko'z siftida ishlatiladi. Kamroq marjon siftida taqaladi.

5. Organik toshlar

Bu toshlar qattiq bo'lmagan organik jismlardan iborat bo'lgani uchun qattiqligi yuqori emas. Organik toshlar sinfiga kaxrabo sharjon, gagar kiradi.

Kaxraboning tarkibi qum, daraxt parchalari, bargi, gul yaproqchalari xamda xashorat yaproqlaridan iborat bo'ladi. Kaxrabo shaffof, mo'rt tosh. U kimyoviy turg'un emas, 300°C da eriydi.

Karaboning zichligi $1,1 \text{ g/sm}^3$; Moss bo'yicha qattiqligi 2-3.

Marjon – tarkibi daraxtsimon tuzilishiga ega bo'lgan temir oksididan iborat organik jism. Oq, qizil, pushti ayrim xollarda qorasi xam uchrab turadi.

Marjonning zichligi $2,5 \text{ g/sm}^3$; Moss bo'yicha qattiqligi 3-4.

Marjon kaxrabo qaraganda mustaxkamroq, lekin shaffof emas.

6. Sun'iy toshlar

Zargarlikda ishlatiladigan sun'iy toshlar 4 turga bo'linadi:

- Sun'iy korund.
- O'stiriladigan toshlar.
- Qimmatbaxo va o'rtacha qiymatli tosh rangini beruvchi toshlar.
- Oyna yoki plastmassa rangini beruvchi toshlar.

Sun'iy korund ishlab chiqarish uchun toza aluminiy oksididan foydalaniladi. Kerakli rangga bo'yovchi modda qo'shib xosil qilinadi.

Sun'iy yoqud rang olish uchun xrom oksidi, xavorang sapfir rangini olish uchun titan va temir oksidi qo'shiladi. Sun'iy kround yaxshi fizik va kimyoviy xossalarga ega. Yuqori darajada shaffof va xaroratga turg'un. Oddiy kislota va ishqorlarga nisbatan turg'un.

Sun'iy kroundning zichligi $3,98-3,99 \text{ g/sm}^3$; Moss bo'yicha qattiqligi 9; sinish ko'rsatkichi 1,76-1,77.

3.7. Zargarlik toshlarining xossalari va turkumlanishi

Tabiatda uchraydigan toshlarning juda ko'pchiligi e'tiborga loyiqdir, chunki xar birining o'ziga yarasha rangi, tovlanishi va jilosi bor, lekin ularning kamdan-kami qimmatbaxo hisoblanadi. Toshlarning qimmatbaxoligi bir necha shartlar bo'yicha aniqlanadi. Bularga; qattiklik, tovlanishi, kimyovii bardoshligi, tiniqligi shafofligi, yarqirashi, nurni sindira olishi va qirralanishi hisoblanadi.

Toshning qattiqligi, tashqi mexanik kuchlarga (kirilish, arralanish) chidamlilik xususiyati hisoblanib, toshning nodirligini belgilashda katta o'rin tutadi. Toshning qattiqligini aniqlash uchun, asosan Mos shkalasidan qo'llaniladi. Bu shkalada minerallar, qattiqligi o'sib boruvchi tartibda joylashtirilgan va bu to'g'risida tushuncha xosil etish maqsadida, ba'zi metallar va minerallarning qattiqligi quyida solishtiriladi:

1. Talk-qattikligi grafit va qo'rg'oshin qattiqligiga o'xshash.
2. Tuz tosh-qattiqligi gips, timoq, oltin, qalay va alyumin kattikligiga uxshash.
3. Kaltsiy-kattikligi mis, kumush, surma qattiqligiga o'xshash.
4. Plavikli shpat-qattiqligi platina, ruk, temir, fosforli bronza qattiqligiga o'xshash.
5. Appatit-qattiqligi shisha, nikel, palladiy qattiqligiga o'xshash.

6. Dala shpati-qattiqligi iridiy, toblangan kam utlerodli po`lat qattiqligiga o`xshash.

7. Kvarts-qattiqligi toblangan asbobsozlik pulati (egov), osmiy qattiqligiga o`xshash.

8. Topaz-qattiqligi berilliy, tsirkoniy qattiqligiga o`xshash.

9. Korund.

10. Olmos.

Toshlarning rangi minerallarni aniqlashda asosiy belgilardan biri xisoblanadi va toshni baxolashda katta o`rin tutadi. Toshni o`rganuvchi albatta rangni, soyani, tuslanishni va rangni taqsimlanish farqiga borishi shart. Minerallarning ranglanishi ikki guruxga bo`linadi. Birinchi toifadagi minerallarning rangi o`zgarmas bo`lib, uning rangi qo`shimchalarga emas, balki kimyovii tarkibiga bog`liq bo`ladi. Bularga yaltiroq bo`lmagan toshlar-lazurit, gematit, malaxit va boshqalar kiradi. Ikkinchi toifadagi minerallar kimyovii birikmadagi rang beruvchi element xisobiga ranglanadi. Bular toifasiga: xrom, titan, vannadiy, temir, kobalt, marganets, nikel, mis va shu kabi elementlar kiradi. Zargarchilikda qo`llaniladigan ko`pgina toshlar ikkinchi toifaga taalluqli xisoblanadi. Bunga turmalin toshini misol keltirsa bo`ladi, chunki tarkibidagi rang beruvchining xisobiga, u turlicha tovlanishi mumkin.

Qimmatbaho toshlar bilan shug`ullanuvchi va u xaqida ma`lumotga ega bo`lishni xoxlovchi inson albatta quyidagi sifat ko`rsatkichlarini bilishi darkor: murtlik-mexanik ta`sir natijasida toshning uvalanishi; kimyovii bardoshlik-kislota va ishqorlarga xamda yuqori xaroratga bardoshlilik; zichlik-toshning asosiy ko`rsatkichlaridan biri; nuqsonlik-toshning tarkibida darz, begona ko`shimchalar, rovaqchalar va shu kabi nuqsonlar bo`lishi. qimmatbaxo toshning narxini aniklashda nuqsonlik ko`rsatkichi katta o`rin tutadi va fi-zikaviy xossalarga bog`liq bo`ladi.

Tinikligi va shaffofligi-mineralni yoruglik o`tka-zuvchanlik xususiyati. Bu ko`rsatkich bo`yicha minerallar ti-niq, yarim tiniq (yorurlik o`tuvchi) va yoruglik o`tkazmaydi-ganlarga turkumlanadi. 51ltirok (samotsvet) toshlarning ti-niqligiga karab, ular qirralanadi va baxolanadi.

Nurni sindira oluvchanlik xususiyati yorurlikning kristall jismga kirishi va qaytib chikish tezligi bo`yicha anio`lanadi. Toshning yaltiroqligi shu ko`rsatkichga borliqdir. Yaltiroqlik xususiyatiga qarab minerallar shishasimon, olmossi-mon va yarimmetallsimon yaltiroqlar xisoblanadi. Jismlar-ning yaltiroqligini kuiidagi ko`rsatkichlar bo`yicha solishti-rish kulay: Shisha 1,3-1,9; olmos 1,9-2,6; yarimmetall 2,6-3,0.

Tushayotgan nurni sindirish va optik xususiyatlarini inobatga olgan xolda tosh qirralangan bo`lsa, unda ranglar-ning o`ynashini va tovlanishini kuzatish mumkin. Qirralangan toshlar, kup qirrali-vavariq ko`rinishda va turli

3.8. Zargarlik maqsulotlarini ishlab chiqarish turlari.

Xozirgi kunda zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarish asrsan to`rt yo`nalish bo`yicha olib borilmokda: yakka tartibda; seriyali tartibda; quymakorlik usuli bilan; filigran texnikasini qo`llab.

Yakka tartibda ishlab chiqarish-bu jarayonda deyarli xamma ishlar-metallni eritib olishdan mahsulotga yakuniy pardoqlash berishgacha (agarda tosh o'rnatish lozim bo'lsa, toshlarni o'rnatish), xammasi qulda bajariladi. yakka tartibda mahsulot ishlab chiqaruvchi zargar mahsulotning surati, rasmi, namunasi, chizmasi, yozma yoki orzaki tushuntirilishi; toshning o'lchamlari va mahsulotning bo'lajak og'irligi xaqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, ularga tayangan xolda uni tayyorlaydi. Zaruriy ma'lumotlar turkumiga o'rnatiladigan toshning o'lchamlari, qo'llanadigan metallning sifati va miqdori, uzukning ichki diametr o'lchami kiradi. yakka tartibda mahsulot ishlab chiqarish boshqa ishlab chiqarish turlarining asosini tashkil etadi, chunki seriyali va quyma mahsulotlar ishlab chikarishda, namuna sifatida, yakka tartibda ishlab chiqarilgan mahsulot qo'llaniladi.

Seriyali ishlab chiqarishda-ish unumi yuqori va mahsulotning tannarxi arzon bo'ladi. Ishlab chiqarishning bu turida mahsulotlar asosan shtamplash yo'li bilan tayyorlanadi. Seriyali ishlab chiqarish qo'llaniladigan toshlar mahsulot ko'zxonalarning o'lcham va shakllariga moslab tanlanadi. Agarda toshlar standart o'lchamlarga va shaklga ega bo'lsa, ular uchun ko'zxonalar va boshqa detallar standart o'lchovlar bo'yicha tayyorlanadi. Bunday mahsulotlar xamma istemolchilarning talabini qondirish maqsadida juda katta miqdorda ishlab chiqariladi.

Badiiy quymakorlik yo'li bilan ishlab chiqarish. Yakka tartibda tayyorlanadigan murakkab va badiiy mahsulotlar filigran ishlar, ko'p miqdorda quymakorlik yo'li bilan ishlab chiqariladi. Quymakorlik yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarish qo'l mexnatini engillashtiradi, ish unumini oshiradi va qimmatbaxo metallning yo'kolish darajasini kamaytiradi. Bu usul bilan mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan materialning quymakorlik xossalari yukori bo'lishi shart.


Filigran maxsulotlar qo'l yordamida tayorlanadi, xom-ashyo sifatida turli kesim yuzaga va kurinishga ega bo'lgan simlar qo'llaniladi. Kesib olingan sim (sillik, buralgan, dumaloq yoki yassi) bo'laklaridan qo'lda va moslamalar yordamida turli shakllar yasali yiriladi va kavsharlanadi.

Mo'ljallangan, keng tarqalgan taqinchoq. Quloqning ostki qismida hosil etilgai teshikchaga osilib taqiladi. Ziraklar xam, uzuklar singari

3.9. Zargarlik mahsulotlarining ba'zi detallarini tayyorlash texnologiyasi


1. Ziraklarni tayyorlash.

Yuqorida qayd etilgandek, ziraklarga quyiladigan talablarning eng muximi ularning juftligi va quloqqa osib yurishga moslanganligi xisoblanadi.



175-rasm. Ilgakli ziraklar:
a-erkin ilgakli, b-kulfli ilgak, v-qulf sirtmogi.

Ziraklarning old tomoni, ya`ni ko`zxona yoki bezak qismi boshqa zargarlik taqinchoqlari bilan bir xil bo`ladi. Maxsulotning zirakligini zirak kurilmalari, ya`ni uning qulflari bildiradi. Zirak qurilmalari asosan uch xil buladi: vintli, osilchoq ilgakli (175-rasm) va prujina qulfli.



175-rasm. Prujina qulfli zirak: a-k;ulf berk xolatda, b-qulf ochiq holatda.

Osilchoq ilgaklarining tayyorlanishi xamda ishlatilishi ancha qulay. Ular uzunligi va qulflanish turi buyicha farqlanadi.

Ilgaklarni tayyorlash uchun 1,0-1,2 millimetrli simlardan foydalaniladi. Xomakining uzunligi ustaning chamasi bo`yicha aniqlanadi, chunki uni aniqlash uchun biron

formula mavjud emas. Lekin, ilgakni bukish diametri o`rtacha 8 mm oralig`ida bo`lishini inobatga olsak, u xolda uning uzunligini 25 mm-4-7, formula yordamida aniqlash mumkin; bu erda l_s -zirakning bezak qismining uzunligi.

Ilgak uchun zirakning ko`zxonasi yoki bezak qismini inobatga olgan xolda turri sim kesib olinadi. Zirakning ostki qovurg`asiga ilgak siminint diametri bo`yicha parmalab yoki boshyoa usul bilan teshik ochilib, unga sim o`tkaziladi va kavsharlanadi. Agarda qovurg`aning balandligi yukori bo`lmasa yoki teshik ochish imkoniyati bo`lmasa, u xolda ilgak o`rnatiladigan yuzada ariqcha xosil etiladi va shu ariqchaga sim kavsharlanadi. Kavsharlangan yuzaga ishlov beriladi va ilgak qulfsiz bo`lsa, sim ilgak ko`rinishida bukiladi. Bunday ziraklarni donalab ish-lab

chiqarishda ilgakni bukish uchun 8 millimetrli uzak kullaniladi. Zirak juftlikdaridagi ilgaklarning bukilgan xolati aynan qaytarilishi shart. Seriyali ishlab chiqarishlarda esa ilgaklarni bukish uchun maxsus bukuvchi moslama kullaniladi.

Agarda ilgakli zirakning qulfi bo'lishi lozim bo'lsa, u xolda simni bukishdan avval qulf sirtmog'i kavsharlanadi. Qulf sirtmog'i ikki detaldan tashkil topadi: sharnir xamda unga kiritilgan simli sirtmoq. sharnirning ichki diametri 0,6-0,8 mm, uzunligi 2,5-3,0 mm oralig'ida bo'lib, ilgak simining kavsharlangan yuzasini qarama-qarshi tomoniga kavsharlanadi. Sirtmok uchun sim, sharnirning ichki diametriga mo'ljallab, erkin xarakatlanadigan darajada tayyorlanib, uzunligini 12-14 mm kesiladi, sharnirga kiritilib uchlari uchburchak xolatda bukiladi va birlashtirilib kavsharlanadi. Qulf sirtmog'i yig'ib bo'lingandan so'ng ilgak bukiladi va uning uzunligi sirtmoqqa sozlanadi. Ziraklarni shaberlash ilgak va qulf detallariga ishlov berilgandan so'ng bajariladi.

Prujinali qulflarning ishonchliligi ancha yuqori bo'lsada, ularning tuzilishi va tayyorlanishi nisbatan murakkabdir. Ular zirakning orqa tomoniga o'rnatiladi va ikki asosiy qismdan tashkil topadi: prujinali ilgak va shvenza (175-rasm). Shvenzalar bayrokchaga urnatilishi bo'yicha bir yulakli va ikki yulakli bulishi mumkin. hozirgi kunda asosan ikki yulakli o'rnatuvchi qurilmalar keng qo'llaniladi. Ziraklarning qulflarini ikkala qismi mustaqil tayyorlanadi. Prujinali ilgak qismini zirakning shakli va o'lchamlariga moslab bukiladi. Asosan aylana yoki tirsakli bukish keng qo'llaniladi.

Prujinali ilgak 1,0-1,2 mm simdan tayyorlanib, zirakning ko'zxonasi yoki bezak qismiga kerakli uzunlikda xuddi ilgakli zirakka kavsharlangandek kavsharlanadi. Bukish tirsak balandligi (zirakdan tirsakkacha bo'lgan masofa, odatda 2-10 mm oralig'ida) yoki ey diametri bo'yicha olib boriladi. Agarda tirsak o'tkir qirrali bo'lishi lozim bo'lsa, simning bukish ichkarisida egov bilan ariqcha xosil etiladi va bukilgandan so'ng u kavsharlanadi. Tirsakning shakliga karab bukishda ombir, dumaloq labli ombir xamda maxsus bukuvchi moslamalar qo'llaniladi. Har bir xolatda xam umumiy buki-lish burchagi 90° ni tashkil etishi zarur. Ilgakning umumiy uzunligi taxminan 10 millimetрни tashkil etadi. Ilgakning uch qismi bolg'alanib, sim yassilanadi va ilgakning tirsakdan keyingi uzunligi (7,5-8,0 mm) belgilanadi. Belgilangan yuzada ilashish ariqchasi ochilib, unga ishlov beriladi.

Qulf teshigi **Ortsa** dum qismi O'rnatish tumshug'i



176-rasm. Bir yulakli (a) va ikki yo'lakli (b) shvenzalar.

Zirakning murakkab detallaridan biri shvenza xisoblanadi (176-rasm). Uning balandligi zirakning o'lchamlari xamda ilgakning tuzilishi bo'yicha aniqlanadi. shvenzaga xomaki sifatida tomonlari 2,0-2,5 millimetrli va uzunligi mo'ljalga mos keladigan prokatlangan turtburchak qullaniladi. Odatda shvenzalar juft xolatda tayyorlanadi (176-rasm) va shunga mo'ljallab xomaki tanlanadi, shvenza ikki qismdan tashkil topadi: kuzg'alish shtiftini o'rnatish, tumshuq qismi va orqa dum qismi. Tumshuq qismi uning boshqa qismlaridan qalinrok bo'lib, shvenzaning asosi bo'lib xizmat qiladi. Dum qismi ingichkalashib boradi va ilgakka ilish darchasi bilan jixozlangan bo'ladi. shu sababli xomakida tumshuq bo'lagi uchun uzrlilik (taxminan 20 mm) belgilanib, qolgan qismi yasen juvalarda 1,0-1,2 mm qalinlikkacha prokatlanadi. So'ngra umumiy xomaki ikki shvenza uchun o'rtasidan kesiladi.

Shvenzaning bukilish burchagi zirakning bezak kismi shakliga mos tushishi va ko'zxona yoki qovurganing shaklini davomi ko'rinishida bo'lishi kerak. Bukilgan shvenza xomaqisi o'rnatilishi lozim bo'lgan yuzaga qo'yilib sozlanadi, chunki yig'ilgan xolatda zirakning ostki qovurg'asi yoki asosiy qismi bilan shvenzaning dum qismi parallel joylashishi shart. shvenzaning shtiftlab ulanadigan tumshuq qismidagi yo'lak ariqcha lobzik yordamida ochiladi. Lobzikda kesish detalning o'rtasida bajarilishi va ikki tomondan hosil bo'ladigan yo'laklarning qalinligi bir hil bo'lishi kerak. Ariqchaning chuqurligi shvenzaning dum qismiga o'tishi shart emas.

Yo'laklarning qalinligi 0,5-0,6 mm qalinlikda qoldirilib, ariqchaning quyi qismi ma'lum nishablikda tayyorlanadi va yupqa juvalangan xomakiga mo'ljallanadi. Bu yupqa juvalangan xomaki shvenzani zirakka o'rnatiladigan qismiga ariqcha ochilib kavsharlanadi va bayroqcha deb ataladi. Bayroqchaga shvenza moslanib o'tkaziladi (ularning oralig'ida xech qanday darcha qolishi mumkin emas), shtiftlash uchun teshik ochiladi va shtiftlanadi. So'ngra shvenzaga ishlov beriladi: tug'irlanadi, egovlanadi va shaberlanadi.

Shvenzaga qulf teshigi prujinali ilgak balandligi bo'yicha aniqlanib, maxsus moslama yordamida ochiladi. shvenza ilgakka ilinib, agarda lozim bo'lsa sozlanadi, extiyot darajada qoldirilgan yuzalarga yakuniy ishlov beriladi.

Korxonalarda ish unumini oshirish va qimmatbaxo metallning yo'qolishini kamaytirish maqsadida xomaki tayyorlash bo'limlarida turli o'lchamdagi, uzunlikdagi, bukilgan va ariqchalar xosil etilgan shvenzalar tayyorlangan bo'ladi. Zargar qimmatli vaqtini quyma yoki juvalangan xomakidan shvenza tayyorlashga sarflamay, YIRISH ishlari bilan band bo'ladi.


Ikki yo'lakli shvenza (176-rasm,b) tashqi ko'rinishi bilan bir yo'lakli shvenzaga o'xshasada, lekin asos qismining bakuvvatligi va ariqchasining chuqurligi bo'yicha farq kiladi. Agarda bir yo'lakli shvenza ochilganda butinlar oralig'i sinish ko'rinishida bo'lsa, ikki yo'lakli shvenzaning ochilishi butun detal bo'yicha borib, tasavvur boshqa ko'rinishda namoyon bo'ladi. Korxonalarda bunday shvenzalar shtamplash usulida tayyorlanadi, ariqcha frezerlash usuli bilan ochiladi. Shvenza o'rnatish uchun zirakka arikqa ochiladi va u erga bayroqcha o'rnatiladi. shvenza ariqchasining chuqurligi va bayroqchaning balandligi

moslanib, shtiftlash uchun teshikcha ochiladi, shtiftlanadi.

Bunday shvenzalar zirakning prujinali ilgagiga moslab qulflanadi. shvenza elementlarini zirak elementlariga moslashtirish qulf berklik xolatida amalga oshiriladi. Ziraklarga yakuniy ishlov shaberlash va mayda qumqog'oz bilan ishlov berishdan iborat.

2. To'g'nog'ich va kulonlarni tayyorlash

To'g'nog'ichlarning turi ko'p bo'lishidan qat'iy nazar ular asosan ikki qismdan tashkil topadi-yuza va tug'nash qismi (177-rasm). Tug'nog'ichning yuza qismi ko'zxona yoki ko'zxonalardan biron tasvirni xosil etib, boshqa taqinchoqlarning bezak qismiga o'xshash bo'ladi. Ular ko'p xollarda yirma: shox, qo'sh, xayvon, xashorat ko'rinishida tayyorlanadi, ostki qovug'a bo'lmaydi. Tug'nash qismi tug'nash ignasidan, biriktirish sharniridan va qulflash burinidan tashkil topadi. qulflash burini ochiq yoki saqlagichli-yopiq ko'rinishda bo'lishi mumkin.



177-rasm. To'g'nog'ich (yuza va to'g'nash qismlari):

1-tosh; 2-ko'zxona; 3-bezak qismi; 4-ostki qovurg'a; 5-saqlagichli qulf; 6-tutnash qismi; 7-to'g'nog'ich sharniri.


Tug'nash ignasining shakli va o'lchamlari tunog'ichning shakli va o'lchamlariga bog'liq bo'ladi. Odatda to'g'nash ignalari to'g'nog'ichning butun uzunligi bo'yicha joylashadi, bu to'g'nog'ichning qulay joylashishini ta'minlaydi. Agarda to'g'nog'ich naqshinkor bo'lib, orqa tomoni ko'rinib turishi lozim bo'lsa, uning to'g'nash qurilmasi imkon boricha yashiringan xolatda tayyorlanadi.

Igna sharnirga o'rnatiladi, buning uchun ko'p xollarda ichki diametri 0,6-0,8 mm bo'lgan naycha qo'llaniladi. sharnirning umumiy uzunligini 6-10 mm kenglikda tanlanadi. sharnir to'g'nash ignasini o'rnatish qismiga perpendikulyar ko'rinishda, to'g'nog'ichning orqa qismiga kavsharlab o'rnatiladi. sharnirning o'rta qismidagi igna o'rnatiladigan qism belgilanadi va sharnir kavsharlanadi. Ignasifatida 1,2 millimetrli sim qo'llaniladi. Ignasima'malum masofagacha turnog'ichga yaqinlashishi uchun saqlagich bilan o'rnatiladi. Ignas o'rnatilgan sharnirning o'rtasidan qo'zg'aluvchi qismi belgilanib kesib olinadi. sharnirga moslangan uzak shtift vazifasini bajaradi. Yirilgan holatda ignaning ochilish burchagi 90° oraliq'ida bo'lishi kerak.

Kulonlar. Kulonning osilchoq qismi faqatgina birgina toshdan, ko'zxonadan, biron elementdan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Uning osilchoqlarini tayyorlash jarayoni boshqa taqinchoqlar tayyorlash jarayonidan

farq qilmaydi. Kulonlar ikki; osilchoq va zanjirga osiladigan qismdan (178-rasm) tashkil topgan. Kulonning zanjirga osilish bugini oddiy (simdan) yoki murakkab naqshinkor, toshli, gravirovkalangan bo'lishi mumkin.

Osilchoqni zanjirga osilib turish xolati uning og'irlik markazi bo'yicha yo'naladi. Osilish butini o'rnatilayotganda shuni inobatga olish shart, chunki ba'zi osilchoqlarning noto'g'ri o'rnatilganligi oqibatida tosh yoki uning yuza qismining og'irligi xisobiga kulonning bezak qismi tunkarilib qolishi xollari kuzatiladi.



178-rasm. Kulon

Burinlarni bir-biri bilan biriktirish xalqalari 0,8-1,2 mm diametrda simlardan tayyorlanadi va ularning ichki diametri 1,0-2,0 mm oralig'ida bo'ladi. Ba'zan esa osilchoqning o'ziga xalqacha kavsharlanib o'rnatilishi xam mumkin.

Oddiy osilish xalqalari dumaloq yoki oval ko'rinishida bo'lishi mumkin. Bularni tayyorlashda dumaloq yoki turtburchak kesim yuzaga ega simlardan foydalaniladi. Oval osilish xalqalarining o'lchami 7/4 mm atrofida tayyorlanadi. Xalqalar tayyorlanib o'rnatiladi va uchlari kavsharlanadi.

Murakkab shaklga ega kulonlarning avval yuza qismi tayirlanadi va unga xamma ishlovlar beriladi (gravirovka va tosh o'rnatishdan tashqari), sung osilish xalqasi kavsharlanadi. halqaning shakli kulonga moslab bukiladi, chunki kulon zanjirda bemalol xarakatlanishi zarur. So'ngra kulonga yakuniy ishlovlar beriladi.

3.10. Qo'zg'aluvchan birikmalarni va ularning qulflarini tayyorlash.

Zanjir, qo'l tasmasi, zirak va kulonlarning ba'zi detallari bir-biri bilan qo'zg'aluvchan biriktirilishi lozim. Qo'zg'aluvchan birikmalarning bir qancha turlari mavjudligidan qat'iy nazar ularni asosan bir necha turga bo'lish mumkin.

Qashtali birikmalar. Bunday birikmalarni biriktirish, yonma-yon joylashgan xalqalarning o'zaro ilashishi orqali erishiladi. 179-rasmda oddiy xalqali birikmalar keltirilgan. Xalqa birikmalarining mustaxkamligini oshirish maqsadida ularning choklari biroz nishab tayyorlanib, xalqalar bir-biriga nisbatan perpendikulyar yirilib kavsharlanadi.

Tanlab olingan tasvir xam yuza singari yaltiroq va xatosiz shtrixlangan bo`lishi lozim. yaltiroq yuzani gravirovkalashda, asosan fasetten shtixeldan foydalaniladi. U bilan turli kengliklarga ega bo`lgan chiziqlarni bajarish mumkin. shtixelni tug`ri, xech tomonga bukmasdan ushlanganda, ingichka chiziq chiziladi, chiziqni kengligini oshirish uchun, shtixel bir tomonga bukilishi darkor. shtixelning yon tomonga nishabligi ortgan sari, ariqchaning kengligi ortib boradi. yaltiroq yuzadagi chiziqni chizib bo`lguncha, metall dan shtixel ko`tarilmaydi, aks xolda chiziqni davom ettirish uchun boshlangan nuqtada pog`ona xosil bo`lishi mumkin. Tasvirlarni bezatish uchun, fasetten shtixeldan tashqari, boshqa shtixelar xam ishtirok etadi: shpits-shtixel-yuza tasvirini uyg`unlashtirish maqsadida ba`zi cho`qqilar pasaytiriladi; messershtixel-tasvirdagi shtrixlangan yuzalarni xosil etishda va shu kabi. yaltiroq yuzalarni gravirovkalaydigan shtixelar albatta ilolangan bo`lishi shart. 175-rasmda gravirovkalangan yuza keltirilgan.



179-rasm. Gravirovkalangan yuza.

Qoraytirilgap yuzada gravirovkalash-gravirovkalangan yuza qoraytiriladi. yaltiroq yuzaga nisbatan, bu xolatda gravirovkalash, qoralangan ma`lum g`adir-budirlikdagi yuzada bajariladi. Qoraytiriladigan yuzani gravirovkalash tasvirni shpits-shtixel yordamida chizib chiqishdan boshlanadi va so`ngra chiziqlar chuqurlashtiriladi. Kichik shtrixlar bilan gravirovkalab, so`ngra kesib to`g`irlanadi. qoraytirilmay, yaraqlashi kerak bo`lgan yuzalar esa yaxshilab jilolanib, gravirovkalash vaqtida chiziqlar yoki izlar xosil bo`lishidan saqlanadi,

1. Pardozlash ishlari texnologiyasi


Jilvirlash xamda jilolash metallarni yo`nib ishlash usullari turkumiga kiradi. Bu usullarni qo`llashdan maqsad xomakini biron-bir shaklga keltirish bo`lmay, balki tayyor maxsulotning yuzasini tozaligi va anqlishni ta`minlashdan iborat.

Jilvirlashning asosiy vazifasi yuzaning silliqqligini oshirish, shaklni o`zgarish esa jarayonda ikkinchi o`rinda turadi.

Jilolab-tekislangan xira yuza, o`tkir yaltiroq xolatga keltiriladi. Jilvirlash va jilolash oralig`ida keskin chegara bo`lmaydi, ikkala jarayon xam bir xil masalani xal etadi va ularning vazifasi bir-biriga juda yaqin.

Jilvirlash jarayonida yuzani yo`nuvchi asbob vazifasini abraziv element

bajaradi. Abraziv elementlar (kvarts, kurund, karborunt, sun'iy yoki tabiiy olmos va shu kabilar) biron bog'lovchi bilan biriktirilib, turli ko'rinishlarda (jilvirlash doiralari, brusoklari, qog'ozlari, gardishlari va shu kabi) tayyorlangan bo'lib, mahsulotning yuza qatlamidagi g'adir-budirlarni yo'qotib, kerakli bo'lgan yuza tekisligini xosil etish uchun ko'llaniladi. Bu elementlar juda qattiq va o'z navbatida mo'rt bo'ladi. Jilvirlash jarayoni 180-rasmda ko'rsatilgan.



180-rasm. Jilvirlash jarayoniing ko'rinishi.

Jilvirlanayotgan material jilvirlash asbobiga ma'lum bosim ostida yaqinlantirganda, donalarning o'tkir qirralari xuddi frezaning tirlari singari unga ta'sir etadi va yuzadan qirindi ajrab chiqadi. Ajralib chiqayotgan qirindining o'lchamlari va yuzani kesish chuqurligi asbob donalarining o'lchamlariga bog'lik bo'ladi. Donachalarning borlovchidan chiqib turgan xajmi turlicha bo'lganligi sababli, qirindilarning o'lchamlari turlicha bo'ladi.

Egovlash jarayoni singari bu jarayonda xam ajralib chiqqan qirindilar asbobning rovaklariga kirib qoladi, Jilvirlanayotgan material qanchalik yumshoq bo'lsa, kirib qolish extimoli shunchalik yuqori.

Yuqorida qayd etilganidek, donalarning mo'rtligi, ularning o'tkir qirralarini parchalanishiga va maydalanishiga olib keladi. Buning natijasida donaning butunlay tushib ketishi, uning o'rniga yangi donaning jarayonda ishtiroki boshlanadi. Donalarni shunday almashib turgan xolatidagina, jilvirlash me'yorida davom etadi. Aks xolda, donalar edirilib aylana ko'rinishiga kelishiga yoki bog'lovchi o'z vazifasini to'liq bajarmasa, donalar jilvirlashda ishtirok etmay asbobdan ajralib chiqishiga va jarayonning to'liq bormay, aylananing tez yoyilishiga sababchi bo'lishi mumkin. Asbobning ishlash muldati, o'z navbatida, Jilvirlanayotgan mahsulotning materialiga xam bog'liq bo'ladi, ya'ni yumshoq material abraziv rovaqlariga kirib qolsa, qattiq va mo'rt material asbob donalarining emirilishini kuchaytiradi.

Jilvirlash jarayonida yuzadan qirindi ajralib chiqshi kuzatilsa, jilolash jarayonida bosim ostida kuch ta'sir etishi bilan yuza silliqanadi, bu jarayonni pulax jilolovchining ishlashida yaqqol kuzatish mumkin.

Jilvirlash asbobining donalari o'kir qirrali bo'lsa jilolash ylanasining donalarida o'tkir qirralar kuzatilmaydi, xatto bir necha marotaba kattalashtirib kuzatilgan vaqtda xam ular silliq yoki aylanasimon ko'rinishda bo'ladi. Jilolash aylanasiga jilolash moddasini surtilib, unga bosim ostida jilolanayotgan jism yaqinlashtirsa, jismning to'qnashgan yuzasida xarorat kutariladi va buning na-

tijasida qatlamni chuziluvchanligi va plastikligi oshadi. Bu g'adirdirliklarning ezilishiga, edirilishiga, balandliklarning esa surilib qushni chukurliklarni tuldirishiga olib keladi. Jilolashda yuza qatlamning xarorati, metallning erish darajasigacha kutarilmasada, u erdagi kuchlanish uning oquvchanlik chegarasiga etadi va jilolanayotgan qatlamdan mayda qirindilar xam ajralib chikishi mumkin.

Jilvirlash va jilolash dastgoxlari. Bunday dastgoxlarning aylanish uxi ikki tomonga uzaytirilgan bo'ladi. Valning uzaytirilgan qismi konussimon yoki aylana ko'rinishda bo'lib, disklarni o'rnatish uchun rezba yo'nilgan va tayanch gardishdan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Jilolash aylanalarini qotirish uchun ikki diskdan (gayka bilan rezbada kotiriladi) yoki konussimon o'qdan foydalaniladi.

Xozirgi kundada o'zgaruvchan elektr tokida ishlovchi elek-trodvigatellardan keng foydalaniladi. Ularning quvvati 0,25 kVt dan kam bo'lmasligi kerak. Jilolashni yaxshi tashkil etish maqsadida, dvigatellarning aylanish soni 2800-3000 ail/min, jez sim chutka aylanali asbobda jilolashda esa, 700-750 ail/min bo'lishi yaxshi natija beradi. Elektrodvigatellarga reostatlar o'rnatilgan bo'lsa, uning aylanalar sonini 3000 dan 1400 ail/min gacha o'zgartirish mumkin. Aylanishlar sonining kamayishi, uning quvvatini xam kamaytiradi, xatto ba'zi xolatlarda elektr odvigatelning to'xtab

qolishiga xam sababchi bo'ladi. 1quvvat va aylanishlar sonini bir me'yorda saqlash maqsadida, ularni reduktorlar bilan birgalikda ishlatiladi. Bu xolatda aylanalar sonining kamayishi quvvatining ortishiga olib keladi.

Jilvirlash materiallari. Jilvirlash materiallari sifatida: korund, elektrokorund, monokorund, kremniy karbidi va sh.u. kullaniladi. Yuqorida qayd etilgandek abraziv materiallarning asosiy ko'rsatkichlari materiallarning xili, donadorligi, borlovchilar turi, kattikligi va tuzilishi xisoblanadi.

Donadorlik deb abraziv materialning dona o'lchamlariga aytiladi. Davlat standarti bo'yicha ularning 26 xili mavjud. Yirik abrazivlar, 160-2000 mkm oralig'ida qbo'lib, shu ko'rsatkichlari bo'yicha nomerlanadi, ya'ni 16-200. O'rtacha yi-riklikdagi toshlar 28-125 mkm oralig'ida bo'lib, 3-12 oralig'idagi tartib nomeriga ega. Kichik o'lchamlilari esa 3-40 mkm oralig'ida bo'lib, M5-M40 oralig'ida belgilanadi. Yirik donador qayrok toshlar maxsulotta xomaki ishlov berishda qullanilsa, mayda donali qayrok toshlardan va qum qog'ozlardan yakuniy yoki toza ishlov berish uchun foydalaniladi.

Jilvirlash jarayoni. Jilvirlash qog'ozinig asosi zich va mustaxkam qog'oz yoki matodan tashkil topadi. Asos va abraziv kukuni oralig'ini bog'lovchi element sifatida teri yoki suyakdan tayyorlangan elim qo'llaniladi.


Jilvirlash qog'ozlarida jilvirlash uchun yog'och dasta yoki mayda donali egovchadan foydalaniladi. Qullaniladigan yogoch dastaning shakli xam egov shakliga o'xshab tayyorlanadi.

Agarda jilvirlash qog'ozi bilan yassi yuza jilvirlanadigan bo'lsa, u xolla qog'ozni tekis metall taglikka qo'yib, so'ngra shunday xolatda jilvirlash bajariladi. yassi yuzalarni dumaloq egov yoki barmoq yordamida jilvirlash natijasida mahsulot qirralari yo'qolib, aylana ko'rinishni egallashi mumkin. Jilvirlash qog'ozini egovga urab jilvirlash jarayonida kumkogozning yoyilishi

va yirtilishi mumkin, bunda egov maxsulotni jaroxatlash extimoli paydo bo`ladi. Lekin bunga qaramasdan ko`p xolatlarda, jilvirlash uchun egovchalardan foydalaniladi, chunki shunda ish unumi ancha yuqori bo`ladi.


Ba`zi xolatlarda zargarlar qo`lda jilvirlash uchun barmoq yoki kaftning yumshoq joyidan foydalanadilar. Buning uchun barmoqqa yoki kaftga jilvirlash pastasi surtilib yoki qumqog`oz o`ralib, jilvirlash bajariladi. Lekin barmoqni maxsulotlarning ichkari qismlariga etib borishi murakkab bo`lganligi xamda yassiqirrali yuzalarni jilvirlashda kirralarning yoyilish xavfi borlig`i sababli, turli moslamalardan foydalanish maslaxat beriladi. Jilvirlash va jilolash uskunalarini xarakatga keltirish imkoniyati bo`yicha ikki turga bo`linadi: jilvirlash yoki jilolash dastgoxlari va bukiluvchan uk orqali xarakatni uzatuvchi bormashina.

Jilolash. Kichik teshikchalarni va jilolash imkoniyati mushkul bo`lgan yuzalarni jilolash uchun yo`g`onrok paxta ipdan foydalaniladi. Ipning bir uchi maxkam borlanib, ipga jilolash pastasidan surtiladi va ip tarang tortilib (181-rasm) yuza jilolanadi. Teshikning o`lchamlariga qarab, bir yoki bir necha iplar yordamida jilolash bajariladi. Ko`p xollarda jilolash iplari plik to`qimalardan ajratib olinadi. Jilolanayotgan yuza jilolash ipiga botirilib, ilgari lanma-qaytma xarakat natijasida, jilolanadi. Agarda ipning tarangligi bo`shashadigan bo`lsa, bu jism qirralari-ning eyilishiga va aylana ko`rinishga olib kelishi mumkin.



181-rasm. Tortilgan ip bilan jilolash.

Mexanik jilolash uchun: jun aylanalar, uzuklarni jilolash barmoqlari, jez yoki sintetik tolalardan tayyorlangan chutkalar, turli matolardan tayyorlangan aylanalar va sh.u. (181-rasm) asboblari ko`llaniladi. Ularning yuza qatlamida jilolash pastasining saqlanishi va ishlatishda mustaxkam bo`lishi kerak. Jilolash asbobining shakli va materiali, ishlatish maqsadiga qarab tanlab olinadi.



a)

b)

182-rasm. Mexanik jilolash asboblari: a-sherstsimon; b-tukli;

Namatsimon matodan tayyorlangan aylana yordamida-Yasen, tekis va qavarik yuzalarda dastlabki jilolash bajariladi. Bu mustaxkam va yuqori sifatli jilolash asbobining qattikligi materialdagi sherst tolalarining o'lchamlariga borliq bo'ladi. Asbob aylanasi o'lchamlari tashqi diametrga sozlab tayyorlanadi. Bunday aylanalar dastgoxga o'rnatish teshigi yordamida qotiriladi.

Tukli. aylanalar (diskali)-murakkab, naqshkor va quyma yuzalarni jilolash uchun qo'llaniladi. Diskali chutkalar yog'och yoki plastmassa asosda tayyorlanib, shu asosga tuk tolalari maxkamlanadi. chutkaning elastikligi tolalarining o'lchamiga va kattikligiga borliq bo'ladi. Uning qattiqligini orttirish maqsadida tola uzunligi kamaytiriladi. Bu asbob xam dastgoxga markazidagi teshik yordamida qotiriladi.

Matoli aylana-maxsulotga yakuniy jilolash va sayqallash uchun qo'llaniladi, Bu asbob aylana ko'rinishdagi kesib olingan matolar to'plamini birgalikda tikilishi natijasida tayyorlanadi. Material sifatida paxtadan tayyorlangan turli materiallarni qo'llash yaxshi natija beradi. Kesib olingan disk materiallar yog'och asosga o'rnatila-di yoki birgalikda tikib tayyorlanadi. Materiallarning zichligi orttirilgan sari uning kattikligi xam ortib boradi. Matoli aylanalar juda keng qo'llaniladi, chunki bu asboblarda yordamida turli shakldagi maxsulotlarni, xoxlagan sayqalgacha jilolash mumkin.

Jeztukli chutka aylanalar-kuyma va murakkab mahsulot yuzalarini jilolash uchun qo'llaniladi. Jezdan tayyorlangan ingichka tolali simlar yog'och gardishga o'rnatilgan bo'ladi. Ko'p xolatlarda maxsulot yuzasida xira yaltiroq sayqal xosil etishda qo'llaniladi.

5armokli-uzuk va bilakuzuklarning ichki teshiklarini jilolash uchun ko'llaniladi. Matodan yoki sherstsimon materialdan tayyorlanib, dastgoxning konussimon o'chligiga o'rnatilib ishlatiladi.

Yuqorida qayd etilgan asboblarda dastgox yordamida jilolashda foydalaniladi. Nozik va mayda yuzalarni jilolash, bormashinaning bukiluvchan o'qiga o'rnatiladigan asboblarda (183-rasm) bajariladi.



183-rasm. Bormashinada qullanadigan jilolash asboblari.

Jilolash vaqtida aylanalar yuzasiga jilolash pastasidan (abraziv) surtiladi. Pastaning donadorligi jilolash bosqichiga (boshlang'ich yoki yakuniy) qarab tanlab olinadi, Jilolash pastalari mayda abraziv kukundan, yorliq bog'lovchidan va maxsus qo'shimchalardan tashkil topadi. Abrziv material xisobida: xrom oksidi, temir oksidi, kremniy oksidi va sh.u. qo'llaniladi. Bog'lovchilar sifatida esa: stearin, parafin, texnik yog, tsezarin, vosk, oksidlangan detrolatum qo'llaniladi. Maxsus qo'shimchalar: jilolash jarayonini jadallashtirish uchun-soda; qovushkoklikni o'zgartirish maqsadida-skipidar yoki kerosin qo'shiladi. Xrom oksidining asosli pastalari yashil rangga, temir oksidining asosli pastalari esa QIZG'ISH rangga ega

bo`ladi. Bu pastalarning tarkibi 30 va 31 jadvallarda keltirilgan.

30-jadval. Xrom asosli jilolash pastalari (GOI pastalari)

Qo`shimchalar	Miqdori, %		
	Dagal	Urta	Mayin
Xrom oksidi	81	76	74
Stearin	10	10	10
Singdirilgan yor	5	10	10
Kerosin	2	2	2
Alyuminligel	2	2	1,8
Olein kislotasi	-	-	2
Karbonat sodasi	-	-	0,2

31-jadval. Temir oksidi asosli jilolash pastalari

qo`shimchalar	Tarkibi, %		
	Dagal	Urta	Mayin
Temir oksidi	78	72	49
Stearin	10,7	14	18
Olein kislotasi	1,3	-	25
Texnik yog	8	-	-
Skipidar	2	-	-
Petrolatum oksidi	-	14	-
Parafin	TM	-	8

Kremniy asosli pasta quyidagi tarkibda tayyorlanadi:

Qo`shimchalar



Kremniy oksidi Parafin Mineral moy TSezarin Temir oksidi


Yuqorida qayd etilgan pastalar qattik xolatda ishlab chiqariladi. Jilolash vaqtida bu pastalarni jilolash aylanalariga asta tekizish yo`li bilansurtiladi. qimmatbaxo metall qotishmalaridan tayyorlangan maxsulotlarni dastlabki jilolash uchun GOI pastasidan foydalaniladi, yakuniy jilolash uchun esa kremniy asosli pastadan foydalanish maslaxat beriladi. Jilolash pastasining tarkibi jilolanayotgan qotishmaning qatgiqligiga qarab tanlab olinadi.

Mexanik **jilolashning texnologii jarayoni** jilvirlash jarayoni singari bajariladi va bir turdagi dastgoxlar qo`llaniladi, faqatgina ishlatiladigan asboblarning turi boshqacha bo`ladi. Jilolash aylanalari katta tezlikda aylanadi va yuqorida keltirilgan pastalar bilan moylanib turiladi. Ba`zi xollarda jilolash aylanalari qirqib olingan yumshoq teridan xam tayyorlanishi mumkin.

Kup xolatlarida yakuniy jilolash uchun sherst aylanalar qo`llaniladi. Uning o`rta qismi yog`och vtulkadan tayyorlanib, butulkaga paxta yoki qo`y juni o`tkazilgan bo`ladi. Bu aylanalarga oz miqdorda pasta surib, aylanishlar sonini yuqori olinsa, ish sifatli bajarilishi mumkin.

Zargarlik buyumlari turlari





136



137



IV. BOB GILAMCHILIK.

Zar gilamlar to`qiysiz nur to`qib ko`zingizdan,
Har qatim, ham bo`yokdan nishon bor o`zingizda.
Ko`klamdek barqi yal-Yal, siz shundoq sanamlarsiz,
Uyolar bezaksiz qolur, shu popuk gilamlarsiz.

Mavloni Mirtemir

4.1. Gilam tarixi.

Gilam-badiiy to`qima mahsulot (ko`pincha rang-barang naqsh va suratlar bilan) bo`lib, u jun, ipak va paxta ipidan tayyorlanadi. Qo`lda va mashinada to`qilgan gilamlar XIX-asr o`rtasida keng tarqalgan. Eng mashhur gilamlar Eron, Xitoy, Nepal, Marokko, Turk gilamlari hisoblanadi.

Qur`oni karimda aytilganicha, Olloh tomonidan olam 6 kun ichida yaratilgan. Avval dunyoning cheksiz bo`shlig`ida 7 samo yaratilgan va quyosh, oy va yulduzlar nur sochgan. Keyin esa ularning ostidan ajoyib gilamday er to`shalgan va tog`lar bilan mahkamlangan.

Shundan bo`lsa kerak jannadmonand erning kichik namunasi-gilamsiz sharqdagi hech bir xonadonni tasovvur qilib bo`lmaydi. Marokash, Tunis, Turkiya, Turkmaniston, Afg`oniston, Pokiston va gilamning asl kelib chiqish diyori sanalgan Eron ayollarining qo`llari bilan to`qilgan gilamlar uch iqlim bo`ylab tarqalib ketgan. Asl Eron gilami bu Venetsiya oynasi, Kuba sigarasi kabidir. Gilam Xindistonda, Nepal, Xitoy va yaponiyada ham to`qilgan. Lekin necha asrlardan buyon Eron gilamlari o`zining ajoyib sifati bilan olamni maxliyo etadi va u bilan hech kim raqobatlasha olmaydi.

- Tarixan gilamlar davlati bo`lib Eron hisoblanadi. Birinchi gilamlar tarixidan bizgacha etib kelgan bir rivoyatda aytilishicha, Eron shoxi Xusrav 1 VI asrda Rimliklar ustidan qozonilgan g`alaba nishonasi sifatida "Bahor gilamini" to`qitirgan. Unda baxor bog`i aks ettirilgan bo`lib, oddiy iplardan tashqari qimmatbaxo toshlar, oltin va kumush yuritilgan iplardan xam foydalanilgan gilam uzunligi 122, eni 30 metrni tashkil qilib, og`irligi bir necha tonna bo`lgan.

Aytishlariga qaraganda Husrav 1 bu "Bog`ni" "yo`laklari" bo`ylab sayr qilishni xush ko`rgan.

641 yilda Eron arablar tomonidan bosib olinadi va "Baxor gilami" izziz yo`qoladi. Arablar bilan Eronga kirib kelgan islom dini natijasida gilamlardagi qush va xayvonlar rasmlari yo`qolib o`rnini geometrik naqshlar egalladi. Gilam diniy bo`la boshladi. Unga endi qur`on suralari yozib to`qib chiqarish rasm bo`ldi, lekin bir umrga emas.

Eron gilamdo`ztligini oltin davri bo`lib, Seorevidlar davri xisoblanadi. XV asrda Eron paytaxti Isfaxon shaxrida bo`ladi. Bu erda 1499 yilda birinchi bo`lib shoxona gilam ustaxonasi tuziladi. Qush va xayvonlarni aks ettirishga qo`yilgan diniy ta`qiq olib tashlanadi. Gilam ishlab chiqarish g`aznani to`ldirish daromadlarida biri bo`lib hisoblanadi. XVI-asrda Eron Evropaning ko`pgina qirol saroylarini va boylarni uylarini gilamlar bilan ta`minlagan. Birgina Frantsiya gilam sotib olishga shuncha mablag` ishlata ediki, bu uning iqtisodiyotiga putur etkaza

boshladi. Genrix IV Frantsuz g'aznasi Osiyoga o'tib ketmasligi uchun o'zining gilam ishlab chiqarish korxonasini tashkillashtirishga kirishgan.

Eron gilamlarini yig'ishga Frantsiya qiroli Lyudovik XIV va Pol'sha qiroli Sigizmund ishqiboz edilar. XIX asrga kelib gilam yig'ish umumiy kasallikka aylanadi. Eron gilamlarini olib kelish uchun savdo ekspeditsiyalari jo'natiladi.

Eron gilamlari xozirgi kunda xam xaridorgir. Gilam eksporti neft eksportidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mamlakatning har bir beshinchi fuqorosini tirikchiligi gilam ishlab chiqarish yoki uni sotish orqali o'tadi.

Savdo erkaklar ishi bo'lib hisoblansa, gilam to'qish har doim ayollar vazifasiga kirgan.

Zamonaviy Eron fabrikalarida ham asosan qo'l mehnatidan foydalaniladi, shu sababli ular juda chidamli. Bizga qadar etib kelgan qadimiy gilamlarning kelib chiqish tarixi Eronga borib taqaladi.

- **Gilam to'quvchi qiz haqida afsona.**

Eronda shunday ertak bor, bir kambag'alni kenja qizi gilam to'qimoqchi bo'ladi. Uning rang barang iplari bo'lmaganligi uchun gilamdagi rasm bir xil kulrangda bo'lib qoladi va unda aks ettirgan qo'ylar, o'tloq va quyosh sidirg'a gilamda ko'rinmaydi. Ish tugaganda gilam o'z qismatidan arz qila boshlaydi. To'quvchi qizdan qo'ylar uning sochini qoraligini, o'tloq ko'zini yashilligini, quyosh qizil yuzini so'ray boshlashadi. Qiz buning barisini ularga beradi, natijada gilam juda chiroyli bo'lib, qizning uyiga xurmat va to'qchilik olib keladi, lekin qiz o'zining chiroyini yo'qotib rangsiz bo'lib qoladi.

Har bir ertakda ozgina xaqiqat bo'lganidek, xozirgi kunda ham katta shaxar manufaktura fabrikalarida va kichik qishloqlarda gilam to'kuvchi qizlar yoshligidan vaqtdan ishlashadi. Ular to'quv dastgoxi bilan tanishgan paytda ularning Evropadagi tengqurlari xali qo'g'irchoq o'ynash bilan ovoradirlar. Bo'lg'usi ustalarning yoshligi onalarining ko'zi ostida mustaqil gilam to'qishni o'rganish bilan o'tadi.

- **Xisob boshi**

Sharqda uy gilam yozilgan joydan boshlanadi. Atrofda qurigan cho'l yoki mashaqqatli tog'lar, qumlar ustidagi chang buluti bo'lganda xam, quyosh issiq nurlari butun dunyoni qizigan temirday qizdirsa ham, devor o'rniida chaylani yupqa devori bo'lsa xam, gilamdagi bog'lar, ochilgan gullar, bir biriga chatishib ketgan shoxlar va ulardagi rang barang qushlar o'ziga chorlaydi.

Gilamni yoshi aniqlanmagan. Arxeologlari hisobi bo'yicha uning yoshi 2500 yildan oshgan. Har holda bizgacha etib kelgan gilamlardan biri 2000 yilligini nishonlasa bo'ladi. Bu gilam yarim asr avval Oltoydagi Pozariq qo'rg'onida topilgan bo'lib unda kiyik, burgut va otlar rasmi tasvirlangan.

Qaroqchilar qo'rg'ondagi hamma qimmatbaho buyumlarni olib chiqib ketishgan va faqak gilamni qo'pol bo'lgani uchun tashlab ketishgan. Ular qo'rg'onni yopmasdan ketganliklari sababli gilam namlanib muzlab qolgan va shuning uchun chirimasdan bizgacha etib keldi. Eng qiziqarli tarafi shundaki, gilam tarixi o'rganilganda uning to'qilish uslubi bir necha yuz yil ichida o'zgarmaganligidadir.

Milliy gilamchilikning o`ziga xosligi.

Eronda gilamlarni hamma va barcha erda to`qishadi. Aloxida oilalarda va katta fabrikalarda hozir ham, Xusrav 1 va Sefevitlar davrida to`qilgandan, gilam to`qishadi. Ko`proq bu Eronlik ko`chmanchi qabilalarga tegishli.

Ko`chmanchi xalq to`qigan gilamlarda doimiy xarakat va ozodlik ruxi ko`rinib turadi.

Erkaklar, ayollar, bolalar Eronning bir qishlog`idan 2-qishlog`iga o`zining qo`y qo`zi, tuyalari bilan qish oylarida tog` etagida jon saqlashar, yozda esa tog` cho`qqisida kezib yurishadi. Ularning gilamlari erda to`qilar edi. 1 yilda ikki marta, ya`ni baxor va kuzda, qo`ylarning jungini erkaklar qirqib gilamga ip tayyorlash uchun ayollarga berishar edi, ayniqsa baxorda qirqilgan jun qadrli xisoblanardi.

Ayollar junni ipga ayolantirishni nafaqat ish orasida balkai o`tirgan, yurgan yo`llarida tayyorlashar edi. Bu yigirilgan iplar nafaqat Eronda, xattoki uning tashqarisida xam qadrli edi. Bu iplar juda qimmatli xisoblanardi. Bu iplardan nafaqat qishloqda, ko`chmanchi qabilarda balki katta fabrikalarda ham gilamlar to`qishda ishlatishar edi.

Ipni qo`l ostida bo`yashar edi. Qizil rang uchun lioren ildizi, ko`k rang uchun-indigo, qora rang uchun yong`oqni postidan foydalanishgan. Rang chiqishi uchun ipni qozondagi suyuq bo`yoqda shu rang bo`lguncha qaynatilar, shundan keyin sirli to`qish boshlanar edi.

Romga tarang va qattiq qilib ip tortilib, keyin xuddi shu to`qish gorizental xolatda takrorlanar edi. Qatorma-qator Eron, Turk, Tibet, Barter, Ispan, (to`qilayotgan joyiga, an`analariga qarab) gilamining gullari to`qila boshlanar edi. Eng qimmat va go`zal gilamlarga ipak qo`shilib to`qilar, chunki ipak gilamga jozibali tovlanish berib turar edi. Oxirgi pog`ona bu gilamni yuvish. Ularni yuvishdan maqsad ranglarning qanchalik yaxshi berilganligini aniqlashdir. Gilam chayilgandan so`ng, quyoshda quritilish uchun osib qo`yilardi.

Gilamni tayyorlash jarayonida junni qirqishdan to qog`oz belgisi yopishtirgunga qadar 2 yildan 5 yilgacha bo`lgan vaqtni o`z ichiga olar edi.

Mana shundan keyin ham Eron gilamlari bunchalik qimmat degan savolni berasizmi?

Gilamlar nima xaqida sukut saqlaydi.

Bizning zamongacha yana bir "gilam" afsonasi etib kelgan. Bir kuni Eron shaxzodasi kelayotgan karvonga qaroqchilar hujum qilishadi. Ular shaxzodani asrga olib o`ldirmoqchi bo`lishadi. Lekin shaxzoda ularga jonini omon qoldirishsa gilam to`qib berishni aytadi. U rozi bo`ladi va o`z va`dasini ustidan chiqadi. Qaroqchilar shaxzodani odamlar ko`zidan uzoq bo`lgan baland tog` ichidagi g`orga berkitib qo`yishadi va shaxzoda to`qigan gilamlarni yaxshi pulga sotishar edi. Lekin qaroqchilar gilamdagi naqshlarni "o`qish" mumkinligini bilmas edilar. Odamlar shu naqshlar orqali shaxzodaga nima bo`lganligi va uni qayerdan topish kerakligini bilib, uni asrlikdan ozod qilishadi.

Xaqiqatdan xam Eron gilamlari "gapira" oladi. Uning tili naqshlari va to`qilishidadir. Har bir naqshda biror bir ma`no bor. Burchak naqshlarida, chetlari tishli barglar, mazaika naqshlarida Qur`on suralarini, afsona masallarni o`qish

mumkin.

Bu ayrim bo`laklar (berilgan xar xil variantda) takrorlanish mumkin. Masalan: gul bu-fors tilidan tarjima qilinganda atirgul deyiladi. Eron madaniyatida bu hayot, ya`ni chiroyli, go`zal lekin uzoq yashamaydigan ma`noni anglatadi.

Eng qadimiy va keng tarqalgan Eron elementlaridan biri maxey (baliq) xisoblanadi. chunki o`rtada joylashgan maxey sariq, tilla ranglar bilan bezatilib, xuddi oltin baliq tangachalaridek tovlanadi.

Yana gilamlarni bezaklaridan biri bu gilam egasini ismini o`qib olish mumkinligidir.

Tanlash sinovi

Qo`lda to`qilgan gilam xozir ham sotib olinadi. yaxshi gilam arzon turmaydi, shuning uchun xarid qilayotganda e`tiborli va jiddiy qarash kerak. sharqda gilam sotib olish jarayoni juda qiziqarli, lekin extiyot bo`lish kerak. Do`konlarda sotilayotgan gilamlar sertifikatlangan. Bu degani gilamlar kerakli tekshiruvdan o`tgan.

Agar siz gilamni bozordan xarid qilmoqchi bo`lsangiz aldanishingizga yo`l qo`ymang. Olayotgan gilamingizni orqa tarafiga e`tibor bering u g`adir budur emas, tekis va silliq bo`lish kerak. Agar gilam jun ipdan emas, ipakdan to`qilgan bo`lsa, bu gilamning sifatligini bildiradi. Eron gilamlarini sotib olayottanda, uning orqa tarafida joylashgan qog`oz belgisiga e`tibor bering. Qog`oz belgisida kerakli ma`lumotlar bor. Gilam qayerda, kim tomonidan, nimadan to`qilganligi haqida bilib olasiz.

4.2. Gilam to`qish san`ati.

Gilam to`qish san`ati xalq amaliy bezak san`atining keng tarqalgan turi bo`lib, ko`p asrlik milliy an`ana va uzoq tarixga ega. Gilam to`qish badiiy to`qish hunariga kiradi. U qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhurdir. Gilam to`qish san`ati ayniqsa chorvachilik bilan shug`ullanadigan ko`chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Gilam qadim zamondan beri xona ichini bezatish, issiq saqlash, tovushni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Gilam asosan polga yoki bo`yra ustiga to`shaladi, xonani bezatish uchun devorga osiladi va o`tov ichida o`raladi.

Bu san`at juda qadim zamonlardan beri rivojlanganligini yozma tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar isbotlab berdi. Arxeologik topilmalar natijada Xorazmda miloddan avvalgi 1-ming yillikk mansub gilamlar topilganligi tasdiqlandi. Qadimda Ussuri, Bobil, Midiyada keyinroq esa Eron, Hindiston, Turkiyada to`qilgan rangli gilamlar mashhur bo`lgan.

VII asr qo`lyozmalari gilam to`qish san`ati o`sha davrlarda O`rta Osiyoda xam rivojlanganligini tasdiqladi. V-VII asrlarda O`rta Osiyodagi ko`pgina shaxarlardan Xitoyga har xil gilamlar olib kelingan. Masalan, Qarshi Nashebodan gilamlar Xitoyga olib borib sotilgan. O`rta Osiyo va Afg`oniston adabiyotlarida ko`rsatilishicha VII-XI asrlarda Xorazm hamda Samarqand bilan Buxoro o`rtasidagi ba`zi shaharlardan kichik-kichik joynamoz gilamchalar to`qilib chet mamlakatlarga sotiladi.

XI-XII asrlarda O`rta Osiyda shu jumladan O`zbekiston territoriyasida gilam san`ati juda rivojlangan. XIV asrda esa O`zbekiston territoriyasida gilam to`qish

san`ati rivojlanmay qoldi, chunki mongol bosqinchilari O`rta Osiyoni egallab olgan edi.

XIV asrning ikkinchi yarmida O`rta Osiyoning Amir Temur qo`liga o`tish bilan bu soha yana rivojlanib ketdi. Har xil xil xorijiy mamlakatlardan olib kelingan ustalar gilam to`qish ustaxonalarida ishlaganlar.

XVIII-XIX asr boshlarida ayniqsa, Buxoro va Farg`ona xonliklarida gilam to`qish san`ati tez sur`atlar bilan rivojlandi. Bunda gilam tayyorlash o`zining naqshi, yuqori sifatli to`qilishi, bo`yalish texnikasi bilan ajralib turdi.

XX asr boshlarida Qo`qon, Samarqand, Andijon, Buxoro, O`rta Osiyoning gilam to`qib sotish markazi hisoblangan. Lekin XX asr boshlarida bu erlarda gilam to`qish san`atining rivojlanishi pasayib ketdi. Ulug` Oktyabr` inqilobidan so`ng bu sohaga yanada e`tibor berildi. Gilam to`qiydigan mashinalar ixtiro etila boshlandi. Xiva, Andijon, Qarshi, Urgut shaharlarida gilam to`qiydigan korxonalar ochildi. Mashinada to`qilgan gilamlar o`ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Ularda ko`pincha gilamlar sun`iy tolalardan to`qiladi. Gilamlarning arqog`i ko`pincha zig`ir yoki paxta tolasidan tayyorlanadi. 30-yillarda murakkab, patli gilamlar mashinalarda to`qiladigan bo`ladi. Pat bog`laydigan maxsus dastgoxli korxonalarda gilamlar ishlab chiqarila boshlandi. Andijonda "Mehnat guli" arteli qoshida gilam to`qish kursi ochildi. Artelga Farg`ona vodiysiga Oyim qishlog`idan katta usta Mehriniso Teshaboeva taklif etiladi. Mashhur usta qo`lida juda ko`p yosh mutaxassislar etishib chiqdi. Jumxuriyatda gilamdo`zlikni yanada rivojlantirish uchun Turkmanstondan mashhur ustalar taklif etildi va ichida ko`plab gilamdo`z ustalar tayyorlab berildi.

O`zbekistonda gilam to`qish maktabi asosan ikki-Samarqand va Andijon katta gruppalariga bo`linadi. Andijon gilamlari o`zining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil-ko`k koloriti bilan farq qiladi. Farg`ona, Qoraqalpoq gilamlari asosan ikki xil, ya`ni qizil va to`q ko`k gammada to`qiladi. O`zbek gilamlarining chetiga ko`pincha ruta o`rtasiga trunj yoki doira naqshi ishlanadi. Samarqand gilamdo`zligi maktabiga Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi gilam to`quvchilar kiradi. Buxoro gilamlari o`zining rang-barangligi, kattaligi uzun patliligi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. Samarqand gilamlari qisqa patli, markazida turunj chetiga alohida-alohida naqshlar ishlanadi. Qalqon deb nomlangan turunj naqshi juda ko`p ishlanadi. Gilamlar hoshiyador estetik jihatdan chiroyli ishlangan bo`ladi.

Nurota gilamlari esa o`zining uzun patliligi, o`rtacha kattalikda, siyrakroq to`qilishi bilan ajralib turadi. Dastgoxda qo`lda to`qilgan gilamlar o`zining chidamliligi, nafisligi, tabiiyligi va sifati jihatidan ajralib turadi. Bu gilamlar yuz yillab xizmat qilishi mumkin. Ko`pgina mamlakatlarda to`qib kelinayotgan gilamlar yaxshi rivojlangan. Masalan, Frantsiya, Eron, Xitoy, Xindiston, Afg`oniston va boshqa mamlakatlarda. eng yaxshi gilamlar, Dog`iston, Turkmaniston, Gruziya, Ozarbayjon va Armanistonda to`qiladi. Gilamning to`qima, tikma va bosma xollari bor. O`zbekistonda patli va patsiz (palos) gilamlar to`qiladi.

To`qima gilamlar-gilamning guli to`qiladi.

Tikma gilam-tayyor buyumga guli tikiladi.

Bosma gilam-guli bo`yab bosiladi.

Gilam to`qilgan joyi yoki to`qigan qabilaning nomi bilan yuritiladi. Turkman gilamlari geometrik naqshli bo`ladi. Kavkaz gilamlarining mashhur shirvoni, axti, darbandi turlari bo`lib, pushti, qizil, ko`k, sariq, sarg`ish va boshqa ranglarda barg, gul qush tasvirlanadi. Eron gilamlari ham o`ziga xos bo`lib, ularda gul, o`simlik, qush, xayvon tasvirlangan doirasimon shakllar ko`zga yaqqol tashlanadi. Sinayi, orbabili, sarruxi, cherizm va boshqa gilamlari juda mashhurdir. Xitoy gilamlari dunyoga mashhur bo`lib, patlarining naqshi xarxil me`yorda qirqilib, rel`ef xosil qilingan, tasvir zamini esa qisqaroq patli qilib ishlanadi. Baland patli gilamlar bo`rtma naqshida, hayvon, balq, qushlar tasviri ishlanib, o`rta qismiga gul ishlanmay ochiq qoldiriladi. Bu ochiq joyiga sidirg`a ranglar (pushti, yashil, binafsha, sariq, ko`k) beriladi. Turk gilamlari o`simliksimon, geometrik yoki aralash naqshlar bilan ishlanib o`ziga os boy ko`rinishga ega. Frantssuz gilamlarida syujetli naqshlar, manzaralar, gullar ishlangan bo`lib, kishini o`ziga jalb etadi.

Xiva, Andijon, Urgut, Qarshi va boshqa joylarda to`qima gilamlar tayyorlanadi. Ular o`zining o`simliksimon, geometrik naqshi, bejirimligi tabiiyligi va sifati bilan mashhurdir. Gilamdo`zlikning eng rivojlangan joyi Turkmaniston. Uning gilamlari butun dunyoga mashhur.

Gilamlar o`tmishda er bag`irlab yotiq holatda o`rnatilgan pastak sodda dastgoxda to`qilar edi. Keyinchalik to`quv dastgohlari ancha mukammallashti. To`quvchi ayollar yonma-yon o`tirib birdaniga to`qiydigan keng g`altakli dastgohlar xillari yasaldi. Qo`lda gilam to`qish juda qiyin, masalan, yaxshi mutaxassis 1 m<sup>2</sup> patli gilam to`qish uchun 20-25 kun srfa qiladi. shuning uchun ham qo`lda to`qilgan gilamlar qimmat turadi. Gilamlar ikki xil kalta patli (3-7 mm) va uzun patli (8-17 mm) qilib to`qiladi. Turkmanlar gilam to`qishda tuya tiviti, qo`y juni, paxta tolasi va ipak ishlatiladi. O`zbeklar tuya tiviti, qo`y juni va paxta tolasi ishlatadi.

XIX asrning oxirigacha gilam to`qishda o`simliklardan tayyorlanadigan bo`yoqlar ishlatilagan. Keyin esa anilin bo`yoqlaridan foydalanila boshlandi. Pat gilam to`qish ancha murakkab bo`lib, unda arqokdan tashqari nax gilamlar maxsus dastgoxli korxonalarda to`qiladigan bo`ldi. Pat gilamlar naqsh yoki gulni sanama iroqiga o`xshatib rangli iplarni nusxasiga qarab terish asosida to`qiladi. Naqsh yaratishda bandlarni hisobi aniq bo`lishi hamda bir qator bog`lab chiqilgach arqoq o`tkazilib taroq bilan bostiriladi. shundan so`ng patlar qaychi bilan tekislanib chiqiladi. Gilam to`quvchi ayol gilamning 1 dm<sup>2</sup> yuzasida 600+1030 tach pat bog`lashi lozim. Qo`lda to`qilgan gilamlar o`lchami bo`yicha uch turga bo`linadi. Kichik (3 m<sup>2</sup> gacha), o`rtacha (3 m² dan 6 m² gacha) va katta (6 m² va undan ko`p) gilamlar.

Gilamdo`zlik ayollar hunari sifatida mashxur bo`lib, erkaklar bu hunar bilan shug`ullanmaganlar. Gilam to`qish juda murakkab ish. Tajribali gilamdo`z usta gilam to`qishni yoshlik paylaridan o`rgana boshlab 16-17 yilda haqiqiy usta bo`lib etishgan. 7-9 yoshdagi qizlar charxda ip yigirishni o`rganib, 11-14 yoshida esa gilam to`qishda ustaga shogird bo`lgan. Bu yoshda ular bo`yoqlash ishlariga qatnashmaydilar. 20-25 yoshda to`qishni yaxshi o`rganadilar, 30-35 yoshlarda esa tajribali, har xil gilamlarni mustaqil to`qiy oladigan bo`ladilar.

O`zbekistonda ko`pincha yuk tashish uchun xurjun gilam va sholchalar ham

to`qishgan.

Xurjun-yuk tashish uchun mo`ljallangan gilamga o`xshab to`qilgan qo`shaloq xalta. U jun paxta ipidan to`qiladi. Xurjunni ot, eshak, xochir, tuya ustiga ba`zida odamlar elkasiga tashlab yuradilar. Unga har xil buyumlar, oziq-ovqatlar solinadi. U O`rta Osiyo, Kavkaz xalqlari o`rtasida keng tarqalgan. Turkman xurjunlari juda chiroyli va sifatli to`qilishi bilan ajralib turadi. Xurjunlar ko`pincha geometrik naqshli qilib to`qiladi.

Sholcha-qadimda echki, tuya va qo`y juni, paxta va sun`iy toladan to`qiladi. U patsiz, taqir bo`ladi. sholcha polga, erga to`shaladi. sholcha O`rta Osiyo hamda Qozog`istonda keng tarqalgan. Ukraina, Moldaviya, Ruminiya, Bolgariyada ham bor bo`lib, o`ziga xos to`qiladi. sholchaning uch turi mavjud. Gulli to`qiladigan, ya`ni to`qima sholchalar, guli bo`yab bosiladigan, uchinchisi guli tikiladigan, ya`ni tikma sholchalar bo`ladi. Hozir ayrim joylarda xususan Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlari va boshqa joylarda zamonaviy sholchalar qo`lda to`qilmoqda.

Ulug` Oktyabr` inqilobidan so`ng sholchani yanada ko`p ishlab chiqarish uchun juda ko`p fabrikalar ochildi.

Hozir Buxoro viloyatining G`ijdivon, Qiziltepa rayonlarida, Samarqand viloyatining Nurota, Urgut rayonlarida, Xiva, shaxrisabz va boshqa joylarda sholcha to`qish fabrikalari ishlab turibdi. O`zbekistonda eng yaxshi sholcha to`qiydigan shaharlardan biri Buxoro bo`lib, ular sholchasining kattaligi, oddiy keng naqshlari, sifati, chidamliligi bilan birga qop, sumka, parda, bosh kiyimlar, paypoq va boshqalari ham tayyorlanadi.

Gilam o`simlik, ya`ni paxta, zig`ir, tolalaridan, qo`y, echki, tuya junidan to`qiladi. Keyingi vaqtlarda esa sun`iy tolalardan ham to`qilmoqda. Gilamlar ko`pincha geometrik naqshli bo`ladi. Gilam naqshi maxsus rassomlarni eskizi yordamida solinadi. Badiiy gilamlar to`qishda buyuk kishilar, mexnatkashlar, yozuvchilarning mashxur asarlari chizilgan rasmi va boshqalar ishlanmokda. O`zbekiston gilamlariga inqilobdan so`ng zamonaviy naqsh elementlari masalan, o`roq va bolg`a, paxta, paxta chanog`i va boshqalar kirib keldi.

Xullosa qilib aytganda, o`zbek gilamdo`zligi o`zining an`analarini saqlagan holda yangi tajribalar bilan boyitildi. Xiva, Andijon, Samarqand, Qarshining patli, shaxrizabzning taqir gilamlariga ehtiyoj katta. Hozir xar bir xonadonga kirar ekansiz o`zbek va turkman gilamlarini albatta uchratasiz. O`zbekistonning tasviriy san`ati, o`zbek xalq amaliy san`ati muzeylarida hamda Hamduslik mamlakatlar muzeylariga kirsangiz bizning gilamlarimiz doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolganligini ko`rasiz.

4.3 O`rta Osiyo gilamlari.

Aytib o`tilganimizdek, o`rta Osiyoda gilamchilik qadimdan rivojlanib kelgan. chorvachilik bilan shug`ulangan halqlar orasida ayniqsa keng tarqalgan. Gilam O`rta Osiyo xalqlari turmushida katta o`rinni egallagan.

Hozir biz gilamlarning ba`zi, turlariga to`xtalib o`tamiz.


Gilamlar naqshu nigorida ko`proq chiziqlar yordamida geometrik ko`rinishdagi yuzalar tashkil qilingan. Katta naqshlar kompozitsiyasi yorqin

ranglar bilan qismlarga bo'lingan. shuningdek, kichkina hajmdagi, geometrik tuzilishdagi naqshlar bilan to'ldirilgan. Har xil qalinlik va yo'nalishdagi yo'l-yo'l chiziqli kompozitsiyalar ko'proq qismlarda qo'llanilgan.

Nurota gilamlarning o'rta qismiga qalqon nusxa naqsh solingan. Asosan sakkizburchak tuzilishidagi yuza markaziy o'qlar yordamida to'rt qismga bo'lingan. O'qlarning tutuashgan joyida kvadrat naqsh joylashtirgan. Qismlar zaminida och va to'q ranglar navbatma-navbat keladi. Katta yuzalarda tirik mavjudot (odam, qush) tasviriga o'xshagan naqshlar ishlangan.

Sakkizburchaklar oralig'iga mayda geometrik (uchuburchak, romb, ko'pburchak) naqshlar solingan (1rasm).

Qashqadaryo gilamlari patsiz bo'lishiga qaramasdan, o'ziga xos badiiy bezakka ega. V.Moshkovaning kuzatishicha, ular «qiz gilam» va «bozor gilam» deb nomlangan. Bozor gilam sotuvga mo'ljallanganligi uchun ham shunday nomlangan. qiz gilamni turmushga chiqayotgan qiz sepiga atab to'qishgan. Bozor gilam yuzasi yo'l-yo'l chiziqlardan tashkil topgan.



184-rasm. Nurota gilamlarida keng qo'llanilgan «Qalqon nusxa» naqshi


Uning markazida geometrik (kvadrat, romb, uchuburchak, kupburchak) naqshlar joylashtirilgan. Markazning yuzaning katta naqshlari «gumbaz», «ko`h naqsh», «to`rajon»¹, «patnis» kabi mayda gullar bilan to`ldirilgan. shuningdek, «Shoxak», «chilimkadu» kabi xo`jalik buyumlariga taqlidan shakllar ishlangan. Bozor gilamning mayda naqshlari «kachkul», «kashgul» «pech»² kabi o`ralib ketgan o`simliksimon gullardan tashkil topgan. Atrofi esa «Shoxak», «kuh tog`» kabi gullar va zanjira hoshiyalar bilan aylantirilgan.

Qiz gilam ikki tuzilishida bo`lgan. Birinchisidagilam markazini katta-katta hajmda ishlangan xo`roz va tovuq tasvirlari egallaydi. Ikkinchi turida parranda tasvirlari kichik hajmda ko`ndalang yo`nalgan yo`l-yo`l chiziqlar oralig`ida joylashtiriladi. shuningdek, qiz gilam markazida «tovoqcha», «chashmalari morak», «bag`alak», «djuz», «zulfi zargar», «svan» kabi handasaviy, o`simliksimon va xayvonlar nomi bilan yuritiladigan naqshlar ishlangan.

Gilam atrofi esa «ilon izi», «chiziq», «pokiak» (hamtoz, tosh tuyuq), shoyi mato nomlari bilan yuritilgan shihizar, zebosanam kabi naqshlar bilan boyitilgan.

Farg`ona gilamlari. O`rta Osiyo gilamdo`zlik sa`natini chuqur o`rgangan olim V. Moshkova Farg`ona gilamlari markaziy kompozitsiyasi naqshu nigorini besh turga bo`ladi.

1. Gilam markazini gorizontal yo`nalishdagi har xilrangli ingichka yo`l-yo`l chiziqlar tashkil qiladi. Qadimiy gilamlarda tik yo`nalgan yo`l-yo`l chiziqlar mayda naqshlar bilan to`ldirilgan. Mazkur turdagi naqshlar ko`proq taqir gilam (polos)larda qullannilgan.



185-rasim. Qashqadaryo gilamlaridagi "Shoxak" naqshi

¹ Aytishlaricha, Buxoro amirligi taxtinig vorisi Nasrulloxonning qarorgohi Qarshi bo`lgan. U o`zi uchun to`qiladigan gilamga shoyi to`ni naqishlarini tushirishini buyurgan ekan. Shundan bu naqsh to`rajon deb yuritilganekan.

² Pech naqshi «kaj» ham deyilgan.

2. Gilam markazida bir xil rangdagi naqshlar to'g'ri va diogonal holda keladi. Farg'ona qirg'izlari gilamlarida shu kompozitsiya quyidagi uch xil ko'rinishda uchraydi: hasham motivi turunjlardan tashkil topgan. Unda turunj naqshlar har xil kattalikda va har-xil uzoqlikda, ufq va tik chiziqlarda joylashadi; gilam markazi bir-biri bilan bog'lanmagan bir xil, asosan o'simliksimon naqshlar bilan to'ldiriladi; hasham motivi to'g'ri va siniq chiziqlar bilan bog'lanib, markaziy yuzada yaxlit kompozitsiya vujudga keladi.

3. Markaziy yuza kattaligi bir xil bo'lgan bir-biri bilan tutash to'rtburchak, kvadrat yoki rombsimon naqshlar bilan to'ldiriladi. Ularning oralarida mayda naqshlar solinadi.

4. Markaziy yuzani yaxlit o'simliksimon naqsh qoplagan. U novdalari-hamma tomonga yoyilgan buta yoki mevali daraxtga o'xshab ketadi.

5. Gilam markazi och (ko'k, sariq, moviy rang) zaminidan katta doira, burchaklaridan esa kichik doiralar o'rin olgan.


Farg'ona gilamlarining barcha turlarida markaziy katta naqshlar mayda naqshlar bilan boyitilgan. Bu naqshlar uzunchoq turunj, qo'chqor shoxi, juft qo'chqor shoxi, ko'pqirrali yulduzlardan iborat.

Gilam atrofi bitta keng va ikkita tor yo'l-yo'l chiziq, ya'ni hoshiya bilan aylantirilgan. Yo'l-yo'l chiziqlarning ichi ham naqshlar bilan boyitilgan. Jumladan, markaziy yo'lak chiziq ichiga «romb», «qo'chqor shoxi», «uchuburchak shakllar», «madoxil», «it quyrug'i», «sakkiz pista» naqshlari solingan. O'rta yo'lak yo'lbars izi, oxirgi yo'lo'k esa uchuburchak naqshi bilan bezatilgan (186-rasm).

Turkman gilamlari: Turkmaniston gilamlari o'zining xilma-xilligi bilan O'rta Osiyodagi boshqa gilamlardan ajralib turadi. Ular bir necha turga bo'linadi. Yomud, Tekin, Kerkin, Qiziloyoq, Beshir, Ersarin gilamlari ham naqshlari bilan bir-biridan ajraladi. Nomlari urug' nomi bilan belgiladi. Turkman gilamlari naqshu nigori, kompozitsiyasi jihatidan bir necha turga bo'linishiga qaramsdan, ularda umumiylik mavjud. Bu turkman gilamlarining qadimdan bir xil uslubiy guruhga bo'ysunganligidan dalolat beradi.


Yomud gilamlari markazi gul naqshi oq rangli yo'l-yo'l chiziqlar bilan aylantirilgan holda ko'p uchraydi. Gilam qismlari to'q qizil, jigarrang ranglarni tashkil qiladi.

Tekin gilamlari markazi vertikal va gorizontal yo'nalishda ko'p burchakli naqshlar bilan to'ldirilgan.




186-rasm. Farg'ona gilamlari naqshi: 1-chayon; 2-yo'lbars topon; 3-tuyabo'yin; 4-qo'g'irchoq; 5-poloslarda keng ishlatilgan «it quyrug'i» naqshi

Ko'p burchaklar mrakaziy o'qlar yordamida to'rt qismga bo'linib, ular oq va to'q ranglar bilan ajratilgan, oq zaminli qismida to'q ranglarda naqshlar ishlangan. **Kerkin gilamlarida** to'g'ri to'rtburchak yuza markazida salib naqshi joylashtirilgan.




187-rasm. XVIII asrda to'qilgan Kerkin gilami markazidagi naqsh

Uning markazida tashqariga yo`nalgan gorizontal va vertikal o`qlar qo`chqor shoxiga monand tuzilishida tugatilgan. To`g`ri to`rtburchak burchaklarida hosil bo`lgan yuzalar och va to`q zaminida har xil geometrik naqshlar ishlangan. **Qiziloyoq gilamlari** bezagi bilan Kerkin gilamlariga o`xshab ketadi. **Beshir gilamlari** yuzasini ko`pburchaklar, sariq patli to`rtburchaklar egallaydi. Gilam bezagida ko`k rang ham ishlatiladi. **Ersarin gilamlari** yuzasini kvadratga yaqin shaklli kompozitsiyalar egallaydi. Qo`chqor shoxiga o`xshagan burama juft naqshlar oddiylashtirilgan formalarda qo`llanilgan. Sakkizburchaklar o`simliksimon naqshlar bilan diagonallar bo`ylab tarqalgan. Ular bog` tasviri eslatadi (188-rasm, 7 va 8).



188-rasm. Turkman gilamlari markaziy qismi naqshi: 1-6-markaziy o`qlarda "qo`chqor shoxi" turlicha ifodalanishi; 7-8-Ersarin gilamlarida o`simliksimon naqsh tasviri

Barcha turdagi gilamlarda qo`chqor tasviri keng qo`llaniladi. Ko`chqor tasviri gilam naqshlarida «N» harfiga o`xshash (soddalashtirib) ishlangani F.Gogel 6 chizmasida aniq ifodalangan.



189-rasm . Turkman gilamlarida echki tasvirining ifodalanishi

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, har bir gilamning to`qilishida bir necha gilam to`quvchi qatnashadi. Har bir to`quvchi o`ziga topShirilgan gilam bo`lagini (uchastkasini) qo`lidagi chizma, ya`ni loyiha asosida bajargan. Gilamlar o`z-o`zidan og`irligi, qalinligi, texnologik jihatdan murakkabligi bilan monumental ko`rinishiga ega. Gilam monumentalligini saqlab qolish uchun uning naqshlari yirik geometrik badiiy konstruktsiya asosida yaratilgan.

4.4. Samarqand gilamlari xaqida qisqacha ma`lumot.

XX – asrning boshlarida Samarqand viloyati xududlarida 50 ga yaqin o`zbek qabilalari yashashgan. Ba`zi qabilalar axolisi birlashib, ba`zilari esa tarqoq xayot kechirishgan.

A.D. Grebenkinning ma`lumotlariga qaraganda, XIX – asrning oxirida gilam to`qish san`ati quyidagi o`zbek qabilalari: naymon, ming, qutchi, bag`rin, xitoy, qipchoq, mitan, turklarda keng tarqalgan.

O`zbek qabilalariga A.D.Grebenkin paxmoq gilamlar (pat gilam) buyumlari to`quvchi Samarqand Qoraqalpoqlarini ham kiritgan. O`zbek gilam mahsulotlarini to`liq ta`riflamay turib, A.D.Gerbenkin mitan gilam to`quvchilari maxsulotlarini quyidagilarini ajratadi: olacha, gilamlar, kigiz, namat, xurjun va boshqalar.

U Samarqand atrofi va eskiXo`jant chegaralarida yashagan yarim ko`chmanchi o`zbek qabilalarining turk va yuz axolisining gilam to`quvchilari xaqida ma`lumot bergan. A.A.Semyonov A.D.Gerbenkinning ma`lumotlarini tasadiqlagan va kengaytirgan.

Samarqand viloyatining turk gilam ustalari eng oddiy texnika bilan rangli palaslar, namatlar va juda og`ir ish talab qiladigan gadjari palaslarini to`qishgan, deb yozadi. M.F.Gavrilov. M.F.Gavrilov o`zining boshqa tarixiy asarlarida, o`z vaqtida A.D.Gerbenkin ma`lumot larida keltirmagan, pargayuz o`zbek qabilalari to`g`risida to`liq va qiziqarli ma`lumotlar bergan. (A.D.Gerbenkinning faqat yuz o`zbek qabilalari xaqida yozib o`tgan edi.) Bir necha mualliflarning ma`lumotlariga ko`ra o`zbek gilam to`quvchi guruxlaridan eng qadimgi qabila vakillari orasida turk va tuyoqlilar, shuningdek O`rta Osiyoda boshqa uzoq

xududlardan ko`chib kelishgan va o`zining qadimda vatani deb Evropaning janubiy sharqiy cho`llarini xisoblagan mitanlar; Farg`ona vodiysining sharqiy tumanlaridan -bag`rinlar ; Qashqardan – kuychilar aloxida qiziqish uyg`atadi. Gilam to`qish san`ati bilan trli nasabdagi qabilalar shug`ullanganlar, shuning uchun xam ularning shilarida turli texnik uslub va ornament formalari o`z aksini topgan.

Barcha tadqiqotchilar takidlashicha turli qabila guruxlarining o`zaro nikoxi orqali bir – birlariga o`ziga xos madaniyat va udumni singdirishgan va qabila boshqa qabilaga o`ziga xos bo`lgan gilam to`qish uslublarini o`tkazishga zamin yaratgan va turli gilam maxsulotlarini taqdim etishgan. Qabilalarning o`ziga xos naqshlari ishlatilgan, gilamlarni kelin o`z sepi bilan boshqa qabilalarga olib kelgan bu esa oilaning bir biriga vafodor bo`lishini birdiradiundagi naqshlardan foydalanadi va yangi maxsulot ishlab chiqarishni boshlaydi.

Asta sekin dexqonchilikga o`tish munosabati bilan gilam ishlab chiqarish sezilarli darajada kamaYaboshlaydi. Statistik va arxiv ma`lumotlariga qaraganda, XIX – asrning oxiri va XIX – asrning 70-yillarida Samarqand tumanining o`zbek gilam to`quvchi ko`chma qabilalari bor yo`g`i 25 %ni tashkil qilar edi. Yil davomida bir necha Qishloqning bir bosh axolisiga gilam ishlari gilam to`qilishi va palaslarni to`qilishi o`nlab to`g`ri kelsa xam, bozorda esa buning ishlarining aksariyatini ko`rish mumkin edi. Bozorga gilamlar donalab kirib kelar edi.

Gilam ishlab chiqarishning qisqarish jarayoni XX – asrning boshlarigacha davom etdi, buni 1929 yilda tashkil etib, Samarqand viloyatini ko`chmanchi o`zbeklari va to`liq dexqonchilikga o`tishgang qabilalar orasida ish olib borgan ekspeditsiya ma`lumotlarida keltirilgan. Bundan tashqari ekspeditsiya o`zlarini murakkab, oliy nasabli “ qirq – ming yuz” qabilasiga mansub deb xisoblashgan Jizzax tumaning Oq- Buloq va Kongli, Zomin tumaning Qora – Qursaq qishloqlari axolisini turmush tarzini xam o`rganib chiqdi. Vaqt o`tishi bilan qabila yoshlari o`zlarining ..... unuta boshlashadi va o`tmishdagi ota – bobolari to`g`risida ma`lumotlarga ega emasdir. Jizzax viloyatini Oq – buloq qishlog`i axolisini turmush tarzini o`rganish natijalarishuni ko`rsatdiki, o`ziga to`q, badavlat odamlar “yozlash”ga (yoz faslida o`zlariniig chorva mollari bilan tog`li, salqin, baxavo joylarga ko`chib, o`tish davri) ketishar, kam ta`minlangan oilalar esa “yozlash”ga chiqishmas ekan. Bu erda axoli asosan o`tovlarda yashashar edi, va uni asosan milliy tarzda, o`z vo`li bilan to`qishgan gilamlar bilan bezatishar edi. Jizzax viloyatini Kongli va Zomin viloyatini Qora – Qursaq qishloqlarida faqat turg`un dexqonchilik bilan shug`ullanuvchi axolisi paxsa devorli uylarda yashagan va ularda “o`tovlar” ga xos bezaklar umuman aks ettirilmagan. Lekin ular o`ziga to`q oila bekalarining sandiqlarida saqlanib qolgan. Bular ekspeditsiya a`zolariga ko`p milliy buyumlar to`g`risida o`z ma`lumotlarini joylarida o`rganib chiqish imkoniyatini yaratib beradi va bazilarni Toshkent muzeylari uchun olishga muvaffaq bo`lishdi.

O`rganilayotgan qishloqlardagi barcha pat – gilam maxsulotlari asosan qadimgi ish namunalari edi. Ekspeditsiya a`zolari bu pat-gilamlarni to`qishni va unda qo`llanilgan naqshlarningramziy ma`nolarini biladigan to`quvchini uchratishmadi. shuningdek bu pat gilamlarda qo`llaniladigan asbob uskunalar xam saqlanib qolmaganiga guvox bo`lishdi. Ancha og`ir texnika bilan to`qiladigan

palaslarxam ishlab chiqarmay qo'ygandi, ammo bu palos texnikasi ko'pgina ayollarga xali tanish bo'lganiga qaramay. Ko'pchilik ayollar palas maxsulotlari naqshlarining faqatgina texnik namlanishini bilishardi. Bular "Ettita ipli", "to'rtta ipli" deb yuritishar edi. Maxsus nomlari esa deyarli unitilib ketgandi. Biroq xamma gilam va palas maxsulotlari deyarli axolining ishlari edi. Ularni oldingi avlod ayollari to'qishgan. 20 yillarda faqatgina oddiy yo'l-yo'l palaslarto'qilgan. Keksa ayollarning aytishlaricha ovullarda gilam maxsulotlarini sotish uchun emas, balki o'z xo'jaligida ishlatish uchun to'qishgan. Lekin Jizzax viloyati Zomin, Ravot, Ko'rpat, Qayli, yoyilma qishloqlarida mahsulotlarini tayyorlashgan. Zomin, Jizzax va G'allarol tumanlarining ayrim qishloqlaridan tashqari pat – gilam to'qish sanoati mitan va qoraqalpoqlar istiqomat qilgan markaziy tumanlarida xam rivojlangandi. Turli tuman palas maxsulotlari o'zbeklarni tuyaqli qabilalari orasida xam to'qilgan.

4.5. Gilam maxsulotlari turlari.

Samarqand gilam to'quvchi tumanining guruxlarini turli gilam maxsulotlari patli va patsiz (palos) gilamlardan iborat bo'lgan.

Patli gilam maxsulotlari texnik ma'lumotlariga va badiiy qiyofasiga qarab ikki guruxga bo'linadi: uzun patli va kalta patli gilamlar.

Uzun patli gilamlar-to'shaladigan gilamlar bo'lib, ular katta o'lchamda bo'lmagan: julxirs va julvarak.

Kalta patli gilamlar esa xilma xil bo'lgan. Ular guruxiga to'shaladigan patli gilamlar va boshqa mayda xo'jalik buyumlari kirgan.

Kalta patli gilam to'qish texnikasi o'zbek axolisi o'rtasida patli gilamga qaraganda keng tarqalgan.

To'shaladigan gilamlar xar doim katta o'lchamda to'qilgan, uzunligi 2,0 – 2,5 m, eniga 1,2 – 1,4 m. Ularni asosan xo'jalik extiyoji uchun to'qishgan. Samarqand gilam bozorida shaxar axolisi o'rta osiyoning boshqa viloyatlari va qo'shni mamlakatlaridan keltirilgan gilamlarni ko'proq xarid qilishgan.

Ibodat uchun eshiklarni ichki tomoniga, eshik tepasiga osiladigan maxsus gilamlar o'zbek qishloqlarida ishlab chiqarilgan. Katta xonalarning erlariga to'shaladigan, o'rindiqlar uchun, xovli yoki bog' uchun mo'ljallangan noto'qima tayyorlangan materiallardan paloslar, sholchalar va turli texnika qo'llab to'qilgan maxsus gilamlar tayyorlangan. Palas po'qish texnikasidan dekorativ pardalar – qiz gilamlar to'qishda xam foydalanilgan. Qiz gilamlar to'y marosimlarida xovlilarni to'sish va sarpolarni tugish uchun qo'llanilgan va ular bo'g'cha va bo'g'jama deb atalgan.

O'zbek qabilalari orasida mayda gilam maxsulotlari sezilarli darajada turli tuman ishlab chiqarila boshladi. Uylarni bezash va o'to'vlarni qismlari biriktirilib turish uchun turli xil gilamli tasmalar, gilam payondozlar(qurt, basqurt) va boshqa maxsulotlar to'qilgan. Ularni, nafaqat qishloq axolisi, balki shaxarliklar xam, asosan ruslar turli uy jixozlari, divan, yostiqchalari, yumshoq mebellarning ustini yangilash uchun xam sotib olishgan. XX – asrning boshlariga kelib ularni ishlab chiqarish keskin kamaydi. Payondozlarining qadimiy andozalari xozirgacha saqlanib qolmagan, ular yuqori badiiy sifati bilan ajralib turadigan, chunki axoli esa ulardan o'lchami katta bo'lmagan to'shaladigan gilamlar, gilam qoplar, sumkalar

tayyorlashgan uchun ishlatilgan. Afsuski, bu ajoyib qiziqarli gilam turlari juda sust o'rganilgan.

Axolining turmush tarzidan chiqib ketgan buyumlar qatoriga katta buyum qoplar – napramach xam kirgan. Xuddi boshqa sumka va qoplarnitayyorlash kabi napramachni tayyorlash uchun, faqatgina yuza tomonlari, gilam gazlamasini ishlatgan ikkinchi tomoniga oddiy, bezaksiz, jun materiallardan ishlatgan. Napramachning yuza tomoninitor shlchamli Bo`yiga 0,9 – 1,2 m, eniga 0,35 – 0,40 m. Stanokda tayyorlangan gilam tasmalari tashkil etadi. Napramachlarni shlchamlari kichik bilganligi sababli, ularni shash uchun ishlatilmagan, shuning uchun xam axoli ularni ko'p qisimlari bozorga chiqarilgan.

Bu esa 20 – 30 yillarda O'zbekiston muzeylarida napramaklarining katta koleksiyasini buyumlar yig'ishga yordam berdi. Qadimiy to`qilgan mayda buyumlar ichida otlar uchun boy bezatilgan oddiy palos texnikasida bajarilgan gilam yopinchiqlar aloxida ajralib turadi.

O'zbek qishloq axolisi turmushida xozirgi vaqtda xam xo`jalik ishlarida qo'llaniladigan to`rva va xurjunlar ko'p tarqalgan mayda gilam buyumlariga kiradi.

Qadimiy xurjunlarning katta qismi palos texnikasida bajarilgan. (rasm 32). Pat gilamlar esa yordamchi vositalar sifatida tayyorlash naqshlarni tikish uchun ishlatilgan. XX – asrning boshlarida pat – gilamlarni to`qish texnologiyasida tayyorlangan ishlab chiqarila boshlandi.

To`rva va xurjunlar asosan xo`jalik ishlatish uchun ishlab chiqarilganligi, juda kam xollarda bozorga chiqarilgan. Respublika muzeylarida ular juda oddiy napramachlar ko`rinishida taqdim etilgan.

Pat– gilamli buyumlar: 19 asrning o`rtalarigacha gilam to`quvchilar asosan tuya va qo`y junlaridan tayyorlangan iplardan, XX – asrga kelib echki junidan tayyorlangan iplardan xam foydalanilgan. 19-asrning ikkinchi yarmidan boshlab gilam maxsulotlari uchun paxtadan tayyorlangan iplar ishlatila boshlandi. Lekin qog`oz iplardan foydalanish o`zbek pat gilam ishlarida 19-asr boshi va XX – asrlarda kam uchragan. Asosida qog`oz iplar bo`lgan maxsulotlar 30-35 % tashkil qilardi.

Qadimiy gilamchilik ishlarida o`simlik bo`yoqlari bilan bo`yalgan ishlar ishlatilgan. (ko`k rangdan tashqari xamma ranglar). To`quvchilar iplarni ko`k rangdan tashqari xamma iplarni o`zlari bo`yaganlar. Faqatgina ko`k rangni maxsus bo`yoqchilarga berishgan. Animen bilan bo`yash juda qadimiy xisoblangan, ipni birinchi bo`yagandayoq, bo`yoqni o`chmasligi va mustaxkamligi saqlangan. 19-asrning 2 yarmi va XX – asrning boshlarida ishlangan gilam buyumlari notekis bo`lganligi bilan 19-asrda o`simlik bo`yoqlari bilan bo`yalib tayyorlangan buyumlardan keskin farq qiladi.

To`qimachilik texnikasi va patni xarakteriga ko`ra gilamlar aloxida aloxida tasmalanilgan qo`shib tikilgan va yaxlit to`qilgan gilamlarga bo`lingan. Birinchisi (15 mm gacha), patlarning uzunligi bilan ikkinchisi patlar kaltaligi (7 mm gacha), bilan o`rta sifatli turkman gilamlarining patlariga yaqinlashadi. Kalta patli mayda buyumlar turkman gilamlaridan farqli ravishda tor o`ramli to`qish stanoklarda to`qilgan, chunki keng o`ramli stanoklar kam uchraydigan va umumiy qoidalardan

chiqarib tashlangan. Tor o'ramli stanoklar juda mashxur bo'lgan "jul'xirs" gilamlarini to'qishda keng qo'llanilgan.

Adabiyotlar bu gilamlar to'g'risida juda qisqa ma'lumot berilgan. A.A.Semyonov va S.M.Dudin bu gilamlar to'g'risida eslab o'tgan, lekin ularning na nomini na ishlashini va texnik sifati xaqida aytilmagan. Jul'xerslarning 1910 – 1914 yillarda Buxoro va Samarqand bozorlarida sotilganligi to'g'risida yozganligi Dudini eslatmalari juda qimmatlidir M.F.Gavrilov esa o'zining "Milyabod o'zbek ayollarining to'quvchilik san'ati" ishida jul'jerslar xaqida to'liqroq ma'lumot bergan. Uning ta'kidlashicha, o'lchami katta bo'lmagan, o'rta sifatlil "pati zulvarak" deb nomlangan pat gilamlari asosan axoli uchun ishlab chiqarilgan V.G.Moshkova jul'xerslarga to'g'risida maxsus maqola xam yozgan. Samarqand viloyatining turli tumanlarida jul'xersning bir xil yoki xar xil terminlari tarqalib ketganligi ulargatalab ko'p bo'lganligidan dalolat beradi lekin ularni ishlab chiqarish maxalliy xudud bozorlaridan tashqariga chiqmagan. Jul'xers o'zida nimani ifoda qilgan?

Jul'xers bu yaxlit to'qilgan gilam bo'lmay, mayda tasmalardan yig'ilgandir. 2ta o'rta tasmaning kengligi 0.5m, 2ta chetki tasmalarni kengligi – 0.2m dan oshmaydi. Tasmalarni kengligi gilamning naqshi bilan juda aniq birlashgan, zich to'qilgan patlar tufayli choklar ko'rinmay turadi. M.F.Gavrilovning ma'lumotlariga ko'ra Milobod jul'xernlari to'rtta ko'ndalang xar birida kengligi 0,3 metr bo'lgan tasmalardan to'qilgan. Muzeylarda 2 yoki 3tasmalardan tuzilgan gilamlarda uchraydi. Jul'jerslar o'choq yoki sandallarda uzunligi 2-2,5 m, kengligi 1-1,4 metrlar atrofida erga to'shash uchun ishlatiladigan mexmonxonaga mo'ljallangan. O'z bek san'at muzeyida keng, uzundarojka ko'rinishida jul'xers saqlanib qolgan. Ular mexmonlar uchun yaratilgan. shuning uchun bu kabi gilamlar xurmatli uyga va bozorda sotish uchun xam ishlab chiqarilgan.

Jul'xerslar ishlab chiqarish uchun o'zbek gilamchilari qo'llagan texnikasi qo'shni mamlakatlardagi gilamlar ishlab chiqarish texnikasidan farq qiladi. Jul'xerslarning patlarini ikki bo'g'indan qilib asosning yuqori qatoriga pastki qatori iplari esa mato ichiga, arqonni birlamchi yurishi orqali qo'shib to'qiladi. Lekin bunday usulda gilam to'qish O'rta osiyo mamlakatlarida kam uchraydi. Jul'xersning matosi yumshoq bo'lib, 1 dm² ga 240-250 tugun to'g'ri keladi. Patning balandligi ("ayiq terisi") nomiga ko'ra 15-20mm gacha etadi. Bu ko'rsatkich oxiri ko'rsatkich bo'lib, qolgan gilamlarda patning uzunligining maksimal balandligi 10-11 mmdan, minimali 3-4 mmdan oshmaydi. Pat gilam iplari pichoq bilan qirgandan so'ng qaychi bilan yana tekislanmaydi, shuning uchun jul'xerslarni ust qismi notekis bo'ladi. Bu texnik ko'rsatkichlar kalta patli maxsulotlar uchun qo'llaniladi. Ularni 2 tugundan emas, bir tugundan to'qiladi, xar bir tugun asosning juft iplarg tepa va past qatoriga bog'lanadi. Lekin yarim tugunni qo'llashda o'zbek savdogarlari arqoq ipni bir martta o'tqazuvchi Farg'ona vodiysining qirg'io'laridan farqli, o'tkazishadi.katta patli buyumlarning zichligi jul'xers gazlamalarining zichligiga nisbatan ancha yuqoridir 1kv d m ga 400-800, mayda buyumlarda 950, ayrim xollarda-1020tugunni arqoq ipi bo'yicha-34, asos ipi bo'yicha-30 tani tashkil etadi.pat uzunligi 4-9mm ga tengdir. chevarlar patlarni qaychilar bilan tekislashadi. shuning uchun gilam yuzasi tekis va silliq bo'ladi.

yaxlit to'qilmagan pat gilamlar uchta, eni 0.35-0.4m bo'lgan tasmalar (darojkalardan) qo'shib tikiladi (24-rasm) Samarqand muzeinikollektsiyasida o'zbek chevarlarining bitta shunday 2ta darojkadan tikilgan kalta patli gilamsaqlanib qolgan. shulardan ko'rinib turibdiki, o'zbek gilamchilik san'ati uslublari to'qish va gilamning xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Uzun patli to'shama "julxirs" gilamlarining naqshlari: Jul'xers gilamlarining umumiy "koloriti" to'q fondan iboratdir. Bu naqshlarning va fonning rangli qatori bilan ifodalanadi. Jul'xerslarda jigarrang pat iplari ishlatiladi. (tuya va qo'y junlarining tabiiy ranglari). Ranglarning soni ba'zi xollarda 9 ta ga etadi ayrimlari qizil, ko'k, sariq va to'rtta tabiiy ranglar – oq, qo'ng'ir, jigarrang va qora. qadimgi gilamlarda ustivor rang bo'lib to'q qizil rang ishlatilgan. Och ranglar faqat mayda detallarda ishlatilgan Keyingi davrgi gilamlarda, bozorga anishning kirib kelishi bilan, gilam naqshlarining ranglari ancha yorqinroq bo'ldi. Jul'xerslarlar kompozitsiyasining xarakterli tomoni markaziy maydon cheklanishining ko'rinishidir. To'qish texnikasining pastligi to'g'ri ramkani ko'rsatishga imkon yaratmadi. Ayrim qadimgi jul'xerslarda ramkalari mutlaqo mavjud emas. Uzunasiga tomon milklari O'rta Osiyo gilamlariga xos tuzilishga ega emas, chunki o'rtadagi keng naqshli tasma ikkala tomondan qatorlar bilan chegaralangan. Ko'ndalang milklar sodda naqshlar bilan, ba'zi xollarda ko'ndalang milklarga nisbatan farqli enli, bezatiladi. ba'zi xollarda markaziy qirsmi bo'rtirib ko'rsatish uchun bo'ylama tomonidan aloxida tor eni 20sm gacha bo'lgan gilam tasmalari to'qiladi va gilamga tikib chiqiladi. 25rasm Jul'xerslarlarning markaziy maydon kompozitsiyasi ikki xil ko'rinishda keltirilgan. Birinchisi – naqshlari markaziy maydonda tekis bo'ylama qatorlar bilan, ba'zi xollarda bir-biridan tor tasmalar bilan ajralib turadigan ikkinchi-markaziy maydonni geometrik to'r bilan ishlanganligi bilan xarakterlanadi. 1929 yilda tashkil etilgan ekspeditsiya bioponidan topilgan jul'jers gilamlarini oxirgi nusxalarida naqshlari juda sodda ekanligi ko'rsatadi. Jul'jersning chekka qismlariga (milklarga) sodda naqshlar tanlanadi va elementlarining turli – tumanligi bilan boshqalardan farq qilmaydi. xuddi shunday ornament naqshlar Milabad jul'jerslarida ishlatilganligi xaqida M.F. Gavrilov ta'kidlab o'tgan edi. Ularning markaziy maydonida sakkista kashta medal'on joylashgan bo'lib

Kashtapatli to'shaladigan gilamlarining naqshlari, uning o'rtasida tumor, kosa va oy ifodalangan. Qadimgi jul'jerslarning qiziqarli namunalaridan ikitasi O'zbekiston xalqlari tarix muzeyida saqlanib kelinmoqda. Jul'jers gilamlari milabat o'zbeklarining pargayuz qabilalariga mansub deb xisoblanadi. Lekin 1929 yillarda tashkil etilgan ekspeditsiyasi tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda ular topgan jul'jerslar Kongli va Qora – Qursak qabila axolisiga mansubligi aytib o'tilgan edi, lekin bu qabila bilan nikoxlar o'tkazishganligi sababli, u jul'jerslar kimga mansubligi noaniq qolgan edi. Lekin xamma ma'lumotlardan kelib chiqqan xolda, shuni aytish kerakki, gilamchilik san'ati O'zbekistonda ancha oldin rivojlangan bo'lib, gilamlarning qadimgi nusxalaridan jul'jerslar so'zsiz O'rta Osiyoga mansubdir.

Kalta patli to'shama gilamining naqshlari: Gilam tasmalardan tayyorlanadigan kaltpatli gilamlar jul'xerslardan kompozitsiyasi va naqshlari bilan xam farq qildin. Lekin chevarlar tomonidan qo'llaniladigan bir muncha

takomillashgan texnika. (ingichka junlari qo'llanilish to'qish zichligini yuqoriligi patni tekis maromli chiqishi uchun qaychilardan foydalanilganligi) eng yaxshi badiiy natijalar olishimskoni yaratdi. Kaltapatli gilamlar naqshlari bir muncha nozikdir. Naqshlar atrofi to'q rangda chiziqlar bilan bostirilib chizib chiqilgan natijada ularaniq va jonli ko'ringan yuqori malakasi chevar to'quvchilar aloxida gilam tasmalarni naqshlarniani xisoblasha olganlar. Gilamni teskari tomonidagina u yaxlit to'qilgan bo'lmay aloxida qismlardan yig'ilganligi aniqlash mumkin bo'lgan.. Bazida xollarda bunday gilam etarlicha kenglikdagi ikkita tasmadan tashkil etardi.

Kaltapatli yaxlit to'qilgan gilamlarni bu erda yaqindagina paydo bo'lgan, bu axolidan o'zlari ishlab chiqarilgan yaxlit to'qilgan gilam yo'qli bilan tasdiqlanadi. Ko'pincha kalta patli gilam buyumlarining umumiy rangi bir muncha bo'g'iqlik, bungag sabab maxalliy junlarni etarli darajada yorqin bo'lmaganligi va rangldardan etarli darajada foydalana olmaganligidadir chevar to'quvchilar gilam to'qishda ergashgan xolda yaxlit to'qilgan patgilamlarini naqshlari udumlariga telnotakni kalta patli gilamida naqsh paydo qilib markaziy qismi yorqinroq bo'lishiga xarakat qilishgan.

Patli gilamlar chetlari xar doim tor kalta va kamtarin bo'lgan (0,20-0,25 mkeng emas) Kaltapatli gilamlarning markaziy maydoni bezash, va fonning nisbati aniq emas. Ba'zi gilamlarda naqsh o'lchamlarining maydoniga rangdan fondan ega bo'lsa ikkinchi turda teng bo'lishi va naqshlar aloxida ajratilib ustun turrishi mumkin.

Gilamlarning markaziy maydoni kompozitsiyasi bir necha tipda bo'ladi. Turli, yo'l-yo'l va rapport Markaziy maydon o'ziga xos kompozitsiyaga ega va to'rtta keng naqshli tasmalardan iboratdir. Bir biridan tor to'q rangli ikkita chiziqlar bilan farq qilib turadigan yaxlit to'qilgan gilamlar o'zida turli xil urf odatlarga bog'liq naqshlarni mujassamlagan. Chevar to'quvchilar ko'pincha to'kishda maxalliy gilam naqshlardan, shuningdek markaziy maydon uchun mayda pat buyumlarni naqshlarini Qayta ishlab ba'zan o'zgartirmay ishlatib turishgan.

O'zbek yaxlit to'qilgan gilamlar ichida uncha katta bo'lmagan gilamchalarning qiziqarli andozalari va yorqin naqshli medal'onlar uchrab turgan Patli iplarni xamma asosiy ranglari toza va teran taqdim etilgan, lekin etarlicha to'q rangda – to'q qizil 2 ta rangda, to'q ko'k, yashil va jigarrang. Bu to'q gamma sariq va oq ranglarni jonlantiradi.

Medal'olarnning ranglari 2 xil: birinchisida naqsh to'q rangda joylashsa-boshqasida esa yorqin. Nafis oddiy naqshlar, ranglar va junlar oliy sifati, maxsulotga noyob yorqin tavlani beradi, bu esa kamtarin gilamchani chinakam san'at namunasi darajasiga olib keladi. Buyum chekkalarini naqshlari juda oddiy, bular bir-birlari bilan birlashgan yoki bir – biridan ma'lum masofada joylashgan "shoxga" o'xshash zig-zag chiziqlari romb, uchburchak va kvadratlardan iborat.

Mayda kalta patli buyumlardagi naqshlar: Qadimiy mayda buyumlarning naqsh bezaklari bir – biridan farq qilgan. barcha ko'rinishlarga xos bo'lgan ko'pgina badiiy printsiplari yo'qola boshlagan bir muncha o'zgartirilgan: yo'lakchalarning aloxida qismi kaymasiz yoki turli naqshlar bilan tikilgan. O'tov

sholchalarining qadimiy nusxalarida markaziy maydon ikki tomondan bir xil tipdagi tor qatorlar bilan chegaralanganligini ko'ramiz keyinroq bu printsip buziladi va sholchalar xar xil naqshli va milksiz (kaymasiz) to'qila boshlaydi .

Buyum qoplari – napramach: Napramachlar kompazitsion echimi va naqshlari ko'rinishi bo'yicha unga xilma xil emasdir. Markaziy maydon barcha tomonlaridan kamtarona tanlangan chetliklar bilan o'ralgan. Markaziy maydonda qator-qator qilib barcha mativlarni joylashtirish mumkin.to'rli kompozitsiya o'zbek napramachlarda kamroq uchraydi. Naqshlarni tashkil etuvchilar bu asosan kuchqorak gajaklari bilan bezatilgan romb. Bundan tashqari ular ichiga geometrik tasvirlar: kvadrat va krestlar va bir – birlarida mujassamlangan va ko'pburchaklar ichiga oddiy vapog'onali konituralar bilan joylashgan figuralardan tashkil topgan. Ba'zi naqshlar Nurota tog'etaklarida joylashgan o'zbek turkmanlari tomonidan to'qilgan to'shama gilamlariga xosdir. Turli kompozitsiyali napramachlar uchun o'simlik ta'svirlari juda xarakterlidir. Bir-xil formali o'zbek o'zbek napramachlari bir – birlaridan mayda detallari va ranglari bilan farq qiladi.

Samarqand gilamlarida va naqshlar tasvir kompozitsiyasining o'rni.

Imorat va buyumlarda naqshu nigorning o'rni kattaligini dallilarda ko'rdik. Islom dini o'rnatilgunga qadar imoratlarda ko'proq syujetli tasvir, buyumlarda idish gilam zoomorf suratlar ishlangan. Ular o'simliksimon va geometrik naqshlar bilan to'ldirilgan. Devoriy suratlarda ko'proq mehmon kutish, har xil marosimlarning ijro etilishi, ov jarayoni tasvirlangan. Saroy, mehmonxona devorlarida syuje'li suratlar ko'proq ikki uch yarusda chizilgan. Bunga ergonomik nuqtai nazardan yondashish kerak. shuni aytish kerakki, saroylarning devorlari baland bo'lgan. Syujetli surat personajlari xona devori balandligida ishlansa, ularni xona markazida turib ilg'ab olish qiyin. Buning uchun xonaning bir burchagiga borib, ikkinchi burchagiga uzoq tikilib qarash lozim. chunki surat kompozitsiyasi kishi ko'zi diapazoniga yaxlit sig'maydi. shuning uchun ham rasmlar ikki-uch yarusda ishlangan. Varaxshda devoriy tasvirning uchinchi yarusi qolganlariga nisbatan baland olingan. Bu tadbir bilan rassom uchinchi yoki ufq chizig'idan yuqoridagi yarusning tomoshabinga yaxshi ko'rinishni e'tiborga olgan bo'lsa, ajab emas.

Shuningdek, tasvirdagi personajlarning mavqei ham e'tibordan chetda qolmagan. Misol uchun podshoning suratini yaruslardagidek kichik holda ishlash mumkin bo'lmagan. chunki tasvirdagi personajlarning barchasi uchun podSho surati asosiy (dominant) rol o'ynagan. Bu esa podshoh suratini alohida devorda, devorga osiladigan gilamlarda katta hajmda ishlashni taqozo etadi. shuning uchun ham xona to'ridagi devor tanlangan. Uning o'rta qismida podSho surati, ikki tarafidagi ikkinchi (Yarusda) qavatda vaziru ulamolar surati ishlangan. shunday kompozitsiya Varaxsha saroyining sharq tomonidagi qabulxonada va Panjakent saroyida ko'ramiz. Mazkur uslub bilan saroy uch devoridagi suratning yaxlit ko'rinishi va uning kompozitsiyasi hamda ma'no jihatidan xona to'ridagi suratga bo'ysunishi ta'minlangan.

Devoriy tasvirlar bir yarusda ishlangan holda ham uchraydi. shular jumlasiga Bolaliktepasidagi devoriy surat kiradi. shuni aytish kerakki, Bolaliktepa saroyidagi

suratli xona yuzasi 23,6m, xona yon devori uzunligi 4 m 85sm, balandligi esa 2 m bo'lgan. Albatta, bunday xona faqat bir yarusda surat ishlash lozim. Bunday balandlikdagi devoriy surat kompozitsiyasi xonaning hamma qismidan ko'rinadi.

Syujetli tasvirlarni amaliy san'at buyumlariga ham ishlashgan. Misol tariqasi Marvdan tariqasida Marvdan topilgan V asrga oid ko'za yuzasiga ishlangan syujetli tasvir kompozitsiyasini ko'rib o'tamiz. Ko'za ikki dastali. Uning yuzasida bir nechta syujetli personajlar bo'lib, ko'za markazida erkak va ayolning bir-biriga qarab o'tirgani tasvirlangan. Mazkur tasvirda to'y marosimi ifodalangan bo'lsa kerak. Qolgan syujetlarda ov jarayoni, qaxramonning o'lim to'shagida yotgani, uning atrofida oila a'zolari va tabib surati, manzilga ko'tarib borilayotgani tasvirlangan. Bizningcha, ko'za yuzasidagi tasvirda hayot va o'lim ma'nosi ifodalangan bo'lsa kerak. Doirasimon vertikal yuzada to'rtta syujetni o'z ichiga olgan tasvirni joylashtirishda kompozitsiyaning o'rni katta, albatta. Buning uchun syujetlarni qismlarga ajratish lozim bo'lgan. Rassom to'y va ov jarayonini old tarhga, ya'ni birinchi planga olib, ularni ko'za yuzasining ikki ochiq bahavo tomonida katta hajmda tasvirlangan. Qolgan syujetlar ko'zaning pastroq qismiga joylashtirilgan. Syujetlar ravoq, doira kabi elementlar bilan bir-biridan ajratilmagan. Naqsh yoki chiziqlar bilan ham chegaralmagan. Ular alohida-alohida syujetlarni ifodalovchi to'p-to'p tasvirlarni tashkil qiladi. Syujetlar kompozitsiyasi bir-birini qisman to'sgan joylarda esa qoplangan syujet ikkinchi planga o'tib qoladi. shuningdek, kompozitsiyalar oralig'idagi bo'sh yuzalarga lola guli va amaliy san'at buyumlari tasviri ishlangan. Syujetlar har xil ma'noga, qismlarga ega bo'lishiga qaramay, ular yaxlit kompozitsiyaga birlashtirilgan. Syujetlarni kompozitsion birlashtirishda yaqin, uzoq plnlprgp amal qilingani, syujetlar atrofidagi manzaraning bir xilligi, personajlarning katta-kichikligi, amaliy san'at buyumlarining onda-sonda joylashtirilishi qo'l kelgan. shuningdek, personajlarning katta-kichik hajmda ishlanishi syujet asosiy qahramonlarini ajratish imkonini bergan.

Amaliy san'at buyumlarini uzunchoq tuzilishda (ko'za va ko'zvsimon idishlar) bo'lsa, syujet personajlari xuddi xona devorlaridadek bir chiziqda tasvirlangan. Ayirim hollarda personaj tasvirning bir qismi dasta yuzasiga ham o'tib ketgan (Binkat qadahi)



190-rasm. Marv. Yuzasi tasviriy surat bilan bezatilgan sopol ko'zacha. V asr.

Shuningdek, buyum yuzasidagi personaj kichik bo'lsa, uning atrof xuddi ramkaga olingandek geometrik yoki o'simliksimon naqshlar bilan o'ralgan. shunday kompozitsiyani munchoq tepadan topilgan XI-XII asrlarga oid siyohdonda esa odam tasviri ravoq ichiga olingan.

Ko'zalar bo'yni qorin qismidan ko'pincha to'q rangli to'g'ri, to'liqsimon chiziqlar bilan ajratilgan. Marvdagi ko'zacha bo'yni pastki qismida yuqori tomoni ritmik tizimda qaytarilgan burama-burama kungurali chiziq bilan aylantirgan. Tog'larda esa ko'za qorinchasining yuqori qismi bir yoki ikki qator qavariqli chiziqlar bilan belgilangan. Mazkur jimjimador naqsh xuddi kiyim yoqasini eslatadi.

Katta xumlarning bo'yin va qorin qismlari ham zanjira, to'liqsimon chiziq va ayol bo'yniga osiladigan taqinchoq kompozitsiyasiga o'xshash naqshlar bilan ajratilgan. Bunga Xarajket 1 xaroblaridan topilgan o'rta asrlarga oid xum ham guvohlik beradi. Xum elkasiga ishlangan naqsh ko'proq ayollar bo'yniga taqadigan ko'p figurali taqinchoqni eslatadi. Mazkur vertikal tuzilishdagi xum qismlari gorizontall kompozitsiyasida ishlangan taqinchoq shaklidagi bezak bilan badiiy jihatdan bog'lab yuborilgan. Bu borada shuni ham aytish kerakki, katta xumlarning hamma qismini naqsh bilan to'ldirishga hojat bo'lmagan. Uning ko'rinarli joyida, ko'proq qorin qismida bironta naqsh ishlansa, bas. shuningdek o'ziyoq xum kompozitsiyasini jonlantirib yuborgan.

Ilk o'rta asrda metall buyumlarga, X asrlarda Afrosiyob sopol buyumlariga tirik mavjudot tasvirini doira ichiga olish odatini ko'p uchratdik. Mazkur uslub mato naqshlarida ham mavjud. Jumladan, «zandanachi» mato yuzasidagi qo'chqorlar ikki qavat doira ichiga olingan yoki Bolaliktepa qasridagi tasvirda qanotli ot keng doira bilan aylantirilgan. Tasvirni doira ichiga olish odati metall va sopol buyumlar (tovoq, kosa) kompozitsiyasidan o'tgan bo'lsa, ajab emas. chunki doira yuzasidagi surat hamma vaqt uning aylana gardishi konturi –sirtki shakli bilan tugaydi.

Tirik mavjudot surati yoki doirasimon mayda naqshlar idish (lagan, kosa) yuzasida siyrak joylashtirilgan kompozitsiyada uchraydi.




191-rasm Samarqand. XI-XII asrga oid sirli sopol parchasida qushlar tasviri.

(Samarqand, X XI). Mazkur uslub idish kompozitsiyasi nafisligini ta'minlangan va undagi tasvirlarni oydinlashtirgan.

XI-XII asrlardan boshlab ko'p qirrali doirasimon turunjlar buyum markaziy kompozitsiyasidan tirik mavjudotlar tasvirini siqib chiqara boshlaydi. Doirasimon, yulduzsimon, rombsimon naqshlar, bag'dodi eshiklar, so'zanalar, gilamlar yuzasida keng qo'llanilgan. Doiralar ichi mayda, nafis geometrik, islami, o'simliksimon, doirasimon naqshlar bilan to'ldirilgan. Ulardan har tomonga gul novdachalari tarqalgan. Turunjlar naqshli yuza kompozitsiyasida o'zining kattaligi, yaxlitligi, rang-barangligi bilan dominantlik vazifasini o'ta boshlaydi.

Zoomorf naqshlar bezak san'atidan butunlay chiqib ketmaydi. Ular ikkinchi planga o'tadi, xolos ularni XIX-XX asr boshlariga oid san'at asarlarida ham mumkin. Jumladan, XIX-XX asr gilam naqshlarida qo'chqor shoxi va boshqa hayvonlarning, jonzotlarning mavhumlashtirilgan rasmi markaziy geometrik, o'simliksimon naqshlarni boyitishda, shuningdek, gilam atrofini aylantirishda keng qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz

Bir xil naqshlar (geometrik mavhumlashtirilgan tirik mavjudot iasviri)dan tuzilgan kompozitsiyalar mato, gilamlarda ko'p uchraydi. Bunday paytda tasvirlar har xil kompozitsiyada joylashtirilishi hisobiga jonlantirib yuborilgan. Jumladan, Qo'chqor vohasidan topilgan XI-XII asrlarga doir matoda bo'yni uzun, qanotlari yozilgan qushlar, aniqrog'i, turnalar (192-rasm) tasviri bir-biriga qarab diogonal chiziqda uchayotgan kompozitsiyada yaratilgan. XIX asr oxiriga doir Buxoro adrasi bezagi kompozitsiyasida chayonlar rasmi, shaxmat taxtasidagidek, o'yin kataklari yo'nalishida joylashtirilgan.



192-rasm Qirg'izstoning qo'chqor vohasi. XI-XII asrlarga oid mato

Birinchi turdagi kompozitsiya buyuk nemis rassomi Esherning turnalari rasmini eslatadi. Naqsh kompozitsiyasida bir xil yoki ikki xil kattalikda ishlangan romb, kvadratlardan tuzilgan bo'lishi mumkin. Bunda romblar yotiq va tik yo'nalgan chiziqlarning uchrashgan joylarida ishlangan bo'ladi. Turtta romb oralig'ida paydo bo'lgan ochiq yuza kichik hajmdagi romblar bilan to'ldirilgan. Natijada katta va kichik romblardan ritmik tartibda tuzilgan kompozitsiya vujudga kelgan.

Katta geometrik naqshdan tuzilgan gilam kompozitsiyasini boyitish lozim bo'lganda katta naqsh markaziy o'qlar yordamida qismlarga bo'lingan. Qismlar navbatma-navbat och va to'q zaminlarda ifodalangan. Geometrik naqsh chiziqlari och rangli zaminda to'q rangda, to'q rangli zaminda och rangda davom etirilgan. shuningdek markaziy naqsh atrofidagi yuzalar yaxlit va bir yoki ikki rangli geometrik naqsh yuzasi bir-biri bilan bog'lanib ketgan simmetrik qismlarga bo'linib, rang-barang, lekin badiiy tuzilish jihatidan yaxlit kompozitsiyani tashkil qiladi.

Xullas, ota-bobolarimiz tasvir naqshlarning rang-barangligi, joylanishi bilan maskan inter'erida, gilamlarda uy – ro'zg'or buyum, gazlama mahsulotlarida boy badiiy kompozitsiya yaratilishga xarakat qilishgan.

4.6. Bezak kompozitsiyasida, xushxat yozuvlar o'rni.

Me'moriy obidalarining devorlarida, shift, eshik, ustunlarida va amaliy san'at buyumlari, jumladan gilamlari bezagi kompozitsiyasini boyitishda X-XI asrlardan boshlab yozuv katta rol o'ynagan. Yozuvlar asosan arab alifbosida (kufiy, suls, nasx), ma'no jihatidan diniy, falsafiy, tarbiyaviy mavzularda bitilib, buyum muallifi va yaratilgan sanasi yozib qoldirilgan.

Harflar tizimidan serma'no jumlar, serjilo, nafis kompozitsiyalar yaratilgan.

Yozuvlar diniy (masjid, madrasa, maqbara) obidalar va turarjoylar mehmonxonasi inter'erlar hamda amaliy san'at buyumlari yuzasida keng qullanilgan. Obida inter'erining ko'rinarli joyida, ko'proq mehrob, gumbaz gardishi bo'ylab shift sharafasi ustidagi hoshiyada bitilgan. Jumladan, XI asrga oid shir Kabir masjid-maqbara mehrobining katta va kichik ravoqlari yo'nalishi bo'ylab yozuv ishlangan. Katta ravoqning ostida ikki qator gorizonta, kichik ravoq ostidagi gorizonta qatorda ham yozuvlar mavjud. Mazkur obidadagi yozuvlar qatori mehrob kompozitsiyasining funktsiya, bezak hamda ma'no jihatidan ahamiyatli ekanligini ta'minlaydi. Shuningdek mehrobning qolgan qismidagi doirasimon, o'simliksimon naqshlar bilan o'zaro bog'lanib, uning kompozitsiyasini boyitadi. Tashqi chizig'i to'rtburchak ko'rinishdagi mehroblar yozuv qatori ham shunday tuzulishiga ega. Bunga Xoja Ahmad yassaviy masjidi mehrobi misol bo'la oladi.

Yozuvlar kompozitsiyasi buyum tuzilishiga bog'liq bo'lgan. Masalan, aylana shaklli buyum yuzasidagi yozuv aylana qatorni-halqani tashkil qilgan. Bunday paytda yozuv qatori buyumning ko'rinarli joyidan o'tkazilgan. Yozuv har xil qalinlikdagi bir nechta qatordan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Jumladan, Xoja Ahmad yassaviy maqbarasida birinchi qozonning yuqori qismi qar xil qalinlikdagi uch qator yozuv bilan aylantirilgan. Oxirgi qatordan qozonning tagiga qarab

yo`nalgan o`nta madoxilga monand naqsh yozuvli qatorlar bezagini boyitadi va ularga kompozitsion yaxlitlik bag`ishlaydi. shu maqbaradagi mis chiroqlarda yozuvli qator gorizontall naqsh halqalar bilan o`rin almashib keladi. Unda naqsh va yozuv kompozitsion bog`lanib, bir-birini boyitadi.

Amaliy san`at buyumlaridagi yozuv qatori ikki tomonidan naqshli hoshiya bilan chegaralangan holda ham ishlangan. Masalan, Samarqanddan topilgan XIV-XV asrlarga oid ko`zachaning qorin qismi o`rtasidan o`tgan yozuv qatori ustidan va pastidan islimi naqshli hoshiya bilan chegaralangan. Hoshiyalar yozuv kompozitsiyasining ham ma`no, ham bezak jihatidan ahamiyatini ta`kidlab turadi.

Yozuvlar doirasimon, ellpisga o`xshash doiralar ichiga olingan holda ham uchraydi. Bunga Samarqanddan topilgan XVIII-XIX asrlarga oid mis do`lcha misol bo`la oladi. Undagi yozuv qatori bir nechta ellpis shaklidagi doira ichiga olingan. Yozuvli doiralar oralariga gul va katta katta barglar kompozitsiyasidan tashkil topgan doiralar joylashtirilgan.


Kvadrat-murabba` tuzilishdagi yuzalarga yozuv yaxlit kompozitsiyada, ko`pincha, bir qatorga o`yib ishlanadi. Kvadrat yuzani to`ldirish uchun «alif», «lom», «zol», «dol» xarflarini baland qilib yozishgan. Jumladan, Xoja Ahmad yassaviy va shohi Zinda ansamblidagi Qusam ibn Abbos maqbaralari eshiklarining yuqoridagi kitoblari shunday kompozitsiyaga ega. Harflarni baland qilib yozish amaliy san`at buyumlarida ham uchraydi. Bunga O`rtatepadan topilgan XII asrga oid mis ko`zacha (ShHamsiev ko`zachani deb ataladi) va Samarqanddan topilgan XIV-XV asrlarga oid kichkina mis idish misol bo`la oladi. Qizig`i shundaki, O`rtatepadan topilgan mis ko`zachada «alif», «lom», harflarining yuqori qismi tepaga ko`tarilgan sayin qalinlashib boradi. Bu tadbir yozuv qatoriga o`zgacha husn ato etganki, u bir qarashdayoq kishi diqqatini o`ziga jalb qiladi.

Shuningdek, kvadrat-murabba`, yuzadagi yozuvlar kompozitsiyasi ikki uch qatorda bajarilgan bo`lishi mumkin. Bunday paytda yozuvlar bargli va gulli ingichka nihollar bilan birlashtirilgan. Jumladan, Xo`janddagi shayx Muslihiddin kompleksidagi eshikning tepa kitoblari shunday kompozitsiyaga ega. Kitoblardagi yozuvlar qalin va chuqur zaminga ega. shuning uchun ham undagi o`simliksimon naqsh ikkinchi planga o`tgan va yozuv kompozitsiyasi zaminini boyitishga xizmat qilgan.

Ko`pchilik buyumlar yuzasida yozuv bilan naqsh birgalikda keladi. Masalan, yozuvlar zoomorf tasvirlar yuzasida yoki oralig`ida (Ko`hna Ayoزدan topilgan XII asrga oid bronzali idish) hamda vaqt harakatini ifodalovchi «hamesha guli bahor» naqshi (O`rtatepadagi XII asrga oid ko`zacha), katta-kichik gullarni o`z ichiga olgan ko`p niholli “serbarg” naqsh (SHaxrisobzdagi XV asrga oid shamsiddin Kulol maqbarasidagi eshik), mayda o`simliksimon naqsh (Samarqanddagi XIV-XV asrlarga oid ko`zgacha) va boshqa naqshlar bilan birgalikda kelgan. Bunday paytda yozuv qalin va qalin va chuqur zaminda ishlanadi, naqshlar esa ingichka va mayda qilib o`yilgan. Natijada yozuv birinchi planga, naqshlar esa ikkinchi planga o`tadi. ya`ni naqshlar yozuvga zamin bo`lib qoladi va uning kompozitsion ahamiyatli ekanligini ta`kidlab turish vazifasini bajaradi.


O`rta Osiyo yozuv harflarning o`zidan gul chiqarib yozish odati ham bo`lgan. Bunga Xivadagi Juma masjidining qadimiy ustunlari guvohlik beradi. Ulardagi

yozuv halqasi ustun tanasining pastroq qismiga joylashgan. Ko`proq «alif», «lom» harflarining yuqorirog`idan islimi va barg naqshlari ajratib chiqarilgan (186-rasm). Ajralib chiqqan braglar o`zaro bog`lanib, harflar orasida «madoxil», «mehrob», shamolda esayotgan nihol yoki daraxtga o`xshash kompozitsiyalarni tashkil qilgan.



193-rasm Xiva. Juma masjidning qadimiy ustunlaridagi bezakli yozuvlar

Yozuvlardan tuzilgan «gul», «davragul» kabi kompozitsiyasi O`rta Osiyoda ham uchraydi. Jumladan, Xoja Ahmad yassaviy maqbarasidagi ikki tabaqali eshikning temir halqalari ostidagi qismida temir harflar yordamida olti bargli naqsh kompozitsiyasi tuzilgan (194-rasm). Yozuvlardan tuzilgan davragulni Kattaqurg`on shahar mahalla masjidi shiftida uchratdik.



ماحنان
مامنان
مارنان
ماحنان
ماسنان
بابنان



194-r a s m . Turkiston. a) Xoja Ahmad yassaviy maqbarasining shimoliy peshtoqi burchak ustunidagi bezakli yozuv; b) shu maqbara eshigidagi temir halqa

Unda «alif», «lom» harflari yordamida doira yueasi markazi oltita uchuburchak va bitta oltiburchakka bo'lingan. Asht tog' qishlog'idagi «Hasht sahoba» maqbarasi devorida qora rangli harflar bilan ustiga yalov (bayroq) o'rnatilgan gumbaz tasviri ifodalangan kompozitsiyani uchratdik. Xoja Ahmad yassaviy maqbarasining burchak ustunlaridagi yozuvlarda harflar «kufiy» uslubida bo'lib, «qof» harfi egilgan niholga o'xshaydi. Baland harflarning elementlari o'rtada «baxt tuguni» ni bildiruvchi murakkab o'rma tugunlarni tashkil qiladi.

Yozuvli kompozitsiya o'z vazifasidan tashqari buyum yuzasidagi naqsh mutanosobligini ta'minlashga katta yordam bergan. Jumladan, Xoja Ahmad yassaviy maqbarasidagi ustunlardan birining tanasi pastdan yuqorigacha har xil qalinlikdagi naqshli halqalar bilan bezatilgan. Uning pastroq qismida va kalla qismining ostida qalin halqa mavjud. Pastdagi halqa yuzasi va oralig'i mayda naqshlar bilan to'ldirilgan yirik barglarni eslatadi. Yuqorisidagisida esa qalin va mayda harflardan tuzilgan baland harflar zich qilib yozilgan. Bordi-yu, yuqoridagi qalin yozuvli halqa bo'lmaganda, ustunning bezak jihatidan muntanosibligi yo'qolib, kishiga pastki qismi og'ir, usti esa engil bo'lib tuyulardi.

Xullas, me'morchilikda, xalq amaliy san'atida harflarning o'zidan bezakli naqshlar tuzilgan, yozuvlardan chiroyli epigrafik qator, yaxlit kompozitsiya hosil qilingan va ular bezak bilan o'zaro bog'lanib, bir-birini kompozitsion boyitgan hamda buyum bezagi kompozitsiyasiga mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qilgan. Amaliy badiiy san'at buyumlari va arxeologik ashyolar buning yaqqol dalilidir.

4.7. Naqshlar ramzi.

Yuqoridagi misollarda me'morchilikda, amaliy san'at buyumlariga, gilamlarga ko'plab va xilma-xil naqshlar ishlatilganligining guvohi bo'ldik. O'rta Osiyoda islom dini o'rnatilguncha qadar xona devorlarida, lagan, ko'zalarda, ostadon go'r qutilarida, hatto matolarda, gilamlarda syujetli tasvirlar ishlangan. Jumladan, Bolaliktepa qasri devorida, Marvrdan topilgan V asrga doir sopol ko'zadagi, milod avvaliga doir mis laganlardagi syujetli tasvirlar fikirimiz isboti bo'la oladi. Mazkur syujetli suratlar xalq orasida yoyilgan afsonaviy eposlarga bag'ishlanganligiga shubha yo'q, albatta. Ulardagi personajlar syujetli tasvirdagi ma'noni aniqlab turadi. shuningdek, o'rta asrlardagi amaliy san'at buyumlarida, gilamlarda xona devorlarida, badiiy matolarda daraxtlar, tog' echkisi, qo'chqor hamda grifon va parrandalar, yirqich hayvonlar surati ishlangan. Bunday tasvirlar ham ramziy ifodaga ega bo'lgan, albatta. Ular orqali ota bobolarimiz o'z orzu-umidlarini izhor qilishgan. Jumladan, kaptar-ayol xudosi (ma'buda) belgisi hisoblangan, keyinchalik xristian dini ramzi va quyoshni ifodalagan. shuningdek omad ramzini xam bildirgan.

Qirg'iy-kosmik kuchlarni ifodalangan hamda tamg'alar belgisi sifatida qo'llanilgan.

Burgut-qadimdan quyosh ramzi hisoblangan. Shuningdek kuch va hukmronlik ramzini bildirgan. Umuman tasvirlar olamida qushlar tabiat shakllaridan uzoqlashib ko'proq ramziy belgilarni ifodalaydi. Ular bilan narigi

dunyo tushunchasi belgilangan. Jumladan, kishi o'lgandan so'ng uning ruhi qush bo'lib ketadi, deb tushunilgan.

O'rdak, g'oz, tustovuq, tovu-baxt-omad, go'zallik, olam g'oyalarini, xushxabarlarni etkazuvchi-darakchi sifatida gavdalanadi. she'riyatda qushlar timsolida majoziy, ramziy ma'nolar ifodalangan. Ayirim urug'lar qushlarni o'z totemlari deb bilganlar. Jumladan o'g'uzlar (turkman)ga mansub kayin, bayot, alkireli, karameli urug'lari uchun-oq lochin; yazir, dyuker, dudurg'a, yonarlar uchun-burgut; boyondur, bechene, jaguldur chepnilar uchun –shunqor tasviri totem hisoblangan.

Hayvon-qush (grifon) O'rta Osiyo tasviriy san'atida ikki xil tuzilishda ifodalangan: qanotli sher yoki burgut boshli hayvon shaklida. Grifon tabiatdagi ikki xil kuchni, ya'ni ezgulik va yovuzlikni ifodalangan. Grifon chorvani qo'riqlab, kishiga xizmat qiladi va uni yovuz kuchlardan asraydi deb tushunilgan.

Ilon boshi tasviri XIX asr va XX asr boshlarida ishlangan choyjo'sh dastalarida uchraydi. Naql qilihlari, ilon boshining tasviri idishdagi suyuqlikni har xil ins-jinslardan saqlar ekan. qirg'iz gilamlarida uchraydigan «it izi», «it quyrug'i» nomli naqshlar ularning qadim zamonlarda itga bo'lgan hurmatini ifodalaydi.

O'rta Osiyo devoriy suratlarida, amaliy san'at buyumlarida, gilamlarda daraxt shoxchalari, gullar ko'p uchraydi. Daraxt shoxchasi hayot daraxti ma'nosini, dunyo tomiri va shon-Shuhrati novdasi ramzini ifodalangan. Islom dini o'rnatilgandan so'ng daraxt shoxchalari naqshi «saodat daraxti» ma'nosini anglatgan.

Buyumlardagi butoq, shoxcha, guldasta tasvirlari esa osmoniy «Hayot shajarasi» ning ramzi hisoblangan. Lola-tabiatning uyg'onishi ramzini ifodalangan.

Xalq amaliy-badiy san'atida va gul hamda o'simliksimon naqshlar bilan bir-qatorda mevalar ham o'z aksini topgan. Jumladan, I asrga oid bir idishda ayol zulfi va quloqlari o'rniga barg va novdalari bilan bir bosh uzum naqshi bo'rtma qilib tushirilgan. shuningdek, Munchoqtepa makoni xonalaridan birining VI-VII asrlarga oid devorlarida odam boshi bilan bir bosh uzum tasviri ko'zga tashlanadi. Anor esa I-V asrlarga oid ostadon devorlarida, I-III asrlarga oid anor ushlab turgan hosildorlik xudosi Anaxita haykalchasida, o'rta asrlarga oid kulolchilik buyumlarida ifoda etilgan. Xalq uy-joy me'morchiligida ham anorgul, anor naqshi mavjud. shuni eslatib o'tish kerakki, olma-muhabbat, anor, uzum-ezgulik, to'qchilik, to'kin-sochinlik ramzi hisoblangan.

O'rta Osiyo xalq amaliy san'ati buyumlarida, devoriy naqshlarda doira, girih, uchuburchak, romb kabi naqshlar keng qo'llanilgan. Ularning ham ramziy ma'nolari bo'lgan. Jumladan, doira, girih, uchuburchak, singari shakllar ko'pincha xonadonni, kishini har xil ins-jinslardan asrovchi ramziy belgi vazifasini o'tgan.

To'rt qismga bo'lingan aylana yoki to'g'ri to'rtburchakni Tojikistonning Xo'valing, Qangurt tumanlari qishloqlarida gildan yasalgan qutilarda ko'ramiz. Xuddi shunday naqsh X-XII asr kulolchilik buyumlarida ham mavjud. Mazkur naqshlar dunyoning to'rt qismdan yoki to'rt tomondan tashkil topganligini ifodalagan bo'lsa, ajab emas chiroyli, nafis, funktsiya jihatidan qulay bo'lishiga harakat qilingan. Saroy qabulxonalariga tanatanavorlik bag'ishlash uchun

devorlarga syujetli tasvirlar ishlanagan. Xona devorlari bo`ylab supalarda, devor tokchalarida haykallar o`rnatilgan. Suratlar, haykallar syujeti xona funktsiyasiga mos holda ishlangan.

Diniy obidalar inter`eri o`zining ulug`vorligi bilan kishini ilohiy kuchlarga sig`inishga undagan. Obidalar ichki qismi maqsadga javob beradigan darajada bezatilishi, jihozlanishi har bir shaxsni xonada bajarilishi lozim bo`lgan toat-ibodatlar tartibiga bo`ysinishga da`vat etgan. Diniy obidalarda o`sha davr dinlariga oid aqidalarni yoritishga harakat qilganlar. Jumladan, muqaddas olov uchun muqaddas o`choqning mavjudligi, xona devorlaridagi tokchalarda xudolar haykali o`rnatilishi va boshqalar fikrimizning isboti bo`la oladi. Ilk o`rta va o`rta asrlarda turarjoylarda xona devorlari bo`ylab supa o`rnatilishi ham yashash uchun qulaylik tug`dirishga qaratilgan.

Amaliy san`atda ham ilk o`rta asr va o`rta asrlarda zoomorf (tovuq, o`rdak, tuya) shakllarga qiyoslab ishlangan buyumlar uchraydi. Mazkur buyumlar misolida qadimiy aqidalarga suyangan holda go`zal, qulay buyum yaratishga intilish jarayonini ko`ramiz. Ilk o`rta asrlarda ishlangan buyumlar shaklida arxaizm seziladi. shu davrda mato ishlab chiqarish san`ati ham rivojlangan. Matolar bezagidan ot, qo`chqor, echki, qushlar tasviri o`rin olgan.

O`rta Osiyoda islom dini o`rnatilgandan so`ng ibodatxonalar o`rniga masjidlar qurila boshlaydi. Me`morchilik, xo`jalik, amaliy san`at buyumlari bezagida tirik mavjudotlar o`rnini o`simliksimon va geometrik naqshlar egallay boshlaydi.

IX-X asrlarda O`rta Osiyo hashamatli saroylar qurilganligi haqida Termiz saroyi poydevori guvohlik beradi. shu davrda O`rta Osiyoning barcha xududlarida hashamatli majidlar quriladi. Bunga chorsutun, Moh, Dandanakon, Deggarron, shirkabir masjidleri va tog` qishlolaridan topilgan serhasham mehrob, ustun, ustun boshqalar guvohlik beradi. IX-X asrlarga kelib har bir shaharda ustachilik, ganchkorlik, naqqoshlik, hunarmandchilik markazlari yuzaga keladi. Markazlar o`nlab, yuelab ustaxonalarni birlashtiradi. Ustaxonalarning ko`pligi ular orasida raqobatning kuchayishiga olib keladi. shuning uchun har bir ustaxona egasi o`z mahsulotining sifatli, chiroyli, chidamli, funktsiya jihatidan qulay, arzon bo`lishi uchun kurashgan.

O`rta asr kulolchilik, kandakorlik buyumlari tuzilishida funktsiya jihatidan qulay formalar yaratishga uringanliklari aniq seziladi. Buyumlar ancha ixcham, go`zal tuzilishga hamda serjilo bezakka ega. Bu tadbir amaliy san`atning barcha turlarida seziladi.

XI-XII asrlarda ma`muriy, diniy imoratlar bezagida naqshinkor g`ishtlardan kompozitsiyalar yaratishga keng yo`l ochib beriladi. Bunday g`isht kompozitsiyalari ganch o`ymakorligi namunalari bilan boyitiladi. Masjidlar inter`eri devorlarida katta-katta bo`linmalar yuzaga keladi. Ularning burchaklari g`ishtdan terilgan dekorativ ustunlar bilan belgilanadi. Turarjoylarda xonaning sarajom-sarishta va go`zalligina ta`minlashda devorlarni tokchaband qilishga keng yo`l ochilgan. Bunga Qavatqal`a xarobalari guvohlik beradi.

XI-XII asrlarda buyumlarni qolipda quyish kulolchilik va kandakorlikda, shishasozlikda keng qo`llaniladi. Bu tadbir bir andozali qolipdan bir xil

ko`rinishdagi bir nechta naqshli buyum quyish imkonini beradi. Bu hozirgi zamon (tipovoy) bir nusxali mahsulot ishlash uslubini eslatadi. Kulochilik buyumlarida forma bilan bezak hamohangligi aniq seziladi. Formadagi nafislik, bejirimlik naqshda ham mavjud. Kandakorlik buyumlari tuzilishdagi jiddiy ko`rinish nafis tasvir kompozitsiyasi bilan yumshatilgan. shishasozlikda funktsiya jihatidan qulay, nafis formalar yuzaga keladi. Mato ishlab chiqarishda tirik mavjudot tasviri o`rnini chiroyli dastxat yozuvlar, o`simliksimon naqshlar egallaydi. Kulochilik, kandakorlikda XVI asrlarda ham zoomorf tasvirlar uchraydi. Bunga sabab matodagi tirik mavjudot tasviri tikilgan liboslarda ko`zga yaqqol tashlangan. Bu albatta islom dinining xalqlar dilidan mustahkam o`rin olayotgan bir paytda tirik mavjudot tasvirlangan matolar xaridoring kamayishiga olib kelishi mumkin. shu sababli mato ishlab chiqarish sanoatida XI-XII asrlarda tirik mavjudotlarni tasvirlashda voz kechilgan.

Mo`g`ullar istilosi O`rta Osiyo me`morchilik, amaliy va barcha turdagi san`atning rivojlanishiga putur etkazadi. Hunarmandchilikning ayrim turlari yo`qoladi (Shishasozlik). Temur va temupiyalar davrida me`morchilik, amaliy san`at, ilm-fan yana jonlanadi. Katta-katta hashamatli binolar quriladi. Imoratlar va sopol buyumlar bezagida naqshli koshin keng ishlatiladi. Amaliy san`at buyumlarida ham xuddi me`morchilikdagidek rang barang bezaklarga alohida e`tibor beriladi.

Metall buyumlar formasida monumentallik mavjud. Aksariyatda buyumlar yuzasi mayda naqshlar bilan to`ldirilgan.

XIX-XX asr boshlarida saroy, masjid, turarjoy inter`erida devorlar ganch o`ymakorligi, rangli bezak bilan pardoqlangan. Xona yuzasi funktsiya vazifasidan kelib chiqqan holda peshgoh, poygoh, shohnishin kabi qismlarga bo`lingan. Xonaning poygoh qismida yog`ochdan, gil (loy)dan ishlangan xo`jalik qutilari o`rnatilgan. Ularning qadimiylari bizgacha saqlanmagan, lekin XIX asrda yasalgan qadimiy qutilar islom dini o`rnatilgunga qadar ishlangan ostonalarga o`xshab ketadi. Ostadonlar yuzasi diniy rasm-rusumlarni, o`lgan shaxs hayotini ifodalovchi tasvirlar (barel`ef) bilan bezatilsa, xo`jalik qutilari esa yuzasi o`simliksimon, handasaviy naqshlarga to`ldirilgan. Ular naqshu nigori bilan xona peshgohiga qaratib o`rnatilgan. shuningdek, xonalar poliga rang-barang bezakli gilam, kigiz va ko`rpachalar to`shalgan. Xona devorlarining ochiq qismiga mato, so`zana, kashtalar osib qo`yilgan. Mato bezagida rang-barang o`simliksimon, doirasimon, yo`l-yo`lli naqshlar keng qo`llanilgan. So`zanalarga ko`proq doirasimon va o`simliksimon naqshlar ishlangan. Gilamlarda o`simliksimon handasaviy naqshlar bilan birgalikda soddalashtirilgan qush, qo`chqor tasviri ishlangan. Shuni aytish kerakki, qadimiy gilam va so`zana namunalari bizgacha saqlanib qolmagan. Ularda ham mato va amaliy san`at buyumlaridek syujetli surat, ya`ni tirik mavjudot tasvirlari ishlangan bo`lishi kerak. XIX asr oxiridan boshlab O`rta Osiyo bozorlarida Xitoy va Rossiyadan keltirilgan chinni buyumlari sotila boshlanadi. Kulollar xaridorlarni yana ko`proq jalb etish uchun sopol buyumlarni chinniga xos bezaklarda ishlay boshlaydilar. Buyumlar formasiga va bezagiga haddan ziyod e`tibor beriladi. shuning uchun ham tanatanalar uchun qo`llaniladigan «namunali»

buyumlar yuzaga keladi. Kandakorlik mahsulotlariga ham mayda naqshlar ko`p ishlangan. Ayirim buyumlar formasida qismlar mutanosibligiga putur etkazilgan.

Maskan, xo`jalik, amaliy san`at buyumlari hamma vaqt naqshinkor bezak bilan boyitilganligining guvohi bo`ldik. Bezakdagi tasvirlar, naqshlar qadimdan inson ma`naviy dunyoqarashni boyitgan, uning istagini, g`oyalarini mujassam qiluvchi ramziy belgi sifatida gavdalanib kelgan. Ular sixat-salomatlik, baxt, mo`l-ko`lchilik, omad ramzini ifodalangan. Demak, buyum bezagi o`zining funktsional vazifasidan tashqari kishiga quvvat bag`ishlangan, uni hayotga da`vat etgan, kelajakka ishontirgan. shuning uchun ham me`morchilikda, amaliy san`atda naqshu nogorga alohida e`tibor berilgan.

Badiy bezakda, xoh imorat, xoh uning bir qismi, hoh amaliy san`at, ip gazlama mahsuloti bo`lsin, barchasida o`ziga xos bir andazali naqsh elementlaridan unumli foydalanib, yaxlit naqsh va kompozitsiya yaratish odat tusiga kirib qolgan. Amaliy san`at buyumlari tuzilishi funktsional vazifasidan, ishlatishga qulayligi jihatidan asrlar davomida shakllanib kelgan. shuning uchun ham har bir turdagi buyumning bir qolipda– ommaviy ishlanadigan shakli yuzaga kelgan. Ayrim ustalar mavjud muayyan andazali shaklga yangilik kiritib, uni kompozitsion va bezak jihatidan boyitib borishgan.

Usta-hunarmandlarning muayyan bir qolipli (standart) shakl va andazali bezaklardan foydalanishi xalqning amaliy san`at buyumlariga bo`lgan ehtiyojini qondirish uchun qisqa vaqt ichida katta miqdorda seriyali mahsulot ishlab chiqarish imkonini bergan. shu maqsadda hatto xona qismlarini (Shift, ustun, eshik, panjara) muayyan tipdagi andozalarda yaratishgan.

Maskan inter`erida ishlangan syujetli tasvirlar, haykallar, amaliy sar`at mahsulotlaridagi tasvir va rang-barang nafis naqshlar qadim zamonlardan me`morchilikda me`mor-rassom, rassom-naqqosh, rassom-ganchkor, kulolchilikda rassom-kandakor, ipgazlama buyumlari ishlab chiqarishda rassom-naqqoshlarning faol qatnashganligidan dalolat beradi. Asosan ipgazlama buyumlarini to`qishda chizma-loyihadan foydalanganligi xalq amaliy san`atida katta yutuq hisoblanadi.

Yuqoridagilardan bobokalonlarimizning yashash uchun nafaqat funktsiya jihatidan qulay, mustahkam, arzon, balki ma`naviy jihatdan ham boy muhit yaratish yo`lidagi izlanishlari, erishgan yutuqlari guvohi bo`ldik.

O`zbekistonda ancha oldin rivojlangan bo`lib, gilamlarning qadimgi nusxalaridan jul`xirslar so`zsiz O`rta osiyoga mansubdir.

Djulxirslarda qo`llanilgan naqshlarning namunalari jadvallarda keltrilgan.

V. BOB. QUROQCHILIK.

5.1 Quroqchilik san`ati tarixi.

Quroqchilik san`ati tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, bu texnikaning ildizlarini sharqda topish mumkin. Masalan Egiptda, ya`ni Kair shaxrining chekka qishloqlarida bu usul bilan 3000 yil avval tikilgan buyumlar topilgan edi. Quroq tikish texnikasi bilan er yuzining barcha burchaklarida ham shug`ullanib kelishgan. Keyinchalik o`rta ta`minlangan oilalarda uylar bezatilib va ro`zg`orda maxsulotlar tayyorlanib asta sekin dunyo bo`ylab xamma xalqlar orasida tarqab ketgan va amaliy san`atga aylangan. Bunday bajarilgan ishlar Angliya, Amerika, shvetsariya, Germaniya, shvetsiya, va Avstraliya muzeylarida joy topgan. O`rta Osiyoda xam bu san`at keng rivojlangan. Bu san`at xaqida xech bir tarixlarda yozilmagan, lekin xalq orasida keng tarqalgan.

Bu san`at usulida tikilgan buyumlar yuqori didni, go`zallikni, tadbirkorlikni, mexnatsevarlikni talab qiladi. Bizda bu tikish usuli quroq deb ataladi.

Milliy quroqchilik san`ati bu o`lmas san`atlardan biri. Bu san`at bundan keyin xam davom etib keladi. Qadimda bu san`at momolarimizning eng sevimli ishlaridan biri bo`lgan. Bu san`at bilan ular o`z uylarini ajoyib qa`dimiy dizayn asosida bezitishgan.

To`y-xashamlar uchun, ya`ni qiz uzatib, o`g`il uylantirmoqchi bo`lsalar ular quroq ko`rpacha, yostiqlar va har xil quroq bezaklar tikishgan. Bu ishlar bilan ular keyinchalik avlodlarga shu quroqchilik san`atini meros qilib qoldirishgan. Xar bir quroq buyumidagi naqsh o`z ma`nosiga ega bo`lgan.

Masalan, “quyosh” naqshning ma`nosi shu oilada doim yorug`lik, ya`ni tinchlik bo`lsin deganini anglatadi.

Momolarimizni shu quroq ko`rpachalarini tikishlarining sababi, quroq san`atida qiyinchiliklar ulanib tikilgan xayotligida esa shu quroq san`atidek, “qapishib uvali juvali, nevara – evarali ” bo`lsin deb tikiladi.

Quroqchilik san`ati shunday san`atki, unda avvalambor, ranglar turli xildajilvalanadi, yana bu san`at tejamkorlik, iqtisod masalasini nozik didli bo`lishni va albatta milliylikni o`rgatadi. Bu san`atni bizxdan keyingi avlodlarga etkazish xar birimizni burchimizdir.

Quroqchilik – bu umuminsoniy madaniyatning bir bo`lagi sifatida odamzodga qadimdan xamrox.

Quroq san`ati xalqimizning o`tmishi, turmush tarzi ko`zguda aks etilganidek, o`z ifodasini topgan, shu bilan birga xalqning qadimdan avaylab saqlangan, uning necha – necha ming ma`naviy mulkiga aylanib kelgan, biroq stalinizm qatag`onlari turg`unlik yillarida e`tiborsizlik va befarqlik natijasida kamsitilgan, rivojlanishdan to`xtabqolgan milliy an`analar, betakror urf – odatlar, diniy rasm rusmlar, boshqa ma`naviy qadryatlarni tiklash, ularga erkin amal qilish va ravnaqiga kenng yo`l ochib berish, xam oshkorali va demokratik jarayyon bilan uzviy bog`liqdir. Milliy tuyg`u inson uchun tabiiydir, chunki ota onalardan meros qilib olingan va bola ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi so`zidan ifodalanadi.

5.2. Quroq tikishga tayyorgarlik.

Quroq-bu bitta buyuumga rangi va fakturasi turlicha bo'lgan gazlama bo'laklarini birlashtirishdir.

Quroqchilik texnikasida tayyorlangan buyumlar qo'ligul bekalarni faxrigina bo'lib qolmay, balki uyni takrorlanmas dizayn asosida bezash xamdir. Albatta, bu juda ham mayda va mashaqqatli ish, ammo bunga sarflangan vaqtga achinmaydi kishi chunki bu usulda (mayda gazlama bo'laklaridan) tikilgan buyumlar, shunaqangi chiroyli va original-ki, bittasini tikib bo'lmasdanoq, keyingisini tikkingiz keladi, shu bilan birga quroq tikish boshqa qo'l xunarleri kabi, kuchli hayojon xolatidan chiqaradi va asab sistemasini tinchlantiradi, nohush xayollardan forig' etadi. Aytishlaricha, oldingi vaqtlarda ayollar birga yig'ilishib, naqsh va kompozitsiyalarni bir-birlari bilan almashar ekan. Tikilgan buyumlarni minglab mayda bezak choklar bilan bezatishgan. Bu xunar xozirgi davrda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Quroq usulida yostiq jiltlari, ko'rpa, divan va o'rindiqlar uchun g'iloflar, gilamchalar, yumshoq o'yinchoqlar, oshxona anjomlari, sumkalar, shuningdek kiyimlar uchun bezak va to'ldiruvchi detallar tayorlash mumkin.

Quroqchilik sanati uchun xar xil gazlamalar kerak bo'ladi, ko'proq satin va atlas gazlamalar ishlatiladi, chunki ular silliq, tarang to'qilgan, ustki qismi yaltiroq va boshqa gazlamalarga qaraganda chidamlaroq. Paxta tolali gazlamalar ham quroqchilik uchun juda mos gazlama xisoblanadi, chunki bu gazlama kamroq g'ijimlanadi, tez dazmollanadi, cho'zilmaydi va qo'lda tikilganda igna o'tishi xam osondir. Agar tikiladigan buyumimizda xar xil gazlamalarni ishlatmoqchi bo'lsak, unda bu gazlamalarni xususiyatlarini va qalinligini xisobga olishimiz zarurdir. Gazlamani ishlatishdan oldin uning rangi yuqmasligi, aynimasligini aniqlashimiz kerak, chunki agar gazlamamiz yaxshi bo'yalmagan bo'lsa, u boshqa gazlamalarga rangini yuqtirishi mumkin. Bunday gazlamani iliq suvda yuvib, keyin esa uksus qo'shilgan suvda chayib so'ng ishlatishimiz mumkin bo'ladi.

Quroq ornamenti uchun gazlamalarni bichishdan oldin qoldiqlarini katta kichik bo'laklarga ajratiladi. Gazlamalar tekis va rangli bo'lishi uchun ularni kraxmallab, siqib yaxshilab quritib, keyin esa dazmollash kerak. shunday xollar xam bo'ladiki gazlama qoldiqlarining o'ng va teskarisini aniqlash qiyin bo'ladi. Bunday xollarda gazlamalarga sinchiklab qaralsa o'ng qismi silliq, teskari qismi esa dag'alroq, iplar qoldiqlari mavjudligini anqlasa bo'ladi.

Asosiy gazlamalar bilan bir qatorda quroqchilik uchun yordamchi va astarli gazlamalar ham kerak bo'ladi. Flizelin xar xil turdagi, xar xil xususiyatli gazlamalarni tikib, yopishtirib, ishlatishda juda qulaydir.

Quroq texnologiyasida istalgan gazlamadan, xam yangi, xam ishlatilgan gazlamadan foydalanish nazarda tutiladi. yangi gazlamani ishlatishdan avval dekatirovka (ipak va va jun gazlamalarni kirishmaydigan qilish uchun bug' yoki qaynoq suv bilan ishlov berish usuli), bug'lash lozim, chunki bitta buyumda ikki xil gazlama ishlatilishi natijasida buyum yuvilgandan so'ng o'z ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Avval ishlatilgan gazlama bo'laklarni esa kraxmallash va dazmollash kerak. Ulardan ushlagich, salfetaklar, choynak uchun g'iloflar, ko'rpa gilamcha, yostiq jiltlari va xatto kiyimlar xam tayorlash mumkin.

Paltoli gazlamalar yumshoq va eguluvchan bo'ladi, ularni gilamlar, stullarga

g'illoflar, qalin jun ro'mol va pannolar tayorlash uchun ishlatiladi. Agar tayorlanayotgan buyum uchun turli fakturali gazlama bo'laklarini birlashtirish shart bo'lmasa, uni bir turdagi gazlamalardan tayorlagani yaxshi bo'ladi. Tikilgan gazlama qoldiqlarining pishiqligini ortirish maqsadida ularni asosga biriktirish kerak. Asos bo'lib vatin, sintefon, yoki qalin zich to'qilgan gazlama xizmat qiladi. Vstavka kiyimlarni qiytiqlardan bezashda turli xil tasmalardan xam qo'llaniladi.

5.3. Gazlamalar xususiyatlari va ular bilan ishlash .

To'qimachilikda sanoatda xilma-xil gazlamalarni ishlab chiqarilmoqda.

Gazlamalarning tashqi ko'rinishi bo'yicha turli xususiyatlarga egadir. Gazlamalar xar xil buyumlar tikishda ishlatiladi. shuning uchun ular chidamli bo'lishi uchun, ularga xar xil ishlov beriladi, shuningde yuvishda tozalashda, va dazmollashda ularning o'ziga xos xususiyati xisobga olinadi.

Tolalarda to'qilgan gazlamalar 2 guruxda bo'ladi.

1. Tabiiy tollalar .
2. XimYaviy tolalar.

Ximyaviy tolalarga – paxta, zig'ir, jun, va tabiiy ipak gazlamalari kiradi.

Tabiiy tolalar – o'simliklardan xayvonlardan va ipakdan olinadi.

Paxta tolalari : dexqonlar erta baxorda erga chigit ekadilar, uni yoz bo'yi parvarishlab o'stiradilar, kuzda etilgan paxtani yig'ishtirib, paxta zavodlariga yuboradilar. Paxtadan 70 xilga yaqin turli maxsulotlar olinadi. Zig'ir tolasi, asosan Rossiyaning Volgograd Leningrad, Rotroma, Boltiq bo'yi, jumxuriyatlarining sersuv voxalarida etishtiriladi.

Gazlama to'qish dastgoxida olingan usti g'adir – budir, ko'kimtir, yoki sarg'ish rangga ega bo'ladi. Bu gazlamaning usti tekislanadi, oqartiriladi, bo'yaladi yoki gul bosiladi.

Gazlamaning ikki tomoni o'ng va teskari, gulning bosilishiga, tuki va tozaligiga qarab aniqlanadi.

Paxta tolasidanto'qilgan gazlamalar engil, yumshoq, chidamli, bo'ladi. Dazmolni yaxshi oladi, xavoni yaxshi o'tkazadi.

Zig'ir tolasidan to'qilgan gazlamalar paxa tolasidan to'qilgan gazlamalarga qaraganda chidamlir, og'ir va qalinroq bo'ladi, namlikni yaxshi shimadi, tez yuviladi, usti silliq sitiluvchan bo'ladi. Tez g'ijimlanadi va oson dazmollanadi.

O'rta Osiyoda ranglar xaqidagi ma'lumot qadimdan kitob minityurasi, naqqoshlik, va devorlarga freska pannolar ishlari bilan bog'liq xolda rivojlanib kelgan.

Ranglar doirasida qizil, qizg'ish, zarg'aldoq, sariq, yashil, yashiltab, zangori, xavorang, ko'kimtir, binafsha, qirmizi ranglarning xar xil t uslari ko'rinadi.

Ranglar doirasida rang t uslari juda ko'p bo'lishi mumkin., lekin ko'zlarimiz ularning 150 ta ga yaqinini ajratishga qodir.

Ranglar o'quvchilarning psixologiyasiga, organizmiga, ta'sir ko'rsatadi.


Olimlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, anemiya– kamqonlik kasaliga uchragan bolalarni davolashda qizil rang foydalidir.

Ko'k rang ko'zning qon bosimini kamaytirib, konning qon tomirlaridan normal yurishini taminlaydi.

Qanday rang ko`zni ko`proq chartatadi?


- Ma`lum bo`lishicha sariq, ko`kimtir,oq ranglarga tez o`rganib qoladi, uncha charchamas ekan. Qizil va moviy rang ko`p charchatadi.

Shuning uchun xamma ranglardan xam buyum yasasa bo`lar ekan.chiroyli yorug` ranglar insonga yaxshi kayfiyat baxsh etadi va insonni kuni bo`yi kayfiyati ochiq bo`ladi. Demak, ranglar xam bizning xayot tarzimizda katta rol o`ynar ekan. (196-rasm)




196-rasm

Quroqchilik texnikasida gazlama qoldiqlaridan tashqari turli-tuman atlas lentalar, tasmalardan ham foydalanib original buyumlar tayyorlasa bo`ladi, jumladan qo`l sochiqlari, sumka va yostiq jiltlari. (197-rasm)



a)




b)

v)

197-rasm. a) Rangli tasmalardan tayyorlangan sumka. b-v) Rangli tasmalar bilan kiyimni bezash .

5.4. Naqsh gullari turlari.

Ko`pincha naqsh gullari bir xil shaklli va o`lami alohida elementlardan iborat bo`ladi. Bichishda qulay bo`lishi uchun karton yoki qattiq qog`ozdan shablonlar tayyorlanadi. Kartonda kerakli elementni (kvadrat, uchburchak, oltiburchak va h.k.) chok haqisiz chizib olinadi. So`ngra hamma tomonidan 0,5-0.7 sm chok haqi qoldirib ikknchi chiziqni o`tkazamiz. shundan so`ng ichki va tashqi kontur chiziqlari bo`yicha ehtiyotkorlik bilan qirqiladi (198 rasm).



198-rasm

Gazlama bo`lagidan kerakli elemntni bichish uchun gazlamaning teskari tomoniga shablonni qo`ib ham ichki, tashqi konturlarni qalam Bilan chiziladi. Tashqi konturi bo`ylab qirqiladi, ichki konturi bo`ylab esa ikkita detal` birlashtirib tikiladi.

Qalin gazlamalar yonma-yon qo`yilib , tutashtirma chok tikiladi.


Buning uchun avval detallar chetlarini ikkita to`g`ri chokda, so`ngra ikkala detalni egallagan xolda ularni zig zag chokda tikiladi. Bu xolda element uchun chok xaqi qoldirmay bichiladi.

Quroq texnikasida hamma geometrik naqshlarni 3 guruhga ajratish mumkin:

- uchburchaklar;
- amerikancha kvadrat;
- spiral`;

Uchburchaklar. Bu naqshlarni bajarishda teng yonli uchburchaklar birlashtiriladi.

Kvadrat ichida kvadrat (199-rasm, a)



199-rasm


Ishni bajarish ketma-ketligi rasmda raqamlar bilan ko`rsatilgan. Avval ichki kvadrat tikib olinadi. So`ngra uning yon tomonlariga 4 uchburchak tikiladi.

Hosil bo`lgan kvadratning atroflari qirqib to`g`irlanadi, so`ngra keyingi uchburchak tikiladi va h.k. O`z navbatida uchburchak 2 uchburchakdan ham iborat bo`lishi mumkin.

Naqsh yanada ifodaliroq ko`rini uchun kvadratlarni och va to`q ranglar bilan almashtirib bajarish kerak.

Tegirmon (199-rasm, b). Buning uchun avval 2 ta uchburchakdan dioganali bo`yicha birlashtirilgan to`rtta kvadratni tayyorlab olinadi. So`ngra bu kvadratiklarning ikkitadan, keyin hammasi birlashtiriladi. Bunda ranglar kontrastligiga e`tibor berish zarur.

Yulduzcha (200-rasm, a,b,d)




200-rasm.

Ishni bajarish ketma-ketligi rasmda raqamlar bilan ko`rsatilgan.

Avval markazdagi kvadratni tayyorlab olinadi. Bu kvadrat yaxlit (200-rasm, a) yoki uchburchaklardan yig`ilgan (200-rasm, b) bo`lishi mumkin. So`ngra birinchi va ikkinchi ko`rinishlar bajariladi (200 rasm d da yo`g`on chiziq bilan ajratib ko`rsatilgan) va markazga birlashtiriladi. So`ngra 3-va-4 ko`rinishlar bajariladi va birlashtirilgan to`g`ri to`rtburchakka tikiladi.

Amerikancha kvadrat. Bu kvadratni bajarishda shablon tashqarisida oddiy chizg'ichni ishlatish mumkin. Uning kengligi kvadratning hamma tasmalariga mos bo'ladi. Tasmalar uzunligini kesib olish tavsiya qilinmaydi ularning uzunligini tikib olingandan so'ng aniqlash kerak.

Birinchi usul (201-rasm)




201-rasm .

Ishni bajarish ketma-ketligi rasmda raqamlar bilan ko'rsatilgan.

Asos uchun kvadrat olish kerak. Avval unga 1-tasmani tikiladi, so'ngra 2-, 3-, 4-tasmalar aylana bo'ylab biriktirib tikiladi. Qiyqimlar uzunligi doimiy ravishda uzayib boradi. shunday usul bilan kerakli o'lchamdagi kvadrat hosil qilinadi. Naqsh ifodali chiqishi uchun tasmalar rangiga e'tibor berish kerak .


Ikkinchi usul (202-rasm)



202-rasm.

Asos uchun markazi kvadrat olinadi. Tasma qiyqimlari qarma-qarshi tomrn qilib tikiladi.


Uchinchi usul (203-rasm)



203-rasm.

Ishni bajarish ketma-ketligi rasmda raqamlar bilan ko'rsatilgan.

Spiral` (204-rasm)



204-rasm .

Ishni bajarish ketma-ketligi rasmda raqamlar bilan ko'rsatilgan. Bu usulda bajarish uchun shablon bo'yicha elementlarni bichish shart emas, balki turli shakldagi mayda gazlama qoldiqlarini ishlatish mumkin.

Buyumni eng mayda gazlam qoldig'idan boshlash tavsiya qilinadi. Keyin bu esa buyumning kattalashib borishga qarab gazlamaning kata bo'laklari ishlatiladi.

Asos uchun markazga ixtiyoriy shakldagi gazlama qoldig'i olinadi. Uning bir tomoniga birinchi qiyqim tikiladi, ikkinchi qiyqimni esa hosil bo'lag 2 ta qiyqimga, ya'ni markaziy va 1-qiyqimga ulanadi. Keyingi bo'lak markaziy va 2-qiyqimga ulanadi va h.k. shunday usul bilan qiytim bo'laklari aylana shaklida ulanib borishi kerak, bunda ulangan qiyqim avvalgi aylanadagi bitta yoki ikkita tegib turishi zarur. Ish jarayonida biriktilgan choklarning to'g'ri bo'lishiga e'tibor berish kerak. Har bir bajarilgan ishdan keyin choklarni dazmollash kerak, aks holda tikilayotgan qiyqim cho'zilib qolishi yoki notekis tikilishi mumkin.

Bundan tashqari karton, temirli yoki plastikdan tayyorlangan shablonlar chizg'ich igna o'tkir qaychi kerakdir.


Shablonlarni kartondan yoki yupqa plastikdan tayyorlash mumkin. Yupqa qog'ozdan tayyorlangan shablon yaramaydi, chunki uni ishlatgan sari aniq formasi yo'qoladi va bu ish aniqligini buzadi va ornamentni sifatini buzadi. Ramkali shablonlar xam ishlatish uchun qulay. Chunki chok xaqi aniq ko'rsatiladi (1sm) Aniq shaklni yoki razmerni saqlanish uchun maxsulotning eskizi chiziladi.

Shablonlar qaychi yordamida kesiladi va ramka xosil qilinadi. bu esa gazlamani bichishda qulay, chok xaqi xam chiziqlar bilan belgilanadi.

Buyumning eskizi avval mashtab qog'oziga chiziladi. Kerakli bo'lgan buyumning razmeri o'lchanib, masalan ushlagich, keyin esa shu ushlagichning eni va bo'ylari xisoblanib mashtab qog'ozga tushiriladi va kerakli bo'lgan to'rtburchakli yoki uchburchakli naqshlar chiziladi qalamlarda rang beriladi. Xosil bo'lgan naqsh yoqsa unda bu naqshimiz chizg'ich va shablonlar yordamida flezelinga chiziladi.


5.5. Quroq tikish texnologiyasi.

Gazlama va gazlama bo'laklarini yuvib, faktursi bo'yicha ajratilgandan so'ng, shablonlar tayyorlanadi. Buning uchun shaklni (ayni vaqtda uchburchak)kal'ka qog'oz yordamida kartonga, ip yo'nalishlarini belgilab, ko'chiriladi (205-rasm), lekin kopirovka qog'ozi yordamida shablonlarni to'g'ridan-to'g'ri kartonga ko'chirish xam mumkin.




205-Rasm . Uchburchak shablon

Quroqchilik bo'yicha jurnallarda kerakli shablon bo'lmasligi xam mumkin, unda kartonni o'zida berilgan o'lchamlar birga chiziladi. To'g'ri burchaklarni saqlab qolish uchun kartonga milimetrli qog'oz yopishtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. So'ng chok xaqi qo'shilib shablonlar qirqib olinadi.



206-Rasim. chok haqlari qo'shilgan uchburchak shablon


Aylana joylarda chok xaqi qoldirish uchun maxsus asboblari mavjud. Xar xil shaklli shablonlarda chok xaqilari belgilanadi kertib qo'yiladi. Gazlamaga ko'chirilayotganda kertimlar aniq chiziq bo'ylab tikishga yordam beradi (203-rasm a-b).




207-Rasim . Kertimli shablonlar.


Uchburchak, to'rtburchak va kvadrat shakllarni shablonsiz tez va ratsional bichishni yana bir usuli mavjuddir. Agar bir nechta uchburchak kerak bo'lsa, gazlamani 4-5 qavat qilib taxlab bichish mumkin.

Shablonsiz bichish . Kvadrat va to'g'ri burchakli to'rt burchaklar uchun shakllarni belgilangan o'lchamlar bo'yicha chok haqiga 0,5 sm qo'shib bichib olinadi. Strelka bilan tanda ip yo'nalishi ko'rsatilgan.







208-Rasm. Kvadrat va to'rtburchaklarni bichish.



209-Rasm. Uchburchaklarni bichish

To'g'ri burchakli to'rt burchak shakllarni kichik tomonlar tanda ip yo'nalishi bo'yicha joylashishi kerak: avval chok xaqiga 1,75 sm qo'shib bichib olinadi, so'ng uni diagonal bo'ylab qirqish kerak. Sterelkalar tanda ip yo'nalishini ko'rsatadi. shunday qilib 2-ta uchburchak xosil bo'ladi. Uzun tomonlari tanda ip yo'nalishi bo'yicha joylashgan uchburchaklar uchun: avval chok haqiga 2,5sm qoldirib kvadrat qirqib olinadi, so'ng ikki marotaba diagonal bo'yicha kesiladi va to'rtta uchburchak xosil bo'ladi. Sterelkalar bilan ip yo'nalishi ko'rsatilgan.






210-Rasm Kvadratlardan uchburchaklarni bichish


Tikish

a) qo`lda tikish: burchaklar siljib ketmaslik uchun boshida va oxirida to`nog`ichlar bilan qadab qo`yiladi. (7 – rasm, a,v,) va chok qaviq baxiya bilan tikiladi.




211-Rasm. Detallarni qo`lda biriktirish.

b) tikuv mashinasida: qo`lda tikish kabi to`nog`ichlar bilan qadab qo`yiladi. Mashinaning chok rostlagichini 2.5sm da 10 – 12ta baxiyalarga teng qilib sozlanadi. Belgilangan chiziqdan 0.5sm uzoqlikda kleyli lenta yopishtiriladi (212-rasm) Bundan tashqari maxsus lapkalardan xam foydalanilsa bo`ladi.




212-Rasm. Detallarni tikuv mashinada biriktirish.

Barcha detallar ketma – ket tikilsa, xam vaqtni xam ip sarfini tejash mumkin.




213-Rasim. Detallarni bo`laklarga ajratish.

U shakilli chok oxirlarini maxkamlash uchun (masalan olti burchaklarini yihishda) bir necha orqaga qaytma chok yurgizish kerak, (214 – rasm, a,) qo`shimcha xaq chiziqdan 0.5 sm da boshlanadi va tugaydi (214-rasm, b,)




214-Rasm. “U” shakllidagi chokli detallarga ishlov berish

Quroq qismlarini yig`ish. Birinchi navbatda , Diqqat bilan tanlangan komnozitsiyani ko`zdan kechirish kerak. Komnozitsiya bir xil shakllarda tashkil topganmi, yoki uchburchak, kvadrat va to`rtburchaklar aralash xolda keladimi, aniqlab olishimiz kerak bo`ladi. Agar shakllar xar xil bo`lsa, avval uchburchaklarni kvadrat shakliga keltirib tikib olinadi, va choklar bir tomonga qaratilib dazmollanadi va ortiqcha chetlari kesib tashlanadi.




215-Rasm. Uchburchaklarning choklarini dazmollash

So`ng ikki va undan ortiq uchburchaklardan tashkil topgan kvadratlar ketma – ket tikib chiqiladi.




216-Rasm. Uchburlaklarni kvadratlarga tikish ketma-ketligi

Oxirida, barcha tikilgan va bichilgan kvadratlar bloklarga yig`iladi.



217-Rasm. Uchburchak va kvadratlarni bloklarga yig`ish.


“U” shaklga chok yordamida qismlar biriktirilishi ko`rsatilagan.



218-Rasm.


«U» shakldagi chokli detallarni yig`ish Dazmollash. Quroq buyumlari o`ngidan va bir yo`nalishda dazmolanadi. Bir tomonga yotkizilib choklar mustaxkam bo`ladi va astarlarni yaxshi ushlaydilar. chok haqi o`ngidan bilinib qolmasligi uchun gazlamaning to`qroq tomoniga qaratib dazmollanadi.

Quroq qismlaridan tashkil topgan ikki qator bir – biri bilan ulansa, chok haqlari ikki tomonga qaratib dazmollanadi.



219-Rasm. Qurok detallaridagi chok haqlarining dazmollanishi.


Qismlarni shu tarzda birlashtirish oson va qulaydir. Bunda choklar uncha qalin bo`lmaydi. Agar ikkidan ortiq qatorlar biriktirilsa, unda 1,3,5,7,..... qavatlar chok xaqdari bir tomonga 2,4,6,8,..... qavatlar chok xaqdari esa qarama –qarshi tomonga qaratib dazmollanadi.



220-Rasm. Namunali dazmollangan blokning teskari tomoni ko`rinishi.

Qiyalik burchaklarini tikish usuli

Qiyalik burchaklarini tikish uchun avval kerakli o'lcham uzunlikda tasmalar qirqib olinadi (tasmaga ishlov berilayotganda chetini uzunligiga 2.5 sm chok xaqi qo'shib)so'ng, tasmani o'ng tomoni bilan xar bir bo'lakka qo'shib to'rtta tomonga tikib chiqiladi. Oxirida chiqqan 0.5 sm uzoqlikda 217-rasm (a) da "x" bilan belgilangan burchak nuqtasi bo'yicha biriktiriladi.(boshida va oxirida chok qotiriladi




221-Rasm. Burchak qiyaliklarni tikish.

Tasmalarni avval ikkita qarama qarshi tomonga so'ng, qolgan tomonlarga tikilib, oxirida "x" nuqtadan boshlab burchak qiyaliklarini tikilsa xam bo'ladi.


Qavatlarini yig'ish.

Tayyorlangan buyumning pastki qismi ustki qismidan 0.5sm ga kattaroq bo'lishi kerak. Stolga ustini pastga qarab yoyiladi chekkalarini yopishqoq lenta bilan maxkamlanadi.



222-Rasm. Buyum qavatlarini yig'ish.

Ustiga xuddi shu o'lchamda flezelin yoyiladi, uning ustidan o'ng tomoni bilan tayyor quroq qo'yiladi, qavatlar tug'nog'ichlar bilan maxkamlanadi. Tug'nog'ichlar orasidan yirik choklar bilan, avval o'rtasidan diogonal, so'ng vertikal va gorizontal chiziklar bo'ylab ko'klab chiqiladi. chiziqlar orasidagi masofa 5-15sm ga teng bo'lishi lozim.




223-Rasm. Buyum qavatlarni qavish.

Qayd etilgan usuldan foydalanmasdan birdaniga “Ingliz” tug`nog`ichlarni ishlatsa ham bo`ladi. Ular bir vaqtning o`zida ham mahkamlash, ham ko`klash vazifasini bajaradi, lekin tikuv mashinasida bostirib tikishda halaqit beradi.

Chetlariga ishlov berish: bostirib tikilgandan so`ng astar va to`shama ortiqchalari qirqib tashlanib mag`iz yoki tasmalar bilan ishlov beriladi.

Qavish.

Uchta qismini (ostki to`shama, va kurak) bir biri bilan birlashtirish uchun qavish kerak bo`ladi. Qavilgan buyumlar yuvilgan vaqtda siljib ketmaydi. Buyumlarni gulli qaviqlar bilan bezash xam mumkin. Qaviq chiziqli markazdan ustiga tortiladi. Buning uchun avval bezak naqsh tushiriladi, so`ng, uni bo`sh shablonga yopishtiriladi. Extiyotkorlik bilan chiziqlarni kesib chiqiladi va bu chiziqlar orqalimarker yoki kumushrang qalam bilan naqshni chizib chiqiladi.



224-Rasm. Quroq buyumini gulli qavish.

5.6. Quroqchilik texnikasida tayyorlangan buyumlar.

1. Quroqli ko`rpa


Bu ko`rpaning kattaligi xar xil bo`lishi mumkin, bu qiyqimlarning soni va gazlamaga bog`liq. Aloxida bloklar tayyorlashni o`rgangandan so`ng, ko`rpaga qancha blok kerakligini aniqlash mumkin. Agar tayyor bo`lgan quroq ko`rpani astarli qilib vatin yoki paxta bilan birga qavib chiqilsa original ko`rinishli ko`rpaga ega bo`lasiz. Bu buyum aloxida bloklardan tikiladi. Xar bir blok aloxida tikilib, so`ng tomoni 42 smli kvadratga birlashtiriladi.

Masalan: 2 kishilik krovat uchun 30 ta shunday kvadrat kerak bo`ladi. Bloklarni xamma detallari mashinada birlashtirilib tikib chiqiladi, ular uchun qog`oz to`shama kerak bo`lmaydi shuning uchun bu ko`rpani tikish juda oson. Gulli kvadrat qiyqimlar, sidirg`a gazlamadan qirqilgan markaziy kvadrat atrofida

joylashtiriladi (ko`rpagga ishlatiladigan barcha gazlama qiyqimlari keyin kirishmasligi uchun avval namlab olinadi).

Ishni bajarish tartibi.

Tomonlari 9sm ga teng bo`lgan kvadrat shablonlar tayyorlanib olinadi. Xar bir blokni tayyorlash uchun sidirg`a gazlamadan tomoni 30sm ga teng bo`lgan bitta kvadrat bo`lak (sidirg`a gazlamaning atrofida gulli gazlamalardan tayyorlangan quroq bo`laklari juda chiroyli ko`rinadi), och va to`q rangli gazlamalarning har biridan o`ntadan tomoni 9 sm ga teng bo`lgan kvadrat bo`lakchalar tayyorlanadi. Guli va rangi jixatidan gazlamalar xil bo`lishi mumkin. Shablonlar yordamida (1 sm dan chok xaqi qoldirib) kvadratlar bichib olinadi. Markaziy katta kvadrat atrofida mayda kvadratlar joylashtiriladi. chizilgan chiziqlar bo`ylab 6ta kvadratli ikkita tasma ulanadi. Bu tasmalar blokning yon tomonini tashkil qiladi. Qolgan kvadratlarni 4tadan ikki tomonga joylashtiriladi. Birinchi navbatda 4 kvadratli tasmalar tikilib chiqiladi, choklar orasidagi masofa 28 sm ga teng bo`lishi kerak. choklarni 2 tomonga tekislab, o`ng tomonidan dazmollanadi. Xar bir blokning chap tepa burchagini rangli ipda belgilab qo`yamiz.




225-Rasm . Bloklarni tuzish

Turli ko`rinish (naqsh) va ornament tayyorlash.


Ornament elementlari alohida tayyorlanib olinadi va har bir blokga tikib chiqiladi so`ng hamma bloklar birlashtirilib yaxlit bir buyum tayyorlanadi. E`tiboringizga ikkita ko`p uchraydigan ornamentni tavsiya etamiz.

a) “Yulduz” ornamenti

Och rangli gazlamadan: tomoni 14 sm li bitta, tomoni 6 sm li-ikkita, to`q rangli gazlamadan xam tomon 6 sm li ikkita kvadratlar qirqib olinadi. Barcha kichkina kvadratlar diagonal bo`ylab qirqiladi va xosil bo`lgan uchburchaklarni markaziy kvadratlar atrofiga (ranglarni takrorlanishini ta`minlab) joylashtiriladi (226rasm), ko`rinmas chok bilan blok markaziga tikib chiqiladi.




226-Rasm. Naqsh ko`rinishini tuzish.



227-Rasm. “Yulduz” ornamentini yig`ish.

b) “Tegirmon” ornamenti

Och va to`q rangdagi gazlamalarning xar biridan 2 ta dan tomonlari 10 sm ga teng bo`lgan kvadratlar qirqib olinadi, xamma kvadratlarni diogonal bo`ylab uchburchaklarga qirqib chiqiladi, 2 guruxga rangi bo`yicha ajratiladi va ularni 1 sm chok xaqi qoldirib 2 ta dan tikib chiqiladi, chok xaqalarini yorib dazmollanadi.



228-Rasm. “Tegirmon” ornamentini yig`ish

Xosil bo`lgan kvadratlarni bitta katta kvadratga qo`shiladi. Ortiqcha gazlamani qirqib tashlanadi, bir sm dan qayirib butun perimetr bo`ylab tikib chiqiladi. shu tarzda “tegirmon” ornamenti xosil bo`ladi.

Quroqli ko`rpani tikish

Xamma bloklar dazmollanadi va tayyor xolda qanday bo'lishi kerak bo'lsa shunday qilib taxlanadi. Xamma bloklar tasmlarga tikib chiqiladi. Choklar xar safar dazmollanib turiladi, chunki bloklar tikib bo'lganda bu juda qiyin bo'ladi. Tasmlarni avval qo'lda keyin mashinada birlashtiriladi. Vatin va astarni kerakli o'lchamda (astarni quroqdan 5sm kattaroq qilib bichish kerak) bichib olinadida xamma uch qavatini birgalikda ko'klab chiqiladi. Agar vatin qalin bo'lsa ko'rpani markazdan chetlariga qarab qaviladi. Buning uchun oldin uch qavatni xam markazdan burchaklar va tomonlar o'rtasi tomon ko'klab chiqiladi, keyin esa to'rtburchakdan diagonal bo'ylab ko'klanadi. Bunday ko'klashda xamma keraksiz burmalarni burchaklarga qarab surish mumkin. Bundan keyin ko'rpani tomonlari bo'ylab ko'klab chiqiladi va qaviladi, iplari olib tashlanadi. shundan so'ng, eni 5 smli qiya tasmlar yoki atlas lentalar bilan chetlari mag'izlanadi.

2. Irlandcha qavilgan ko'rpa

Bu buyum uchun uch xil kontrast rangdagi gazlama kerak bo'ladi. Rang tanlashni tayyorlovchi odam o'zi xal qiladi, lekin xozirgi xolda qizil, qora va oq ranglardan foydalanamiz.

Gazlama sarfi.

Bu ko'rpa uchun har bir rangdagi gazlamadan 280 sm (eni 110sm) kerak bo'ladi. Ko'rpani astari uchun 520 sm dan kam bo'lmagan (eni 90 sm li) bo'z, satin, chit xuddi shuncha vatin (sintefon, flezelin) kerak bo'ladi. shablon uchun karton va №40 va №60 oq yoki qizil iplar. Tayyor ko'rpa o'lchami – 172x 234 sm ga teng bo'ladi.


Shablon tayyorlash:

Qattiq kartondan tomoni 45 mm ga teng kichkina kvadrat, tomoni 222 mm ga teng katta kvadrat va 45x133 mm li to'rtburchak tayyorlanadi.

Gazlamani bichish.

Qizil rangli gazlamadan 412 ta, qora rangli gazlamadan 348 ta mayda kvadratlar bichib olinadi. Och rangdagi gazlamadan 289 ta mayda kvadratlar, 72 ta to'rt burchaklar va 188 ta katta kvadratlar bichiladi. Perimetr bo'ylab ishlov berish uchun qolgan qizil va oq gazlamadan eni 65 mm li, qora gazlamadan esa 40 mm li tasmlar qirqib olinadi.


Ko'rpani ust qismini yig'ishda avval qizil, qora va oq kichkina kvadratlardan 17 ta blok (A) yig'iladi (27-rasm) (7 mm li chok xaqqini inobatga olgan holda).



229-Rasm. Kvadratlardan yig'ilgan bloklar

Yig'ilgan A blok tomoni 310 mm li kvadrat ko'rinishiga ega bo'ladi (chok xaqqisiz). Blok kvadratlari tikilayotganda choklar har safar dazmollanadi.

Yig`ilgan bloklarni teskari tomoni bilan sintefonga (flezelin, mitkal) qo`yiladi, perimetr va dioganallar bo`ylab bostirib tikib chiqiladi. So`ng kvadratlardan 12 ta (B) bloklar yig`iladi, tomonlari 310 mm bo`lishi kerak. (226-rasm). A va B bloklarni tayyor ko`rpani naqshga mos qilib, tartib bilan burchaklarga B bloklarni joylashtiriladi. (ko`rpani uzunasiga A va B bloklar ketma-ketlikda 7 ta, eniga esa 5 ta joylashgan bo`ladi). Keyin ko`rpani ustki qismini yig`ib, qo`lda A va B bloklarni mayda choklar bilan ko`klab chiqiladi.



230-Rasm. Irlandcha qavilgan ko`rpa

Oldin aytib o`tilgandek, bloklardan avval vertikal va gorizontaal tasmalarni yig`sa ham bo`ladi. Lekin hozirgi namunada bloklarning o`lchami katta bo`lgani uchun tasmalarsiz ham uddalasa bo`ladi.

Ishning oxirida perimetr bo`ylab oq va qizil rangdagi tasmalar bilan ishlov berilib, ko`rpaning burchaklarda ularni 45° ostida birlashtiriladi.

Endi astarga vatin (sintefon, flizelin) qo`yilib, ustiga esa tayyor bo`lgan quroq yoyiladi. Qavatlarini birlashtirib, ko`rpani bostirib (qo`lda yoki mashinada) tikiladi: tasmalarni chekkalarga yaqinroq, asosiy quroqni esa— kvadratlar dioganallari bo`ylab. Iplarni gazlamaning rangiga moslab, tanlash zarurdir.

Kontur bo`ylab ortiqcha vatin va astarni qirqib tashlanadi, tekislangan chetlarga qorq rangdagi tasmalar bilan ishlov beriladi.

3. “Omad zigzagi” ko`rpasi

Bu ko`rpa qizil va oq rangdagi kvadratlardan tayyorlanadi.


Gazlama sarfi.

Gazlama tanlashda oq rangdagi gazlama ko`proq ketishini hisobga olish kerak, chunki u fon sifatida ishlatiladi. shunday qilib eni 110 sm li oq rangdagi gazlamadan 510 sm, qizil gazlama esa 370 sm, astar uchun 460 sm va shuncha vatin yoki sintefon, iplar va shablon uchun karton kerak bo`ladi.

Shablon tayyorlash

“Zigzag” uchun bitta kvadratdan 2 ta shablon tayyorlash kerak bo`ladi.

Kartonda tomonlari 7,6 sm kvadrat chiziladi va bu kvadratning istalgan burchagidan bir tomonidan ikkinchi tomonigacha (29-rasm) tsirkul bilan radiusi 51 mmli aylana chiziladi. Egri chiziqli bo'ylab kvadrat qirg'iladi va 2 ta (A va B) shablon hosil bo'ladi.




231-Rasm. “Omad zigzagi” koʻrpasi uchun shablonlar

Gazlamani bichish


Yuvilgan va dazmollangan oq rangdagi gazlamadan magʻiz uchun uzunligi 218 sm, eni 16.5 sm ga teng (koʻrpaning uzunligiga teng) 2 ta tasma va uzunligi 185 sm eni 16.5 sm li (Koʻrpaning eniga teng) 2 ta tasma bichib olinadi. Koʻrpaning oʻlchamini (218*185) inobatga olgan holda, qizil rangdagi gazlamadan eni 4 sm li tasmalar qirqib olinadi (bichimlarning barcha tomonlariga 0.7 sm dan chok haqi qoʻshib bichiladi).

Chok xaqini inobatga olgan holda A shablon boʻyicha oq rangdagi gazlamadan 240 ta. B shablon boʻyicha xam 240 ta, qizil rangdagi gazlamadan A va B shablon boʻyicha xuddi shuncha qiyqimlar qirqib olinadi. Xammasi boʻlib 960 ta quroq qiyqimlar tayyorlash kerak boʻladi. Endi 480 ta oq-qizil kvadratlar yigʻiladi: qizil “A”-qiyqimlarni oq “B” qiyqimlarga, oq “A”-qiyqimlarni qizil “B” qiyqimlarga birlashtiriladi. Buning uchun “A”-qiyqimning egri tomonini qayirib dazmollanib, kertim berilib, “B” qiyqimni aylanani tomoniga tikiladi. Demak, 2 hil kvadratlar hosil boʻladi va ulardan bloklar yigʻiladi, har bir blok uchun ikki hil kvadratlardan 8 ta dan kerak boʻladi (30-rasm).



232-Rasm. Blok rapport

Kvadratlardan bloklar yig'ishdan avval, chok xaqini teskari tomonga qaratib dazmollashni unutmaslik kerak. Keyin kvadratlarni bir– biriga mayda chok bila qo'lda birlashtirib chiqiladi va har bir blokni sinteponga qo'yib, bloklardan tasmalar, tasmalardan esa butun ko'rpa yig'iladi. Hammasi bo'lib 30 blok bo'lishi kerak, ulardan esa 6 ta tasma (har birida 5 tadan blok) tayyorlaniladi.



233-Rasm. “Omad zigzagi” ko'rpa

Shu erda ko'rpa ustida ijodiy ish tugab, texnik ishlar boshlanadi.

Naqshli kontur bo'ylab oldindan tayyorlangan qizil va oq tasmalar ko'rpa chetlariga tikib chiqiladi (qizil tasmalar tashqarida bo'lishi kerak). Tasmalarni ko'rpani eni va bo'yi bo'ylab bir-biriga 45° burchak ostida birlashtiriladi.

Ko'rpaning teskari tomoniga vatin (sintepon) to'shaladi, ustidan astar qo'yilib, hamma qavatni bir nechta joyidan (siljib ketmasligi uchun), chatib qo'yiladi.

Qavishni butun ko'rpa kvadratlari dioganali, kvadratlar tomoni va birlashtiruvchi choklarga paralel ravishda amalga oshiriladi. Ko'rpa perimetr bo'ylab oq “kayma”si ham qavib chiqiladi. Keyin vatin va astarning ortiqchasini qirqib tashlab, astarni qizil tasma bilan o'rab, chetidan 5 mm uzoqlikda tikib chiqiladi. Oxirida qizil tasma bo'ylab qaviladi va ko'rpa tayyor bo'ladi.


4. «Kichkina gul» yostig'i

Xar doimgidek, shablonlar tayyorlashdan boshlaymiz. Qattiq kartonda tomonlari 7;7 va 10 sm li teng yonli uchburchak (Shablon “A”), 1*30 ga teng to'rtburchak (Shablon “B”), 2;2 va 3 sm li to'g'ri burchakli uchburchak (“V”

shablon) chiziladi va o'tkir pichoq yoki skalpel bilan qirqladi.

Yuvilgan va dazmollangan gazlama qiyqimlaridan shablon bo'yicha geometrik shakllar qirqladi, albatta shakllarning har tomonidan 7 mm chok xaqqi qoldiriladi. A shablon bo'yicha qizil gazlamadan 8 ta, qora va oq gazlamadan 12 ta dan uchburchaklar qirqladi. Xammasi bo'lib 32 ta uchburchak tayyorlanadi. "B" shablon bo'yicha qora gazlamadan 4 ta, oq gazlamadan 4 ta (hammasi 8 ta) to'rtburchak tasmalar qirqladi. "V" shablon bo'yicha qizil va qora gazlamadan 4 tadan (hammasi bo'lib 8 ta) uchburchak qirqladi. Hamma chok haqlari teskari tomonga dazmollanadi va ko'klvb qo'yiladi.

"A" shablon bo'yicha qizil va qora gazlamadan qirqlangan uchburchaklardan 4 ta rangli asosiy – markaziy kvadratlar shakllantiriladi, ularning katta tomonlari (uchburchaklar) mayda chok bilan tikib chiqiladi. Hosil bo'lgan kvadratlarni katta kvadratga yig'iladi keyin kattarorq kvadratning bir tomoniga mayda chok bilan 2 ta, oq va qora uchburchaklar tikiladi, so'ng uchta asosiy kvadratdan iborat tasma biriktiriladi.



234-Rasm. "Kichik gul" yostig'ining umumiy ko'rinishi

Oq-qizil kvadratning oq tomonidan, qora-oq kvadratning qora tomonidan, oxirgi kvadratning oq tomoniga oq-qora kvadratning oq tomoni, qora uchburchakga oq-qizil kvadratning oq tomoni birlashtiriladi. So'ng yana shunday 2 ta tasma yig'iladi va oldingi, 6 ta kvadratdan tashkil topgan to'rtburchakga birlashtiriladi.

Chetlariga "B" shablon bo'yicha qirqlangan tasmalar biriktiriladi va burchaklarga "V" shablon bo'yicha qirqlangan qizil-qora kvadratlar tikib chiqiladi.

Yostiqli "ustki qismini sinteponga qo'yib har xil rangli brikmalarning, biriktiruvchi chokdan 2-3 mm uzoqlikda tikib chiqiladi. Yostiqli avra va astarini o'ngini o'ngiga qo'yib 3 tomonidan birlashtirib tikib chiqiladi. Tikilmagan to'rtinchi tomonidan yostiq paxta yoki paralon bilan to'ldiriladi va mayda chok bilan tikib chiqiladi.

5. "Naqshlar" yostig'i

Bunday yostiqli avra va astari uchun oq va pushtirang gazlama, sintepon

va paxta kerak bo`ladi.

Avval shablon tayyorlanadi. 5 ta shablon kerak bo`ladi:


- 70;70 kvadrat – “A” shablon
- 51;51 va 70 sm li teng tomonli uchburchak “B” shablon
- 19;102 mm li to`rtburchak – “V” shablon
- 57;57 mm kvadrat – “G” shablon
- 25;25 va 26 mm li teng tomonli uchburchak – “D” shablon.

YOstig`ning avrasi uchun:

1. Oq gazlamadan: “A” shablon bilan 1 ta; “V” shablon bilan 8 ta; “D” shablon bilan 84 ta;

2. Pushtirang gazlamadan “B” shablon bilan 4 ta; “V” shablon bilan 4 ta; “G” shablon bilan 4 ta; “D” shablon bilan 60 ta bo`laklar har tomonidan 7 mm dan chok haqqi qo`shib bichib olinadi.

Naqshni yig`ish markaziy oq “A” kvadratga pushti “B” uchburchakni birlashtirishdan boshlanadi (231-rasm), keyin hosil bo`lgan kvadratga oq va pushti “V” va “G” detallardan tayyorlangan bloklar tikib chiqiladi.



235-Rasm. “Naqshlar” yostig`ining umumiy ko`rinishi.

Markaziy detall choklari dazmollanadi flizelin yopishtiriladi va rasmda punktir chiziqlar bilan belgilangan choklarning chok xaqqini teskari tomonga oddiy chok bilan tikib chiqiladi.

Yostiqli avra qismi 21 ta oq va 15 ta pushti rang uchburchaklardan (“D” shablon) yig`ilgan 4 ta bloklar (katta uchburchaklar) bilan tugatiladi. shunday qilib har bir blokda 36 ta uchburchak bo`ladi. Bloklar oldindan uchburchaklardan tikilgan tasmlardan yig`iladi, ularni astar ustiga to`shab, ko`klab chiqiladi, chok xaqqlari dazmollanadi. Yostiqli astari oq gazlamadan, avrasiga teng bichiladi.

Endi yostiqli avra va astari bir birlariga o`ngini o`ngiga qo`yib uch tomonidan tikiladi. Yostiqli teskari tomoniga o`girilib dazmollanadi va keraksiz

iplar qirqib tashlanadi. Yostiqni paxta bilan to'ldirib qolgan tomoni tikiladi. Juda chiroyli gelmetrik naqshli yostiq tayyor bo'ladi.

6. "Buket" kuchukchasi.


Quroq texnikasida tikilgan o'yinchoqlar (kuchukcha) bolalarga bir olam quvonch olib keladi. shuning uchun bu o'yinchoqlarni tikish sirlarini o'rganish hamma ayollar uchun foydadan holi emasdir.

Bu kuchukcha uchun (236-rasm) turli gulli va sidirg'a (qora, oq, sariq) gazlamalar bo'lakchalari; 400 gram paxta, sintetik elim, karton, chizg'ich va shablon tayyorlash uchun o'tkir pichoq kerak bo'ladi. O'yinchoq uchun bir xil fakturali gazlama qoldiqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.




236-Rasm. "Buket" kuchukchasi.

Kuchukchanning deyarli tikuv mashinasida tikiladi, qolgan qismlari esa elimlanadi yoki qo'lda tikiladi. Avval kardondan tomoni 10 sm li shablon-andoza tayyorlanib, u yordamida 70 ta qiyqim qirqib olinadi (har bir yoni uchun 22 ta dan, orqasi va qorin qismi uchun-26 ta). Stol ustiga bu qiyqimlar 237-rasmda ko'rsatilgandek joylashtiriladi.




237-Rasm. Bichilgan detallarning taxlanishi.

Kvadratlarni qator-qator qilib tikib chiqiladi. Chok haqlari ikki tomonga yorib dazmollanadi. Barcha qatorlar tayyor boʻlganidan soʻng bosh qismidan boshlab bir-biriga ulanadi. Qolgan 26 ta kvadratlardan uzun tasma tikilib, bu tasmani oʻng tomoni bilan 22 ta kvadratdan iborat tasmaga qoʻyilib oʻyinchoqning orqa oyogʻidan boshlab asosga koʻklab qoʻyiladi. Xuddi shu tarzda ikkinchi yon tomoni (oxirgi 3 ta kvadratni tikmasdan) tikiladi. Kuchukcha oʻngiga agʻdarilib paxta bilan boshidan boshlab toʻldiriladi, ochiq joyi koʻrinmas chok bilan tikib qoʻyiladi. Koʻzi uchun qora drapdan diametri 2.5 sm ga teng ikkita aylana, oq gazlamadan-2 ta yarim oy qirqiladi. yarim oy qora aylanaga soʻng ular kuchukchaning bosh qismiga yopishtiriladi. Tumshugʻi uchun 234-rasmda anboza boʻyicha bitta detal bichib olinib A va B nuqtalari uchlari bir biriga chatiladi. Ozigina ochiq joy qoldirilib tumshugʻi ham paxta bilan toʻldiriladi.



238-Rasm. Tumshuq andozasi.

Qulog`i 37-rasimda keltirilgan andoza bo`yicha 4 ta detal bichiladi. O`ngini ichkariga qaratib, juftlab, chetlari va oval tomoni tikiladi, o`ngiga ag`dariladi, dazmollanadi va kuchukchanning boshiga chok chizig`i bo`yicha chatiladi.



239-Rasm. Quloq andozasi.

Dumi uchun tukli gazlamadan balandligi 13 sm asosi 10 sm li uchburchak bichiladi, uzunligi bo`yicha 2 ga bukiladi, tikiladi va o`ngiga ag`dariladi, paxta bilan to`ldirilib kuchukchanning gavdasiga tikib qo`yiladi. Kuchukcha tayyor.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'z.R Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlangan nutq 1997-yil, 29 avgst.
2. Ta'lim to'g'risidagi qonun. T., "Sharq", 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., "O'qituvchi", 1997.
4. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati T., "Mehnat", 1991.
5. D.Jabbarova. "Zardo'zlik texnologiyasi" T., "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi", 2004.
6. N.K.Azizova. "Zolotoe shit'yo" T., 1968.
7. R.A.Goncharova. Buxoro zardo'zlik sanati T., 1986
8. M.Sh.Jabbarova. Tikuvchilik texnologiyasi T., "O'qituvchi", 1989
9. A.I.Sidorenko i dr. Zolotoe shit'yo Buxarq T., 1981.
10. D.A.Nozilov. O'rta Osiyo dizayni tarixidan T., "O'zbekiston", 1998.
11. SHit'yo i rukodelie. Entsiklopediya. Moskva, nauchnoe izdatel'stvo "Bol'ShaYa RossiyskaYa Entsiklopediya", 1994.
12. T.I.Eryomenko. Sexrli igna. T., "O'qituvchi", 1990.
13. N.V.Erzenkova. Svoy dom ukrashayu ya sama. Sank-Peterburg, "Diamant", 1999
14. E.I.Krasichkova, L.P.DubovitsskaYa. Uchimsya vshivat'. Minsk., «PolqmYa», 1989.
15. K.Mititelo. Applikatsiya. Texnika i iskusstvo, M., «EKSMO», 2004
16. Rukodelie v nachal'nx klassax. Kniga dlya uchitelya po vneklassnoy rabote. M., «Prosveshenie», 1984.
17. T.Abdullaev va boshqalar. Madanga bitilgan qo'shiq. T., "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1986.
18. R.I.Kaganov. Geometricheskiy ornament Sredney Azii. V sb. Arxitekturnoe nasledstvo. M., "Gos izdatel'stvo literatur po stroitel'noy arxitekture", 1968
19. G.V.Moshkova. Kovrq narodov Sredney Azii. T., «Fan» 1970.
20. D.A.Faxriddinova. Dekorativno-prikladnoe iskusstvo Uzbekistana T., "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1972
21. D.A.Faxriddinova. Yuvelirnoe iskusstvo Uzbekistana. T., "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1988.
22. E.V.Shoroxov. Osnovq kompozitsii. M., «Prosveshenie», 1977.
23. Q.M.Abdullaeva va boshqalar. Gazlamaga badiiy ishlov berish.T., "CHo'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2006.
24. F.V.Gogel'. Kovrq.M., 1970.
25. S.M.Maxkamova. K istorii tkachestva v Sredney Azii T.,1983.
26. V.N.Manakova. Xudojestvennaya kul'tur narodnogo jilisha Uzbekistana. T., "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1990.
27. O.A.Suxaryova. Xodjekentskie suzani. Dushanbe, 1985.
28. Z.A shirokova. Dekorativnqe vqShivki tadjikov verxov'ev zirafshana. Dushanbe, «Donish», 1981.
29. A.A.Xakimov. Izobrazitel'no-ornamental'nq obrazq i motivq prikladnogo iskusstva (xudojestvennaYa kul'tura Sredney Azii IX-XII vv.) T.,

“G`ofur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti”, 1983.
30.E.I.Karpova. Al`bom po rukodeliyu. AST.Astrel`. Moskva, 2001.

1. OTM yoki O`MKXT raxbarining rasmiy xati.
2. OTM (yoki O`MKXT muassasining pedagogik yig`ilishi) ilmiy-uslubiy kengashi qarori.
3. Taqrizlar (ichki va tashqi)
4. O`quv adabiyoti qo`lyozmasiga talablar:
 - 1) Komp`yutorda, A4 formatli qog`ozda, 1,5 intervalda Panda Tumes UZ Lat 14 shriftida tayyorlanadi.
 - 2) Titul varag`i:
 - O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta Maxsus Ta`lim Vazirligi.
 - Mualliflarning F.I.SH to`liq ko`rsatiladi.
 - O`quv adabiyotining qaysi yo`nalish yoki mutaxassislikka mo`ljallanganligi (kodi va nomi).
 - 3) Qo`lyozmaning birinchi betida Annotatsiya (3 tilda: o`zbekcha, ruscha va ingliz tillarida) va taqrizchilarning F.I.Sh
 - 4) Qo`lyozmaning mundarijasi (3 tilda: o`zbekcha, ruscha va ingliz tillarida).
5. OO`MTV tomonidan tasdiqlangan o`quv rejasi nusxasi (qo`lyozmaning o`quv rejasidagi qaysi fanga taaluqligi va soati).
6. Namunaviy fan dasturi.
7. Qo`lyozmaning elektron versiyasi.
8. Muallif to`g`rlisida ma`lumot va pasport kopiyasi.

